TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

SO‘NMAYDIGAN SADOLAR

65

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

SO‘NMAYDIGAN SADOLAR

65

“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.162-3
KBK 84 (5Ozar)
S 99

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Tohir Qahhor, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Shahlo Qosimova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8733-2-2
©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

ULAR CHAQMOQ EDILAR...

Tili turkiy tillar oilasiga mansub ozarbayjon xalqi Kavkaz va Kavkaz ortida yashovchi xalqlar orasida qadimiy madaniyati, ko'p yillik tarixi, uzoq asrlar davomida olib borilgan ozodlik kurashlari jarayonida shakllangan va rivojlanib sayqal topgan boy adabiyoti bilan ajralib turadi. Adabiyot tarixi zarvaraqlarida nomlari mangu bitilgan, adabiyot osmonida yorug' nur sochib turgan ajdodlar bugungi kunda ham avlodlar yo'lini, qalbini o'z o'lmas asarlari ziyosi bilan yoritmoqda.

Nizomiy Ganjaviy, Nasimiy, Fuzuliy kabi mutafakkir shoirlar ijodining muattar nafasidan bahra olgan ozarbayjon adabiyotini, she'riyatini XX asrning porloq siymolari — Ahmad Javod, Sulaymon Rustam, Olmos Yildirim, Mikoyil Mushfiq, Rasul Rizo, Nabi Xazriy kabi zabardast shoirlar ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu ijodkorlarning Ozarbayjon adabiyotida o'zga xos ta'sir kuchi, chuqur izi bor. Mazkur to'plamda ularning qisqacha hayot yo'li, ijodiy merosi bilan tanishar ekanmiz, bu shoirlar yashab, ijod qilgan davrdagi siyosiy va tarixiy sharoit, madaniy va ma'naviy muhit haqida ham ma'lumotga ega bo'lamiz.

Ahmad Javod (Cavad Məhəmmədəli oğlu Axundzadə) 1892-yil 5-mayda Ganja viloyati Shamkir tumani Ashag'i (Quyi) Sayfali qishlog'ida ziyoli oilada tug'ilgan. XX asr adabiyotida otashin ozarbayjon shoiri, istiqlol kuychisi, adabiyotshunos, tarjimon, Ozarbayjon davlat madhiyasi muallifi Ahmad Javod ijodining o'ziga xos o'rni bor. Uning she'rlari vatanga muhabbat, millatga hurmat, turkiylikni, sevgini vasf etish barobarida o'zining isyonkorligi, erksevarligi, o'tkir satirasi bilan ham ajralib turadi. Afsuski, suronli 30-yillarning qatag'on to'foni millatning eng sara ziyolilari qatorida bu iste'dodli qalam sohibini ham olib ketdi. Bor-yo'g'i qirq besh yil umr ko'rganiga qaramay, u avlodlarga boy adabiy meros qoldirdi, jahonga mashhur adiblarning ijod namunalarini ozarbayjon tiliga yuksak mahorat bilan tarjima qildi. Shekspirning "Otello", "Romeo va Julyetta", A.S. Pushkinning "Mis chavandoz", Shota Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon", M. Gorkiyning "Bolalik" asarlari shular jumlasidandir. Ahmad Javod 1937-yil

4-iyunda hibsga olingan va shu yil 12-oktabrdan 13-oktabrga o'tar kechasi Bokuda vahshiylarcha otib tashlangan. Shoir nomi 1955-yilda o'limidan so'ng oqlangan. Ozarbayjon Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-maydagi 211-sonli qarori bilan uning asarlari Ozarbayjon Respublikasining davlat mulki deb e'lon qilingan mualliflar ro'yxatiga kiritildi. Ozarbayjon Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi huzuridagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat markazi tashabbusi va loyihasi bilan Ahmad Javod she'rlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, to'plam holida nashrga tayyorlandi (2022).

Sulaymon Rustam (Süleyman Rüstəm) 1906-yil 12-martda Bokuda kambag'al temirchi oilasida tug'ilgan. 1928-yili Ozarbayjon Davlat universitetining sharq fakultetiga kirgan, so'ngra 1929-yilda Moskva Davlat universitetining adabiyot va san'at fakultetiga o'tkazilgan.

Ozarbayjon Davlat akademik drama teatri direktori, "Adabiyot gazetasi" bosh muharriri, Ozarbayjon Oliy Kengashi raisi bo'lib ishlagan. 1989-yil 10-iyunda Bokuda vafot etgan. Faqirona turmush, og'ir sharoitda ulg'ayganiga qaramay, adabiyotga, she'riyatga katta qiziqish bilan qaradi, she'riyatida ishchi, dehqon mehnati, yer va zahmat qadrini yoritdi. 83 yil umr ko'rgan shoir hayotining 65 yilini qamrab olgan ijodi yuzlab she'rlar, dostonlar, dramatik asarlardan iborat. 1923-yildan to 1989-yilgacha xalq hayotida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy voqealardan tortib xalqning ma'naviy holatigacha barchasi bu she'riyatda o'z aksini topgan.

Olmos Yildirim (Almas İldırım, asl ismi Abdulhasan Olmoszoda) — muhojirotda ijod qilgan atoqli ozarbayjon shoiri, milliy she'riyat klassiklaridan biri. Peshonasiga sargardonlikning achchiq qismati bitilgan va nomini Husayn Jovid, Ja'far Jabborli, Mikoyil Mushfiq kabi mashhur ozarbayjon shoirlarining nomlari yonida hech ikkilanmay zikr etish mumkin bo'lgan iste'dodli shoir 1907-yil 24-martda Boku shahrida tug'ilgan.

Olmos Yildirim boshlang'ich ma'lumotni "Ittihod" ("Birlik") maktabida oladi, gimnaziyani tugatgandan so'ng, 1925-yilda u Ozarbayjon universiteti (hozirgi Boku davlat universiteti)ning Sharq adabiyoti bo'limiga imtihonlarni muvaffaqiyatli topshiradi, ammo sal o'tmay, haydaladi — unga kelib chiqishi pand beradi: so'rovnomada "tabaqa" deyilgan ustunda otasi savdogar ekanligi ko'rsatilgandi.

O‘sha davr voqeliklarini o‘z she’rlarida dadillik bilan yoritgan, hukumatning qora ro‘yxatiga tushgan Olmos Yildirim “motam elegiyalari” yozishda ayblandi, unga “musovotchilar maddohi”, hokimiyatga nomaqbul bo‘lgan Husayn Jovid va Ahmad Javodning izdoshi degan nomlar qo‘yiladi. U avval Dog‘istonga (1929), so‘ngra Turkmanistonga (1931) surgun qilinadi. Lekin o‘zining doimiy ta’qib ostida ekanligini bilgan shoir Eronga ketishdek qaltis ishga ahd qiladi (1933). Eronda u hibsga olinadi, bir oy qamoqda saqlanib, qiynoqqa solinadi — uni sovuq suvga ko‘kragiga qadar tushirib, soatlab ushlab turishadi, natijada shoir surunkali buyrak kasalligiga yo‘liqadi. Qamoqdan chiqqach, shoir Tehrondan Mashhadga ketadi, 1935-yilda esa Turkiyaga yo‘l oladi.

Bir umr vatanini qo‘msab yashagan shoir 1952-yil 14-yanvarda 45 yoshida Turkiyaning Elazig‘ shahrida buyrak xastaligidan vafot etgan.

Uning vatanga qaytish orzusi ushalmagan bo‘lsa-da, uning she’riyati vatanga qaytdi. Boku shahrida 1990-yilda shoirning o‘n sakkizta she’rini o‘z ichiga olgan “Musofirlikda yashagan Ozarbayjon farzandi Olmos Yildirim va uning she’rlari” kitobi nashr etildi. Keyinroq, 1994-yilda uning “Qora doston” kitobi — shoir ijodiy merosining eng to‘liq nashri dunyo yuzini ko‘rdi.

Mikoyil Mushfiq (Mikayıl Müşfiq, asl ismi Mikoyil Abdulqodir o‘g‘li Ismoilzoda) 1908-yil 5-iyunda Boku shahrida ziyoli oilasida dunyoga kelgan. Ota-onasidan juda erta ayrilgan Mikoyil sangtarosh amakisi va ammasi qaramog‘ida o‘sgan. U Boku muallimlar seminariyasida va Oliy pedagogika institutida (hozirgi Ozarbayjon davlat pedagogika universiteti) o‘qigan, maktabda adabiyotdan dars bergan. Maktab yillaridayoq Mikoyilda adabiyotga qiziqish uyg‘ongan. U 1926-yilda o‘zining “Bugun” nomli ilk she’rini yozgan. 1930–1935-yillarda Mushfiqning o‘n she’riy kitobi nashr etilgan. Mushfiq tarjimalar bilan ham shug‘ullangan.

Mikoyil Mushfiq juda qisqa umr ko‘rganiga qaramay, ozarbayjon she’riyatining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan shoirlardan biri, hayot, sevgi va go‘zallikni tarannum etuvchi ko‘plab jo‘shqin she’rlar muallifi sifatida nom qoldirdi.

4-iyun 1937-yilda uyida hibsga olingan Mushfiq shafqatsiz qiynoqlarga duchor qilingan va 1938-yil 6-yanvarda, 30 yoshida otib tashlangan.

Ozarbayjon Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-maydagi 211-sonli qarori bilan Mikoyil Mushfiqning nomi asarlari Ozarbayjon Respublikasining davlat mulki deb e'lon qilingan mualliflar ro'yxatiga kiritildi.

Rasul Rizo (Rasul Ibrohim o'g'li Rizayev — Rəsul Rza) — Ozarbayjon xalq shoiri. 1910-yil 6-mayda Ozarbayjonning Gyoychay tumanida tug'ilgan. 1927–1937-yillarda Kavkazorti universitetida, Moskva Millatlar institutida o'qigan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi raisi, Ozarbayjon Kinematografiya qo'mitasi raisi, Ozarbayjon Ensiklopediyasi bosh muharriri, "Xabar" agentligi raisi bo'lib ishlagan.

Shoirning ilk she'ri 1927-yilda "Uchqun" to'plamida chop etilgan. "Derazamga tushgan yog'du", "Tuyg'ular, tushunchalar", "To'zim", "Janublar, shimollar", "Qizil gul bo'lmasa edi", "Kecha, bugun, ertaga", "Ranglar" kabi o'nlab she'riy kitob va dostonlari nashr qilingan. Bulardan tashqari, u bolalar uchun ham asarlar, ilmiy-tanqidiy, publitsistik maqolalar yozgan, chet tillardan ozarbayjon tiliga o'nlab badiiy durdonalarni tarjima qilgan. Asarlari ko'pgina xorijiy tillarga, jumladan, o'zbek tiliga tarjima etilib, chop qilingan. 1981-yil 1-aprelda Bokuda yurak xastaligidan vafot etgan.

Nabi Xazriy (Nəbi Xəzri; haqiqiy ismi — Nabi Alekper o'g'li Boboyev, 1924, Boku — 2007, Boku) — ozarbayjon shoiri, nosir, dramaturg, publitsist, tarjimon. Ozarbayjon xalq shoiri (1984). SSSR davlat mukofoti laureati (1973), Xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1979).

Ozarbayjon radio qo'mitasida diktor, "Vatan yo'lida", "Adabiyot va inja san'at" gazetalarida adabiy xodim, Yozuvchilar uyushmasi kotibi, Ozarbayjon Davlat teleradioqo'mitasi raisi, Madaniyat vaziri o'rinbosari, Chet mamlakatlar bilan do'stlik jamiyatining raisi, "Ozarbayjon dunyosi" baynalmilal aloqalar markazining prezidenti bo'lib ishlagan.

"Yillar va sohillar", "Yulduz karvoni", "Nasllar-asrlar", "Oq chaqmoqlar", "Yer, sen-la ont ichaman", "Umr chinoridan yaproqlar", "Asrning qonli lolasi" va boshqa kitoblar muallifidir. Asarlari ko'pgina xorijiy tillarga, jumladan, o'zbek tiliga tarjima etilib, chop qilingan.

Bu adiblar qoldirgan adabiy meros namunalarining tarjimasi bir kitobda jam etilib, o'quvchilar e'tiboriga havola qilinishi ular ijodiga ehtirom, ruhlariga ta'zimdir.

Shahlo Qosimova,

Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi faxriy a'zosi

AHMAD JAVOD



OZARBAYJON MARSHI

Ozarbayjon madhiyasi

Ozarbayjon! Ozarbayjon!
Ey, qahramon avlodlar shonli Vatani!
Sening uchun jon bermakka jumlamiz hozir!
Sening uchun qon to'kmakka jumlamiz qodir!
Uch rangli bayrog'ing-la mas'ud yasha!
Minglab jonlar qurbon bo'ldi,
Bag'ring jangga maydon bo'ldi!
Erkidan voz kechgan askar,
Har biri qahramon bo'ldi!
Bo'lasan sen guliston,
Senga har on jon qurbon!
Senga cheksiz muhabbat,
Ko'ksimni etdi makon!
Or-nomusing hifz etmoqqa,
Bayrog'ing baland tutmoqqa,
Farzandlaring mushtoqdir!
Shonli Vatan! Shonli Vatan!
Ozarbayjon! Ozarbayjon!

TO'LG'ANARDI QORA DENGIZ

To'lg'anardi Qora dengiz
Boqib Turkning bayrog'iga!
"Oh urardim, o'lmas edim,
Boshim ursam gar poyingga.

Ayro tushgan do'st el dardi,
Yillar bo'yi dil o'rtadi!..

Vafodor, albat, qaytadi,
Hasanot Turk bayrog'iga!

Injular soch, kel yo'liga,
Poyandoz sol o'ng-so'liga!
To'fonlar tursin, mayliga!
Assalom, Turk bayrog'iga!

"Hamidiya" bu Turk qoni!
Hech birining bitmas shoni!
"Kazbek" bo'lsin ilk qurboni!
Tasanno Turk bayrog'iga!

Do'st yurtlardan esgan yellar,
Menga ash'or, salom yo'llar,
Bo'lsin turon barcha ellar,
Jon fido Turk bayrog'iga!
Hasanot Turk bayrog'iga!!!

KO'RGANLARIM

Hamrohimdir hazin nag'ma,
Bir qush bo'ldim, chiqdim yo'la.
Borib ko'rdimki, do'st elda
Na bir sas bor, na bir alla.

So'rdim g'arib minoradan:
"Shom bo'ldi-ku, azon qani?
Minbarlarga qo'nmish boyqush,
Some qani, va'zxon qani?"

Vijdon menga amr etdiki:
"Bunday kunda bayram etma".
Qur'on menga yo'l ko'rsatar:
"Faqirlar dilin og'ritma".

OZARBAYJONDA ABADIY QOLGAN USMONLI SHAHIDLARIGA

Tur, tur chirmovuqli mozor ostidan,
Kelur ziyoratga qizlar, kelinlar.
Ey, karvon qatori, yo'llar ustida,
Duch kelgan yo'lchidan yo'l so'rgan askar.

Yo'q endi sen quvgan begona xonlar,
Quridi o'lkamda to'kilgan qonlar.
Boq, qanday o'pmoqda changlar, to'zonlar,
G'arib mozoringni men-la barobar.

Sening qoningdanmi shunday avj ila,
Qirlarni chulg'adi behisob lola?!
Do'st eldan yangradi bir o'tli nola,
Yoki ul nolaning ruhimi so'ylar?!

Gar o'tsa samodan bir gala turna,
Yosh oqizib qolgan ko'zlarni so'rma!
O'ngidan kelmoqda tushlaring, qara,
Ro'yobga chiqmoqda ezgu niyatlar.

Choriqli qardoshing, soddadil dehqon,
Keldi mozoringga, o't o'rdi shu on.
Yurting qizlarining ko'zi nigoron,
Har kun ular ohin samolar tinglar.

GANJAM

Bu yer Shohsevandir, bu yer Bag'mandir,
Bu yer Sardor bog'i, bu yer O'zandir!
Ko'rganlar ko'rkingga tamom hayrondir!
Bezansin yo'llaring, Ganjam, Ganjam-ey!

Nizomiy kelarmi yana jahona?!
U sening o'g'lingdir, sen unga ona!

Necha jahongir-u necha arslona,
Pand berdi qo'llaring, Ganjam, Ganjam-ey!

Sen Dada Yodyorning yodigorisan!
Siniq ko'ngillarning poyidorisan!
Yog'iyga g'animsan, do'stning yorisan!
Doston xulq-fe'llaring Ganjam, Ganjam-ey!

Ziyodxon uylari saf-saf turadir,
Har chinor qo'ynida bir sarkardadir!
Sozingda, so'zingda parda-pardadir,
Suronli yillaring, Ganjam, Ganjam-ey!

Senga hamla qilgan kelmas o'ziga!
Goh boshiga mushtlar, gohi tiziga!
O'q kabi otilib xoin ko'ziga,
Sanchilar millaring, Ganjam, Ganjam-ey!

Bormi suyanchig'im, bir e'timodim?!
Senga, yolg'iz senga umid bog'ladim!
Bu Javod qal'asi dinim, imonim,
Ochilsin gullaring, Ganjam, Ganjam-ey!

Boshing uzra Yulduz hamda Oying bor!
Har kuni bir tarix yiling, oying bor!
Bag'ring erkalagan Ganjasoying bor!
Hayqirur sellaring, Ganjam, Ganjam-ey!

Rohib qon yig'latdi Zahro onani!
So'litdi, sarg'aytdi ul Notavonni!
Asling qayga ketdi, Karaming qani?
So'zlasin tillaring, Ganjam, Ganjam-ey!

Dushmanim, inshoolloh, doim xor bo'lar!
Keng olam hamisha unga tor bo'lar!
To sen bor ekansan, Vatan bor bo'lar!
Bor bo'lsin ellaring, Ganjam, Ganjam-ey!

BISMILLAH

Otildi tog‘lardan zafar to‘plari,
Olg‘a qadam bosdi askar, bismillah!
Ul Xon saroyida gulg‘uncha bir qiz,
Kutmoqdadir bizni zafar, bismillah!

Ey, urush toleyi, bizga yo‘l ber, yo‘l,
Ey, sen jo‘shqin dengiz, kel, turkka rom bo‘l,
Ey, sen o‘ng-u so‘lga qilich urgan qo‘l,
Tomiringga quvvat kelar, bismillah.

Ey Boku, qo‘rqmagil, biz kelgan zamon,
Seni deya olg‘a otildik shu on,
Onalarga bo‘lsin tasalli, darmon,
Shahidlarning ruhi kular, bismillah!

Ey dushman, taqdiring yozmishi qora,
O‘ldirmas bizlarni sen qilgan yara,
O‘sha men yuborgan qo‘rg‘oshin sovg‘a
Chirkin peshonangni o‘par, bismillah!

Sen mard bo‘lib tursang qarshimda agar,
Cheksiz o‘q yomg‘irli navbating kelar.
Men sog‘aygan tuproq qoningni ichar,
Yurtim bo‘lmas senga sipar, bismillah!

Yurtimizda bizga dag‘dag‘a qilgan,
Murdor o‘laksasi badbo‘y anqigan,
Takbir saslarini uzoqdan tuygan,
Dushmanimiz shafqat istar, bismillah!

JIM TURMASMAN!

Men bir qulman, yuk ostida ezilmisham, qardoshim,
Sevinch bilmas bir vujudman, oh-u zordir sirdoshim.

Tamg‘alab, zanjirband etib, tashladilar zindonga,
Qor-ayozli jahannamlar bo‘ldi makon bu jonga.

Menga jim, indama, dersan, qachongacha jim turay,
Bo‘hronlar-u ayriliqlar iskanjasida titray?
Axir, nechun men jim turay, inson degan nomim bor,
Mening ona vatanim-ku talonda qolgan diyor!

Axir, nechun men jim turay, turk yurtidir bu tuproq,
O‘g‘uzlar-u ilxonlarning vatanida kimlar, boq!
Bu dunyoda ozodlikni shon-shuhratdan ustun tut,
Olchoqlikni, yaltoqlikni, razillikni sen unut!

Axir, nechun men jim turay, ayt, qilaymi xiyonat?
Qani sevgi, qani vatan, qaylarda qoldi millat?
Men bir qulman, yerim oltin, suvim kumush, o‘zim och,
Otam mahkum, onam gado, qo‘lim har nega muhtoj.

Bilki, men turk farzandiman, teran aqlim, zakom bor,
Tokaygacha yelkamizda o‘ltirar g‘anim-ag‘yor?
Tokayki bor hokim, mahkum, tokayki bor nafasim,
Ezilsam-da, zulmga qarshi yangrar isyonkor sasim!

OL BAYROQQA

Gul rangida alvon bargning,
O‘rtasida bir hilol!
Ey, ol bayroq, sening ranging,
So‘yla, nechun bunday ol?!

Hokim bo‘lib bir zaminga,
Unga etmak buncha noz,
Sendan boshqa nozaninga,
So‘yla, nechun yarashmas?

Bu o‘xshatish qaydan, dilbar,
Shahidlarning qoniga?!
Nechun sen deb jon berganlar
Achinmaslar joniga?!

Yo‘lda dardli momo seni
Ko‘rib, shu on yig‘lamas?!
Sen shundayin bir she’rsanki,
Sevmaganlar anglamas!

O, sevikli bayrog‘imning
Viqorli hilpirashi!
Dedim, bulutlar karvoni,
Senga samo olqishi!

Ey hilol, alvon bag‘ringga
Olding ko‘kdan yulduzni!
Maftun etding sen o‘zingga,
Eng shaydoyi bir qizni!..

YIG‘LAR EDIM, KULURMAN

Birodarlar, to‘rt tarafga boqqanda,
Yig‘lar edim, yig‘lar edi irmoqlar!
Yurt farzandin ko‘z yoshlari oqqanda,
Yig‘lar edim, yig‘lar edi tuproqlar!

Bir qo‘l mening tomog‘imdan bo‘g‘ardi,
Yayrab kulib, so‘zlashmoqqa qo‘ymayin.
Alamdan ko‘z yoshim seldek oqardi,
Asl do‘stlar diydoriga to‘ymayin.

Ulusimiz mo‘ysafidin ro‘zasin,
Ko‘z o‘ngimda iflos qo‘llar buzganda,
Hazor-hazor yosh yuvardi yuzimni,
Yig‘lar edim, ma’yuslarni ko‘rganda.

Oz edi men kabi kuygan yo‘ldoshim,
Benomuslar bizni tentak deyardi.
Qochar edi mendan barcha tanishim,
Chetdan qarab qiqir-qiqir kulardi.

Endi esa o‘zgardi har ne, zamon,
Kecha bizga boqib tentak deganlar,
Ko‘rdilarki, o‘zgachadir davr-davron,
Men kulurman, kulur bizga kulganlar!

Ey, yurt o‘g‘li, yig‘laganlar o‘tganda,
Intilardi seni bir kuldirishga!
Sariq yuzli daydilarni ko‘r sen ham,
Qo‘yma yana chirog‘ing so‘ndirishga!

Parvardigor bugun asradi seni,
Yurtingni qaytarib berdi o‘zingga!
Daydilarning barin etding bartaraf,
Ogoh bo‘l, hech chalinmasin ko‘zingga!

Ko‘rsatmasang mardliging bundan buyon,
Besh kun o‘tmay yurt-o‘chog‘ing talanar!
Qardosh kabi bo‘lmasang bir tan, bir jon,
Yana kelar tuprog‘ingga g‘animlar!

MEN KIMMAN?

So‘raganlar bilsin, bu yurtda,
Kimman ne-ne odamlar aro:
Men — tilkalangan bir o‘lkada,
Haqiqatni hayqirgan sado.

Shoirligim rost, ammo boshqa
Tilim, tilagim tamoman.
Bu vayronani ko‘rib turib,
Qanday qilib madh etaman?

Chertdimikin yozganlarim, ayt,
Yuragingning nozik torini?
Ko'rgil, qandayin nohaq siquv,
Ezar yo'qsillar diyorini?..

Ne demakdir ham muhabbatli,
Ham alamli bu jarayon?
Yor hasratinda qaddi egik,
Ey, binafsham, etgil bayon.

Ko'zim qiymas yorni qarshilab,
Silkigan oq dastro'molim,
Evoh, falak, gar yig'lar bo'lsam,
Shashqator yoshimni artgay kim?

OZARBAYJON BAYROG'IGA

Turkiston yellari o'pib peshonang,
So'ylaydi qayg'usin senga, bayrog'im!
Uch rangin aksini asov dengizdan,
Armug'on aylasin senga, bayrog'im!

Keturdim Turona, chiqding qoshima,
Soyang, davlat qushi qo'ndi boshima,
Izn bergil ko'zimdan oqqan yoshima,
Anduhin tinglatsin senga, bayrog'im!

Qayixon naslidan olganing rangni,
Quchdi musulmon-u Ilxon beklari.
Ilxon zurriyoti — dinning tiragi,
Keltirding ko'nglimga safo, bayrog'im!

Ko'ksimda to'fon-la men olg'a yeldim,
Ko'lgang tushgan yerni o'pay deb keldim,
Samolar xurshidi — yulduzga, bildim,
Bag'ringdagi oying ma'vo, bayrog'im!

OZARBAYJON VATAN QO'SHIG'I

Turk ellarin yuragidir Ozarbayjon tuprog'i,
Uni shunday asragilki, xuddi u ko'z qarog'ing.
Tarixga boq, unutma sen otang, bobong zahmatin,
Xo'p qon to'kdi vatan deya, ado etdi xizmatin.
Vatan uchun, millat uchun yoshlar ketdi askarga,
Ko'ngilli ket, sen ham yozil ul muborak safarga.

Poyezdga chiq, otingni min, miltiqni ol qo'lingga,
Bobolardan meros qolgan qilichni taq belingga.
Bir kelgindi qadam qo'ymoq istar esa elingga,
Bahri-Xazar qaynab toshar, tob keltirmas selingga,
Vatan uchun, millat uchun yoshlar ketdi askarga,
Ko'ngilli ket, sen ham yozil ul muborak safarga.

Bu hudud Iskandar saddi, bilsang, qorli Dog'iston,
Har toshin ostida uxlar yuzlarcha yigit-arslon,
Bu hudud Sheri Xurshidi — qadim tarixli Eron,
Bu hududning jannat bog'i, ul g'unchali Gurjiston.
Vatan uchun, millat uchun yoshlar ketdi askarga,
Ko'ngilli ket, sen ham yozil ul muborak safarga.

Hisor falak Ganja tog'i Ko'ro'g'lining yotog'i,
Qoyasiga solmish tarlon kabi uya-o'chog'in,
Sharur, O'rdubod, Naxchivon — Ozarbayjon butog'i,
Qo'yma, kirmasin tabarruk yerga dushman oyog'i.
Vatan uchun, millat uchun yoshlar ketdi askarga,
Ko'ngilli ket, sen ham yozil ul muborak safarga.

Buyuk Alloh bergan bizga bu yerlarni omonat,
Vazifamiz qo'riqlashdir, saqlamoqdir salomat.
Intilaman, yurtimizga ko'rsatay deb sadoqat,
Har mushkulni oson etar ishtiyoq va matonat.
Vatan uchun, millat uchun yoshlar ketdi askarga,
Shahid ketsang, isming tushar tarix nomli daftarga.

OZARBAYJON

Tog‘laring boshida qor,
Bag‘ring yashil o‘rmonzor,
Darang to‘la meva bor,
Ozarbayjon! Ozarbayjon!

Sahrolaring sunbullidir,
Yil bo‘yi chechak-gullidir,
Bog‘-u dalang bulbullidir,
Ozarbayjon! Ozarbayjon!

Turna ko‘zli buloqlaring,
Jannatdayin o‘tloqlaring,
Keng, xushhavo qishloqlaring,
Ozarbayjon! Ozarbayjon!

O‘rmoningda bug‘u kezar,
Qirlaringda jayron yelar,
Ko‘llaringda g‘ozlar suzar,
Ozarbayjon! Ozarbayjon!

Uyuringda ayg‘ir kishnar,
Podangda buqa pishqirar,
Suruvingda qo‘zing ma’rar,
Ozarbayjon! Ozarbayjon!

Qoyalaring alvon marmar,
Belida bor oltin kamar,
Bir yoningda Bahri Xazar,
Ozarbayjon! Ozarbayjon!

Qa’ring o‘ti shu’la solur,
Dunyo sendan nurin olur,
Borliq sensiz zulmat bo‘lur,
Ozarbayjon! Ozarbayjon!

Ipag-u jun, paxtang serob,
Bug‘doy, guruch, arpang serob,
Har ne mo‘l-ko‘l, nedir kamyob?
Ozarbayjon! Ozarbayjon!

Jahonda tengsiz bir chiroy,
Hayqirar necha daryo, soy,
Alloh nazari tushgan joy,
Ozarbayjon! Ozarbayjon!

Lochining bor, tarloning bor,
Hikmatga kon dostoning bor,
Qo‘rqitolmas seni ag‘yor,
Ozarbayjon! Ozarbayjon!

OZARBAYJONGA

O‘rtanar yuragim, tugar bardoshim,
Bunchalar qiynading oqizib yoshim!
Ey go‘zal Vatanim, ey tog‘im, toshim,
Bir sozim bo‘lsaydi, kuylardim senga!

Azob yo‘q, to‘ymayin ayrilsa yordan,
Ingradim har karvon o‘tsa ozordan!
Ovozing tuysaydim bir kuyuk tordan,
Bilmassan nelarni so‘ylardim senga!

Olis ummonlardan bir qo‘shin sasi,
Aytarki, dilingning yo‘qmi kechasi?
Sensiz kelmas, axir, ilhom nafasi,
Kelsaydi, shoirlik aylardim senga!

To‘smishdi yo‘limni o‘tilmas tog‘lar,
Yig‘lasam, o‘rmonlar men-la dil dog‘lar!
Shashqator yosh aro ko‘rinar bog‘lar,
Ahd ila salomim yubordim senga!

ONA

Shu burushgan qo'llaringda ko'kdan engan quvvat bor,
Qay vaqt xasta ko'nglim ingrar, yig'lar esa bemador,
Girdibodli osmonimni yashinlar yiqay desa,
Qachonki, yot yurtdan to'ygan g'arib ruhim qaqshasa,
Jonga oro kirasan shu on nabiylik qudrati-la!
Bir onalik yuragi-la...
Bu ne, Alloh haqqi aytgil,
Donishmandlar silohin kimdan olding, anglatgil?..
Menga ongdan ham avvalroq berilgan ul halol sut,
Vijdonimga sen singdirgan ul samimiy, sof o'git,
Muqaddasdir, bular bari hech qachon bo'lmas unut!
Goho hayotim tog'larin burkasa tuman, to'zon,
Shunda sening titroq allang yo'lim aylar charog'on!
Seni mamnun etgan kunim, ko'nglim mendan shod bo'lur,
Amin bo'ldim, jannat sening oyog'ing ostidadur!

BILAR

Ne yozay, ayriliq nima, bilmassan,
Nelar chekkanimni chekkanlar bilar.
So'zim yo'q, dardimga mezon so'z bormi,
Sensiz ko'z yoshlarin to'kkanlar bilar!

Sensiz nedir Quyosh, ne qorong'ulik?
Nedir gunohimiz, nega ayrildik?
Olam yasharmi hech bitsa yorug'lik?
Ko'zlariga zulmat cho'kkanlar bilar!

Balki, eslamading bir dam otimni?
Bilmam, xotirangda o'rnim qoldimi?
Men bir chechak qushi — buzmam ontimni,
Gullar bilmasa-da, tikanlar bilar!

MIRZA ABDULLA (SUR) MAMADZODA

Ey qardoshlar! Bir zamonlar bilimsizlik tumani,
Jaholatning ko'r panjasi qoplagandi har yonni.
Ul zaharli havolardan gul yonoqlar so'lmishdi,
U kun xoinlar dastidan Vatan xarob bo'lmishdi!

Osmon bizga nurin emas, yildirimlar sochardi,
Quyosh, yomg'ir, suvlar bizdan uzoqlarga qochardi.
Alloh shunday qabul etmas bo'ldi bizning qurbonni,
U kun bizni bo'g'ar edi beboshliklar to'foni.

Qur'on nedir? Anglamasdik.
Vatan nedir? Bilmasdik.
Qarshimizda yetimlarning ko'z yoshini artmasdik.
Xo'p ayanchli bir hol edi, o'zimiz ham ko'rardik,
Tilimizning, dinimizning ketishiga kulardik.

Buni ko'rib Vatanimning halol sut emgan mardi,
Bir to'p bo'lib u kun bizning qora kunni angladi.
Yig'ladilar, ingradilar, yolvordilar Allohga,
Yaratganning rahmi keldi ko'ngli siniq avlodga.

Tog'larimiz u kun shabnam, tabassumdan yorishdi,
Ishbilarmon bir necha qo'l zulmat bilan olishdi!
Ey qardoshlar! Yurtimizga Quyosh yana kulmishdi,
Birozgina bo'lsa hamki, do'stlar, degan bo'lmishdi!..

Ammo kecha boshimizga soya solmishdi bulut,
Qarshimizda...
haqqing bo'lsa, ey yuragi tosh, unut!..
Yo'q, yo'q...

Sizning mozoringiz qalbimizning eng teran
Joyida saqlanmoqda, pok ruhingiz shod bo'lsin!
Olam ostin-ustin bo'lsa ham, sizni aslo unutmam,
Ey, qardoshlar! Omin denglar, Alloh buni afv etsin!

ARAZCHILARGA

Qo‘y, ne desa desin duch kelgan shoqol,
Birgalikda yashab, oqardi soqol,
Qand-qurs istamayman, emasman baqqol,
Shakarim ham o‘zing, bolim ham o‘zing!

Boshim ham toliqdi, bezdim yurmoqdan,
Bezmisham, vallohi, ko‘ngil olmoqdan.
Aftidan, inson yuz o‘girdi Haqdan,
Arazchi onamiz, arazchi arvod[1],
Arazchi qarindosh, arazchi avlod.

“Jon” dedim, umrimda eshitmadim “jon”,
Bechora qalbimni yuldi hayajon,
Bas qiling, ko‘nglimga nashtarlar sanchqon,
Har arazchi jigar, har arazchi yot,
Arazchi qarindosh, arazchi avlod!

Falak po‘lat kabi qalbni yengarmish,
Odamzod iqboli yomon do‘narmish,
Endi anglab yetdim, o‘choq so‘narmish,
Ey, arazchi ahli, arazchi avlod!

LAYLO

Deydilar, Qorabog‘ bir jannat ekan,
Bag‘rida yayratar go‘zallarini.
Menda ul qudrat yo‘q, qalam tebratib,
Ta’rif aylamoqqa faqat birini.
Ul chimiriq qoshlar soyasidagi,
Jon olgan ko‘zlardan o‘zim aylanay!
Zamona Laylosin xush sasidagi,
Ma’noli so‘zlardan o‘zim aylanay!

[1] **Arvod** — ayol, xotin, rafiqa.

Qurbon etsin, mayli, to‘ksin qonimni,
Ne ham bor shoirda, bergum jonimni!
G‘amzasi qon qilar, yurishi ado,
Chindan ham go‘zaldir, suluvdir Laylo!
Yonida shu ko‘yga tushar har shoir,
Yangi yo‘llar, yangi amallar izlar.
Tabiatdan yolg‘iz istagim bordir —
Ko‘paysin yurtimda bunday go‘zallar!
Dilim orom oldi sitoyishidan,
Ko‘ngillar sultoni, ellar go‘zali!
Qo‘rqaman falakning bitta ishidan,
Iloj top, o‘zgartir, qalam, azalni!
So‘ylaki, chechaklar so‘lmasin, Laylo!
Mening qo‘rquvim rost bo‘lmasin, Laylo!
Charx ursin boshingda yulduzlar, oylar,
Bu ko‘hna dunyoning Laylosi ham bor!
Go‘zallar bo‘lsinlar singil-egachi,
Laylomiz ham ular boshining toji!

QOLDI

Men bu olam quchog‘ida,
Vatan atalmish bog‘ida,
Yondim firoq o‘chog‘ida,
Cho‘g‘im so‘ndi, kulim qoldi.

Ko‘zlarimni ochgan kundan,
Yiroq bo‘ldim to‘y-tugundan,
Nelar kutdim men bu kundan,
Necha oyim, yilim qoldi.

Chirqillagan bir qush bo‘ldim,
Yuraklarga qo‘nmish bo‘ldim,
Muhabbat-la o‘tmish bo‘ldim,
Shirir-shirin tilim qoldi.

Shunday ekan zamon demak?
O‘ylamoq ne, ne g‘am yemak?
Birovlar haqda qayg‘urmak,
O‘zim ketdim, elim qoldi!

EY, TONG YULDUZI

Buncha cho‘zilmasa bu zimiston tun,
Yetgil imdodima, ey, tong yulduzi!
Loaqal sen kelgil, uyqu kelmadi,
Yetgil faryodima, ey, tong yulduzi!

Quturgan uyurma, past-baland yo‘llar,
Har qadamda zulmat, xatar, jarliklar,
Kelaqol, umrimning karvoni yig‘lar,
Rahm et, yet dodima, ey, tong yulduzi!

Bu so‘niq yulduzlar meni aldaydir,
Suzuk nigohing-la, kel, buni bildir,
Ko‘zlarim yo‘lingda, yuzim Haqdadir,
Rahm etgil, yo‘q dema, ey, tong yulduzi!

SHE’RIM

She’rim bir turk sozidir, yig‘latib torlarini,
Shoshmay kezay, der ko‘nglim, Turon diyorlarini!
Men Turon yo‘lchisiman, qo‘limda so‘niq mayoq,
Rahm et, she’rim, himmat ayla,
rahm et, ta’bim, qanot qoq!

Dil g‘uborin sochib boqing, boshida ne yozuv bor?
Avval Alloh nomi zikr, so‘ngra turkiycha ash’or!
Turon shunday muqaddas bir Ka’baki, har toshin
Soyasiga sajda etur turkning egilmas boshi.

OQSHOMLAR

Agar o‘lkangizda bo‘lsa bir g‘arib,
Boqing nigohida nelar oqshomlar!
G‘ariblar holini vatandan esgan,
Tangri shamollari so‘rar oqshomlar!

Qayiq quchog‘ida, dengiz yuzida,
To‘lqinlar nag‘masi emas ko‘zida,
Ajib sinoat bor uning so‘zida,
Ko‘ngil bir latiflik sezar oqshomlar!

G‘arib hech kimsaga ochmas dardlarin,
Dardin tinglar og‘riq qalblarning barin.
Goh tinglar yellardan vatan xabarin,
Gohida so‘z demay o‘ylar oqshomlar!

Bir so‘z yo‘llamabmi, balki, yor eli,
Nechun tushunarsiz, oh, qushlar tili?!
Naq bo‘g‘ayin deydi ko‘z yoshlar seli,
Diydalari to‘lib-toshar oqshomlar!

Oqshom unga kadar, o‘ylar keltirar,
Pok, nozik ko‘nglini ayang, darz ketar!
Yo‘llar hamdard maktub kelgunga qadar,
Shu sabab yo‘llarga boqar oqshomlar!

Ajab, yo‘qmi uning uyi, ro‘zg‘ori,
Atrofi gul, boqmas, yo‘qdir madori.
Demang uni zinhor jirkanch bezori,
Nechun hech sezmaysiz, yonar oqshomlar?!

Ey, ul kuyuk qalbning yurti, vatani,
Bormi sizda uning holin so‘rgani?
Ajab, sog‘mi ular, bormi kutgani?
Bo‘lsa ayting, qalam yozar oqshomlar!

XULUGDA

Bunchalar qahraton, yoqimsiz maskan,
Burkandim po'stinga ayoz dastidan,
Kelmasdi bo'lmasa po'stin, aftidan,
Shu beomon qishning yozi Xulugda.

Bir maktab berdilar, ayni muzxona,
Oyog'im zirqirab, dard bo'ldi jona,
Tunlari soldilar kir-chir yo'rg'ona[1],
Dedilar, bo'l shunga rozi Xulugda.

O'n ben kun istadim bir qalin paypoq,
Bir musulmon javob bermadi biroq,
Men qanday so'ylayin, kim qilsin sanoq?
Topilmas bir odil qozi Xulugda.

Kecha qor, kunduz qor, oqshom, tongda qor,
Demaslarki, bunda bir muallim bor...
Jufti borlar eshik tambalab, bisyor,
Avjidadir suhbat-sozi Xulugda.

Yig'ildi barchasi — oqsoqol, hampa[2],
Bo'ynimga yuklandi har ne va lampa,
Dedilar, lampa bor, shisha yo'q habba,
Yondiraymi havo gazni Xulugda?!

Faqat "bosh ustiga", "xo'p" bilganlari,
Shuning-chun ishlari yurmas ilgari,
Qo'rqaman, bir essa shimol yellari,
Chiqar muallimin rasvosi Xulugda!

Ko'rpa-to'shagim kir, jirkanar jonim,
Qishda yolg'iz uxlab, isinmas qonim,
Ishlarim o'ng kelib, yetib fig'onim,
Bersa Haq bir sarvinozni Xulugda!

[1] **Yo'rg'ona** — ko'rpa-to'shak.

[2] **Hampa** — badavlat odam.

QACHONLARDIR BECHORA KO'NGLIM

Esiz, qachonlardir bechora ko'nglim,
Sen taratgan nur ila edi tirik,
Sendan yodgor bo'ldi ruhdagi o'lim,
Jo'shmoq istasa-da, jo'shmasdi sho'rlik.

So'ndirding qorong'u yo'lda chirog'im,
Shunday ishondingki, yonmas hech qachon.
Endi bir nozanin istar so'rog'im,
Faqat o'tgan yo'llar yurakda pushmon!..

Ortiq bir go'zalga yolvormam deya,
Sen ketgach alamdan ichgandim qasam,
Kunlar o'tdi, bitdi azalgi yara,
Boq, undan qolmadi zarra nishon ham!

Avvalgi devona emasman, bilsang,
O'tinib, tizingga to'ksam ko'z yoshim.
Ne hojat bu keskin so'zlarga, desang,
Boshqa bir mehrobga egurman boshim!

Sochlaringni menga yoqqandek tara,
Qirov tushgan chog'da ne ma'no, maqsad?!
Ko'zguni olibon, urgil devora!
Keyin-chi, yuzingni zulmatga ko'rsat!

YIG'LAMA

Men deganmas, falak degani bo'lsa,
Esib yellar, guldek yonog'ing so'lsa,
Alamlardan shahlo ko'zlaring to'lsa,
Sen yig'lama, men yig'layin, go'zalim!

Kezsam ko'yingda ovora-sargardon,
Jingalak zulfing men o'pmay bearmon,

Shabbodalar o‘ynab, etsa parishon,
Sen yig‘lama, men yig‘layin, go‘zalim!

Har oshiq-u shaydoga so‘ylab ertak,
Ishq istagan qalbing so‘ndimi, demak?
Izlamasa ko‘ngling ortiq bir ermak,
Sen yig‘lama, men yig‘layin, go‘zalim!

Kecha-kunduz poyingda bir qul edim,
Bir bor tabassumga ham arzimadim,
Qo‘lingdagi izlarga boqib degum,
Sen yig‘lama, men yig‘layin, go‘zalim!

Boqar edim sendan qolgan yaraga,
Birdan zolim falak kirdi oraga,
Boq, xasta qalbim-la yetdim qaylarga,
Sen yig‘lama, men yig‘layin, go‘zalim!

SHUKRIYA XONIMGA

Ey do‘stlar, bir uchqur tarlonim uchdi,
Yo‘llarda yo‘lchim bor, ko‘zim yo‘ldadir.
O‘n besh kun ayriliq o‘n besh yil xuddi,
Bo‘ldim xo‘p intizor, ko‘zim yo‘ldadir.

Qayda suyanchig‘im, qo‘lim-qanotim,
Hurmatim, izzatim, shuhratim, otim,
Qardoshdek tayanchim, baxtim, hayotim?
Aytingiz, turnalar, ko‘zim yo‘ldadir!

O‘n kun deb ketgandi, chiqdi o‘n beshga,
Nechun qo‘ydi meni bunday tashvishga?
Degandim, ogoh bo‘l, ko‘ngil bir shisha,
Kechiksang, u sinar, ko‘zim yo‘ldadir.

Yo‘lingga bor-yo‘g‘im poyandoz bo‘lsin,
Qalbimga sanchmagil hijron nayzasin,
Yostig‘ingdan topdim sochlaring isin,
Islari muattar, ko‘zim yo‘ldadir.

Ey vafosiz, sening yuraging toshdan,
Nechun aytmaganding, gulim, bir boshdan:
“Seni oz sevarman qavm-qarindoshdan”,
Qondoshli baxtiyor, ko‘zim yo‘ldadir!

NECHUN?

Nechun, nega bu ziddiyat, bu nizo?..
Nechun, nega ters yaralmish bu dunyo?..
Nima uchun otur tong, oqshom bo‘lur,
Ochilgan gul bunchalar ham tez so‘lur?

Bu ingragan qahqahalar nedandir?
Nechun, axir, so‘nggi ziynat kafandir?
Qaydan yaralmish bu zamin, bu osmon?
Kim ayladi meni bunday sargardon?

Nechun vijdonlidan yaramaslar ko‘p?
Nechun axtargandan topganlar kam xo‘p?
Ne sababdan nayi chalur navolar?
Balki, bitmish toleyiga jafolar?

Ey, beshikda chirqiragan bechora!
Turaqolgin, omading chopsa zora!
Nechun bunday mahv eturlar dunyoni,
Kim sindirgay u besamar yarog‘ni?

Bu har zamon bo‘lajakdir, shundaymi?
Gul yonoqlar so‘lajakdir, shundaymi?
Donishmandlar falsafasi, hikmati,
Olamga teng ilmi irfon lug‘ati,

Ulamolar bitgan qaydlar ma'nosi,
Zohidlarning haq yo'lida ixlosi,
Rohiblarning dindorona adosi,
So'fiylarning shinni, mayi, sadosi,
Bular bari kimlar uchun, ajabo?
Bu muammo, o'sha eski muammo!

Bari deydi, menga ishon, so'zim haq,
Qorishibdi bir-biriga haq-nohaq!
Deydilarki, yerda din bor, kitob bor,
Har bandadan so'ralajak hisob bor.

Men dedimki, kim so'raydi, u qayda?
Dedilarki, u qalbingda, har joyda!
— U bor ekan, albat, bo'lajak vijdon!
Faqat o'limdan hech kim qolmas omon.

Faqat arosatda so'lgan gulimdir,
Mening dardim ayriliq-la o'limdir!
Rostin aytsam, doim kulayin deyman,
Na o'ldiray, na-da o'layin deyman!

Bo'ldi, yetar Yer yuzida oqqan qon,
Yetar ortiq bu ko'z yoshi, bu hijron!
Istaymanki, bog'-u rog'lar so'lmasin!
Sevgilar oxiri hijron bo'lmasin!

Go'zal chehralarda ter yaltirasin,
Na bulbul-u na parvona yig'lasin!
Shaydo dillar oshiqona g'azalin,
O'qiy olsin o'shal qalbning go'zali.

Yuraklarda na dard, na qayg'u qolsin,
Hech ko'rmayin saodat intihosin!
O'lim bitsin, qolmasin sharpasi ham,
Bu dunyoda bo'lsin sevinch mujassam!

Oh, bu kunlar umid ila kutguncha,
O'zgarsaydi bir ko'z ochib yumguncha!
Ey, boyaqish, umri qisqa kapalak,
Sen ham kutgil, shunday bir kun kelajak!

BIROV BILMAS, NE CHEKAR SENSIZ

Birov bila olmas ne chekar sensiz,
Ishqing-la yashagan bechora ko'nglim?!
O'tgan yo'llaringda ko'rganimda iz,
Izingni madh etgan bir baxshi bo'ldim!

Achchiq dardlarimni sozim angladi,
Alamli chertgandim, torim yig'ladi!
"Kel" deding, birgina qadam tashladim,
Bir qadam yo'limda ming jannat ko'rdim!

Huv, buloq boshida to'planur qizlar,
Ozgina kechiksang, dilim zirqirar!
Buloqdan so'rdim, der, bag'rimda yashar,
Suvdagi aksingga boqib ovundim!

SAHAR CHOG'I EDI, ESARKAN YELLAR

Sahar chog'i edi, esarkan yellar,
Shudringlar uyg'otdi go'zal sanamni.
Qoshlaring chimrildi, menga lab burding,
Jolalar o'pardi nozik tanangni.

Tong-sahardan ko'kka iltijo qildim,
Bag'ringni gul-chechak ila to'ldirdim,
Gulzoring tabarruk makon deb bildim,
Qadrlay olmading nechun bandangni?

Ont ichdim-ku, ko‘nglim sensiz yasholmas,
Sensiz u nolalar qilgan siniq soz,
Qo‘llaring yozilib, aylading parvoz,
Bir erkalab qo‘yding shu bechorangni.

Endi sensiz xasta ko‘nglim sargardon,
G‘urbat shamollari chulg‘adi chunon,
Ey, bir bor dilimni shod etgan jonon,
Nechun yillar bo‘yi yig‘latding meni?

UMR DEGANLARI EGRI-BUGRI YO‘L...

Umr deganlari egri-bugri yo‘l,
Bu chuvalmish yo‘lda bir yo‘lchiman men.
Kel, ma’sum nozanin, so‘zimni eshit,
Qaniydi yo‘limda Xizrim bo‘lsang!

Sevgi deganlari shiddatli dengiz,
Dengizga chiqdim-u, qoldim yelkansiz,
Na o‘lay, na omon qolayin sensiz,
Koshki edi bular ne holdir bilsang?!

Ko‘kdagi yulduzga ohim yetsa gar,
Dardim yoza-yoza qayg‘uga botar...
Koshki, sen zeboga bir bor aytsalar —
Bergan ozorlaring davosin qilsang!

Nozik yelkalarni o‘par kokillar,
To‘zg‘ishib oshiqni parishon aylar.
Naylayin, so‘rmaslar qaydan bu kadar,
Oh chek, sho‘rlik ko‘nglim, yo‘qdir bir kimsang.

SHONLI O'LKANING SHONLI O'RDUSIGA...

Ey shonli o'lkaning sharafi, shoni,
Unutmam Kavkazga sen kirgan onni!
Rusdan xalos etay deding Turonni,
Qora dengiz poyingga bosh urdimi?

Ilk qadaming ko'hna burjga yetganda,
Qars qal'asi salom to'pin otganda,
Sen zafar ayyomin bayram etganda,
Mag'lub dushman qoshlarini uydimi?

YIG'LARMAN...

Har yilda bir may oyiga,
Behisob umid bog'larman.
Har kelgusi may oyi-chun,
Nayson yig'lar, men yig'larman.

Tushdim cho'l-u biyobonga,
Keragim yo'q bir insonga,
Oh may, yo'l qo'yma armonga,
Har yon yig'lar, men yig'larman.

Tumanga boq, tog' boshida,
Dard torturlar gul yoshida,
Ko'zlar giryon yoz boshida,
Tuman yig'lar, men yig'larman.

Sensiz gul ham, yo bir she'r ham,
Yuragimga bo'lur malham,
Gar so'rsalar, senda ne g'am?
So'rg'on yig'lar, men yig'larman.

Ochilmasmi gul o'ng-so'lda,
Ko'rinmasmi oq rang olda?!
Sensiz sarson ora yo'lda,
Qolg'on yig'lar, men yig'larman.

Kelmasdan oqshom azoni,
Yo'lga sol ul sargardonni.
To'smish yo'lin dard to'foni,
Karvon yig'lar, men yig'larman.

Joynamozga qaddin eggan,
Birdamlikni jannat degan,
Haq yo'lida Xalil etgan
Qurbon yig'lar, men yig'larman.

Zoye ketsa shuncha emak[1],
Bobolarcha bu ne demak?!
Taqdir deymi yoki falak,
Bilg'on yig'lar, men yig'larman.

Motam tutmasak may kelsa,
Har davr yangilik keltirsa!
Kutgan kunim kelmas ersa,
Vijdon yig'lar, men yig'larman.

FUZULIY

Ufqlarda quyosh so'ndi bir oqshom chog'i,
Xo'p azobli zulmat cho'kdi butun dunyoga.
Ko'rgandaki, o'chayotir san'at o'chog'i,
Yolvorib duolar qildi Alloh taologa,
O'z kimsasiz tuprog'iga boqdi Fuzuliy!

Qo'shni ellar chulg'anganda vaqtichog'likka,
Tingan edi qadrdon yurt suhbati, sozi...
Oq soqolli bir keksaga, yosh bir oshiqqa,
O'rgatganlar ko'paymishdi "roz-u niyozni".
El dardiga darmon nedir, bildi Fuzuliy,
Shuning uchun ulug' shoir bo'ldi Fuzuliy!

Qamramoq-chun bo'shliqlarni yangi nafas-la,
Umid qoldi xo'p sevimli, porloq yulduzga.

[1] **Emak** — mehnat.

Ilmi irfon o‘rganay deb otlangan mahal,
Asir bo‘ldi, oshiq bo‘ldi bir ma’sum qizga!
Bor ilhomin ul suluvdan oldi Fuzuliy!

Malham bo‘ldi yuragiga ul go‘zal pari,
Unutmoq-chun dardlarini g‘am o‘lkasida.
Go‘zallikka sajda etgan kunidan beri,
Bir alomat sezilardi uning sasida.
Haqiqatdir, sevgisidan yondi Fuzuliy!

To‘rt yuz yilki, mubtalodir bedavo dardga,
Kutmoqdadir faqat undan dardiga chora!
To‘rt yuz yilki, hamvatanim bo‘lgan yerlarda,
Har bir oshiq g‘azal bitur sevikli yora!
Gulob to‘la piyolaga do‘ndi Fuzuliy!
Shoirlarga bir qultum may sundi Fuzuliy!

O‘TAR

Ba’zan suluvlar adosi,
Barq urgan nuri, ziyosi,
Ufqdan, osmondan o‘tar!

Ba’zan notanish ayol,
Ismini bilmak mahol,
Kulimsab yondan o‘tar!

Goho nafis bir ipak,
Mavjlanar etak-etak,
Yurakdan, qondan o‘tar!

Ko‘rding, kokilli yulduz,
Chaqmoqdek yarq etgan qiz,
Kuydirib, jondan o‘tar!

Qaddi shamshod, ko‘zi olmos,
Salom bersam, alik olmas!
Javodga qiyo ham boqmas,
Hur-u g‘ilmondan o‘tar!

QIZIM

Qaniydi, kuch topib, yoza olsaydim,
Qog‘ozga to‘ksaydim bu dardni, qizim!
Sening musibating mening dardimdan,
Naylayinki, ming bor battardir, qizim!

Nogoh kim aytgandi bir sahar chog‘i,
Tor-u mor bo‘lajak umrimning bog‘i?
Ipak kokillaring sezsa dimog‘im,
Qalbimda ne-ne gul bitardi, qizim!

Oh, qandayin kulfat tushdi bu boshga,
Yuzim yuvilmoqda betinim yoshga,
Aytsayding alamim qabrdagi toshga,
Tilga kirib navha[1] aytardi qizim!

Erkalanib bir bor kela olsayding,
Bir daf’a tabassum qila olsayding,
Yoki azoblarsiz o‘la olsayding,
Bari g‘am-u g‘ussam ketardi, qizim!

Sinfdosh qizlaring ko‘rdilar, zotan,
Jon bergan sen eding, joni chiqqan — man,
Sen yorug‘ olamni tark etarkansan,
Mening peshonam nechun ter edi, qizim?!

Ko‘zim xiralashdi, so‘nam yig‘ladi,
So‘namga qo‘shilib onam yig‘ladi,
To‘yingga olganim xinam yig‘ladi,
Menga qaro toshlar gul berdi, qizim!

[1] **Navha** — aytib yig‘lamoq.

Sendan bir yodnoma qolajak deya,
Uf... yoza olsaydim bitta marsiya.
O'rtangan qalbimga tasallisi-ya,
Inon, o'lgunimcha yetardi, qizim!

KULISHLARINGDAN

Aylanay tog'larning sof suvi kabi,
Ul tiniq, iboli kulishlaringdan.
Visol va'da etgan, umid ilohi —
Bir olam ma'noli kulishlaringdan.

Aylanay dil torim noz-la yangratgan,
Yurakka yulduzdek nurin taratgan,
Gohi marhamat, goh zulmat yaratgan,
Tahdid-u da'voli kulishlaringdan.

Aylanay oqshomlar nash'adan toshgan,
Hurkak jayron kabi tog'lardan oshgan,
Kaklik bo'lib shoshgan, qon kabi jo'shgan,
Fusunkor, savdoli kulishlaringdan.

Aylanay ovozing ipaklaridan,
Bu devona ko'nglim tilaklaridan.
Porlab jon baxsh etgan bibaklaringdan[1],
Ishvali, adoli kulishlaringdan.

Aylanay, ko'nglimning dardli chog'inda,
Jilvalar yaratding gul yonog'ingda.
Hayot-mamotim hal ol dudog'ingda,
Shafaqli, shifoli kulishlaringdan.

Umrim bo'yi sening bir quling bo'lgum,
Agar farmon bersang, shu lahza o'lgum!
Istasang yig'layin, istasang kulgum,
Zavq olgum hayoli kulishlaringdan!

[1] **Bibak** — ko'z qorachig'i.

KO‘KKO‘L

Tumanli tog‘larning zumrad qo‘ynida,
Topmish go‘zallikda kamolin Ko‘kko‘l!
Yashil bo‘yinbog‘i go‘zal bo‘ynida,
Aks etmish tog‘larning jamoli Ko‘kko‘l!

Yoyildi shuhrati sharqqa, shimolga,
Shoirlar hayrondir bu ajib holga,
Viqorli tog‘larga kelgan savolga,
Bir javob olmadi ma’noli Ko‘kko‘l!

Topilmas dunyoda sen kabi ko‘rkam,
Ziyoratching bo‘ldi bu buyuk o‘lka.
Bo‘lsaydi ko‘nglimda bir yashil ko‘lka,
Tushsaydi ko‘ksinga, yaroli Ko‘kko‘l!

Cheksiz go‘zallikka yo‘g‘rilding, to‘lding,
Oy-u yulduzingni bag‘ringga olding,
Ularning mehribon doyasi bo‘lding,
Falak savlatini qurgali Ko‘kko‘l!

Sayyohlar, tinchlaning, bazmlar tinsin!
Ko‘rpasi tumandan, to‘shagi yo‘sin,
Bir horg‘in pari bor, qo‘y, orom olsin,
Uxlasin tog‘larning moroli [1] Ko‘kko‘l!

Feruza ko‘zlaring ko‘rinsin debon
Shamlar sochildilar ko‘kka yetibon,
Poklikka, soflikka sen bo‘lding makon,
Senga intilganlar xayoli Ko‘kko‘l!

Aylanib, o‘rgilar ko‘kda bulutlar,
Ishqing-la bezanmish chechaklar, o‘tlar,
Poyingga bosh qo‘yib qurbonlar yotar,
Ayro ko‘ngillarning qiroli Ko‘kko‘l!

[1] **Morol** — bug‘u.

Bir so‘zing bormidi esgan yellarga?
Siporish etmakka uzoq ellarga...
Yoyildi dovrug‘ing barcha tillarga,
Olam shoirlarin ash’ori, Ko‘kko‘l!

IMDOD

Vijdonim amr etdi, imdoda keldim,
Mazlum sasin tuydim, faryoda keldim!

Ziyofat ko‘rmadim, motamda ellar,
Mozorlar ko‘paygan, azobin so‘ylar.
Shonalar sinibmish, yuluq kokillar,
Bular barin tuydim, imdoda keldim!

Qo‘rquvdan yorilmish yoqut dudog‘lar,
Oshiqlar oh chekar, darddan dil dog‘lar.
Boq, nelar demoqda dalalar, tog‘lar,
Qardosh sasin tuydim, imdoda keldim!

Qo‘shnilarda to‘y-bazm, bizlarda nola,
Bunda qizlar kulmas, qo‘y, sen yo‘liqma!
Sen, ey dardli ko‘nglim, bunda tentima!
Sen uchun kelmadim, imdoda keldim!

Qorlarni bo‘yadi mazlumlar qoni,
Qurbonlar ko‘p, faqat mozori qani?
Toptaldi, ezildi shuhrati, shoni,
Qolganlarni ko‘rib, imdoda keldim!

Qayerga zolimlar sanjog‘in sanchar,
Shu yerda ko‘z yoshi to‘kilar buncha,
Bu yerda yig‘layman, evoh, to‘yguncha,
G‘arib sasin tuydim, imdoda keldim!

Berib yot qo'llarga zar kokilini,
Kelinlar yo'qotdi go'zal elini,
Onasizdir go'dak, sen ayt allani,
Allasiz go'dakka imdoda keldim!

Chiroqlari yonmas, zulmatda bog'lar,
Ukani opadan ayirmish tog'lar,
Singillar qaydadir, bulutlar yig'lar,
Qardoshsiz singilga imdoda keldim!

MUNOJOT

Yaratgan asrasin begona ko'zdan,
Elimizda ma'badinin toshini!
Rahm et bizga, imonimiz so'nmasin,
Rahmating-la tindirgil ko'z yoshini!
Yo Rab, Vatan sening, imon seningdir!
Mo'minlar tayanchi Qur'on seningdir!

Vatanda jim bo'ldi masjid, minora,
Ko'z tikmoqda sasing kelgan diyora,
G'ariblikka emasmu bu ishora?
Mahshar bo'ldi... otma bizni kanora[1] !
Yo Rab, Vatan sening, imon seningdir!
Mo'minlar tayanchi Qur'on seningdir!

So'filarning shunday bo'ldi arazi,
Azonlarning titratguvchi sadosi,
Xatmlarning, xutbalarning har sasi,
Yetkazmoqda imdodiga bir kasni!
Yo Rab, Vatan sening, imon seningdir!
Mo'minlar tayanchi Qur'on seningdir!

Ey qudrati cheksiz pok Parvardigor!
Buyruq qullaringga, savol na darkor?
Dardimiz mo'l, yagona orzumiz bor,

[1] **Kanor(a)** — chet, chekka.

Jabroyil-la bizga bir sanjoq yubor!
Yo Rab, Vatan sening, imon seningdir!
Mo'minlar tayanchi Qur'on seningdir!

Karaming-la anglattirding otingni,
Izn ber totmoqqa jannating totini!
Ummatlaring unutmasin yodingni,
Rabbim, yo'liqtirma har yot xotinni!..
Yo Rab, Vatan sening, imon seningdir!
Mo'minlar tayanchi Qur'on seningdir!

BO'LMAS

Avaylagil, ko'nglim senga oshiqdir,
Oshiqlar qalbini sindirib bo'lmas!
Mening so'zim bir ilohiy ishqdir,
Yurakni bu qadar yondirib bo'lmas!

Ko'kda chaqmoq misol chaqdim, o'lmadim,
O'zimni otashdek yoqdim, o'lmadim!
Yo'lingga, izingga boqdim, o'lmadim,
Majnunni bundayin kuydirib bo'lmas!

O'tingum, yolvorgum, rozi bo'lmassan,
Oqqan ko'z yoshimni tindirolmassan!
Bir so'z anglamassan, bir til bilmassan,
Go'daksan, hech narsa uqtirib bo'lmas!

Rasvoyi jahonman San'ondan battar,
Sen tarso emassan, zulmlaring yetar!
Ko'ksimda bir bulbul zor yig'lab o'tar,
Ne foyda, so'zimga ko'ndirib bo'lmas!

Qayg'u-alamdadir Javod ne vaqtdan,
Kom oldim toledan, kam bo'ldim baxtdan!
Poyingda qulingman, tushmassan taxtdan,
Bu mushkul savdoni rad qilib bo'lmas!

SAS

Ovchi bilmas, xayolining sasimi,
O‘z qalbi, o‘z ishqining nash’asimi?!

Goho bu sas bir qush bo‘lur,
Bir novdaga qo‘nmish bo‘lur,
Sayrar bedali bog‘da!
Goho boqarsan bir morol,
Tanasining har yeri xol,
Kezar tumanli tog‘da!

Ilk bahorning ilk nafasi,
Jo‘shqin bir sevgi havasi,
Qanday bo‘lsa, bo‘lsin oti,
Sasdir ruhimning qanoti!
Ammo men tuygan ajib sas,
Bu saslarga hech o‘xshamas!

AYLANAR

Ishqingdan kuch olib qaynar ilhomim,
Tuyg‘ular qalbimda selga aylanar!
Ellardan olganim bu orzu-komim,
Qayta bosh ko‘tarib elga aylanar!

Ne buyuk qudratga sohibdir san’at,
Bir umrga bog‘liq so‘z ila suhbat,
Chekilgan azoblar, mehnat-u zahmat,
Chechakka aylanar, gulga aylanar!

Minglab fikr aro fikrim bor dedim,
Yerni tutganimcha ko‘kka yuksaldim,
Kelajakka tomon yelar xayolim,
Gohi ortda qolgan yilga aylanar!

TILIMIZ

Tilimizga qarang, nelar ko‘rinur:
O‘qib anglab yetmoq yozmoqdan qiyin.
Yozg‘uvchi o‘ylamay yozsa-da, keyin
O‘quvchi besh-o‘n kun o‘ylashga majbur.

Ki, anglasin bu so‘z arabmi, forsmi,
Men o‘yga tolaman... anglagan bormi?
Ko‘plari tushunmas aniq millatin,
Birgina parchasin shoir bitganin..

Kun keldi, shoirlar ko‘kka qalqdilar,
Bu sho‘rlik millatga kibr-la boqdilar.
“O‘t” yetmadi, yog‘di “otash” boshiga,
“Siyoh” chapladilar “qora” toshiga.

“Tillari” o‘rniga “zabon” berilur,
“Yomg‘ir” o‘chirilib, “boron” deyilur.
“Oq”lari “beyaz”ga, “sariq”lar “zard”ga
Chidar, jon chidamas bu achchiq dardga.

Har ne o‘zgarmoqda, “bum” bo‘ldi “boyqush”,
“Albisa” kiyildi, “kiyim” qoldi bo‘sh.
“To‘g‘rilik” o‘rnida yangi bir g‘alat,
Ko‘rgach, yegulik deb o‘yladi millat.

“Qardosh” g‘oyib bo‘ldi, keldi “birodar”,
“Opa”, “singil” qayda, “hamshira” turar.
Nedir bu qiyomat, ne ish qilyapsiz,
Ey, bizning muhtaram adiblarimiz?!

Yoqasidan bo‘g‘ib shu yurt o‘g‘lini,
Fors ila arabning bir “hamvatani”
Shakliga suqdingiz, boqing, so‘ng, albat,
Yog‘ilgusi bunday yozganga la’nat!

BIR SAS

Bir sas tutdi tarixning
Chirk bosgan yoqasidan.
Tikilib ko‘zlariga,
So‘rdi uning yoshini.
Tarix uyalib ketdi,
Po‘stini, chuxasidan[1].
Farmon seningdir, debon,
Yerga egdi boshini.
Dedi, art tanangdagi
Bu beo‘xshov dog‘larni!
To‘g‘risi, og‘ir o‘tgan
Umring, hayoting sening.
O‘ng yo‘llarni ko‘rsatgil,
Toldim kezib darbadar.
Bunga faqat sen haqli,
Bo‘lay qurboning sening.

QUSHLARGA

Shoshmay uching, nozli qushlar, bir so‘zim bor sizga aytar,
To‘ydingizmi bu yerlardan, kimlarga qoldi uyalar?
Siz ham, balki, insonlardek qoldirdingiz uyalarda,
Ul gul yuzli bolangizni... Yo‘qsa, ne bor samolarda?

Afv etingiz, men yanglishdim, sizning yurak nur parchasi,
Bizda murdorlar yig‘ini, ul sevgining Karbalosi!
Sizda hech bir ota qilmas bunday mudhish jinoyatni,
Ep ko‘rmas sizda onalar bizdagidek xiyonatni.

Boring, qushlar, boraqoling, Alloh sizga oq yo‘l bersin,
Siz birovdan hech ranjimang, birov sizdan ranjimasin!
Hayhot, qushlar, bilmam ne bor bu qabriston olam aro?
Ko‘nglim aniq iz axtarar bu zimiston yo‘llar aro.

[1] **Chuxa** — Kavkaz erkaklarining uzun ust kiyimi.

Bo‘lsa ortiqcha qanot, Alloh haqqi, bering menga,
Men ham sizsiz g‘ariblashdim, uchmoq istar qalbim yana!
Hech bo‘lmasa, oching o‘shal bechoraga bag‘ringizni,
Nozli qushlar, panoh tutdim nomingizni, sha’ningizni!

NE QOLDI?..

Bir gul ekdim, ochilmasdan terdilar,
Zahmatimdan menga bir tikon qoldi.
Mehnat qildim, urindim, ko‘chat ekdim,
Nihollarim so‘lib, bir armon qoldi!

Na yozim yoz, na-da kunim kun bo‘ldi,
Ko‘nglim chechagi ko‘z ochmayin so‘ldi.
Manhus qo‘llar qanotlarimni yuldi,
O‘rnida bir tomchi quruq qon qoldi.

Aytganim behuda, to‘kkanim qon-yosh,
Haqqimga chang solmang, tugadi bardosh,
Dardimga jimgina yig‘lagan qardosh,
O‘rniga ortimda bir dushman qoldi.

Yaralandim, bog‘lamadilar yaram,
Motamsaro kunga aylandi bayram,
Qo‘limdan oldilar oxirgi choram,
Titroq yuragimda bir fig‘on qoldi!

UZOQLARDA...

Ko‘pdan ayro tushdik biz yor elidan,
Ajab, u yerlarda “biz” degan bormi?
Biz eslamoq, so‘ylamoqdan xo‘p toldik,
Bizni bir o‘ylagan, so‘ylagan bormi?
Bizda qalamlarning tushunchasida,

Yozilgan so‘zlarning eng nafisida,
G‘arib minoraning kuyuk sasida,
Yolg‘iz “U” bor... bilmam, tinglagan bormi?
Har kim aytar, behad to‘q menim ko‘nglim,
Kimga maftun bo‘ldim, hech bilgan bormi?

QURBON BO‘LGANIM

Behad uzoq kutdim, ketdi, kelmadi,
Ahd-u paymoniga qurbon bo‘lganim!
Istadi, jon berdim, qadrim bilmadi,
Ul shirin joniga qurbon bo‘lganim!

Dedim, ayriliqqa yo‘qdir darmonim,
Ayrilib ketmasin sarvi ravonim!
Endi hech qaytmasmi xushro‘y tarlonim,
Nomiga, sha’niga qurbon bo‘lganim?!
(Pokiza qoniga qurbon bo‘lganim!)

Men xo‘p ko‘kka boqdim, ko‘k menga boqdi,
Samoga ko‘z tikib ko‘zlarim oqdi!
Yashin chaqdi, faqat bir daf’a boqdi,
Boqdi qurboniga qurbon bo‘lganim!

Dil yana bir mujda bermoqni tilar,
Bor bo‘lsin yurtimda sohibjamollar!
She’rimga jon berib, samodan enar,
Ul haq devoniga qurbon bo‘lganim!

U she’r-ash’orimning ruhi, rivoji,
Olamdagi barcha go‘zallar toji!
Bilmasmiki, o‘zi umrim tayanchi,
Shuhrati, shoniga qurbon bo‘lganim!

Go‘zalliklar yolg‘on, tuyg‘ular jonsiz,
Yashab bo‘lmas ekan sog‘inch, hijronsiz.

Allohim asrasin, qaytgil ziyonsiz,
Nomi nishoniga qurbon bo‘lganim!

Bir kecha uxlardim g‘amgin, mukaddar,
Iskanjaga oldi cheksiz xayollar,
Birdan quyosh chiqdi, ochildi sahar,
Boqdi ko‘zlarimga timqora ko‘zlar!

Sasimga uyg‘ondim, bo‘m-bo‘sh bir makon,
Yotog‘im cho‘qqilar qoridek hamon,
Ishqim, tuyg‘um tuygan sherik yo‘q, inon,
Kelgil, suhbatlarga to‘lsin bu davron!

SHAHID ASIR

Asirim, kutdimki, Xizrim kelajak,
Seni so‘roqlay deb yo‘llarga chiqdim!
Dedim, kelsang, ko‘nglim, ko‘zim kulajak,
Bukik bo‘yning, so‘lg‘in yuzingni ko‘rdim,
Asir jasading-la qarshimdan chiqding!
Na qushga zulm etding, na uya yiqding!

Shahid qardosh, bugun sizning qo‘rg‘onlar,
Eslar sen g‘aribni, bag‘ri qon yig‘lar.
Qardoshim, yod etmoq shunday bo‘larmi?!
Nechun ko‘zing ochiq, bir so‘zing bormi?
Qabring “gul” ochguncha yig‘larman senga!
“Qora kun” o‘tguncha yig‘larman senga!

Viqorli tog‘larda tuman o‘rlaydi!
Bukilmas qo‘llaring nechun bo‘sh qoldi?!
Aytgil, yo‘qsil momong kimlarga qoldi?
O‘lma! Qardosh, o‘lma! Dushman ko‘paydi!
Aminman, o‘lsang ham, qoning jo‘shajak!
Ag‘yorni bo‘g‘moq-chun tog‘lar oshajak!

MARSIYA

Abdulla Surning xotirasiga

Oh, yosh ketding, dunyodan kom olmading,
Xo‘p urinding, zahmatdan hech tolmading.
Niyatingga, afsuski, yetolmading,
Yig‘la qardosh! Yig‘laydigan kun bugun!

Biz tez unutmaylik bu o‘g‘lonlarni,
Vataniga fido bo‘lgan jonlarni,
Qabul etsin Haq bunday qurbonlarni!
Yig‘la qardosh! Yig‘laydigan kun bugun!

NOLA

Boqmoqdan men xo‘p zerikkan dunyoga,
Jahannamga bir parda tortilsaydi!
Neron misol men ham teparoq yerda,
Rubobimdan bir to‘yib zavq olsaydim!
Hoy, sen koinot sozin chalgan mashshoq,
Ul torlarda jonli nag‘mang yo‘qmi hech?
Kimlar kimni erkalar, avaylar, boq!
Erkalanmoq har go‘zalda yo‘qmi hech?!
Har qalamqosh jonni olmoqqa shaydir,
Oshiqlar joniga sen bir achingil!
Bu qurbonxo‘r samo yana ayqashdir,
Qurbonlar qoniga sen bir achingil!

SAHAR-SAHAR

Yorim gulzorida g‘uncha ko‘z ochdi,
Bulbul yonib kuylar, kel sahar-sahar!
Sarhovuz bo‘yida zarkokil sanam,
Boqar o‘z aksiga, bil sahar-sahar!

Gullar uzorida porlar jolalar,
O'ylarim sabodek sarin bunchalar!
Qavs-u kuzah sehri ko'zim erkalar,
Hijron g'uborin daf qil sahar-sahar!

Barq urgan og'ochlar misoli o'rmon,
Hayot qisqa yo'ldir, umrimiz bir on!
Javod, xo'p o'yladim, bu qanday farmon,
So'yla sahar-sahar, kul sahar-sahar!

NEDAN YARALDING?

Tob-u tabing to'lib-toshgan chog'ingda,
Sen malaklar kulishidan yaralding.
Erta tongda bir mo'yqalam sehri-la,
Ohularning turishidan yaralding.

Oy shu'lasi... Go'zalliging, sofliging,
Chechaklar-la bo'salardan yaralding.
Sarin etding nigohing-la ko'nglimni,
Oq bulutlar suzishidan yaralding...

Qo'lda qalam, ilhomni jim tinglarman,
Sen yuragim urishidan yaralding.

KELIN

Ey, ko'zlari suzuk sahar yulduzi,
Parishon zulflari yosuman kelin!
Go'zallarga sajda qildirdi bu din,
Kirdim diningizga hamda man, kelin!

Chidadim terslikka, egildim nozga,
Berildim behuda suhbat-u sozga!
Sollanki, jon qushi chiqsin parvozga,
Ko'rganlar lol qolsin alamdan, kelin!

"Sensizlik" bu mening bedavo dardim!
Bedavo dardim-la sen tomon keldim!
Jilmaygan dudoqdan men gullar terdim,
Qalbimda asragum istarsan, kelin!

Sig'mas ekan ruhim bu keng tuproqqa,
Keldi huzuringga bir qul bo'lmoqqa,
Go'zallik bir chechak,
mahkum so'lmoqqa,
Bekorga so'ldirma uni san, kelin!

NOMSIZ SHE'R

Kolxozlashgan ellar barokatidan,
Barokatli qo'llar harakatidan,
Kim aytgandi, bugun ayozli, deb, qish,
Sharaf-la nutq so'zlab, oldilar olqish!

Zafarlar bayrami, bir qurultoyni,
Muzlata olarmi bu yanvar oyi?!
O'lkaning boshqa bir harorati bor,
Uni sovutarmi ko'k elagan qor?

Ajdaho komida bo'g'ilgan o'lka,
Issiq quyosh misol tug'ilgan o'lka!
Bo'rondan qo'rqarmi,
qordan qo'rqarmi?
Tarlon galasi-yu sordan qo'rqarmi?

Bu doka yashmoqli ayollarga boq,
Ularga so'z bering, ulardadir haq!
So'zlari samimiy, fikrlari sof,
Ey singlim, qaydadir sen aytgan chorshaf?!

TUSHIMGA KIRMISHDING

... Tushimga kirmishding sen hazin-hazin,
Ishvali, g'amzali, nozli nozanin.
Sen bir qaynar buloq, men sho'rlik g'amgin,
Sen bir yonar dudoq, men behol, horg'in.

... O'n beshdan oz edi yoshim u zamon,
Yurakka oqardi yoshim u zamon,
Toshlarga urildi boshim u zamon,
Bahorda boshlandi qishim u zamon!

Sen sevgi buluti, men tashna dudoq,
Sen adil bir sarvsan, men so'lg'in yaproq,
Men qurigan og'och, sen gulsan oppoq,
Ko'ksim nishon edi o'qlarga bu chog'.

Jonimda qolmadi na tob, na darmon,
Nigohing chaqmoqdek, turishing jayron,
Dudoqlaring lola, xush atring rayhon,
Men esa o'zingga bo'layin qurbon!

Sen tiyrak malaksan, men abgor bir qul,
Sening tengingmanmi, ey sochi sunbul?
Yuragim to'rida zorlanar bulbul,
Deydi: tur nariroq, ketgil, yozmish shul!

SOYAM VA MEN

Bir kun bezib, o'z soyamga dedimki,
— Bo'ldi, yetar, qo'lingni tort yoqamdan!
Boshqa ishing yo'qmi tun-u kun bunda,
Bunchalar ham ergashasan orqamdan?
Oylar, yillar bir bor yuzing ko'rmadim,
Indamadim, loaqal uf tortmadim!

Soyam dedi: "Hoy, bevafo, sen bilan,
Ayni vaqtda kelmabmidik dunyoga?
Totsiz hayotni naylardim? Azaldan,
Tushmabmidim sen uchun xo'p g'avg'oga?!

Eh, bilsang ham, bilmasang ham aynimiz —
Senga aytsam, hech qachon ayrilmaymiz!"

SEN!

Qalbim mudhish bir zimiston komida,
To'lg'anarkan, imdodima yetishding!
Po'rtanalar umidimni bo'g'arkan,
Xizr misol faryodima yetishding!
Siniq bir pat ila yo'lga otlandim,
Yuzlangan manzilim hech ko'rolmadim,
Qo'lim, qanotimda mador qolmadi,
Quvvat bo'lding, qanotima yetishding!
Yo'limdan ozgandim, qarshimda o'lim...
Motamsaro bo'ldi sayroq bulbulim,
O'lmishkan amalim, so'lmishkan gulim,
Ko'zlaring-la sen dodimga yetishding!

SEVGI JONDAN AYRILMAS

Oshiq ko'nglim sevdi seni,
Sevgi jondan ayrilmas!
Rohibim bo'l, yo'lim ko'rsat,
Din imondan ayrilmas!

Derazaga nechun qo'nding?
Yo meni sen yodga olding?
Yuz, ming, balki, million bo'lding?
Ruh gumondan ayrilmas!

Kunduzim tun, yo‘qdir kecham,
Kadarim ko‘p, sevinchim kam,
Oh-vohdan yara tilim ham,
Oh omondan ayrilmas!

Majnun cho‘lda, men meshada[1],
Jonim dev kabi shishada,
Ko‘zim qoldi binafshada,
Qush o‘rmondan ayrilmas!

Chakalakzorda bitarman,
Bulbuldek nola qilarman!
Tog‘ga chiqsam, yo‘q bo‘larman,
Tog‘ tumandan ayrilmas!

Davron otar shesh-beshini,
Yelga berar peshkashini,
Hozirini, o‘tmishini!
So‘z zamondan ayrilmas!

Kimdir yig‘lar, kimdir kular,
Ko‘z yoshim quritar kimlar?
Baliq bilmas, Xoliq bilar,
Kun jahondan ayrilmas!

BIR KUN

Hijronlar, alamlar, to‘fonlar ichra,
Bo‘g‘iq bir sas bo‘lib men qolajakman!
Bunchalar ko‘z yosh-la kechgan umrimning,
So‘ngida bir achchiq men kulajakman!

Ishqimning ne ekan, bilmam, gunohi?
Yiqildi qalbimning istinodgohi.

[1] **Mesha** — o‘rmon, daraxtzor.

Nasibim bo‘lsa-da olamning ohi,
Bir kun ko‘z yoshlardan qutulajakman!

Diydoring tez kunda bo‘lmasa nasib,
Tushkunlik etolmas meni motamsaro!
Olibon qo‘limga temirdan aso,
Bir kun huzuringga men kelajakman!

Tutildim to‘fonga, sarildim senga,
Sen ey siniq qalam, kelgil tug‘yonga!
Chidab bo‘lmas esa bunday hijronga,
Sening-la dardimni men bo‘lajakman!

UYAL

Ey, oxund, ey, peshivoyi ahli imon bir uyal!
Nola qilur dastingdan ahkomi Qur’on, bir uyal!
Qaysi dinning ahlisan sen, yo‘lmu bu ko‘rsatganing?
Ummatni mahv aylaganda bormi imon, bir uyal!
Qay “muqaddas” kitob senga o‘rgatdi shayton sirini?
Ishlaringdan qoldi shaytonlar-da hayron, bir uyal!
Zoti nopokingda, yoh-u, hissi Rahmon yo‘qmi, ayt?
Bilmading Allohni, ey, Allohga dushman, bir uyal!
Och ko‘ppakdek talamak, qon ichmakdan to‘ymading,
Qo‘llaring qon, tishlaring qon, surating qon, bir uyal!
Boshingdagi sallang oppoq, lek, esiz, qalbing qora,
Toshmisan, toshdanmi qalbing, ey musulmon, bir uyal!
Ko‘r ko‘zing, majruh qo‘ling bir qavmni mahv etmakdadir,
Boq, uning asoratidir bu oh-afg‘on, bir uyal!
Xo‘p uzoqlashding rostlikdan, to‘xta sen Alloh haqqi,
Ey, haqiqat qotili, ey, jonli paykon, bir uyal!
Tavqi la’natdan nishoning bor, intil, ez, parchala,
Boshqa bir shuhrat qozonmoq-chun yo‘q imkon, bir uyal!
Millatni sarmast aylagan so‘zlar — xo‘p mudhish sharob, —
Bari sening, dahshatingdan qalam larzon, bir uyal!

BOLALARIMGA

Ravshan bo'lsin ko'zlaringiz,
Keldi bahor kula-kula!
Qishdan endi qolmas bir iz,
Keldi bahor kula-kula!
Bo'ldi bahor kula-kula!

Chiqsin kafandan tabiat,
Abri nayson buyuk ne'mat,
Qo'y, Yer yuzi bo'lsin jannat,
Keldi bahor kula-kula!
Bo'ldi bahor kula-kula!

Chal, qish! Buyur, omad kulsin,
Oq sochlaring jinlar yulsin!
Kel, ey Turna, kel, ey Tursun,
Keldi bahor kula-kula!
Bo'ldi bahor kula-kula!

Yomon kunning qisqa umri!
Bahordir mavsumlar guli,
Keldi bahor kula-kula!
Bo'ldi bahor kula-kula!

Buyuk darddir Vatan dardi,
Bu qish sizga og'ir keldi,
Keling qushlar, bahor endi, —
Keldi bahor kula-kula!
Bo'ldi bahor kula-kula!

Bir dasta chechak teraylik,
Maktabimizga ketaylik.
Lanjlikka la'nat etaylik,
Keldi bahor kula-kula!
Bo'ldi bahor kula-kula!

UYG‘ON

Tingla, bir sas so‘zlar senga,
U sas sening o‘z vijdoning.
Deydi: Ey sen, motamsaro!
Kelur yana beging, xoning!
G‘aflat bosma, uyg‘on, uyg‘on!
Qiyomat bu, bo‘lmish ayon!

O‘qitma o‘lim farmonin,
Ber yo‘lida aziz joning!
Kabutarlar xabar so‘ylar —
Kelur taxti Sulaymoning!
G‘aflat bosma, uyg‘on, uyg‘on!
Qiyomat bu, bo‘lmish ayon!

Bo‘lding yotlar o‘yinchog‘i,
Yurting beorlar o‘chog‘i,
Topinma ayyor shaytonga,
Yuksalsin birlik sanchog‘i!
G‘aflat bosma, uyg‘on, uyg‘on!
Qiyomat bu, bo‘lmish ayon!

Sas yo‘q sizning taraflarda,
Yo‘ldan ozgan ko‘zing qayda?!
Uzoq yo‘ldan yoring kelur,
Qurboning yo‘q ostonada.
G‘aflat bosma, uyg‘on, uyg‘on!
Qiyomat bu, bo‘lmish ayon!

Kim aytdi, jonsiz tosh bo‘l!
Beboshlarga kel, yo‘ldosh bo‘l!
Yotlashgan qardoshing kelur,
Qaytadan ont ich, qardosh bo‘l!
G‘aflat bosma, uyg‘on, uyg‘on!
Qiyomat bu, bo‘lmish ayon!

Bir qiz kelur, sevinchi bor,
Bo‘ynida nafis inju bor.
Yo‘qsa, bizlar sevgan yurtning,
Bir dallisi, yo tinchi bor?!
G‘aflat bosma, uyg‘on, uyg‘on!
Qiyomat bu, bo‘lmish ayon!

SHE’RIM MENIM

Siniq ko‘nglim vayronasidir she’rim menim,
She’rim emasmu magar eng kuchli dushmanim?
Men nash’a istayman, u fig‘on tinglatur,
O‘z so‘zlarim hayotimga motamgoh bo‘lur!

QATRALAR

Sen kimsan, ey qotil, millating nima?
Vijdon joning tilsin panjasi ila!
Sen nechun bunchalar qirding millatni?
Nechun yakson etding buyuk shavkatni?

* * *

Qora kunlar yoqamdan yopishdi chunon,
Yozmasin malaklar so‘zimni kufron,
Yaratilganimdan bo‘ldim pushaymon.

IMONSIZGA

Tomoq yirtib baqirasan: “Sening mendan nimang ortiq?”
Qizishma, do‘st, ilmga qolsa, men ham sening holingdaman.
Ilm-la bizni tinglaganlar “sho‘rlik” deydi, bizni “sho‘rlik”!
Asr bizdan ne kutmoqda, nahot buni men bilmayman?!
Faqat sendan farqim shuki, mening sog‘lom imonim bor —

Bir koinot yaraturki, nash'asidan to'yib bo'lmas!
Sen misoli imonsizlar ul jannatni hech anglamas!
Bu tikanli yo'llar o'tib bo'lmas deding. Imonim bor!
Men bir bora ishondimki, o't ildizi uzra bitar,
Haqiqatmi, xayolmi bu? Ne bo'lsa ham, mo'l-ko'l, yetar!

UMIDIMGA

Jahannamdek tuman chulg'ar bugun mening yo'llarimni,
Bir Azroil panjasiki, burar jonsiz qo'llarimni.
Bir yo'lchiman, sammum yeli to'ldirmoqda ko'zlarimni,
G'aribman men, yot ellarda anglagan yo'q so'zlarimni.
Loaqal sen kelgil, go'zal qiz,
Ey, ruhimda ko'z ochgan yulduz,
Ko'rsat, mening qiblam qaydadir?
Zulmi achchiq temir qafas... Bo'g'ilajak esiz umrim,
Sensiz ortiq tilka-pora bo'ldi, evoh, dardli ko'nglim.
Gunohkorlar oh-u zorin na Haq tinglar, na-da inson.
Yetarsan sen faryodima, fig'onimni tuyar bo'lsang!
Yolvoraman, loaqal sen kelgil, malak,
Ko'zlarimda qanot paydo qilgil malak,
Ko'rsat menga, jannat qaydadir?

GO'ZAL AYOL

Sen kimdan o'rganding bunday adoni,
Ey, xasta shoirning ilhomi, go'zal?
Aqiq dudog'ingdan jomi savdoni,
Ichirmishdi menga soqiyi azal.

Go'zallik tojini kiyding boshingga,
Dunyoga yopmading kobusi alam.
Sen bir malaksanki, boqib qoshingga,
Titradi shoirning qo'lida qalam!

Shubhasiz, Yaralish kuni husningdan,
Qudrat olmish qalam, jim qolmish malak,
Jonsiz holingda ham, so‘ngra jon bitgach,
Qushlar tilga kirmish, ko‘z ochmish chechak.

Yodga olgan sari suyukli noming,
Topmish kamolini she’r degan hunar.
Qarshingda tiz cho‘kmish, ey go‘zal ayol,
Olamda eng buyuk san’atkor erlar!

OT BU CHODRANI

Obro‘ying yerga urgan,
Seni xo‘rlab, kamsitgan,
Bu badnamo chodrani,
Otgil qorong‘ilarga!
O‘tdi zim-ziyo tunlar,
So‘ndi zulmat, otdi tong,
Bekinmoq chog‘i emas,
O‘rning bil, chorshaf nega?

To‘rt devor orasida,
Kun yuzini ko‘rmayin,
Quloq tutganing yetar,
Qadring bilmas saslarga.
Turli hiyla topdilar,
Tahqirlash uchun seni.
Do‘st esang-da yov bo‘lding,
Joning bergan kaslarga.

Nomusni zindonlarda,
Zanjirlarda ko‘rganlar,
Tiriklay andomingga,
Kir kafan o‘radilar.
Bilmam, hayot bor ekan,
Necha qonli asrlar,

Jahannam qo‘rquvi-la,
Gul jisming o‘rtadilar.

Hoy sho‘rlik, ne eding sen —
Qiziquvchan, sho‘x go‘dak...
Tabassuming ko‘rsatib,
Panada yosh to‘karding.
Barcha dushmaning edi,
Atrofda bilar-bilmas.
Forig‘ bo‘lmayin garddan,
Burchaklarga cho‘karding.

Yer yuzida odamlar,
Topinganda sevgiga.
Qanchalar shod bo‘lsang ham,
Nasibing bo‘ldi bir oh!
Sevgan oningda doim,
“Xotinga yo‘l yo‘q”, dedi,
Mujtahid ila podshoh.

Eshitdim, to qadimdan,
Tosh butlar qarshisida,
Qurbonlik qo‘y misoli,
Bosh eggansan pichoqqa.
Deydilarki, bu amallar,
Bugun ham bor dunyoda,
Boshingdan o‘tde ne kun,
Yetishguncha bu choqqa...

Xoh-noxoh xotirlama,
Burama murt tojirga,
Bir tilsiz qo‘zi kabi,
Sotilgan kunlaringni.
Shirvon bozorlaridan,
Sudradilar har tomon.
Misr-u Hindiston sari,
Bog‘labon zulflaringni.

Zimiston kechalarda,
Karvonlar o‘tar ekan,
Yurtingning afsonaviy,
Bedazor yo‘llaridan.
Qochayin deganmiding,
Nechun, ne sabab birdan?
Yopishdi ul sayyodlar,
Sochlaring, qo‘llaringdan?

Sal o‘tmasdan Bag‘dodda,
Xushbo‘y isli saroyda,
Dardli qalbing qonidan,
May so‘rarding vazirga.
To‘lqindan kafan ila,
Dajla nomli daryoda,
Qonli to‘y ayladilar,
Sen sevgan ul asirga.

Och, tarixni varaqla,
Mudhish sahifalarda,
Oqqan daryo qonni ko‘r,
Qullar ketgan karvonda.
Ayni dard-la ingradi,
Bo‘g‘iq sasing har joyda.
Dunyoning to‘rt tarafi,
Arabda-yu Eronda.

Deydilarki, rashk ila,
Bilmam, qaysi payg‘ambar,
Bir abadiy intiqom,
Olmoq uchun xotindan,
Debmishki, “Yashirinsin,
Xunukmi, go‘zal, bari.
Amrdir sizga chorshaf,
Parvardigor nomidan”.

Ul mash'um kundan beri,
Dudog'ingdan qochdi qon.
Ul mash'um kundan beri,
Faryod ila bo'g'ilding.
Xoh shoh, xoh darvesh bo'lsin,
Nonko'rmish zoti inson.
Sut berib odamzodga,
Insonlikdan quvilding.

Endi bari yiqildi,
Bitdi murdor saroylar.
Ag'darildi taxti ham,
Razil, qonxo'r podshohning.
Hozirda din tilida,
Tamom boshqa zikr bor.
Farqini anglagan yo'q,
Savob ila gunohning.

Yetar, chiq, kechikma hech,
Do'st bo'lgil insonlarga!
Soch zohidlar uqtirgan
Ishq, imon, kufronini.
Bas qil, yo'l qo'yma ortiq,
Behuda qurbonlarga.
Odamiylik yo'lida,
Qutqar avval joningni!

SULAYMON RUSTAM



TUG'ISHGAN SHAHAR

Toshkent, qadim shahar, quloq sol biroz
Qardoshing, Bokuning shoir o'g'liga.
"Jon", deydi, bag'ringda kuylagan bu soz,
Bog'ingda, bog'changda joy ko'rsat unga.

Tilimdan tushmaydi shuhrating, oting,
Suhbatda men nuqul sha'ningni deyman.
Ko'zimdan bir lahza yiroq bo'lmading,
Men seni har qayda Vatan atayman.

Birdir bayrog'imiz, birdir orzumiz,
Birdir qo'shig'imiz el orasida.
Payqar sof ishqimni har yigit, har qiz —
Shoir ko'ksimdagi so'z daryosida.

Ey, zangor do'ppili, gul kiygan shahar,
Ona beshigisan qahramonlarning.
Manglayda quyoshday porlaydi zafar,
Issiq quchog'isan mard insonlarning.

Men senga maftunman yillardan beri,
Mening armonimda, tilagimda sen.
O'zbek qardoshimning dilbar shahari,
Tug'gan shaharimday yuragimda sen.

SHE'R NIMA?

"She'r nima?" — so'radi mendan og'aynim kecha.
Dedim: "Do'stim, azizim, tingla, aytay qisqacha.
She'r biz ko'rayotgan hayotning ohangidir,
Bizning ona tuproqning o'chmaydigan rangidir.

Uning bashar-la tengqur qadim tarixi bordir,
She'r ko'ngillardagi eng shirin orzulardir.
She'r, ya'ni kurashning, yuksalishning o'zidir.
She'r sof yuraklarning qulog'i va ko'zidir.

She'r unar shoirning to'lqinli havasidan,
Odamlar ilhom olar tovush va nafasidan.
Uning so'zi, ovozi hayot bilan umrdosh —
Shundan, shoir qarisa hamki, hamisha yosh.

Bilasanmi, she'rlar qanday kiyim kiyadi?
She'r libosi ohangdir, vazndir, qofiyadir.
Bularsiz qo'shiq soqov, hissiz qora tosh kabi,
Yaproqlari to'kilgan yalang'och yog'och kabi".

MENSIZ

Bir kun bu dunyodan o'taman men ham,
Yulduzlar, Oy, Quyosh chiqadi mensiz,
Ayriliq sharbatin totaman men ham,
Odamlar chamanga boqadi mensiz.

Hayot yoziladi cho'ziq yo'llarda,
Aylanar dunyoni qish ham, bahor ham,
Yomg'ir ham, do'llar ham, pag'alab qor ham
Ko'kdan Yer yuziga yog'adi mensiz.

Yellardan qimirlar adl teraklar,
Tuproqdan qalqadi gullar, chechaklar.
Loladek kuladi dardsiz yuraklar,
Daryolar, buloqlar oqadi mensiz.

Farqlanmay qoladi qishloq va shahar,
Xushvaqt umr ko'rar avlodi bashar,
Ulug' ayyomlarda baxtli yigitlar
U ayyom qo'lini qisadi mensiz.

Baxtini baxtimda topadi olam,
O'chirib qo'yilar lug'atdan "alam",
Vatan bog'lariga qo'lida qalam,
Shoirlar sayrga chiqadi mensiz.

Armonli tugamas dunyoda yo'lim,
Mening nuridiydam yagona o'g'lim,
Yurtning dilbariga bag'ishlab ko'nglin
Qo'liga uzukni taqadi mensiz.

Shod davron suradi bu tug'ma ellar,
Sevib-seviladi ozod ko'ngillar,
Yigitlar qalbida tannoz go'zallar
Yana ishq o'tini yoqadi mensiz.

ILK MUHABBAT

Sevib-sevilganlar ko'p yaxshi bilar,
Bo'lmaskan vafosi ilk muhabbatning.
Poylaydi oshiqni to qabrgacha
Shirin mojarosi ilk muhabbatning.

Mening aytganlarim shikoyat emas,
Yurakni yoquvchi hikoyat emas,
Haqiqiy oshiqqa kifoyat emas —
Tuganmas jafosi ilk muhabbatning.

Sevgisiz gul, chechak bitmas, ey ko'ngil,
Inson murodiga yetmas, ey ko'ngil,
Negadir, bilmayman, ketmas, ey ko'ngil,
Boshimdan savdosi ilk muhabbatning?

Bu dardga ne qilgay Luqmonning qo'li?
Qo'limga tegmasdan jononning qo'li,
Qoqdi qopqamizni hijronning qo'li,
Shumikan ma'nosi ilk muhabbatning?

Men uni sevgandim bir ilk bahorda,
U meni tashladi bo‘ronda, qorda,
Har yara sog‘ayib unutilar-da,
Sog‘aymas yarasi ilk muhabbatning!

YO‘LLARIM

Zulmatli va nurli yo‘llardan o‘tdim,
Kunimni ishqim-la qildim shu’lalik,
Har qarichin dilim ko‘zi-la o‘pdim,
Go‘zal umidlar-la kirdi keksalik.

Hali hamon esda onam allasi,
Otamning zindonda chekkani alam.
Laqqa cho‘g‘ temirlar — qalbim yallasi,
Sherog‘iz o‘choqning qizil g‘ishti ham.

Mushkul, og‘ir edi o‘tgan har yo‘lim,
Ko‘rmadi uyim na beshik, na bir gul.
Saodat, baxt degan topdi-yu o‘lim,
Tinglaganim alla — o‘q tovshi nuqul.

Kechagi shahidlar xotirda hamon,
Ular jarohatin dardi dilimda.
Azizlar azizi bo‘lib qahramon
Yigitlar tirikday yashar elimda.

Shamaxi, Naxchivan, Boku, Qorabog‘,
O‘tmishim, tarixim, shuhratim manim.
Nechun faxrlanmay, doim yuzim oq,
Tenglar qatorida teng xalqim manim.

Bilaman, qalbimda aslo so‘nmas o‘t,
Tuganmas muhabbat boisi nadir.
Hayotim, borlig‘im va toleyim but,
Barisi Vatandir, Vatan, Vatandir.

YOSHIMNI SHE'RIMDAN BILING

Do'stlarim, yoshimni eslatmang aslo,
Shoirman, she'rimdan qidiring meni.
Qancha ko'p yillarni men etdim ado,
Sochimning qorini sidiring mening.

Charchamoq ne o'zi? Hayotim huzur,
Umrlik yo'ldoshim go'yo navbahor.
Qonimda bir dunyo she'rlar suzur,
Ko'zgu Xazardagi baliqlar misol.

Ko'nglimning torlari, yurak so'zlarim
Kechali, kunduzli mehnatimdandir.
Yurtni qo'riqlagan sergak ko'zlarim
O'tkirligi baxtli millatimdandir.

Yillar o'taversin olganin olib,
Men hormas yo'lchiman bu uzun yo'lda.
Qalamim qolmaydi qo'limda tolib,
Sulaymon hayoti jarangdor kuyda.

Keksalik degan so'z chekilsin nari
Shoirning ko'zidan, so'zidan yiroq.
Odimlayman siz-la yelkadosh hali,
Aytgandan aytmagan so'zlarim ko'proq.

DO'ST KABI, QARDOSH KABI

Endi o'rmonda qushlar chaqchaqlab sayrashi kam,
Quyosh uzra bulutlar ko'z ustida qosh kabi.
Kuz keldi, chaman bog'lar chehrasida mung-u g'am,
Hademay yog'in yog'ar qora ko'zdan yosh kabi.

Bir go‘zal alvon rangga ko‘milmish yo‘l, so‘qmoqlar,
Uchar qushlar parlari, havolarda o‘ynoqlar,
Oppoq libos kiyadi tezda daraxt, butoqlar,
Qish-u yozga to‘zimli qoya kabi, tosh kabi.

Tongda qor ko‘rpasida uyg‘onar dala-bog‘lar,
Sovuqqa chidash uchun qo‘yni chamanli tog‘lar.
Qish so‘ngidan kelishin kutib bahorgi chog‘lar —
Bir-biriga suyanar do‘st kabi, qardosh kabi.

Baland tog‘lar qo‘ynida, Lerikda qoldim bugun,
Kuz nafasi yalagan chamanlar emas gulgun.
Ko‘rinar ko‘zlarimga quyosh sochganda nurin
Savalonning cho‘qqisi oq papoqli bosh kabi.

Mening ko‘zimda yashnar o‘zga ajib manzara,
Yog‘inlarning qo‘ynida yuvinganday tog‘, dara.
Yaproqlardan tomchilar to‘kilar zarra-zarra,
Namni kutgan tuproqning diliga sirdosh kabi.

Qish borin to‘kib solar o‘ziga qurganday uy,
Yellar bilan taralar har yon parda-parda kuy,
Qish boboning qo‘li-la bezatilar ko‘cha-ko‘y,
Ming turfa naqshlar solar bir mohir naqqosh kabi.

Kun goh chiqib, goh botar, ezar qalbimni hijron,
Tog‘lar boshida kezar bulutlar karvon-karvon,
Savalondan olmayman sog‘ingan ko‘zim bir on
Qoni qonimga qondosh qardoshim Balash kabi.

QIMMATI YO‘QDIR

Siynasi daryoday she’r-la toshgan
Shoirning quyoshsiz sahari yo‘qdir.
Qora kun ham o‘tdi, yorug‘ ham boshdan,
Demanglar, dunyodan xabari yo‘qdir.

Bu tuproq o‘g‘lining orzusi ziyod,
Yorqin cho‘qqilarga to‘liqdir hayot.
O‘zini menga do‘st bilmasin bir zot —
U kim dilda toza gavhari yo‘qdir.

Sevgisiz va dardsiz kechirgan umr,
Hayotmas, xulyodan izlagan huzur,
Vatansiz, onasiz, betole, benur
Kuni o‘tganlarning bir qadri yo‘qdir.

XAZAR NEGA O‘XSHAYDI?..

Mendan so‘rsangiz agar: “Ko‘rganmisan sahar on
Bizning sehrli Xazar, ayt, nimaga o‘xshaydi?”
“Osmonga o‘xshar Xazar, Xazarga o‘xshar osmon,
Qip-qizil hoshiyali ko‘k baxmalga o‘xshaydi.

Qumtepalarda yashnar uzumzor, anjir bog‘i,
To‘lqinlar qo‘shig‘ida sohilning jon qulog‘i,
Chechak, maysalar uzra go‘daklar kulgan chog‘i
Hali bastalanmagan bir qo‘shiqqa o‘xshaydi.

Men bilaman Xazarning bordir qancha quvonchi,
To‘lqinni kesib suzgan keksa va yosh qayiqchi,
Baliqlarga to‘r solib, o‘lja kutgan baliqchi
Toleyidan vaqti chog‘ baxtlilarga o‘xshaydi.

Men yo‘qotib sanog‘in haftalarning, oylarning,
Atrofni sayr etaman ustida qoyalarning,
Mening oyna Xazarim, shoir og‘aynilarning
Qo‘shig‘i yozilajak bir daftarga o‘xshaydi”.

XAZARDA TIN

Tun. Shahar uyqu ichra sohildaman shu choqda,
Shu Xazarim ishqida yetib keldim yiroqdan,
Kechaning quchog‘ida,

Bir she'r so'rog'ida
Borlig'im nigoh bo'lib, men Xazarga boqaman,
Varaqlari to'lmagan bir daftarga boqaman.

Ne ajab hol, ne sehr, ko'rarkanman bu tunda,
Shoirlarga qanday sir so'zlarkanman bu tunda,
Xazar qo'yni xazina,
Qo'shiq to'la bir siyna,
Bu choq ko'kning chaqnoq sho'x qizlari — yulduzlari.

Suvlarda cho'miladi,
Ko'zdan pinhon, yalang'och,
To'lqinga ko'miladi.
Oy qop-qora suvlarga nur separ etak-etak,
Qizlariga ko'z tikkan bolajonli onadek...

YO'QOTSAM YIG'LAGAYMAN

Ilhomim o'zimdan tez qarisa, yig'lagayman,
Ko'nglimdan xush orzular arisa, yig'lagayman,
Og'ir o'tdi yoshligim,
Kechdi o'tli yoshligim,
She'rga ko'chdi yoshligim,
She'r-u qo'shig'im sochi oqarsa, yig'lagayman,
Bahoriga yomg'ir-u qor yog'sa, yig'lagayman.

Alamdan yig'lamadim,
Dillarni tig'lamadim,
Motamga chulg'anmadim,
Qo'limda bir kun qalam yig'lasa, yig'lagayman,
Ko'ngillarga yo'limni bog'lasa, yig'lagayman.

Puchdir viqorsiz hayot,
Zahmatsiz, orsiz hayot,
Ishq-u bahorsiz hayot,
Qo'shig'im, bahorimni yo'qotsam, yig'lagayman,
Ilhom nomli torimni yo'qotsam, yig'lagayman,

KUZ

Sohilda.... bir daraxt ostida yolg‘iz
O‘ltirib men uzoq xayolga cho‘mdim.
Bu kuzdir, bu kuzdir, bu kuzdir, bu — kuz,
Ammo nigohimda o‘zga hol ko‘rdim.

Havo dim, g‘ash dilim, nafas bo‘g‘ilur
Ishqimning hijronli tonglari kabi.
Daraxt yaproqlari bir-bir to‘kilur
O‘tgan yillarimning onlari kabi.

Arg‘imchog‘in solib uchar turnalar,
Turnalar qo‘shig‘i umrimday tanish.
Endi Lankaronga borib qo‘narlar,
Undan qushlar topar bahorin har qish.

Hademay kuz o‘tib, yog‘ar pag‘a qor,
Oq-oppoq chodirga kirar koinot.
Umrimda qolmabdi bitta ham bahor,
Kuzi uzun bo‘lsin, qishi bo‘lsin yot!

Havo dim, g‘ash dilim, nafas bo‘g‘ilur
Ishqimning hijronli tonglari kabi.
Daraxtdan yaproqlar bir-bir to‘kilur
O‘tgan yillarimning onlari kabi...

OQSHOM

Qanotlarini yozib sezdirmay tushdi oqshom,
Derazamdan bog‘chaga qarayman bo‘lib hayron,
Sevgan shahrimning qishi, naq tilga kirgansimon,
Yer-u ko‘ki takrorlar, deya: “Men qishman, qishman!”

Ne g‘aroyib manzara: yer oq chodir kiyganda
Ko‘k yuzida kezadi bulutlar og‘ir-og‘ir.
Maynalarning galasi butoqlarga qo‘nganda
Deysan: “Daraxtlar uzra ko‘kdan qora qor yog‘ar...”

O‘RNINI BOSA BILMAS

Men qo‘llari qabariq, vatanimda bir bog‘bon,
Bog‘chamning gullarini yot qo‘llar uza bilmas.

Kezib yursin jonimday aziz yorim xiromon,
Ishqimning sharorasin ko‘r ko‘zlar ko‘ra bilmas.

Yuragimning ko‘zidir mening dunyoga darcham,
Ko‘rganlarim naqsh bo‘lib dilga yozilar har dam.

Dunyoning qo‘shiqlari bari bo‘lganda ham jam
Bir ona allasining o‘rnini bosa bilmas.

AXTARING

Bir kun yodingizga tushsam mabodo,
Bu ona Yerlardan meni axtaring.
Besh-olti qo‘shiqning muallifini
Sevgan ko‘ngillardan axtaring.

Ilk bahor chog‘ida,
Isa bulog‘ida,
Araz qirg‘og‘ida
Sayr etgan chog‘da
O‘rdakli ko‘llardan meni axtaring.

Eng aziz bilganim, jonajon Vatan,
Umidim bosadi na tuman, na chang.
Karvon-karvon bo‘lib ma’noli kechgan
Oylardan, yillardan meni axtaring.

Bu ko‘rar ko‘zimni,
Yurak so‘zimni,
Mening bor vujudim,
Mening o‘zimni
Kuy sevgan dillardan axtaring.

UNUTILMAS...

Unut bo'lmas mazmun to'la umr ko'rib o'lganlar,
Yurti bilan hamdard yashab, u kulganda kulganlar.

Saxovatli tuprog'ida nomdor farzand atalur
O'z nonini qora kunda nonsizlar-la bo'lganlar.

Vatanining havosidan to'lib nafas ololmas
Yurt-u millat xazinasin o'ziniki qilganlar.

Baxtiyordir xiyonat-u kudurat-u hasadni
O'z umrining kitobidan, lug'atidan quvganlar.

Ey, Sulaymon, shunday yozki, sening o'tli she'ringni
Unutmasin sendan so'ngra dunyomizga kelganlar!

ONALAR

Na ajib jahondir bizning onalar:
Biri avlodini chirog'im, deydi.
O'zgasi aytganda tunlari alla,
Panohim, polvonim, qarog'im, deydi.

Biri der: "Jon bolam, quloq sol, sansiz,
Qishlarga aylanar gulbahor, sansiz,
Hech zamon bo'lolmam baxtiyor, sansiz,
Ko'rmas gul chamanim, gulbog'im, sansiz".

Biri shivirlaydi: "Bolam, hoy bolam,
Mening quyosh bolam, mening oy bolam,
Olamda tengi yo'q, hotamtoy bolam,
Sensan menga qanot, Shohtog'im", — deydi.

Bir ona unutib oh-nolasini
Kuylar hayotining xush nag'masini,

O‘pib, suyib-suyib o‘z bolasini,
Eng go‘zal chog‘imdir, bu chog‘im, deydi.

Yoshgina bir ona qo‘shni uyida
Go‘dagin qo‘llarin chirmab bo‘yniga,
Mehrli sutlarin berib ko‘ksidan,
Bolasiz qolmasin quchog‘im, deydi.

Yoshligim o‘tsa-da, baxtim bir jahon,
Qo‘shig‘im elim-la hamohang hamon,
Yurtda oqsoqoldir endi Sulaymon,
Onasi gul bolam, do‘mbog‘im, deydi.

ONA TUPROQ

Men dilimda ardoqlangan aziz yurtim tuprog‘i,
Ajdodlardan yodgordir har gulshani, har bog‘i.

Men tuproqdan yaralganman, tuproq mendan yaralgan,
Shu tuproqdan, shu mehrdan menga vatan yaralgan.

Million-million muhabbatlar yotar tuproq ostida,
Muhabbatlar, xush suhbatlar yotar tuproq ostida,

Tarix bilan nelar, kimlar qorishgan bu tuproqqa,
Qancha ma’sum tabassumlar qorishgan bu tuproqqa.

Bu tuproqda baxtli, baxtsiz yotganlarni yodlayman,
O‘zimni-da shu tuproqqa nomzod, deya sanayman.

Xayolimda bu dunyoga shu’la sochgan har yulduz
Yashab ketgan daholardan ketmaslikka qolgan so‘z.

Dunyomizni tunda kezib yurgan ko‘k yulduzlari
Tuproq ichra yotganlarning mangu uyg‘oq ko‘zlari.

QORABOG‘

Shuhrating Yer yuziga ko‘pdan ayon, Qorabog‘,
Senga shaydoman o‘zim qancha zamon, Qorabog‘.
Bir qo‘shiq singari borsan yor-u do‘stlar tilida,
Sho‘x go‘zallar yeri bu, yaxshi makon, Qorabog‘.
Bunda Voqif izi bor, Notavon ruhi tirik,
Shu sabab shoir uchun ajib jahon, Qorabog‘.

Har bahor fasli bu ko‘ngilda ochar gul noming,
Bilmadim, men seni ko‘rdim qachon, Qorabog‘.
Bilasan, dilda mening janub degan dardim bor,
Ayriliq zahri o‘limdan-da yomon, Qorabog‘.

Sen mening jon, jigarimsan, yuragimsan, yuragim,
Deyman-u jar solaman, jon ora jon, Qorabog‘.
Senga sodiq, loyiq o‘lsam, bu Sulaymon o‘g‘ling,
Ona qalbingdan uzoq bilma, omon, Qorabog‘.

BEDORLIK

Bu kecha dilda to‘lqin ishxonamga kirdim man,
Qog‘oz sari yo‘l oldim, bir she’r qidirdim man.

Insonlarning orzusi orzum bilan tutashdi,
Qalamdan tushib so‘zlar qog‘oz bilan so‘zlashdi.

Misralarim tizildi bir safga misli qo‘shin,
Quvondim, murodimga yetaman deb naq shu tun.

Uyda hamma oromda, oromdadir koinot,
Bu kech mening ko‘zimga uyqu bo‘ldi tamom yot.

Chekilgan papiroslar kuldonimda bo‘ldi tog‘,
Tun erib ketdi, endi kerak bo‘lmaydi chirog‘...

Kun tug‘di, subh ochildi, men to‘yib oldim nafas,
Tongda she’rim shaharga qadamlab ketdi sarbast...

Ayvonda qarshiladim yangi she’r bilan kunni,
Uyqusiz ko‘zlar bilan o‘pdim go‘zal Bokuni.

KELIB KETMISH

Bilursanmi, ko‘ngil, arziga na mehmonlar kelib ketmish,
Adosi-la necha jonlar olib jonlar kelib ketmish.

Sevilmish, sevmish ishqi-la bu dunyoga chiroy bo‘lgan
Go‘zallikdan yaralgan nozli jononlar kelib ketmish.

Bu tuproqdan olib quvvat, berib unga husn, davlat,
Hayot, zahmatni sevgan mard bog‘bonlar kelib ketmish.

Daholar borki, jisman o‘lsalar-da, ruhan o‘lmaslar,
Tilim bormas deyarga hech: bu insonlar kelib ketmish.

Sulaymon, yoz, yarat, zotan, ayondir senga bu jumboq:
Bu dunyoga saningdek ko‘p Sulaymonlar kelib ketmish.

LAYLAK QOR

Yog‘ qor-ey, sahroga yog‘, laylak qor-ey, kel, bog‘ga yog‘,
Men emas, gulday bolam qor bo‘ron o‘ynatmoqqa yog‘!

Tuhfa etmak-chun kelar avlodlar o‘z noz-ne’matin,
Senga o‘z ko‘ksini ochmish jonajon tuproqqa yog‘.

Nozli qizlar kelsa deb yoz chashmalarning bo‘yiga,
Qo‘yni bo‘sh o‘rmonga yog‘, qushlar sukuti yoqqa yog‘.

Kel yana gulli bahor, dilli bahor ishqiga kel,
Soch shaharga qand-u parvarda, keyin yayloqqa yog‘.

Bu Sulaymon dardidir yolg‘iz janubning hasrati,
Balki, kul bo‘lmoq uchun bag‘rim yonar dog‘iga yog‘!

QIRG‘OVUL

Ov bahona o‘rmon tomon oldim yo‘l,
Go‘yo butun borliq yopinganday gul.

Talabaning mushagiday tovlanib,
Ko‘l bo‘yidan uchib chiqding sollanib.
Ol-alvon ko‘rdim seni,
Dilga jon ko‘rdim seni.
Barmog‘imni oldim darhol tepkidan,
Shu-shu bo‘ldi voz kechdim ovchilikdan...

BU — MENMAN

Bahor chog‘i ilhomlanib, to‘lqinlanib yurt kezgan
bu — menman!
Xazon bilmas chamanlarning gulzorin ko‘rkin sevgan
bu — menman!
Ajdodlari chirog‘ini so‘ndirmay yoqib kelgan
bu — menman!
O‘t yurakli dehqon kabi mehnatidan baxt ko‘rgan
bu — menman!
Millatini millatlarga qardosh bilgan, bilgan esh
bu — menman!
O‘tli yurtin avlodga xos jondan sevib, sevilgan
bu — menman!
Ko‘kda qanot qoqib yurgan u na tarlon, na burgut
bu — menman!

Savalonning bag‘ridagi na xayol-u na o‘git
bu — menman!
Yasha, deya, umrini oyog‘idan bog‘lagan
bu — menman!
Gulxan yoqib tog‘da cho‘pon ko‘ngillarin chog‘lagan
bu — menman!
Tog‘ emasdir tuman ichra g‘ira-shira ko‘ringan
bu — menman!
Jalalarda to‘rga tushgan baliq kabi uringan
bu — menman!
Turnalarning izlaridan maftun qolgan nigohli
bu — menman!
Umrida qush qonin to‘kib bir bo‘lmagan gunohli
bu — menman!
Shoir bo‘lib ming ko‘z bilan go‘zallarga qaragan
bu — menman!
Barmoqlarin taroq etib sochlarini taragan
bu — menman!
Bag‘ri yara Orazi-la suhbat qurgan ko‘zda yosh
bu — menman!
Bir visolning hasratiga faryod chekib qo‘ygan bosh
bu — menman!
Dasturxoni noz-ne’matli, do‘st-u opa-singilli
bu — menman!
Lola kabi ol bayroqli, bahor nafas she’rli
bu — menman!
Tabiatning ranglarini ko‘zlariga ko‘chirgan
bu — menman!
Ey, insonlar, siz-la birga go‘zal umr kechirgan
bu — menman!
Parvoz qilsam oy-u yulduz, quyoshga qo‘lim yetgan
bu — menman!
Meni shoir qilgan xalqqa izzat-la boshim eggan
bu — menman!

ISYON KO'TAR

Uzoq ellarning mehnatkash yoshlariga

Vujudingni ezar ekan qayg'u alam, asorat,
Bas qil bunday yotmoqlikni, qo'zg'al, tur, bu na holat!

Yana ofat changal solar, ana ko'rib turibman,
Nahot seni uyquda-yu g'aflat aro ko'ribman!

Qani go'zal, olov yoshlik, dushmaningga hamla qil,
Isyon ko'tar, yana isyon, bu kurashni sharaf bil!

Ruhlaringni kemirmasin u "madaniy" zotlar, tur,
Ko'zlaring och, ey qardoshim, atrofga boq, qani yur!

Yana dahshat tuzog'ini qo'ymoqdalar, ana boq,
Yana senmi qon qusarsan? Qanday dahshat, bu evoh!

Mana bizda bahor fasli, gul-chechag-u nur, quyosh...
Nega sening ko'zlaringdan yosh oqadi, achchiq yosh?

Nega boyqush yayrab yurar sening ona yurtingda?
Haqqing olmoq niyat bo'lsa yosh qalbingda, qaddingda.

Oyoqqa tur, uni yo'q qil, g'animatdir har bir dam,
Ko'r-chi nima talab etar sendan yangi bu olam:

Isyonchi bo'l, isyonchi bo'l, isyonchi bo'l beomon,
Sharqning yongan chirog'ini qayta yondir, ey inson!

Tur, yig'lama, yoshlaring art, qiynalmasin, axir, jon,
Isyon ko'tar, isyon ko'tar, do'stlaring-la yonma-yon!

Zanjirlarni parchalab ot, seni kutar hurriyat,
Isyon bilan, isyon bilan, yo'l topadi haqiqat!

UMR KITOBIDAN BIR YAPROQ

Shaharda harakat tiyilgan zamon
Sayrga chaqirar ko'chalar meni.
Ko'p yaxshi taniydi sirdoshim kabi
Kunduzdan qolishmas kechalar meni.

Ijod-u yaratmoq dardim, amalim,
Ayrilmas qog'ozdan, qalamdan qo'lim,
She'r-u qo'shiqdir tanlagan yo'lim,
Bilaman, yozmaslik hech aylar meni.

Boqaman umrimning kitobiga shod,
Minnatdor ko'nglimning rubobiga shod,
Uyqusiz kechalar hisobiga shod,
Do'stlarim gunohim kechirar meni.

Suvlari musaffo buloq boshida,
Qozoni qaynagan o'choq boshida,
Ham dastgoh qoshida, ham tog' boshida,
Eshitar yoshlar-u oq sochlar meni.

JAVOB BERMOG'IM KERAK

Men otaman, sen o'g'il, xalqimning qarshisida
Har bir harakating-chun javob bermog'im kerak.
Bayroqni tut yuqori, vijdoning bo'lsin toza,
Or-nomus, hayrating-chun javob bermog'im kerak.

Gar sevmasang hayotni, bo'lmas aslo shuhrating,
Eshiklari lang ochiq qoshingda saodating.
Senga peshvoz baxtiyor, ko'ngli ravshan millating,
Sening saodating-chun javob bermog'im kerak.

Shirin kechgan umrning lazzatin zahmatda ko'r,
Shon-sharafning eng baland taxtini mehnatda ko'r.

Xoh ishchidir, xoh olim, baxtini mehnatda ko'r,
Hur, ozod mehnating-chun javob bermog'im kerak.

Atrofingga boq, o'g'lim, hu uzoqqa boq, o'g'lim,
Boshing uzra yashnagan ol bayroqqa boq, o'g'lim,
El-u yurtni yoritgan nur chiroqqa boq, o'g'lim,
Azming-chun, jur'ating-chun javob bermog'im kerak.

Yo'llar yurdim past-baland, yaxshi quloq sol menga,
Dorga ossa, unutma, qayer vatandir senga,
Jondan ortiq sevganim bu muqaddas Vatanga
Buyuk muhabbating-chun javob bermog'im kerak.

O'zing javob berasan baxting, san'ating uchun,
Butun aytgan so'zlarim, noming, hurmating uchun,
O'zing javob berasan mangu shuhrating uchun,
Men ham shon-shuhrating-chun javob bermog'im kerak.

Kel, navqiron yoshliging yelga sovurma, o'g'lim,
Shon-sharafing, nomingni puch yerga urma, o'g'lim,
Bu haqiqat yurtida ol qo'limni, ma, o'g'lim,
Sening haqiqating-chun javob bermog'im kerak.

SENING JONING CHO'NTAKDADIR

Kecha seni bir suhbatda ko'rib yana jo'shdi qonim,
Aqling emas, cho'ntagingni ag'dargancha ko'rsatarding.
Sen-ku aslo uyalmading, mening esa chiqdi jonim,
Hay, demasam pulsiz yoning yana qancha ko'rsatarding.

Payg'ambardek sipo tortib kerilasan har yerda sen,
Odam kabi yashamasdan surilasan har yerda sen,
Ko'zlarimga surbet bo'lib ko'rinasan har yerda sen,
Ma'nosi yo'q shon-sharafing va vijdoning cho'ntakdadir,
Kishi joni tanda bo'lsa, sening joning cho'ntakdadir.

Bilamanki, olam ishi issiq-sovuq bo'lsa kerak,
Himmatingni bu shoirga lozim ko'rma, ey yurak,
Bergan berdim demagandak,
Olgan oldim demagandak,
Berganning ham, olganning ham fikri-zikri cho'ntakdadir,
Umid guli cho'ntakdadir, dog'li kiri cho'ntakdadir.

Ko'zim bilan ko'rmasam ham, zimdan ishlar qilganingni,
Kimga berib, kimdan yana nimalarni olganingni,
Chirik toldek ich-ichingdan chirib, ado bo'lganingni,
Qalbim bilan his etaman, imon yo'ling cho'ntakdadir,
Guvohi yo'q, isboti yo'q "halol" puling cho'ntakdadir.

Shoir ko'nglim ko'pdan beri ich-ichingni ko'rar sening,
Salomingdan, kalomingdan chaqa isi kelar sening,
Lab-lunjing, qosh-ko'zlaring, qo'l-oyog'ing kular sening,
Kulmaslikka ilojing yo'q, muhabbating cho'ntakdadir,
Ma'rifating, tariqating, haqiqating cho'ntakdadir.

Ertang bilan ishing yo'qdir, bo'lsa agar falon bo'lsin,
Birov yonib kuysa nima, faqat sening yoning to'lsin,
Endi g'arib ovang dodlab, oppoq sochin bir-bir yulsin,
Chunki erta o'qilajak jazo hukmi cho'ntakdadir,
Senga o'xshash olchoqlarga nizo hukmi cho'ntakdadir.

Ont ichaman, sening bilan o'tirmayman bir davrada,
Nafasingdan yig'inlarda zaharlanar toza havo.
To azaldan vujudingda oromi yo'q dard yuradi,
Seni ko'rsam shoir ko'nglim g'amga to'lar, ey bedavo!

Boshqa-boshqa odamlarmiz, bizning yo'lni na to'sasan,
Bu ma'noli zamonada bir lahzali g'am-g'ussasan,
Zahar sochib sof dillarga asablarni xo'p buzasan,
Lekin mening xazon bilmas navbahorim qalbimdadir,
Go'zallarning eng go'zali sho'x nigorim qalbimdadir.

Yuragimning dardi bo'lsa oppa-ochiq so'zim kabi,
Uzoq bilan yaqinimni tiniq ko'rgan ko'zim kabi,
So'zim kabi, ko'zim kabi, izim kabi, o'zim kabi,
Yorug' kunim, g'amli kunim, jannatim ham qalbimdadir,
Jondan aziz Vatanim ham, millatim ham qalbimdadir.

Qo'y, hech qachon yuraksizlar ko'zlarimga ko'rinmasin,
Orzusizlar, tilaksizlar ko'zlarimga ko'rinmasin,
Vatansizlar, maslaksizlar ko'zlarimga ko'rinmasin,
Qalbimdadir ol bayroqli haqiqatim, qalbimdadir,
Olinmagan, sotilmagan muhabbatim qalbimdadir.

SAN'AT VA MUHABBAT

Nomingni she'rimda olmasdim tilga,
Agar sen bo'lsayding yolg'iz bir o'zing.
Kecha men o'y surib ketardim yo'lga,
Afisha betida ko'rindi ko'zing.

Dedimki: "Vo ajab, jur'atiga boq,
Sahnaga chiqishga qilibdi qaror!
U nima istaydi, u nimaga zor?!"
Xayolim chuvalib ketdi o'sha choq!

Ko'zlarim o'ngiga keldi shu zamon,
Seid Shushinskiy, Jabbor, Alaskar.
Ha, ular yig'in-u to'yda bearmon
El-yurtga san'atdan berdilar xabar.

Muhabbat san'at-la egiz tug'ilgan,
O'ylama, bu so'zim bir nasihatdir.
Biz sening ertangga javobgar ekan,
Qalbimdan aytilgan chin haqiqatdir.

Ishonki, zakosiz bo'lsayding, albat,
Senga bu maktubni yozmasdim ochiq.

Bu ezgu yo'llarda ko'rsatib san'at,
Yig'inlar to'riga demas edim: chiq!

Shoirlar yurakdan ijod etar, boq,
She'riga nafas-la jon bermog'ing shart.
Ming-minglab kishilar solarkan quloq,
Har so'zga qalbingdan qon bermog'ing shart.

Bir yaxshi xonanda bo'lmoq uchun, bil,
Eng yaxshi tovush ham kifoya emas!
Lekin bu so'zimga shak keltirmagil,
Savodsiz ijroni hech san'at demas!

Darvishdek bu san'at maydonin kezib
U yoqdan bu yoqqa bosh urmoq bekor.
Daydilik tashlaydi san'atni ezib,
Oxiri qiladi o'zingni ham xor.

Tinch o'tir, mashqing qil, oshir san'ating,
Yurakni yondirgan nafasing bo'lsin!
Taqliddan nari qoch, yetar qudrating,
O'zgamas, o'zingning ovozing bo'lsin!

Istasang Vohidning, istasang mening
Zamonga hamnafas g'azalimiz ol.
Ma'nosin bir-bir chaq, ko'rsat hunaring,
Muxlislar qalbiga so'nmas olov sol!

Ba'zida o'qigan g'azaling so'zin
So'rasak, ma'nosin bilmaysan yaxshi.
Sinchiklab tushunsang har so'z ma'nosin,
O'zing ham bo'lasan shaydo bir kishi.

Ne bo'lar, quloqqa olsang so'zimni,
Bu pala-partishlik bas, endi yetar.
Bobom Fuzuliyni, Said Azimni,
Alog'a Vohidni ranjitding battar.

Qofiya, ohangni, vaznni buzib,
Bechora g'azalni xor-u zor qilding.
Ohangga tushmagan tovushing cho'zib,
Go'yoki o'zingcha xo'p qoyil qilding!

Bu "dalay-dalay"lar, bu "omon-omon"
Sinchkov yuraklarga yo'l topa bilmas.
Maktabsiz, ustozsiz xonanda, inon,
San'at maydonida ot chopa bilmas.

Kel, shonsiz ishlardan endi umid uz,
Kel, o'rgan bu dunyo haqiqatini.
Bu san'at daryosin tublarida suz
Va qozon millionlar muhabbatini.

BAHORIM

Bahor bahor bo'lmasdi agar biz bo'lmasaydik,
Dunyomizda ko'raman dunyosini bahorning.
Poytaxtimda o'pishar bayroqlar-la bayroqlar,
Zafarlardir baxsh etgan ziyosini bahorning.

Gurs-gurs yurar yigitlar yuzlarida tabassum,
Yuraklarga yo'l topgan so'zlarida tabassum,
Ertani ravshan ko'rgan ko'zlarida tabassum,
Qo'shiqlardan axtaring ma'nosini bahorning.

Bahor bizning elchimiz, har elda, har diyorda,
Insonlarga so'z aytar har tilda, har diyorda,
Yonsin yurak so'zlari har dilda, har diyorda,
Erk sevganlar tinglasin ovozini bahorning.

Shonli, porloq kunlarga yo'llar ochgan o'zimiz,
Qo'shig'imiz nur qilib elga sochgan o'zimiz,
Keng, yulduzli olamni ilk bor quchgan o'zimiz,
Biz o'zimiz yashnatgan samosini bahorning.

Navbahorim soz bilan qirlar oshar, tog‘ oshar,
Dala-tuzg‘a tilidan atir sochar, gul sochar,
Bugunimdan so‘z ochar, ertamdan suhbat ochar,
Tinglamagan armonda gul sozini bahorning.

Imzo chekkan bahorim baxtimizga yurakdan,
Gulga, nurga g‘arq bizning beqiyos go‘zal Vatan,
Men mo‘ysafid shoirman, ishonchim but ertadan,
Na kuz, na qish o‘chirar imzosini bahorning.

BO‘LMAGANDA

Yangramasdi qo‘shig‘im, she’rimga jon bitmasdi
Quyosh bayroqli ming-ming shaharim bo‘lmaganda.
Har tomonga chinordek fikrim quloch yozmasdi
Boku kabi bir ajib shaharim bo‘lmaganda!

G‘arib bo‘lib qolardim men bu yo‘llar boshida,
Go‘zal Ona-yurtimning tuprog‘ida, toshida,
Qonim kabi qaynagan buloqlarning qoshida
Yozilgan dasturxondan xabarim bo‘lmaganda!

Qora kunda yaramni qo‘shiq bilan bog‘lardim,
To‘lqinlarni tik yorib ufqlarni chog‘lardim,
Yurak so‘zim she’rimga men qayerni chog‘lardim,
Ozod, baxtli yuraklar — daftarim bo‘lmaganda!

Ko‘ngillardan o‘charoq nomim unutilardi,
Yuragimga dunyoning g‘am-g‘ussasi to‘lardi,
Kuzga qolgan gullardek qo‘shiqlarim so‘lardi,
Mehnatimning so‘ngida zafarim bo‘lmaganda!

Yoshlar sohilda kezib xayolga tolarmidi,
Mening she’rimda bu kuy, bu ohang bo‘larmidi,
Go‘zallarning ko‘zlari moviy rang olarmidi
Shaharimning ko‘zgusi Xazarim bo‘lmaganda?!

Yuragimdan kechganni ochiq aytaman sizga,
Yoshligimdan shaydoman quyosh kulgan kunduzga,
Tushmasdim el og‘ziga, ko‘rinmasdim hech ko‘zga
Uch-to‘rt qog‘ozga tushgan asarim bo‘lmaganda.

Bir visolning dardida og‘rir ko‘pdan bu boshim,
Yaxshi bilar bu sirni do‘stim bilan qardoshim,
Yigit kabi navqiron ko‘rinardi bu yoshim
G‘amgin Arazga bog‘liq kadarim bo‘lmaganda.

Hurmat ko‘rdim xalqimdan, topdim shon-u shuhratni,
Sevdim jondan, kashf etdim tengsiz go‘zal hayotni,
Qo‘shiqlarga ko‘mardim bu cheksiz koinotni,
Bir kuni so‘nggi yo‘lga safarim bo‘lmaganda.

MOMOLAR, BOBOLAR O‘CHOG‘IDAMAN

Ko‘nglimda bir daryo ajib tuyg‘ular,
Yana dardli Araz qirg‘og‘idaman.
Ko‘p bo‘ldi diydorin ko‘rmaganimga,
Janublik dilbarning so‘rog‘idaman.

Istardim, yo‘qolsin siynamdan bu dog‘,
Qalblarni o‘qisam varaqma-varaq,
Har ikki sohilda emasman qo‘noq.
Momolar, bobolar o‘chog‘idaman.

Qo‘l ushlab kezarman haqiqatim-la,
Yuzma-yuz kelarman saodatim-la,
Dunyoga sig‘magan muhabbatim-la
O‘z ona tuprog‘im quchog‘idaman.

Tug‘ishgan onadir menga bu yerlar,
Sizniki yozganim barcha she’rlar,
Sulaymon Rustamga ko‘p shunday derlar:
She’rim-la ellarning dudog‘idaman.

YANA TEMIRCHIXONADA

Yana bugun tush ko'rdim,
O'smirlik yoshim ekan.
Boshimda oq telpagim,
To'shimda peshbandim bor.
Yana bosqon bosaman, mehnat bardoshim ekan,
O'choq ichra temirlar yonib boqar intizor.
Ular bolg'a ko'rmagan, lovullaydi yonaroq.
Uchqunidan peshbandim, kiyim-boshim yuz yamoq.
Yerga tushmas qo'limdan na bolg'am-u na gurzim,
Sherog'iz-u sherko'zli o'choq ichra bu ko'zim.
Go'yo menga temirlar yolvorganday boqadi,
Cho'ng bolg'amning zarbidan hayot nuri oqadi.
Temir istar insonning yana tushsa qo'liga,
Qo'shiq bo'lib quyilsa mehnat sevgan diliga,
Elim ichra kezsa u sof niyatli sayyohdek...
Mo'rilardan dud chiqar qalb o'rtagan bir ohdek!

Noshudlikdan qo'limni lat yedirsam nogahon,
O'rgimchakning uyasi dori bo'lar shu zamon!
Shu temirlar dastidan chelakda suv qop-qora,
Kundan kunga xayolim bunda o'sar tobora!
Shu qora suv — ko'zguda men o'zimni ko'raman,
Yorug', porloq kelajak, kunduzimni ko'raman.
Ustalarning ustasi bo'lmoq mening niyatim,
Shu hunarning otasi bo'lmoq mening niyatim,
Yolvormasin, qo'y, temir temirchining qo'lida,
Temir bilan so'zlashdim temirchining tilida.
Yomg'ir kabi yog'ilgan uchqun ichra qolaman,
Olqish kabi ularni qabul etib olaman.
Yana bolg'a uraman,
Temirga jon beraman,
Ertamga yo'l ochaman shu o'smirlik chog'imda.
Uyg'onaman... O'zimni yana ishda ko'raman,
Temir she'r toblayman temirchi o'chog'ida.

SUHBAT

Kechir meni, ey hijo, ey sevimli o'lchovim,
She'rlarning panohi, shirin tilli o'lchovim.
Ey, elimning yodgori, sendan yuzim burmadim,
Seni kulgi hisoblab yelga aslo bermadim!

Ilk sevgimning ilk marta sen tilmochi bo'lgansan,
She'riyatim mulkida tegirmonchi bo'lgansan.
Ayrilmading sen mendan na ayozda, na yozda,
Menga yelkan bo'lgansan ham Kurada, Arazda!

Qalbimdagi sevinchim, dardimga sen guvohsan,
Jang-u jadal safarda birga kezgan hamrohsan.
Menga doim shirindir sen-la totgan non-tuzim.
Seni qari degan kim,
Hech kerakmas degan kim?

Kechib bo'lmas xato bu!
Qancha kashf-u ixtiro sen-la topmish yo'l mangu.
Sen qalbimning istagi, ishqi bilan yangrading,
Goh ipakka, gohida sen temirga o'xshading.

Vaqti kelsa jur'ating,
Hech tugamas qudrating
Ko'ro'g'lining, Nabining tillarida sayradi,
Jang safarda askarning qo'llarida sayradi.

Ey, bobolar ishidan bizga xabar bergan do'st,
Vidodiyni, Voqifni, Alaskarni ko'rgan do'st,
Bordir boshqa vazn ham,
Ularni rad etmadim,
Bu ulug'vor zamonda hech keraksiz demadim.
Aruzda ham yozdim men,
Sarbastda ham yozdim men,
Lekin sensan sevganim,
Dema xato deganim!
Boshqa vaznlar aro sening ajib o'rning bor.

Oy, yulduzli kecha-yu quyosh yongan kuning bor.
Bundan ortiq ne deyay?

Hammangiz ham keraksiz,
Yuragimda qaynagan so'zlarimga tiraksiz.
Doim mening o'y-fikrim, yuragimda band o'zing,
Do'stlarimning qoshida boshi baland sen o'zing.

Ancha yoshga borsam ham, jang-kurashda birgaman,
O'ylaymanki, kurashda eng oxirgi yerdaman!
Sening shon-u shuhrating iftixorim, kuchimdir,
Seni ko'zdek asramoq vijdon amri, burchimdir!

XOTIRA

Vaqt yetganda,
Kunim bitganda
Meni ko'ming tantanasiz sevgim — ona tuproqqa,
Sevmaganlar chetda qolsin, do'stlar o'tsin bu yoqqa!

Niyatim shu: mendan keyin hech bir kimsa o'lmasin,
Do'stlarimning dili kuyib, ko'zi yoshga to'lmasin.
Hayot yana qulf ursin-u, bog'lar bo'lsin serviqor,
Ruhim kezsin chechaklar-la qo'ldan qo'lga har bahor.

Nomard o'lim har eshikni qoqmoqlikdan tiyilsin,
Bu dunyoga ma'no bergan inson umri cho'zilsin!
Yulduzlarga borib kelsin poygamizning karvoni,
Ol bayroqlar chulg'ab olsin erkka muhtoj dunyoni!

She'rlarimni esga solsin Xazarimning to'lqini,
Sohildagi go'zallarga guldek kulsin yolqini!
Ona shahrim go'zal Boku, yana yashnab ochilsin,
Go'daklarning tabassumi shafaqlarga sochilsin!
O'z qalbida to'la saqlab mehr to'la jonimni,
Yolg'iz o'g'lim toshga yozsin mening aziz nomimni!

VASIYATNAMO BIR NARSA

Yolg‘iz o‘g‘lim, yaqin kel, yaxshi quloq os menga,
So‘ylab beray otamdan ne qoldi meros menga.

Bolg‘a urdi ellik yil, yasab o‘roq... neki bor,
Orzumizdan yaralgan bu davlatga e’tibor.

Ona Yerga hurmatim, xalqqa chuqur muhabbat,
Shudir mening hech bitmas bilagimda kuch-qudrat.

Shu hislarsiz biror kun yasholmasdim shu xilda,
Shoir nomim tushmasdi eldan oshib har tilga.

O‘g‘lim, yaxshi-yomonni ko‘zing ko‘rsin yaxshilab,
Mendan senga shu meros, oddiygina bir talab!

BIR “DO‘STIMGA”

Bu ma’noli hayotga baxsh etmasang ilhoming,
Qora yerga kirarsan yorug‘ dunyo yuzidan.
El-ulusdan, Vatandan baland tutsang o‘z noming
Vatan seni unutar, tusharsan el ko‘zidan!

Yuragingning qurtini o‘zing payqa va o‘ldir,
O‘zgalarning shuhratin o‘z shuhratim dema, qo‘y!
Qo‘shiq to‘qib chiroyli, yoshlik ko‘zlaring kuldir,
Erta kunga yo‘l ochsin dilingdagi yaxshi kuy!

San’at degan cho‘qqiga nomsiz ketib, nom-la kel,
Bu yo‘llarda zahmat bor, bu yo‘llarda olqish bor.
Asta yurib ketsang ham, qanot bilan qaytib kel,
Unutmagil, bu yo‘lning bahori bor, qishi bor.

Uyquni quv, uyquni, bu uyquchan ko'zingdan.
Vatan uchun, el uchun erit diling sham kabi.
Ko'zing ayri tushmasin olov sochgan so'zingdan,
She'ring kezsin ellarni sharbat to'la jom kabi!

G'uncha ochsin qo'shiqlar shoir dudoqlaringdan,
Ishqing to'la bog'changga bahor salomga kelsin!
Kel, kel, umring kitobin jonli varaqlarida
Zamon nafasi yelsin!

NASIHAT

Quyoshlik yo'llarning yo'lchisi, o'g'lim,
Xalaqit bermaydi bo'ron, qor senga,
Bu hunar maydoni ichra oting sol,
Oq yo'llar tilaydi bu diyor senga.

Bu ozod Vataning dunyoda bitta,
Isming ham o'zingdek go'zal, albatta.
Gul-chechak barq urgan yo'ling keng, katta,
Rashk qilsa ajabmas ilk bahor senga.

Umringga bog'ladim aziz umrimni,
Olursan bir kuni mening o'rnimni,
O'tnafas kuyimni, olov she'rimni
Yurakdan qilganman e'tibor senga.

Sen ko'nglim ilhomin do'sti, hamdami,
Otaning dunyoda bo'lmas dard, g'ami,
Sen surgan kemaning bo'lmasa kami,
To'fonlar bosh egar necha bor senga.

Vatanga bog'lansin yurak qillaring,
Bo'sh, bekor turmasin ishchan qo'llaring,
Fidoyi do'sti bo'l, bu do'st ellarning,
Esda tut, bu so'zim chin yodgor senga.

SEVAMAN, SEVMAYMAN

Sevaman yurtimninig baxt amalini,
Ertaning ishini haq bilganlarni,

Bu do‘stlik bog‘idan o‘t, tikanlarni
Ildizdan qo‘porib tik yulganlarni.

Sevmayman mehnatsiz asal yeganni,
Shol o‘rab, kerilib ipak kiyganni,

Qorani atayin oppoq deganni,
Otaga, onaga yuk bo‘lganlarni.

TANQIDCHI DO‘STIMGA OCHIQ XAT

O‘qi ushbu xatimni,
ey tanqidchi, qo‘lga ol,
Ko‘pi yoqmas so‘zimning qulog‘ingga, ehtimol.
Kel, haqingda bir marta shoir fikrin so‘ylasin,
Garchand og‘ir botsa ham, biroz tanqid aylasin.
Tanqidchilar ichida ancha-muncha do‘stim bor,
Ular bizga safardosh,
Bo‘lgan doim ustuvor.

Men tanqidchi emasman,
Ochiq gapni desam man:
Na dalada bo‘lgansan,
Na bir konda bo‘lgansan,
Ol bo‘yningga,
hayotdan tamom chetda qolgansan,
Na bo‘ronlar ko‘rgansan.
Na bir hijron chekding sen,
Ona Vatan bog‘ida na bir nihol ekding sen.

Ot o‘ynatib tog‘larga biron marta chiqmading,
Undan har yon boqmading.

Na bir bog‘dan, chamandan gul-u chechak tergansan,
Faqat ko‘zing kitobga erta-yu kech bergansan.
Bilamanki, bir umr eshitmagan qulog‘ing,
Tovushini, kuyini turna ko‘zli buloqning.

Vatandoshdek aylanib Ona yurtni kezmading,
Qon-qardoshlar bog‘idan olma, uzum uzmading!
Na bahorda, na qishda bir ochilib yurmaysan,
Bilmaysanki, har ishda doim haqli emassan.

Eng yaxshi bir adibning yerga urib san’atin,
Shu yo‘sinda oshirmoq bo‘lding shon-u shuhrating!
To‘rt devorli xonangdan hech tashqari chiqmaysan,
Boshing olib kitobdan atrofingga boqmaysan.

Qo‘llaringga tushganda bir shoirning daftari,
Yozibsanki, “falonchi yurib hayotdan nari!
Shoir bizning hayotni o‘rganmabdi chuqurroq.
Hali ko‘kdan tushmabdi, hali yerdan ko‘p yiroq.

Ha, meningcha, tili ham boshdan oyoq ko‘hnadir,
Aslida bu qofiya, bu ohang bahonadir...
Bunday bo‘lmas-da, dehqon
Neftchisi ham bo‘lmabdi,
Bilmaganin u nega mendan so‘rab olmabdi!
Dehqonlar-u neftchining yo‘l topmabdi qalbiga,
Uydirmalar to‘qimoq nega kerak, xo‘sh, nega?!”

Ey, tanqidchi, sen inon,
So‘zimga qilma gumon,
Shunday qilding “donolik” o‘z umringda ko‘p, biroq.
Biron kimsa solmadi so‘zlaringga hech quloq!
Unutmagil hech qachon —
Bu she’rlar bermaydi jon!

Maslahatim shu senga: — vaqting o'tar, yosh ketar,
Ibrat olgan zamondan kunda yangilik kutar,
Hali uncha kech emas, ko'zing ochib, bardosh-la
Avval hayotni o'rgan, keyin tanqidni boshla!

NON-TUZING NARIGA ITARMA

Menimcha, insonning ko'rki, sharafi
Na ipak kiymoqdir, na forma, o'g'lim.
Yaxshidan yaxshi bo'l el orasida,
Do'stingdan hech mahal yuz burma, o'g'lim!

O'rinsiz yig'lama, o'rinsiz kulma,
Ko'ngilni qoldirib, dilozor bo'lma,
Notanish odamga sir berib yurma,
Tilingga yolg'on so'z keltirma, o'g'lim!

Bu umr qanotli o'tar-u ketar,
Har inson zahmat-la kamolga yetar,
Bog'ida nargiz-u lolalar bitar,
Tikan-u alafga yo'l berma, o'g'lim.

Orzuga limmo-lim bu shoir dili,
Ish, hunar maydoni bu hayot yo'li,
Qisqadir ish bilmas odamning qo'li,
So'z berib o'zingdan, lof urma, o'g'lim!

O'qigil yozganim satrma-satr,
Suhbatda tilingdan sochilsin atir,
Mol-u mulk, boyliging nariga itar,
Non-tuzing nariga itarma, o'g'lim!

DENGIZDAGI SHAHAR

Temir oyoqlar uzra turar mag'rur Xazarda,
Boku neftchilarining bunyod etgan bu yurti.
Baxtiyordir har kishi bu qahramon shaharda,
Bu ajoyib shaharni san'at bilan u qurdi.

Necha bahor, necha qish kechdi shahar boshidan,
Necha o'g'il, necha qiz bu shaharda tug'ildi.
Mehmon kelsa bu yurtning hayron turib qoshida
Husni bilan yuragi nurga to'ldi, yo'g'rildi.

Neftchilarni cho'chitmas na Xazarning to'lqini,
Uvvos solib, hayqirib, chimirib qoshlarini.
Ufq uzra yoyilar tongdan quyosh yolqini,
Mard neftchilar olqishlar go'zal "Neft toshlari"ni.

Tildan tilga tushgandir qo'shiq kabi dovrug'i,
Qahramonlar nomini tarix yozgan zar bilan.
Neft toshlari qalbimning istagidir, yorug'i,
Yana yozdim bir she'r:
Qani, yuksal, ko'lkalan!

ZANJI SHOIRASI SESILGA

Oh, bunchalik o't bo'lmasa zanjilarning go'zali,
Uni ko'rdim Toshkentda men, ko'z oldimda u hali!
Hali-hali ko'z o'ngimdan ketmas chaqmoq ko'zlari,
Oq soyangman, qora go'zal!
Buncha shirin so'zlari!
Endi bildim tabiat seni qanday bor etgan,
Adashmasam, seni go'zal tabassumdan yaratgan!
Qora go'zal! Ey, qora qiz, baxtning qaro bo'lmasin,
U qaro kun yorug' baxting hech so'roqlab kelmasin!
Sen Toshkentda erta bilan ro'paramdan chiqqanda

Aziz noming sado berar yuragimdan jo‘sh urib.
Do‘sting kabi qo‘llaringni qo‘lga olib siqqanda
Bir ajoyib his kezadi vujudimda hayqirib:
— Oq kunlaring shu qora qo‘l kuchi ila barqaror,
O‘chi bilan barqaror
Zafar quchding nurli, porloq.
Qora kunlar kechagi,
Qora labda barq uradi yorug‘ kuning chechagi!

BOQDIM

O‘zimdan oldinroq yo‘l olganlarning
Bo‘y-basti, jamoli, iziga boqdim.
Vatan-u xalqimning og‘ir kunida
Jur’at-la ajalning ko‘ziga boqdim.

Sayr etib yurtimning keng gulzorini,
Xazonsiz, abadiy gul bahorini,
Baxtiyor nasllar shon, viqorini,
Bildimki, baxtimning yuziga boqdim.

Yonidan o‘tmadim mayxonalarning,
Me’mori ataldim koshonalarning,
So‘ziga boqmadim begonalarning,
O‘z shoir qalbimning so‘ziga boqdim.

BAHOR YURAGIMDADIR

Bu tengi yo‘q, bu go‘zal
Diyor yuragimdadir.
Dunyolarcha sevganim —
Nigor yuragimdadir.

Men bildimki, to‘zmagan,
Salobatin buzmagan,

Hech bir cho‘qqi o‘zmagan
Viqor yuragimdadir.

Meni yoshdek saqlagan,
Bu yurt-elga bog‘lagan,
Daryo bo‘lib chog‘lagan
Qaror yuragimdadir.

Yo‘li nurli va porloq,
Mol-davlatli besanoq,
Istiqboli yana oq,
Ash’or yuragimdadir.

Na to‘fondan qo‘rqaman,
Na hijrondan qo‘rqaman,
Na xazondan qo‘rqaman,
Bahor yuragimdadir.

YODIMGA TUSHDI

Xotira daftarim turar qoshimda,
Ajib bir savdo bor mening boshimda,
Go‘zal Qorabog‘da yigit yoshimda
Bir qizni sevganim yodimga tushdi.

Kezdim Qorabog‘ni qo‘lim qo‘linda,
Borim-u yo‘g‘imni ko‘rardim unda,
Bu shoir qalbim-la uning yo‘linda
Ming ko‘yga tushganim yodimga tushdi.

Ko‘nglimning orzusi, tilagi edi,
Nozli malaklarning malagi edi,
Umrimning ishongan tiragi edi,
Unga ont ichganim yodimga tushdi.

U xabar bermasdan ko‘chdi ovloqqa,
Ko‘zlarim nigoron, ketdi yiroqqa,

Qalbimda ilk yara, yor ketgan yoqqa
Ketidan ko‘chganim yodimga tushdi.

Uchdi bir kaptardek ishqim qo‘lidan,
Ismi bu oshig‘in tushmas tilidan,
Iso bulog‘ida uning qo‘lidan
Suv olib ichganim yodimga tushdi.

U mendan uzoqda kezdi xiromon,
Ayriliq o‘limdan yomonmish, yomon.
Har kuni eshigi ostidan nolon
Oh urib kechganim yodimga tushdi.

OYOG‘IM EMAS

Ko‘nglimda bir olam orzu va havas,
U tutun burqsigan o‘chog‘im emas,
Boshlarim ming toshga urildi, lekin
Sevgilim, bu chog‘im, u chog‘im emas!

Noming-la bezaldi umr kitobim,
Hajringda to‘zmadi bardoshim, hobim,
Bo‘hton-u g‘iybatga yo‘q mening tobim,
Yuragi qurtlilar qo‘nog‘im emas!

Eshigim qoqadi ayriliq faqat,
Seningsiz ne kerak bu bog‘, bu ulfat,
Sevgimdan qo‘shiqlar qilsam qiroat
Bu sevgan ko‘nglimdir, dudog‘im emas!

Bilasan, jonimdan sevaman seni,
Oh, nega tushirding eshik pardani,
Derazang tubiga keltirgan meni
Sevgan yuragimdir, oyog‘im emas.

U CHOG‘LAR

Umrimning yoshligi qoldi orqada,
Jon olib, jon bergan sanamlar, ketdi.
Jononning joniga jon qurbon degan,
Chekkanim alamlar, sitamlar ketdi.

Sevgilim, baxtimni ko‘rib ismingda
Yo‘lingni ko‘zlardim, bormi esingda?
Yomg‘ir-u qor kabi erib ko‘zingda
Ketdi u soatlar, u damlar ketdi.

SHIRIN XOTIRA

Ko‘ngil qo‘ydim yoshlikda Xazar ko‘zli bir qizga,
Sahar ko‘zli bir qizga!
Gul ochgandi o‘shanda birinchi muhabbatim,
Yodimdadir u qiz-la tong otguncha suhbatim.

Har bir so‘zim qalbimdan to‘lqin urib chiqardi,
Eshigiga yetganda ko‘zim xomush boqardi.
Yodimdadir suratin ko‘zimda qoldirganim,
Sevgisini jonimdek o‘zimda qoldirganim.

O‘sha qizga qizil gul berganim yodimdadir,
Yoqasiga taqqanin ko‘rganim yodimdadir...

Yodimdadir qalbimga ilhom solgan so‘zlari,
Ko‘zlarimga ko‘z tikkan u samoviy ko‘zlari:
Ketishi yodimdadir,
Kelishi yodimdadir,
Bahordan ham ming go‘zal kulishi yodimdadir.

Bu savdoga, azizlar, necha yillar o‘tibdi,
Boshimizni oq nurlar endi butun tutibdi.
Nazarimda, o‘sha gul hamon yoqasidadir,
Oh, ayriliq onlari, yillar orqasidadir!

SENI SIRA BERMAYMAN

Diydoringni ko'rmadim — yillar kelib o'tishdi,
Baxtimni ko'r, nihoyat, visol oni yetishdi!
Mayli bilsin bilmagan, seni topdim qidirib,
Ayriliqning qo'lidan oldim yulib, sidirib!

Endi yuragimdasan,
Inon, tilagimdasan,
Endi hijron qo'liga seni sira bermayman,
Seni sira bermayman, berib qarab turmayman!

NOMINGNİ YOZGANMAN

Sevgilim, demagil meni bevafo,
Eslayman har kuni, har bir on seni.
Qalbimdan bir lahza qo'zg'ata olmas
Na bo'ron, na to'fon, na hijron seni!

Istayman, husningni gulshanda ko'rsam,
Ko'nglimga hasrating tushganda ko'rsam,
Bu mangu onamiz Vatanda ko'rsam,
Ko'rmayin parishon, bag'ri qon seni!

Nomingni yozganman tik qoyaga men,
Tushibman ishq nomli keng daryoga men,
Sen uchun kelganman bu dunyoga men,
Men uchun yaratgan bu jahon seni.

BU SENING YURAGINGDIR

Ko'p yildirki, ko'ksimda so'lmagan bir chechak bor,
Bu sening chechagingdir, bu sening chechagingdir.
Go'zallik olamida go'zallik axtarurman,
Bu sening tilagingdir, bu sening tilangingdir.

Yuragim hasratingdan o‘t olib tutashganda,
Sevgilim qo‘rqamanki, jon qolmas deb bu jonda,
Siynamda bir pokiza his tuyaman shu onda,
Bu sening bilagingdir, bu sening bilagingdir!

Yolg‘on bilan chirkinlik kirmaydigan bir uy bor,
Eshigini qoqmaydi na bir bo‘ron, na bir qor.
Bu sir qolsin o‘z oramizda, ey go‘zal nigor,
Bu sening yuragingdir, bu sening yuragingdir.

YURAKSIZ BORMA

Sevganing go‘zalning ilk va’dasiga
Quvona-quvona chechaksiz borma.
Ilk va’da — sevgining ilk qo‘shig‘idir,
Chechaksiz borsang ham, yuraksiz borma.

YONMASIN SIRA

Bu go‘zal davronning go‘zal qizlari
Ayriliq o‘tida yonmasin sira.
Hayotni bir ermak, o‘yinchoq bilib,
Arg‘imchoq singari solmasin sira.

Vatanin, millatin qadrini bilsin,
Vaqtida yig‘lasin, vaqtida kulsin,
Kim aytdi sevmasin — sevsin, sevilsin,
U guldan bu gulga qo‘nmasin sira!

SENI SEVMASAYDIM

Yashamasdim, ko‘z yumib umrim yelga ketardi,
Meni dunyolar qadar sevganni sevmasaydim.
Ayriliqqa bunchalik berolmasdim hech bardosh,
Men seni sevmasaydim, men seni sevmasaydim.

Sho‘x Araz sohiliga kunda kelolmasdim hech,
Hayotimda bir marta to‘yib kulolmasdim hech,
Seni dunyolar qadar seva bilolmasdim hech,
Vatanni sevmasaydim, Vatanni sevmasaydim.

NEGA DIL BERDING?

Deysanki, sevmayman, chetlan yo‘limdan!
O‘tgan yil, bas, nega menga dil berding?
Ilk bahor chog‘ida qarshimdan chiqib,
Qizarib-bo‘zarib nega gul berding?

Kel, o‘qi, ishqimning jon kitobini,
Sinab ko‘r oshig‘ing yurak tobini,
Bir mahal eshikning tutib sopini
Gul to‘la bog‘changga nega yo‘l berding?

Men kimdan so‘ramay, shu uning gapi:
Sen o‘zing birgina dardim tabibi.
Sevmasang ayt nega, xotira kabi
Shu ipak sochingdan bir tola berding?

SENSAN

Quyoshga ro‘baro‘ turgan saodatim sensan,
Atirli gul-chechaksan, jonli sarvatim sensan,
Butun go‘zallari saf-saf tizilsa dunyoning
Bu ko‘ngil derki, yagona muhabbatim sensan.
Sening-la kechdi go‘zal kunlarim, daqiqalarim,
Dilimdan kuy qilib aytgan haqiqatim sensan.
Yana men, Tabrizim, keldim, vafodoring qabul et,
O‘zing yaxshi bilursanki, shon-shuhratim o‘zingsan.

QO‘Y, SEVMASIN

Kechdi yor mendan nihoyat, sevmasa, qo‘y, sevmasin,
Aylamas ko‘nglim shikoyat, sevmasa, qo‘y, sevmasin.

Aytmasin jonon uning-chun ko‘zlarim qon yosh to‘kar,
Topmagum yorsiz saodat, sevmasa, qo‘y, sevmasin.

Bir buyuk oshiqdan o‘rgandim hayotda ko‘p zamon,
Yerga yetmas ilk muhabbat, sevmasa, qo‘y, sevmasin.

Yetkazing, do‘stlar, vafosiz dilbara bu niyatim,
Chekmasin eldan xijolat, sevmasa, qo‘y, sevmasin.

She’rga berdi ko‘nglini shoir Sulaymon Rustamiy,
Kutmadi bir o‘zga shuhrat, sevmasa, qo‘y, sevmasin!

HISOBGA O‘TMASIN

O‘ylar edim, seningsiz mening yashashim gumon,
Shuncha qildim qalbimni tark etmading biron on.
Kechalari ko‘zimdan shirin uyqim chekildi,
Bu nigoron ko‘zlarim yo‘llaringga tikildi.
Dard-hasrating o‘qidim kitobdek varaq-varaq,
Askar kabi ko‘changdan yurdim u yoqdan bu yoq.
Nozik shoxlar barimdan goho tutib qolardi,
Sharpa o‘tsa ko‘zlarim, senmi, deya qarardi.
Bu intizor ko‘zlarim yo‘ling kutib tolibdi,
Kel, bu hijron selining yo‘llarini to‘saylik,
Bir-birovga yaproqdek intilgancha esaylik!
Nomimizni kimsalar hissiz toshga bitmasin,
Sensiz o‘tgan kunlarim hech hisobga o‘tmasin.

BILMADING SEN QADRIMNI

Bilmading sen qadrimi, ey nozli jonon, bilmading,
Chekdi ming dard, ming jafo hajringda bu jon, bilmading.

Bilmading sen yo'qligingdir qalbima o'tlar yoqib,
Bag'rimi dog'-dog' etgan hijronni hijron bilmading.

Sevgi dunyosida men hech vaqt vafosiz bo'lmadim,
Umrimi berdim sening sha'ningga qurbon, bilmading.

Muhabbat taxtida farmon berdi har kun ayriliq.
Jon uyida esdi yellar, turdi to'fon, bilmading.

O't olib yondim Karamdek, boqmading hech holima,
Bilmading, sensiz qolib, kulmas Sulaymon, bilmading!

OZARBAYJONDAN AYRILMAS

Go'zallik, erkalik, sevgi, vafo insondan ayrilmas,
O'jar sellar, oqar soylar asti ummondan ayrilmas.

Uzoq tushsa ko'zimdan dilbarim, ko'nglim to'zar, chunki
Fidoyilar bilar yaxshi visol hijrondan ayrilmas.

Vafosizdan vafo kutma, vafodin yo'g'rilib ishqim,
Jonidan ayrilar oshiq, biroq jonondan ayrilmas.

Butun dunyo o'z o'qidin, mehvaridin ayrilsa,
Sulaymon Rustamiy qalbi Ozarbayjondan ayrilmas.

KO'R

Ey, ko'ngil, jo'sh urib shonli davronda,
Baxtini nur ichra ko'rganlarni ko'r!
Har kuni yengilmas qahramon kabi
Ko'ksini zafarga kerganlarni ko'r!

Gulzorin jamoli go'zallarga boq,
Olqishla ularni, niyati porloq...

Bir-birin qo'llarin ushlashib quvnoq
Gulshanda gul-lola terganlarni ko'r.

Ey, ko'ngil, sayr etib yurt bahorini,
Quyoshga xabar qil baxti, korini,
Nainki so'zini, butun borini
Onamiz Vatanga berganlarni ko'r.

Dilimda qo'shiqdir bu so'z, bu xabar,
Insonga fazilat mehnat-u zafar.
Bir san'at ko'rsatsa har kun, har safar,
G'alaba bongini urganlarni ko'r.

Ey, ko'ngil, yana bir so'z aytdim, mana,
U og'ir kunlaring esga ol yana.
Erta deb, hayot deb mag'rur, mardona,
Ajalni ko'z bilan ko'rganlarni ko'r!

NEVARAM QUYOSHGA XAT

Hayotda tayanchiq, aziz Quyoshim,
Vijdoning, nomusing, g'ayrating bo'lsin.
Oqsoqol bobongning so'zini eshit,
Kurash, yon, el ichra hurmating bo'lsin.

Qalbimning qaynog'i bo'lsin dilingda,
Bu nomim — sharafim bo'lsin tilingda,
Askardek qadaming bo'lsin yo'lingda,
Dovonlar oshmoqqa qudrating bo'lsin.

Ko'nglingni bu ona Vatanga bog'la,
Haqsizlik ko'rdingmi, yanch va pachoqla,
Mening bu so'zlarim yodingda saqla,
Bu shonli yo'llarda jur'ating bo'lsin!

Do‘stga muhabbatni bobongdan o‘rgan,
Dushmanga nafratni bobongdan o‘rgan,
Lazzatli suhbatni bobongdan o‘rgan,
Har uyda, har yerda suhbating bo‘lsin!

Zeb-ziynat tortmasin ko‘zing nurini,
Yelga ber mol yig‘moq, daydi fikrni,
Xush tilak, orzular olsin o‘rnini,
Muqaddas intilish, niyating bo‘lsin!

Quyoshim, qalbimning sasini eshit,
Sulaymon boboning so‘zini eshit,
Hali tirik ekan, o‘zini eshit,
Ammo eshitmoqqa san’ating bo‘lsin!

DUDOQLARDADIR...

Bu Vatan tuprog‘in sharbati, atri,
Chamanga burkalgan gulbog‘lardadir,
Baxtiyor xalqimning so‘nmas viqori
Ko‘klarga bosh urgan bu tog‘lardadir.

Yosh o‘sib borsa ham, ellar, ey ellar,
Parishon emasman, bilsin nasllar,
Umrimning davomi ma’noli yillar
Bolalar qalbida — u chog‘lardadir.

Bu go‘zal davronni tuymaganlarning,
Biror bor g‘ishtga g‘isht qo‘ymaganlarning,
Hasad sharobiga to‘ymaganlarning
Dahshati, gunohi oyoqlardadir.

Ba’zi shoirlarning yo‘qdir o‘z so‘zi,
Bor-ku Vurg‘unning o‘z nafasi, sasi,
Muhabbat quyoshing, Vatanim so‘zi
Bugun ham, erta ham dudoqlardadir.

Menga na shuhrat-u na unvon kerak.
Qo'shig'im qanoti umid va tilak.
Nega ham yonmasin sevinchdan yurak,
She'rimning ol rangi bayroqlardadir.

VATANIM O'L DESA O'LGAN SHOIRMAN

Kim ne desa desin, kim kulsa kulsin,
Men ham mavrudida kulgan shoirman!
Og'zidan sut hidi ketmagan go'dak,
Men xalqim dardini bilgan shoirman!

Baxtli taqdiridan jo'shqindir she'rim
Qilichdan o'tkirdir, keskindir she'rim!
Xasta yuraklarga taskindir she'rim,
Zolimning bag'rini tilgan shoirman!

Majnuntollar menga yo'lda bosh egar,
Do'st bo'lib qo'shilar jo'mard yigitlar,
Behuda qilma sen pand-u o'gitlar,
Men yaxshi-yomonni bilgan shoirman!

Bosh og'ritar xulyo nimaga kerak!
Muhabbatsiz dunyo nimaga kerak!
Ko'z yoshidan daryo nimaga kerak!
Elning ko'z yoshini artgan shoirman!

So'n, desam, ko'klarda so'nar yulduzlar,
Yerga qo'ngil, desam, qo'nar yulduzlar,
Ishqning karvoniga do'nar yulduzlar,
Quyoshli o'lkadan kelgan shoirman!

Har narsa sotilar, yurak sotilmas,
Non-tuzsiz qolsa-da, yurak sotilmas,
Ko'ngilda tug'ilgan tilak sotilmas,
Vatanim o'l desa o'lgan shoirman!

VATAN YONDI

Chunon faryod qildimki, qizardi loladek bag'rim,
Boqib atrofima, ko'rdim: chinnigul, yosuman yondi.

Yurakda ming yarang bordir, sho'rlik millat, g'arib millat,
Senga o'z jonini farzand kabi qurbon etgan yondi.

Qo'nib tomlarda boyqushlar turar noxush va qo'rqinchli,
Haqiqat bayrog'in qo'lda tutgan yondi, tutgan yondi!

To'libdir sovuq zindonlar, yonar unlarda ozodlik,
Nechun jimsan, qara qardosh, so'rab ko'rgil, nedan yondi?

Boshim ustida jallodim, qo'lida o'ynatur xanjar,
Na gul qoldi, na bulbul qoldi, bog' yondi, chaman yondi.

Esimdan chiqdi bulbuldek qafasda gullarim rangi,
G'am-u dard dastidan, hayhot, tushib o't, bu badan yondi!

Sulaymon, bo'lma g'ofil, yaxshi boq atrofga: shoirsan,
Jinoyat oshdi haddidan, xitob ayla: Vatan yondi!

TILIMGA TEGMA

Men sening tilingga tegmasman, jallod,
Sen ham mening ona tilimga tegma!
Sening ham bog'ing bor, guling bor, chekin,
Bog'imda ekilgan gulimga tegma!

Hasad ila boqding chamanimga sen,
Ko'r, ne balo etding Vatanimga sen,
Yon, deding, o't qo'yding badanimga sen,
Qo'lingda olov bor, gulimga tegma!

Men oqni oq dedim, qorani qora,
Osmoqni istading sen meni dora,
Hali bitmagandir u eski yara,
Mening jarohatli qalbimga tegma!

KO'RSAM

Tiz cho'kib o'pardim tuprog'in jondan,
O'tmishi safoli Tabrizni ko'rsam.
Bu kunda ko'zidan qon yoshi oqqan,
Hasratli, jafoli Tabrizni ko'rsam.

Umid-la tinglaydi har tong ohimni,
Xalqimda ko'raman chin panohimni,
She'rim-la yuvarman o'z gunohimni
Boshi ming baloli Tabrizni ko'rsam.

Meni mendan yaxshi biladi Vatan,
Visolni hijronga qilib jon-u tan,
Dardi boshdan oshgan, ko'zi yo'l kutgan,
Farzandi nolali Tabrizni ko'rsam.

O't bo'lib yonaman hamisha, har dam,
Sababsiz emasdir bu dard, bu alam,
Tasalli toparman, balki, biror dam
Yuragi yarali Tabrizni ko'rsam.

ICHA BILMASMAN

Araz sohilidan o'tganda yo'lim,
Sira hayajonsiz kecha bilmasman!!
U qirg'oqda nelar yuz bermoqdadir,
Men ayon bilaman, nega bilmasman!

Ovozim eshitsin singlim, qardoshim,
Hijron yo'llarida oqardi sochim,
Tomar ko'kragimga yana ko'z yoshim,
Kunduzni kechadan farq qilolmasman.

O'zgalar suv ichar buloqlaridan,
Faryod o'rmalaydi o'choqlaridan,
Nechun qo'llaridan, oyoqlaridan
Qullik zanjirlarin yecha olmasman?

U sohilsiz mening hayotim yo'qdir,
Visolidan buyuk murodim yo'qdir,
Nega qushlar kabi qanotim yo'qdir,
Nechun u sohilga ucha bilmasman?!

Kel, deydi, chorlaydi Miyona, Tabriz,
Arazim bo'yida cho'kaman-da tiz,
Yuragim yonganda suvingni hargiz
Ko'z yoshi to'kmasdan icha bilmasman!

YANA ARAZ QIRG'OG'IDA

Umr kechdi, hijron qushi jon uyidan ko'chmadi,
Arazidan ikki qardosh yonma-yon suv ichmadi.

Necha yilki, men o'zim ham bilolmasman, aziz do'st,
Ayriliq va dard dastidan yuraklar qon ichradir.

Telba ko'nglim istagandek sho'x buloqlar boshida
O'chog'imiz dud chiqarib, kabobimiz pishmadi!

Shoir ko'nglim qizil gul-u chinnigul-u lolani
Ikki sohildan bir yo'la tanlab, uzib ko'rmadi.

Ne uchunki bu qo'llarim muhabbatning bog'idan
Tikanlarni o'roq kabi o'z vaqtida o'rmadi!

Men muhojir birodarim ko‘zlaridan o‘parman,
Ol bayrog‘in qo‘ymas, garchi o‘qdan teshma-teshmadir.

Qonli urush maydonida, qirg‘in savash chog‘lari
Ajdodimning ham G‘iroti, ham Bo‘z oti kishnadi.

Bobak kabi, Go‘ro‘g‘lidek yigitlar ot o‘ynatib,
Jang so‘ngida mo‘ylab burab, mard ko‘nglini xushladi.

Qon-qardoshim, bir zamonlar yaraqlagan qiliching
Necha-necha dushmanlarning yuragiga peshladi.

Shuhratingni yulduzlarga, oyga, kunga yozdilar,
Hayratidan ko‘hna dunyo barmog‘ini tishladi.

Qayda sening u choqlaring! Yo‘q, yo‘q, ko‘rib turibman,
Ozodlikning so‘rog‘ida jigar-bag‘ring tashnadir!

Ko‘p kezdim-u tog‘-u toshda, chaqmoq chaqqan ko‘zlarim —
G‘am yo‘llari qisqamidir, uzunmidir — o‘chmadi!

Yoqdi meni hijron dardi, bu qayg‘uning oldida,
O‘zing ayon bilarsanki, boshqa dardlar hech nadir!

Uzun-uzun yo‘llar kechdim g‘amgin, Araz yoqalab,
Qon bo‘lgan bu yuragimda ne tuyg‘ular kechmadi?

Qardoshim, kel, yuzlaringga boqib olay to‘yguncha,
Bu so‘ng visol, balki, keyin bunda yo‘lim tushmaydi!

O‘TI BOR

Zafar to‘la kitobida Vatanning
Har yigitning shuhrati bor, oti bor.
Dostonlarda bu kungacha kishnagan
Bo‘z ot kabi, G‘irot kabi oti bor.

Qadrdonim, yodingdami u yillar,
Hasratlashib, sirlashgani ko'ngillar.
Umrimizga taalluq toza fasllar,
Og'izlarda u kunlarning toti bor.

Kecha-kunduz qalam tushmas qo'limdan,
Fikr-u zikrim hijrondagi elimda,
Sulaymonman, o't to'kilar tilimdan,
Yuragimda ayriliqning o'ti bor!

DUNYODAN O'TMAM

Shum ajal bilsinki, vasling bog'idan
Gul-chechak termasam, dunyodan o'tmam!
U sohil dilbarin o'zimdek ozod,
Baxtiyor ko'rmasam, dunyodan o'tmam!

Bir daryo so'z toshar toshqin dilimda,
Menga so'z ochmagil aslo o'limdan,
Sulaymon Rustamman, yurtim, elimdan
Qarzimni uzmasam, dunyodan o'tmam!

QOLAJAK

Sendan xotira bo'lib, yoqamda gul qolajak,
Ko'zlarimda umrbod jonli shakl qolajak.

Kun kelar, aziz do'stim, yuzingga kulgu qo'nar,
Zulm yanchilib jahonda, o'rnida kul qolajak.

Bu tuproq forig' bo'lar begona qadamlardan,
Bu qahramon, vafoli, bu shonli el qolajak.

Vatan yo'liga jonin tikarkan qaysi shoir,
Vatan bilan hamnafas so'zi ming yil qolajak.

Saharlar kezganimda shunday his qamrar meni:
Tabrizda menday sodiq ming-ming ko'ngil qolajak!

NIGORONDIRMAN

Araz bo‘ylarida kezaman yana,
Yuragi so‘z to‘la bir insondirman,
Yillarki, ko‘zlarim bu yo‘llardadir,
Qardoshim ko‘rmakka nigorondirman.

Bu ne falsafa-yu bu ne bir hikmat,
Boshimdan oqarkan bu umri davlat,
Hijron bog‘chasida chekkani hasrat,
Visol, deb dilpora bir bog‘bondirman!

Shuhrat-u shon, deya yonmam ziyoda,
Kamtarin shoirman keksa dunyoda,
Goh-goh tushib qolar haq bir gap yodga:
Aslida besh kunlik bir mehmondirman!

Qalbimda muqaddas bir hasratim bor,
Zarra dog‘ tushmagan haqiqatim bor.
Ko‘ring, ne g‘aroyib bir qismatim bor:
Ikkita sohilli Sulaymondirman!

SABAB NEDIR?

Jo‘shqin Araz sohilida kirdi yana yurak tilga.
U sohildan bu sohilga, bu sohildan u sohilga
Bulut kezar ijozatsiz, turna kechar ijozatsiz,
Qanot yoyib ming yashilbosh,
so‘na kechar ijozatsiz,
Yuraklarda toshgan o‘tli kuylar kechar ijozatsiz,
Do‘st uyiga shoshgan o‘tli kuylar kechar ijozatsiz,
Oqshom, sahar,
Yana nelar
Undan esgan, bundan esgan shamol kechar ijozatsiz,
Orzu kechar, tilak kechar, xayol kechar ijozatsiz.

Keling, Sizga beray sodda bir savol:
Ne sababdan shoir ba'zan bu yo'llardan kecha bilmas,
Shuvalonning suvlaridan to'yib-to'yib icha bilmas?

SHOIR QARDOSHIMGA MAKTUB

Shahriyorga

Ko'p so'yladim yuragimning so'zini,
Bir karra ham ko'rmaganman yuzini,
Nasib etsa ko'rsa edim o'zini,
Muhabbating bag'rimdadir, Shahriyor,
Mening yurak dardimdadir, Shahriyor!

Kim aytarki, lisonimiz boshqacha?
Na otimiz, na sonimiz boshqacha,
Na jonimiz, na qonimiz boshqacha!
Yurak birdir, Vatan birdir, Shahriyor!
Vatan birdir, Vatan birdir, Shahriyor!

Havolari ne so'limdir bu yozning,
Araz bo'ylab kelar menga ovozing,
Yarim jonim bu yoninda Arazning,
Yarim jonim yoningdadir, Shahriyor!
She'ring, so'zing shakar tatir, Shahriyor!

Har kimdan ham senga bu jon yaqindir,
Uzoq dema yo'llar, ishon, yaqindir,
Qosh bilan ko'z orasidan yaqindir,
Kel-kel deyar kuy-beshigim, Shahriyor,
Senga hadya uy-eshigim, Shahriyor!

Hijron o'ti bag'rimizni yoqdi, kel,
Yona-yona jigarimiz oqdi, kel,
Mayli, kelsang, anjir-uzum vaqti, kel.

Majlislarda to‘rda o‘ltir, Shahriyor,
Yurakdagi orzum shuldir, Shahriyor!

Beshikdagi qush uyquli go‘daklar,
Dudoqlari sut yuqili go‘daklar,
Bobolari tog‘dan ulli go‘daklar,
Bizga ovoz berajaklar, Shahriyor,
Yo‘limizdan borajaklar, Shahriyor!

Bokuga kel, bog‘-u bog‘cham kulganda,
Bir kaftgina tuproq keltir kelganda,
Do‘stlar qo‘shsin tuprog‘imga o‘lganda,
Shunda qolmas armon dilda, Shahriyor,
Tinch uxlarman so‘ng manzilda, Shahriyor!

TABRIZIM

Husniga boqdim-u to‘ymadi ko‘zim,
Tabrizim, Tabrizim, go‘zal Tabrizim!
Qo‘ymasman begona kirsa qo‘yningga,
Izn ber, qo‘limni solay bo‘yningga,
Sening bayramingga, sening to‘yingga
Tili bir, qoni bir qardoshing keldi,
Dardingga achingan sirdoshing keldi.

Peshvozimga chiqding tuz-u churak-la,
Bog‘ingda ochilgan gul-u chechak-la,
Ikkiga bo‘linmas sof bir yurak-la,
Tabrizim, Tabrizim, omon Tabrizim,
Arisin boshingdan tumon, Tabrizim!

Qadringni hasrating chekkanlar bilar,
Sog‘inib, ko‘z yoshi to‘kkanlar bilar,
Hayotiga zulmat cho‘kkanlar bilar,
Bog‘ingdan gul-chechak terdim, Tabrizim,
Qayta yangilandi dardim, Tabrizim!

Yo'llarda saf tortgan majnuntollarning,
Soya-salqinlarda ajab sollanib
Yigitlarga so'ylar bobo chollaring,
Jo'shar tomirlarda qoni, Tabrizim,
Mard-u maydonlaring qani, Tabrizim?

Yig'lasang — yig'larman, kulsang — kularman,
Yashasang — yasharman, o'lsang — o'larman,
Borimni sen bilan baham ko'rarman,
Kelgil, yuzlaringdan o'pay, Tabrizim,
Boshingdan gul-chechak sepay, Tabrizim!

Nedir bu ma'noli, teran boqishlar?
Nedir yomg'ir kabi ko'zdan yog'ishlar?
Nedir qalbingdagi xazonlar, qishlar?
Yetimdek boshingni egma, Tabrizim,
Mungli-mungli, xazin boqma, Tabrizim!

Men sening chechag-u gulingga fido!
Menga qardosh, degan tilingga fido!
Vataningga fido, elingga fido!
Husningga ming boqib to'ymaydi ko'zim!
Tabrizim, Tabrizim, go'zal Tabrizim!

AYTMA HECH

Aytma hech: "Sevgilim unutib meni,
Yurtimga sira ham yo'lamas bo'ldi!
Qayishmas, holimga zarra achinmas,
Yaxshi-yomonimga yaramas bo'ldi!"

Kimda bor mendagi bu toqat, to'zim,
Seni qadam-qadam izladi ko'zim,
Chuvalgan yo'llarni taradi ko'zim,
Magar bu yo'llarda yaram oz bo'ldi?!

Qiynamagin meni uzoqdan uzoq,
Sevgan sevganini unutmish qay choq?
Har kun bu sohilda chorladim, biroq
Ovoz bergan faqat bir Araz bo'ldi!

YANA TURNALAR

Qanotlilar dunyosining shoirlaridan —
Turnalardan so'z ochmoqni istadim bu dam,
Bahor keldi, bu diyordan uchib o'tdilar,
Qur-qurlashib, qur-qurlashib ko'chib ketdilar.

Yer yuzining uzoq-yaqin manzillarida
Qo'shig'imiz kezdirdilar o'z tillarida.
Arazimni unutmadi qanotli karvon,
Men roziman turnalardan to bor ekan jon.

Bu sohildan u sohilga qo'ndi turnalar,
Yodlarida tutgancha mening shartimni,
Patlarini qalam kabi yo'ndi turnalar,
Yozdi janub tuprog'iga ko'hna dardimni.

Oylar o'tdi, gullar so'ldi, so'ldi chechaklar,
Turnalarning sog'inchidan to'ldi yuraklar.
Kunim kechdi kelarmi deb ko'klarga qarab,
Kuz keldi-yu qur-qurlarga to'ldi tog'-dara.

Yana bizning bu makonga keldi turnalar,
Qo'shiq aytib Lankaronga keldi turnalar,
Ko'zlarida u sohilning g'amgin lavhasi,
Ovozida opa-singil, qardoshim sasi.

Ardoqlisiz shu boisdan yo'lchi turnalar,
Ikki sohil o'rtasida elchi turnalar!

CHAQIR

Boshingga tushsa kadar suhbatga jononni chaqir.
Lablari g'uncha-yu ul ko'zlari jayronni chaqir.

Dunyoning ma'nosi shu: sevgi-yu hijron-u visol,
Shubha etsang agar isbotiga dunyoni chaqir.

So'ndira bilmoq emas oson muhabbat o'tini,
Istasang ko'mak uchun soy bila daryoni chaqir.

Tuzalur lahza visol birla bu hijron yarasi,
Chekma zahmat, na tabib-u na-da Luqmonni chaqir.

Seni g'amlar dengizi girdobiga olsa agar,
O'zga bir kimsanimas, shoir Sulaymonni chaqir!

YURAGIMNI BERARMAN

Xazon bossa bog'ingni chechagimni berarman,
Dasturxoning qoq bo'lsa, churagimni berarman.

Omonsiz bo'lsin, deya, zarbang jallod boshida
Bilagingga kuch, deya, bilagimni berarman.

Dushmanlarning nafasi zaharlasa havoni,
Xazar shabodasining ipagini berarman.

To'fon turib boshingda, tog'-u qoyalar uchsa,
Tayangin, deb yelkamni — kuragimni berarman.

Ozodlik janglarida yuragingga tegsa o'q,
Ko'ksimda urib turgan yuragimni berarman!

MENGA INONING

Vatan bo‘stonida, do‘stlik bog‘ida
Ming nihol ekkanman, ekarman yana.
Ularni bolamdek qorda, bo‘ronda
Parvarish etganman, etarman yana.

Ma’zur tutsin meni bu el, bu Vatan,
Baxtlilar baxtlisi atalsam-da man,
Tabriz dilbarini izlab har yerdan
Ko‘z yoshi to‘kkanman, to‘karman yana.

Har yeri bir, desam, keksa dunyoning,
Yuraksiz atalgum, menga ishoning,
Olis ellardagi baxtsiz har jonning
Dardini chekkanman, chekarman yana!

BU YO‘LDA

Bilgan bilarki, uzun mojarosi bor boshimning,
Bu yo‘lda ko‘rgulik bir balosi bor boshimning.

Visolga yetkaz meni, sadoqatli ilhomim,
Nechun yuz qora bo‘lgum yonida sirdoshimning.

G‘am yema degan kimdir, g‘aroyibdir so‘zlari —
Yurakda-ku qurimas chashmasi ko‘z yoshimning!

Men umrimda qilmadim vafosizlik, xiyonat,
Azoblarga dosh bergum yo‘lida sirdoshimning.

Sulaymonman, vatanim, millatim, tilim birdir,
Shu yozilsin lavhida, o‘lsam, qabr toshimning!

TILLARDA CHARX URAR QO‘SHIG‘IM

Narigi sohilda yot qo‘llar bilan
Nomi kitoblardan chizilgan menman.
Faqat bir narsadan topaman taskin:
She’ri yuraklarga yozilgan menman.

Laylim so‘rog‘ida kezdim yillar-la,
Kunimni o‘tkazdim tasallilar-la,
Ko‘ngil daftariga qora qo‘llar-la
Ayriliqning muhri bosilgan menman.

Voqifman xalqning o‘y-tilaklaridan,
Qon yosh sizadi ko‘z qaroqlaridan.
Sayyoh turnalarning lalaklariga[1]
Hijron maktublari — osilgan menman.

Ko‘pdanki xayolim, o‘zim u yoqda,
Tillarda charx urar so‘zim u yoqda,
Araz bo‘ylarida ko‘zim u yoqda,
Qabri bu sohilda qazilgan menman!

YIG‘LA

Tabriz bog‘larida so‘ldi gul-chechak,
Yig‘la, gulim, yig‘la, chechagim, yig‘la.
Men uchun yillarki yo‘llar berkilgan,
Araz shikoyati — kulagim , yig‘la!

Goh yona tilimdan o‘t-otash sochdim,
Bu sohil to‘qindir, u sohil — ochin,
Noni — hasrat singlim, inim, qardoshim,
Dasturxonda non-u namagim, yig‘la!

[1] **Lalak** — pat.

Armonim ne — bilar bu elim-xalqim,
Tog'day og'ir dardni ko'tarar qalbim,
Visol kunlarini ko'rmasman, balkim,
Yig'la, Araz ko'zli yuragim, yig'la!

ASAR ASAR USTIGA

Jo bo'ldi umrimga yorqin sahar sahar ustiga,
Elim birla qozondik biz zafar zafar ustiga.

Ko'ngilda bir yaram bordir... Saodat istaganning
Yuragiga tushdi tog'dek kadar kadar ustiga.

Shirin-shakar tillarini sug'urib oldilar-da,
Ichirdilar unga har kun zahar zahar ustiga.

Eshitilar qulog'imga u g'amdiyda sohildan
Dilni o'rtar, noxush, mudhish xabar xabar ustiga.

U dunyoga kelibdiki baxt-u sevinch o'rniga,
Umr kitobiga yozmish xatar xatar ustiga.

Janubdagi qardoshimning bilmasmanki boshiga
Yana nelar tushajakdir, nelar nelar ustiga.

Sulaymonga ta'na, dashnom aytmasmi tong yellari,
Bu haqda men yozolmasam asar asar ustiga.

TABRIZ ESIMGA TUSHDI

Madina Gulgunga

Keldi ming tilli bahor, Tabriz esimga tushdi,
Gulli, bulbulli bahor, Tabriz esimga tushdi.

Yillarki dilim o'rtaydi Tabrizim firog'i,
Undadir nozli nigor, Tabriz esimga tushdi.

Ozmi bu dunyoda mashhur, so'lim ne-ne shahar,
Har yerning o'z xislati bor, Tabriz esimga tushdi.

Men inim, opa-singil, sevgilim ko'rmoqqa zor,
Yo'q, o'zgarmas bu qaror, Tabriz esimga tushdi.

Men Sulaymon, Kur, Araz navoli sodda shoir,
Solaman dunyoga jar: Tabriz esimga tushdi.

TINGLA QARDOSHINGNI

Tingla qardoshingni, ko'z yoshli do'stim,
Hamisha orzuli, bardoshli do'stim,
Jigar-bag'ri dardga taloshli do'stim,
Istamam, ko'zingdan sellar to'kilsa.

Ne jafo chekmading umringda, nelar,
Seni qutqazmasam zulmatdan agar
Ko'zimda kechaga aylansin sahar,
Boshimga tomlardan kullar to'kilsin!

Sen qadam qo'yganda bizning shaharda,
Qutlovlar yog'ilsin keng ko'chalarda,
Barcha ayvonlardan, panjaralardan
Oyog'ing ostiga gullar to'kilsin!

KO'CHIRA BILSAYDILAR

Deymanki, ne bo'lardi janublik qardoshimga
Mening hayot suvimdan ichira bilsaydilar.
Ozod zaminimdagi gullar urug'in sochib,
Arazning u bo'yida undira bilsaydilar.

Deymanki, ne bo'lardi meni qon-qarindoshim —
Yoniga Araz uzra kechira bilsaydilar!
Jarohatli yuragi evaziga — evazsiz
Mening bu yuragimni ko'chira bilsaydilar!

ISHONTIR, KETMA!

(Tabrizdan keta turib do‘stimdan tinglaganim)

Yolg‘iz tashlab meni ko‘z yoshlarimga,
Qaylarga ketarsan, ishontir, ketma.
Xasta ko‘nglimdagi xush orzularni
Muborak qo‘ling-la uyg‘ontir, ketma!

O‘zingsan qalbimga, ruhimga sirdosh,
Sen ketsang qoraga burkanar tog‘-tosh,
Sadqamen sen kelgan yo‘llarga, qardosh,
Tilaklarim senga ayondir, ketma!

Senga ko‘z tikkandi bu el, bu aymoq,
Mumkinmi yuzingga termilib to‘ymoq?
Sen o‘z uyingdasan, emassan qo‘noq,
Bu ellarning bag‘ri ol qondir, ketma!

Zulm ila toptaldi gul bog‘im mening,
So‘ndi oyim, kunim, chirog‘im mening,
O‘zing yomon kunda bir tog‘im mening,
Ketsang, yerim yana zindondir, ketma!

Demassan, yosh to‘kib holimga yig‘la,
Faqat bu do‘stingni yodingda saqla,
O‘z qo‘llaring bilan yaramni bog‘la,
Ko‘z yoshim daryodir, ummondir, ketma!

O‘Z GULISTONIM

O‘zga bir tuproqqa ko‘zim tikmasman,
Kifoyadir menga o‘z gulistonim.
Vatan deb roziman jondan kechmoqqa,
Vatandir shuhratim, Vatandir shonim!

Xabardorman sening hol-ahvolingdan,
Gullaring xor bo'ldi yotlar qo'linda,
Jon-u tanimiz birdir, axir, qardoshim,
Vijdonim qiynalar o'ylab o'yingda.

G'am-g'ussa chekmasdim, ehtimol, buncha,
Tabrizni ko'rsaydim bir bor to'yguncha,
Visol ilinjida Araz bo'yida
Yo'llarni yo'llarga yamagan jonim!

YURAGIMNING YARASIDADIR

Tingla shoiringni, Tabriz go'zali,
Yana seni o'ylab, dil to'la alam.
Tarixi uzoqdir bu ayriliqning,
Tanimga sut bilan kirgandir bu g'am.

Dunyoni bersalar qabul etmasman,
Ko'nglim visolingga oshiqar faqat...
Tabriz yerlarida ungan gul eding,
Taqdir bo'ldi senga qon sizgan tuproq.

Silkin, badar ketsin boshingda kezgan
Senga kun bermagan qora bulutlar.
Tuprog'ingda ko'klab, bo'y cho'zsin yana
Bahor darakchisi — chechaklar, o'tlar.

Hali-zamon kelar visoling yo'li —
Ko'zim ila ko'zing orasidadir.
Yo'q, yo'q, mumkin emas seni unutmoq:
Ishqing yuragimning yarasidadir!

MUQADDAS ORZU

Bir orzum bor shu dunyoda,
Bir kun meni olib yodga,
Kitobimni Arazdagi ko'prik ustiga ossinlar,
Yosh nasllar unutmasin shoir vasiyatini:
Bevaqt ketsam bu dunyodan, qabr toshimga yozsinlar
Ikki yerga parchalangan yuragimning dardini!

GUL TERA BILMAS

Yot gul tera bilmas chamanimdan,
Hech kuch ayirolmas meni bir on
O'z ona elimdan, vatanimdan.

Bosh egmasman hargiz yovlarimga,
Har yerda quyoshdir menga bayroq,
Qon oqsa-da seldek badanimdan!

O'lsam-da qolar ishlarim porloq,
Dushman menga qo'l ursa banogoh,
O't olajakdir kafanimdan.

Hech kuch ayirolmas meni bir on
O'z ona elimdan, vatanimdan!

HASRAT CHEKARMAN

Suhrob Tohirga

Sendan ayru vasling dog'ida musibat chekarman,
So'rab ko'r turnalardinki, ne mashaqqat chekarman.

Shikoyatlar qilib haqli, kirarsan kechalar tushga,
O'ylab g'amgin hayotingni ranj-u kiffat chekarman.

Ko‘rarga bir nazar so‘lg‘in yuzingni bir lahzaga
Kunda men yuz karramas, ming karra hasrat chekarman.

Bilki, qalbimda mening boshqa g‘am-u dardim yo‘q.
Yolg‘iz sen uchun g‘amga botib, shunchalar dard chekarman.

Seni bir ko‘rarga yo‘l topmaganim uchun degayman:
Millatimdan ham, o‘zimdan ham xijolat chekarman!

TIZDIM

Tabriz go‘zali hajringda kezdim,
Qalbimda qizil qonim ipiga
O‘z dardimni tasbeh kabi tizdim!

Hech kim bu xil toqat eta olmas,
Bir mengina vaslingga umidvor
Yillar bo‘yi hijroningda to‘zdim!

Yillarki, ko‘zing yo‘lda qolibdir,
Qalbingda visol orzusi tun-kun,
Men singari, ey qiz, buni sezdim!

Qalbimda qizil qonim ipiga
O‘z dardimni tasbeh kabi tizdim.

HAYRON BO‘LAMAN

Men bu sohilda go‘zalliklarga hayron bo‘laman,
U sohilga boqqanda, oh, dili vayron bo‘laman.

Necha yildirki, meni bunda tanir har xonadon,
She’rga oshiq ko‘ngillar dardiga darmon bo‘laman.

Elda suyuk shoirlardek aziz bildim yerimni,
Vatanning yashnagan gulzoriga bog'bon bo'laman.

Shahar, qishlog'-u kentimni qalam birlan kezarman,
"Xush kelibsiz!" — deb qarshilar har uy, mehmon bo'laman.

Bu sohilda mangu sevinch hamrohidir yuragim,
U sohilga boqqanda dardli Sulaymon bo'laman!

TANIB OLDIM

Haqiqiy qiyofang tanib oldim men:
Vatanga, millatga keraksizdirsan.
Til uchida ming bor Vatan desang-da,
Aslida, millatsiz, maslaksizdirsan.

Yuzingda soxta bir tabassum sening,
Toyibsan ichida tuman va changning,
Na biror do'sting bor, na bir dushmaning,
Orzusiz, uquvsiz, tilaksizdirsan.

Duch kelgan tomonga yog'dirding bo'hton.
Afsus, bilmadingki o'zgacha zamon.
Sen yomonga yaxshi, yaxshiga yomon,
Yaxshiki, tuhmatda ko'maksizdirsan.

Yop-yorug' kunduzni kecha bilibsan,
To'yda yig'lab, motam chog'i kulibsan,
Na bir sevibsan-u na sevilibsan,
Yuraging yo'q sening, yuraksizdirsan!

NE HOJATDIR...

Maroqli o'tarkan majlisda suhbat,
Palov ne hojatdir, osh ne hojatdir?
"Og'zi bo'sh" odamlar oldida gullab,
Etmak o'z siringni fosh, ne hojatdir?

Axir, u Vatanga ko'ngil bermagan,
Bir gul undirmagan, bir gul termagan,
Fitna-yu fasoddan yuz o'girmagan,
Qabrining ustiga tosh ne hojatdir?

Bodani qo'lidan sira qo'ymagan,
Maqtov-u shuhratdan ko'zi to'ymagan,
Vatanni tuymagan, elni tuymagan —
Yuraksiz odamga bosh ne hojatdir?

HASAD

Qo'ymas odamda hasad yaxshi alomatdan asar,
Eng muqaddas, eng aziz, ulkan muhabbatdan asar.

Hasad o'z bemorining shuhratiga bolta urar,
Zarracha qo'ymas uning nomida shuhratdan asar.

Kim hasad yo'lini tutdi, ko'rmas oxir-oqibat,
Qalbining gavhari — vijdon kabi ne'matdan asar.

Ba'zi birlar baqirib, millat tilidan lof urar,
Xaloyiq ko'rmas quruq nutqida haqiqatdan asar.

Kemirar qurtdek hasad aqlini ham, qalbini ham,
Bu sifat xastada bo'lmas sira g'ayratdan asar!

YURAKSIZ ODAM

Bu og'zi qulf urilgan, ko'zlari bog'liq odam,
Nazdimda, umr surmadi.
Jo'shib-jo'shib hayotdan olmadi zarra ilhom,
Dunyomizni ko'rmadi.
Na do'stlar davrasida, na ellar bayramida

Sevinmadi, kulmadi,
Ilk bahor kezlarida, go'zallarning bazmida
Hayajonga kelmadi.
Dasturxonlar boshida o'tirdi lol, tosh kabi,
Miyasiz bir bosh kabi,
Baxtlilar dunyosida, ijodkorlar ichida
U keraksiz yashadi.
Qo'li ochiq, xushchaqchaq mard do'st-yorlar ichida
U yuraksiz yashadi.
Shu sababdan, ehtimol, bexabardir el, Vatan,
Uning qachon tug'ilib, dunyodan o'tganidan!

O'XSHAMAS

Ufqlarda quyosh balqir bayrog'imdek har sahar,
O'zga elning sahari saharimga o'xshamas.
Bu dunyoda barcha go'zal, barcha buyuk shaharlar
Xush oftobli, xush havoli shaharimga o'xshamas.

Go'zallikning sirlarini birin-birin ochganman,
Shoir kabi davronimga ming bir qo'shiq qo'shganman,
Safar chog'i dengizlardan, ummonlardan oshganman,
Hech bir dengiz, hech bir ummon Xazarimga o'xshamas.

Sevgilimni ul sohilda ko'rolmadim bu oyda,
Demangizki, sening achchiq faryodingdan ne foyda?
Yarim jonim bu qirg'oqda, yarmisi ul qirg'oqda,
Mingta Majnun g'am-qayg'usi kadarimga o'xshamas.

Sulaymonman, bu dard mening yuragimda yaradir,
U sohilda qon-qardoshim baxti yomon qoradir,
Yaxshiki, men hali tirik qalam yozur, yaratur,
Hech bir daftar mening yurak daftarimga o'xshamas!

GO‘ZALLAR GO‘ZALIGA

Ishqini qalbimga baxtim kabi yozmish o‘z qo‘lim,
Sen go‘zallar go‘zalidan ham go‘zalsan, go‘zalim!

Yuzingni ko‘rmagan har kunimni kun demasman,
Ranjima, sha’ningga bir so‘zi dilxun demasman,
Seni Layli, o‘zimni, yaxshiki,
Majnun demasman,
Kel, gulim, kel, chechagim, zavq-u ilhomda dilim,
Sen go‘zallar go‘zalidan ham go‘zalsan, go‘zalim!

Sendan o‘rgandi bahor ɳag‘malarning eng sozini,
Yoydi dunyomizga xush nag‘maning xush havosini,
To‘ymadim har kuni ming bor eshitsam ovozini,
Jar solay, mayliga, bilsin Vatanim, bilsin elim:
Sen go‘zallar go‘zalidan ham go‘zalsan, go‘zalim!

Ko‘zlarim to‘rt bo‘ldi-ku, har lahza, har on yo‘lingga,
Qaragil, kim o‘tiribdir sening hijron yo‘lingga?
Qaydasan, kel bu visol otli Sulaymon yo‘liga,
Kel, kel, etsin yana parvoz go‘zal orzu, amalim,
Sen go‘zallar go‘zalidan ham go‘zalsan, go‘zalim!

SULAYMON NAYLASIN?

Bo‘lmasa hajringda bu ko‘nglim parishon, naylasin,
Etmas o‘z jonini joningga qurbon, naylasin?

Kelmasa gulshanga bulbul sayramay gul ishqida,
So‘lmayin sha’n nag‘masiz gulshan, guliston naylasin?

“Kel, kel, ey, yor!” — chorlamoqdan toldi tilim, kelmading,
Sen o‘zing bo‘lding sabab hijronga, hijron naylasin?

O‘zga bir gul yuzliga bersam ko‘ngil, ey bevafo,
Sen o‘zingdan ko‘r, gunohkorsan, Sulaymon naylasin?

XOTIRA

Har kimki zahar ichsa go‘zal yori qo‘lidan,
Bo‘lmas sira ham zarra pushaymon amalidan.
Qay uyki muhabbatga begona — nega darkor,
Achinar kim — qulasa bir kuni nogoh tamalidan.

Ko‘ngil qushi zavq-shavq olib aylar yana parvoz,
Bir zulfi parishon, dudog‘i g‘uncha kelindan.
Yondim berahm yor deb... “Har to‘kisda bir ayb!” —
Jononni xabardor etayin el masalidan.

Qalbing — jarohatli, mayli, faxr ayla, Sulaymon,
Bir xotira senga bu Tabriz go‘zalidan!

VAFOLI QOLDI

Yana ko‘ngil qushi xayolga tolib,
Yana boshim ustin tumanlar oldi.
Yarim yo‘lda Araz yo‘limni kesib,
Meni ming qayg‘uga, baloga soldi.

Sevgilimdan yiroq tushdi-yu ko‘nglim,
Alamdan, jafodan yondim, tutoqdim.
Kechalari uyqu bermay to sahar
Meni chayonmi, yo ilonmi chaqdi.

Yo‘llarda qon yig‘lab, ko‘z yoshim, hayhot,
Uzoq yillar o‘tib qurib yo‘qoldi.
Ancha bo‘ldi, meni yo‘qlamas visol,
Menga bir ayriliq vafoli qoldi.

YOLG‘ONDIR

Hijron o‘tida men yonamen necha zamondir,
Kuygan yuragimni yana yondirma, yomondir.

Sen ko‘zlari yo‘llardagi Tabriz go‘zalisen,
Hasrat to‘la qalbingda, bahoring-da xazondir.

Sohil bo‘yida vaslingga zormen, chekamen oh,
Bu hajringga bardosh berishim qayda osondir?

Oldingmi mening nomalarim turnalarimdan?
Bir yo‘lki, javob ber, bu dilim ko‘p nigorondir.

Har kim desa: “Rustam seni yoddan chiqaribdir!”
Yo‘q, yo‘q, gulim, ishonma bu so‘z asli yolg‘ondir!

KO‘ZI BOR

Ko‘pni ko‘rgan, chidamli bir shoirman,
Har yaraning bag‘rimda bir ko‘zi bor.
To‘xta, jallod, bu tuproqda, bu yerda
Ajdodimning hali oyoq izi bor.

Nafratidan chaqmoq chaqqan so‘zimda,
Sellar kabi jo‘shib oqqan so‘zimda,
Nolalari jonni yoqqan so‘zimda
Qon yig‘lagan Tabrizimning o‘zi bor.

Senikimas, asli manim bu Vatan,
Nafasidan so‘ldi bu bog‘, bu chaman.
Qay nokas u sotmoq bo‘lgan,
Yuragimning qulog‘i bor, ko‘zi bor!

SEVGILIM

Qayga ketsang, mening oshiq sodiq ko‘nglimni,
O‘zing bilan birga obor, sevgilim!
Obormasang, visol otini minib,
U sening izingdan chopar, sevgilim!

Yelkamdadir mening ayriliq yuki,
Ko‘tar yuzingdagi hasrat o‘rtugin,
Kelgil, o‘z qo‘ling-la yuragimdagi
Yaraning ko‘zini qo‘por, sevgilim!

Ezdi changalida safolat seni,
O‘kinma, yashnatar muhabbat seni,
Qay tomon ketsang-da, nihoyat, seni
Sulaymon axtarib topar, sevgilim!

O‘XSHAYSAN

Vafodorman senga, yaxshi bilasan,
Nechun yana imtihonga chekasan!
U sohilda kecha-kunduz, bilaman,
Tashvish-g‘amim yona-yona chekasan!

Foyda yo‘qdir — yig‘lamakdan ne chiqar,
Yillab aza saqlamoqdan ne chiqar?
Ko‘kdan umid kutmoqlikdan ne chiqar?
Sen Hojardek mard onangga o‘xshaysan!

Dog‘ yo‘q sira shuhratingda, shoningda,
Ne alamki, chang bor sening joningda,
Dushman nafas ola bilmas yoningda,
Bu borada Sulaymonga o‘xshaysan!

KIMDIR

Shoirni xayolchan ko‘rib, o‘ylaysan:
“Sohilda bu holi parishon kimdir?”
Araz qirg‘og‘ida yo‘lga termilgan —
Yuragi dard to‘la bu inson kimdir?

Tun-u kun Tabriz deb kuyib-o‘rtansang,
Mashaqqat yo‘lida menga inon sen,
Men kabi ayriliq o‘tida yonsang,
O‘shanda bilasan — Sulaymon kimdir?!

OLMOS YILDIRIM



SHARQQA

Ona, ortiq bugun sen yig‘lama, kul...
Chunki bag‘ringda yayragan bulbul,
Jo‘shibon nozik bir tarannum ila,
Boq, senga nelarni so‘ylaydi, tingla...

Bugun sen-chun jangga kirgan, kurashgan,
Bolalar, go‘zal qizlar, gulg‘unchalar,
Bari yashin, yonar vulqon misoli
Gurullar, jo‘sh urar, charaqlar, qaynar.

Daralar, tog‘lar, o‘lkalar oshmoqda,
To‘p-to‘p o‘tli farzandlarni qo‘shmoqda.
Qo‘shilmoqda ingragan u faryodga,
Qo‘shilmoqda barcha-barcha imdodga.

To‘zondan, tumandan ko‘rinmas yo‘llar,
Kelmoqda temirni sindirgan qo‘llar,
Bir jasur qiz tutib qo‘lida bayroq,
Jarangdor ovoz-la hayqirib har choq,
Der: “To‘xtama, qoch, yo‘qol, razil dushman...”
Ko‘rgil, qandayin titrar safil dushman!
Titramoqda manfur qo‘rqoqlar kabi,
Qochmoq istar pastkash qochoqlar kabi.

Qochmoqda, balki, to‘xtamay qochmoqda,
Go‘yoki tog‘larda tuman uchmoqda.
Ona, onajon, yetar, boqib turma,
Kel, o‘tli qalbni sen yoqib turma.

Yetar ortiq, sil bilan xo‘p olishding,
Bitdi har ne — barcha ayriliq, hijron,
Sendadir endi bilim, huquq, irfon,
Ko‘r, nechalar sen bugun go‘zallashding.

ONANING QIZIGA

Ey, azaldan motam-g‘amga o‘rangan,
Sharafli onaning gul yuzli qizi,
Ol shafaqlar aro endi ko‘ringan
Sharq ufqining pushti rangli yulduzi.

Bir zamon yurtimning zulmat qoplagan,
Burchaklarida sen yig‘lamasmiding?
Hurriyat ishqi-la jo‘shib, to‘lg‘angan,
Onamning yuragin dog‘lamasmiding?

Faqat endi qayda u og‘ir, g‘amgin,
Dardli ingroqlaring, iltijolaring?
So‘yla, ro‘shnolikka chiqdingmi bu kun?
Zulm haykalini yiqdingmi bu kun?

EY TOG‘LAR

Chechakli bag‘ringda bir bog‘cha tikdim,
Sug‘ora-sug‘ora ko‘z yoshi to‘kdim,
Kecha-kunduz zahmatin o‘zim chekdim,
Yuldi mevasini yellar, ey tog‘lar!..

Nedan xafa bag‘ringdagi bulbullar,
Qayda menga alla aytgan u tillar,
Men hayqirsam: “ellar, ellar, ey ellar!”
Aks sado kelur: “ellar...” ey tog‘lar!..

So‘yla, nechun jim Xazarim, bilayin,
Har dardining yozari men bo‘layin,
Yo‘lida men surgun bo‘lib kezayin,
Qismatimdir uzoq yo‘llar, ey tog‘lar!..

So‘yla, nechun o‘jar Kuram guvlamas,
Tug‘yon urib o‘z kuniga yig‘lamas,

Ko‘k Mug‘onim nechun yashil bog‘lamas,
Dardlimikin ul Ko‘kko‘llar, ey tog‘lar!..

So‘yla, Shohtog‘laring nedan xafaqon?
Zangladimi ko‘ksingda qilich-qalqon?
G‘arib sozda tor uzuqmi bu zamon?
Hazin sasdan sinar dillar, ey tog‘lar!..

Ey tog‘lar, ey tog‘lar, so‘ylang, ey tog‘lar,
Bo‘larmi oshnolik shunday, ey tog‘lar?..
Yomon kunim yaxshi aylang, ey tog‘lar,
Sizga qurbon bu ko‘ngillar, ey tog‘lar!..

ERTAGA

(Sharq uchun)

Kuzak changalida sarg‘aygan gullar,
Shubhasiz, shodlanib kular ertaga.
Hasrat-la to‘lg‘angan xasta ko‘ngillar,
Xo‘p shirin nash’alar surar ertaga.

Yiqilajak chirkin, temir qafaslar,
Ortiq kelmas o‘sha alamli saslar,
Qorong‘ulik ichra ingragan kaslar,
Ko‘zidagi yoshlar tinar ertaga.

Sharqda ezilarkan qadoqli qo‘llar,
Kurtaklar berajak so‘lg‘in hosillar.
Bir shodlik ko‘rmagan u ishsiz ellar,
Saodat ne ekan, bilar ertaga.

SURGUNDA BITMAY QOLGAN SHE’R

U zamonlar bola edim, tabiatning qo‘ynida,
Osoyishta yashar edim, bilmay nedir istibdod.

Kezar edim doim ko‘nglim siqilmagan joylarda,
Ismim Olmos, qo‘rquv bilmas, shijoatli bir avlod.

Erkalardi otam-onam uyda meni har doim,
Hammadan ko‘p buvim, bobom nasihatlar berardi.
Yalmog‘iz bir maxluq emish, sakkiz boshli devsifat,
Kimki dindor bo‘lmasa gar, uni yutar, deyardi.

Ko‘k guvullar, chaqmoq chaqar alvastilar yerida,
Zulmat ichra och bo‘rining ko‘zi yashil yonarmish.
Azonda dev ko‘cha daydigan bolalarni bo‘g‘izlar,
Xudobexabar, besaranjom kimsalarni yeyarmish...

MEN

Tegmagil, tegmagil, dardlidir boshim,
Qo‘ygil, o‘z yaramga malham etay men.
Uzoqda qolarkan tuprog‘im, toshim,
Jannat bo‘lsa bu dunyoni netay men?..

Mening imonim bir, ishqim, o‘zim bir,
Bir chashmadan oqdim, qaynar ko‘zim bir,
Turk o‘g‘li, turkdirman, mardman, so‘zim bir,
Yo‘l ber, yo‘l ber, o‘z yurtimga ketay men.

MEN HAM YIG‘LAMAYMAN

...Men hali navqironman, umidim bor, shonim bor,
Tomirlarimda jo‘shib oqqan qizil qonim bor.
Modomki, ko‘ksim temir, yig‘lamoq nechun, nedan?
Surunmasman hayotning tubsiz jarlarida man.

Boshimni bir ko‘tarib endi atrofga boqdim,
Ko‘rdimki, surunmakning so‘ngi yo‘q, etak qoqdim.

Ko‘mdim-u bir mozorga yetimlikning toshini,
Ko‘zlarimdan quritdim tobelikning yoshini.

Amallarim-la dedim ko‘z yoshlarga alvido,
Qalbimda endi umid cho‘qqisi bulutli tog‘.
Qarshimda ko‘rinmas hech na bir jarlik, na bir choh,
Umidsizlikka botib yig‘laganlar xo‘p nochor...

BIR SAS KELDI UZOQDAN

Bir sas kelur uzoqdan, yorim kirdimi tilga,
Xabarim yo‘llandimi bu yarador bulbulga?
Bulbul, yo‘ling tushsa gar men tug‘ilgan u elga,
Bu kuyuk ingroqlarim tog‘lariga sol-u kel,
Qalbimga jo qilishga dardlarini ol-u kel.

Men kelarkan u yurtning yozi bitgan chog‘ edi,
Gul o‘rnida za’faron tikan qolgan bog‘ edi...
Turma, bulbul, hijrondan dardli bag‘rim dog‘ edi,
Bor, bir lahza bo‘lsa-da, siynasida qol-u kel,
Ko‘nglimga singdirmoq-chun g‘amlarini ol-u kel.

Turma, bulbul, bor-u qo‘n qorli tog‘lar boshiga,
Qo‘shiqlarim yoy ul yurtning tuprog‘iga, toshiga,
Olgil bu ko‘z yoshimni, qo‘shgil yor ko‘z yoshiga,
Qaytarkan soch tolasin bir-ikkisin ol-u kel,
So‘lg‘in dudoqlaridan sirli so‘zin ol-u kel...

QRIMDA OQSHOMLAR

Mikoyil Mushfiqqa

Enarkan oltin quyosh keksa tog‘lar ortiga,
Fusunkor do‘ngliklarga boqib hayron qolardim.

Mo‘ralagach dengizdan nozli oy, sevgili oy,
Dolg‘alar dolg‘alardan quvnab bo‘sa olardi.

Oh, oqshomlar, oqshomlar, buncha dilbar oqshomlar.
Bu qandayin bir yerki, yellar kelar oqshomlar.

Sohilda yuksak bir joy, qadimdan qolgan saroy,
Uzoqlardan kelishar boqmoq-chun bunda oyga.
Sarvlar orasidan ko‘ringach sevgili oy,
Eng muqtadir musavvir bir boqsin bu chiroyga.

Oh, men ham necha soat turdim u go‘zal joyda,
Tabiatning dilrabo ranglariga mahliyo.
O‘yladim, elim qayda, Qrim qayda-yu men qayda,
Shu on uzoq-uzoqqa yetakladi bu xayol...

Oy socharkan nurini moviy dengiz yuziga,
Sohildagi Kichkina zarrin nurga botardi.
Urilganda dolg‘alar Qirlang‘ichning tiziga,
Go‘zal dilbar olisdan ming bir ishva etardi.

Livadiyada zavq olgan cholg‘uchining qo‘lida,
Yangragan garmon sasi tun bag‘ridan kelardi.
Tiklar ekan xotira bu yerning o‘tmishini,
Bu shirin topishmoqqa har kim hayron qolardi.

Bu saroyda bir vaqtlar muhtariz knyazlarning,
Qo‘lida qon-la to‘la paymonalar yonardi.
Oq burguting sha’niga jaranglarkan qadahlar,
Kechalarning qalbiga o‘lim zahrin sunardi.

Bu saroyda bir vaqtlar... so‘yladilar, dedilar...
Kinli generallarning u vahshiy siynasida,
Ma’sum Qrim qizlari zavq uchun xor bo‘ldilar,
Bir hayqiriq so‘narkan bo‘g‘ilgan nafasida.

Xayolga kelganmi, boq, mana shu toq-ravoqda,
Ko‘k kiyimli bir ishchi kelib tinch dam olishi?
Yo shohlar sayr etgan yashil sarvli bu bog‘da,
Bir qishloqlik yo‘qsilning yotib sarinlanishi?

MENING QO‘SHIG‘IM

Oshiqman, yonsa jismim muzli jahannamda agar,
Bu tuganmas anduhim haybatli tog‘larni yiqar...
Gar malaklar jannati a’loni menga bersalar,
Deyman: istamam ul jannatni, bering Kavkazimni!

Kavkazim ishqi butun oltin to‘la dunyo qadar,
Olgil “Yangi dunyo”ni, yurtingni unut, desalar,
Ishqimni, haqqimni, yurtimni ber deb solgum jar,
Tinglasin kurrayi Zamin bu bo‘g‘ilmas sasimni!

QANI?

Oqshom tushib, qushlar qaytar iniga,
Ortga qaytib qo‘nay desam, tol qani?
Tong otganda cho‘pon enar uyiga,
Men ham chiqib-tushadigan yo‘l qani?

Bahor kelgach, tog‘ tuman-la qurshalur,
Sellar oqa-oqa dara bo‘shalur,
Ko‘nglim deydi, usiz qanday yashalur?
So‘ylar: men dunyoga kelgan el qani?

Zor bo‘ldim xo‘p bahoriga, qishiga,
U yoqlardan uchib kelgan qushiga.
Boqma, do‘stim, ko‘zlarimning yoshiga,
Meni undan ayirajak qo‘l qani?

G‘ARIB QUSHIMGA

G‘arib qushim, bu kelishing qaylardan?
Uchib kelding qaysi tog‘, qay daradan?
Men anglamam, ko‘ksingdagi yaradan,
Behudadir, mendan malham so‘rama,
Malham topsam, qo‘yardim o‘z yarama...

Qaysi jallod ko‘ksingni bundog‘ tildi,
Yo maddalab eski yarang sitildi?
U sas nedir, dard-la sendan otildi?
Bekorga tinglatma menga nolangni,
Qaydan bilay, kimlar yiqdi uyangni...

Kim do‘st bo‘lar, kim yarangga ilishar,
Bir esh bo‘lsa, dardlarimni bo‘lishar,
Oh, yolg‘ondir yuzimdagi kulishlar,
Sing ruhimga, boshdan kechgan onim ko‘r,
Kir qalbimga, ichda oqqan qonim ko‘r...

AMUDARYO

Amudaryo, meni ol,
O‘shal qo‘rqmas dolg‘alaring qo‘yniga sol!
Amudaryo, tingla,
Men sening darding-la,
Yosh holimda chekmoqdaman motam ila hijron,
Amudaryo, meni ol, bag‘ringga bos bu on...

Tinchlantir tug‘yonimni,
O‘zing tuyarsan isyonimni.
Dedim sarkash, jo‘shqin Xazarga,
Bor, quchoq och va yor bo‘l,
O‘lkalarga tabassum ulashgan
Bir bahor bo‘l.

Demadimki, Muzli Shimol istagiga
Berilib,
Bizdan uzoqdagi
Bir joyga borib to'l.

Shiddat-la esgan qonli Shimol,
Seni ham qul etdimi?
To'sib yo'llaringni,
Bog'lab qo'llaringni,
Seni ham erkdan mahrum etdimi?

Amudaryo, nechun bas,
Bermaysan menga bir sas?
Nechun to'lqinlaring isyon etib kirmaydi tilga?
So'yla, ko'z yoshlari, qon sellari bo'g'dimi seni?
Keksa Sharq tog'lari qon yutmoq-chun tug'dimi seni?
Yo'q, yo'q, ortiq qaytar
U avbosh sellaringni,
Bo'yasin ol qonga, yo ol chechakka
Qadrdon turk ellarini!

Otilib po'rtanadan po'rtanaga,
G'ajib zanjiring sindir,
Sen uchun eng to'g'ri yo'l budir!
Toshqin bo'l,
Qonli otashlarni tirnab uloqtir...
Yashamoq istasang,
Bu sening haqqingdir!
Bunday lol oqma, sukutdan tug'ilmas istiqlol!
Istamam bu oqshom bo'lishin jonsiz,
Bir amal porlay olmas qurbonsiz,
Amudaryo, meni ol,
O'shal qo'rqmas dolg'alaring qo'yniga sol.
Tashla meni, o'lim tomon uchirsin shamol.

Ishqimni bo'g'sin qon,
Mayli, bo'layin qurbon.

Va qonimdan qo‘shib ol sellaringga,
Oqizib olib bor turk ellariga...
Balki, bir kun yashar oliy bir timsol,
Balki, bir kun tomir otar istiqlol...
Yana hukmron bo‘lsin turk ovozi,
O‘g‘uz muhr bosgan farmon qog‘ozi!
Amudaryo, meni ol,
Shiddatli po‘rtanang qo‘yniga sol.
Dushmanni qo‘yib yubor sen, kirsin qonimga,
Qonga botmoq yarashar o‘z shonimga,
Bas, nedan xavfsirab qo‘rqaman men?
Otamning o‘g‘li, asl, mard turkman men!

ARXIMED VA MEN

Arximed der: “Ko‘zlarimga bo‘shliqda
Bir nuqta, birgina tayanch ko‘rinsa,
Bir temir-la to‘ntarardim dunyoni...”

Men deyman: “Bu rutubat, beboshlikda
O‘t purkagan yoshlik menga berilsa,
Bir zarbada ag‘darardim dunyoni!”

U MENINGDIR AZALDAN

Esmagil, ey tong yeli, bunday beqaror esma,
Zulflarin to‘zg‘itganing ul sevikli yor manim.
Kelaman deb so‘z berdim, qo‘ygil, yo‘limni to‘sma,
Moviy dengiz, yashil tog‘, u gulli diyor manim.

Vulqondek o‘t socharkan ko‘nglim tubi, qa’ridan,
Nechun qo‘rqayin sayoq, imonsizning biridan?
Bir oh cheksam chayqalib, tog‘lar ko‘char yeridan,
Tarixlardan sas olgan bir shuhratim bor manim.

Kim kechar dunyolarni mast etgan ul go‘zaldan?
Men uning o‘z yoriman, u meningdir azaldan.
Yo‘lida kurashaman, voz kechmam bu amaldan,
Yo u manim bo‘lajak, yo qonli mozor manim...

KAVKAZ TOG‘LARIGA

Maslakdoshim Laylo uchun

Qanotim yo‘q, uchib kelsam yoqangga,
Bag‘ringdagi lochinlarga esh bo‘lsam.
Yoki mag‘rur bir burgut makon etgan,
Ko‘ksingda qadimiy qoyatosh bo‘lsam...

Moviy bulutdek sen uzra yoyilsam,
Tuproq bo‘lib etagingga sarilsam,
Bir gul bo‘lib sening uchun terilsam,
Yo sayyodning o‘ljasi bir qush bo‘lsam...

Boqib tursam olis-olis izlarga,
Quloq tutsam sen haqdagi so‘zlarga.
Hasratingda zor-intizor ko‘zlarga,
Sendan oqqan bitta tomchi yosh bo‘lsam...

BIRLASHGAN IKKI NAHR

Tarix bo‘yi oqqan yeridan olib izini,
Yetdi sarkash Quzg‘unga[1] Kura o‘zni otgancha.
Ko‘rgach o‘zan boshida dardli Turkman qizini,
Araz ham dardlar chekdi xo‘p motamga botgancha.

Quchoqlashdi birlashib bunda singil-egachi,
Biri ishqim, borlig‘im, biri boshimning toji...

[1] **Quzg‘un** — Kaspiy dengizining qadimiy nomi.

Birida Kavkaz qizi yoyib jingalak sochin,
Yo'lida qurbon etmish mening kabi nechasin.
Biri esh topa olmas, pinhona tilib ichin,
Yonarmish o'z dardi-la dilin siyoh etgancha...

Yetishgan tuproqlari yerda jannatning eshi,
Biri qalbimdagi qon, biri ko'zimning yoshi...

Biri yig'ar suvini ming daradan, ming ko'ldan,
Birining bag'ri kuyuk uzoqdan kelgan seldan,
Biri mening o'z tilim, biri anglanmas tildan,
Yonaman ortidan men oh-u fig'on chekkancha...

Biri menga ona yurt, biri men kirgan quchoq,
Biri mening, biri ham... U ham mening bo'lajak!..

TOG'LAR

O'parkan cho'qqingni fusunkor bahor,
Oqadi ko'ksingdan sellar, ey tog'lar!
Yashil, zumrad ko'zli etaklar bo'ylab,
Ochilar lolalar, gullar, ey tog'lar!..

Hech o'chmas tarixda pok noming shoni,
Karvonlar tik bo'yning oltin marjoni,
Bag'ringda keltirar yellar qurbonni,
Og'ir kelganida yillar, ey tog'lar!..

Tuprog'ing javohir, toshlaring olmos,
Qarag'aylaringda ipakdan libos,
Ba'zan bilmam nechun chehrangda ayoz,
Quzg'undan esganda yellar, ey tog'lar?..

Cho'kkanmish qalbingga qadimdan ming tog',
Titrar ishqin yodga olgan har dudoq,
Yoyilar shikasta ovozi tog'-tog',
Ne so'ylar bu g'arib dillar, ey tog'lar?..

Cho‘qqingda o‘ynagan shamollar ranjli,
Yillarcha ko‘rinmas boshingning toji,
Anglatgil, dardlaring nedir iloji,
Nedir bu tumandan shollar, ey tog‘lar?

Bag‘ringda qizlardan alvon guldasta,
Lolalar sochilmish yo‘llar ustida,
Sen kel, bu o‘lkadan ming qurbon ista,
Sendan qizg‘anmagay yo‘llar, ey tog‘lar!..

TOG‘LARGA VIDO

Azaldan jon deganim bu sevimli o‘lkaga,
Aylanib-o‘rgilganim senga ayon, ey tog‘lar!
Avaylab har og‘rig‘ing so‘z berdim o‘lgum deya,
Shu sabab bu dardlarim bilmas poyon, ey tog‘lar!

Ona yurtim tark etib, kezdim diyorma-diyor,
Ko‘rmadim yosh umrimda yashalgusi bir bahor,
Aylandi dushmanimga do‘st deyilgan kimki bor,
Bori sen-la do‘stlikdan qilmay armon, ey tog‘lar!

Oh, Boku... Bu ayriliq menga o‘limdan og‘ir,
Olamga keldi bahor, senga yog‘ar qor, yomg‘ir,
Kunduzlaring tumanli, kechalaring lol-kardir,
Bu bo‘g‘iq ovozingda bormi tug‘yon, ey tog‘lar?

Hijronga tob keltirib, tog‘larni qulataman,
Bir qonli Sezar kabi men, albatta, qaytaman,
Bir kun Ildegiz kabi men hayqirib aytaman,
Yetar, uyg‘on, ey tog‘lar, yetar, uyg‘on, ey tog‘lar!

Bir kun kelar qo‘shilib yurtimning oh-voyiga,
Men otash yog‘diraman dushmanning saroyiga,
Yurti toptalgan yigitning ne bitmish manglayiga?
Yo sharafli istiqlol, yo qizil qon, ey tog‘lar...

MENING INJUM

Na Erondan, na Hinddan,
na Afg‘ondan, na Chindan,
Men bir inju topgandim Kavkazlarning ichindan.
O‘ynayotib qo‘limdan tushdi tuproqqa injum.
Qayda mening yoshligim, qayda mening sevinchim?
Sezmadim, uchdi-ketdi u mendan xo‘p uzoqqa,
Tole qushim egib bosh ilindi-ku tuzoqqa.
O‘sha lahzadan mening o‘z injum sindirdilar,
Baayniki, ishqim, sevinchim sindirdilar.

Olisda o‘z yurtidan, tuprog‘idan, toshidan,
Yosh bir shoir ne anglar bahoridan, qishidan?
Naylayin men ruhimni erkalagan quyoshni,
Qayda mening ilohim, qayda ko‘nglimning eshi?
Men naylayin quyoshning chiqib to botishini,
Boshimga zahar sochgan bir kun yaratishini.
Men u kundan na sevinch, na bir havas olaman,
Begona qo‘shiqlarga bir yig‘lab, bir kulaman.

DO‘STIM NAFIYGA

Bir esdalik bo‘lsin uchun she’rlarimdan bir parchasini yozyapman...

Sendan ayrilganda botdim motamga,
Bu xasta ko‘nglimda nolalar qoldi.
Ko‘zlarim yoshlandi bulutlar misol,
Sarg‘aygan yuzimda jolalar qoldi.

Falak borlig‘imni yosh chog‘im ezdi,
Qalbimda alamlar, qayg‘ular kezdi,
Umid g‘unchasini yot qo‘llar uzdi,
O‘rnida uniqqan lolalar qoldi.

Bir vaqtlar barobar sevmaganmidik?
Ko‘ngilga ne kelsa, bo‘lmaganmidik?
Yuzma-yuz turishib, kulmaganmidik?
Oramizda olis shu’lalar qoldi...

U GO‘ZALGA

Yodga olarmisan, unda bir zamon,
Sening-la baxtiyor erdim, go‘zalim...
Sen mendan esdalik istading, men ham
Sug‘urib qalbimni berdim, go‘zalim.

To qabrgacha ko‘nsin deya maylingga,
Zahar solganmiding tutgan mayingga?
Men la’nat o‘qidim sensiz har nega,
Men har neda seni ko‘rdim, go‘zalim...

Mug‘on yaylovida, ko‘k Mil tuzida,
Oqdi tomchi-tomchi qonim izingda,
Kel vafo qil, sen ham bir tur so‘zingda,
Men so‘zim ustida turdim, go‘zalim...

Ka’bam bo‘lding, mehrobingga tiz qo‘ydim,
Hizrim bo‘lding, dargohingga ko‘z qo‘ydim,
G‘arib bo‘ldim, tuprog‘ingga yuz qo‘ydim,
Hech so‘rmading nedir dardim, go‘zalim...

Qayga ketsam ortimda bir ohim bor,
Borib bosh qo‘ymoqqa bir dargohim bor,
Albattaki, mening ham Allohim bor,
Kun kelar, hur bo‘lar yurtim, go‘zalim...

UMRIM XAROB BO‘LDI-YEY...

Kim aytdiki senga, chiqib yo‘limga,
Yosh chog‘imda yuborasan o‘limga,

Bilmam isming kim tirnadi ko‘nglimga,
Kelgil, sensiz umrim xarob bo‘ldi-yey...

Sen ketding, ortingdan qaddim bukildi,
Yuzim yuvib, ko‘z yoshlarim to‘kildi,
Ellar, do‘stlar bitta-bitta chekindi,
Hamdamim bir qadah sharob bo‘ldi-yey...

Chiqibmish Sulaymon taxtiga Quyosh,
Na bir Mushfiq nadim, na Javod bir esh.
Nedir ichimdagi so‘nmagan otash?
Ko‘nglimda umidlar sarob bo‘ldi-yey...

Bezdim ortiq sensiz har bir kunimdan,
Tan berdirgan taqdirimga kinimdan,
Seni deb kechdim Tangrimdan, dinimdan,
Bosgan yering menga mehrob bo‘ldi-yey!..

NE UCHUN?

Men ortiq ne yozay yurtimga doir,
Dushman zahar sochar, do‘st g‘oyib bo‘lur,
Bilmam, o‘z yurtini sevgan bir shoir,
Ne uchun badkor kabi ta’qib etilur.

Pinhona yo‘l tutmadim, qochoq bo‘lmadim,
Osoyishta hayotni men buzmadim.
Hech kimga qonli bir pichoq bo‘lmadim,
Hech bir qatl uchun farmon yozmadim.

Bas nechun g‘aribman bu qadrdon elda,
Zindonmi to‘rt yonim, men xo‘p bo‘g‘ildim?
Mal’un bir zamonda, mahkum bir yilda,
Allohim, men nechun shoir tug‘ildim?..

TURNAJON

Bu kunlar mening dardim boshimdan oshdi yana,
Diqqat etsangiz agar aft-angorim rangiga,
Eng og'ir bir kadarning sezajaksiz izini,
Dardim keltirar jo'shga qalbimning dengizini.
Ichimdagi to'fonlar, po'rtanalar, bo'ronlar
Har lahzada ko'nglimni goh uzar, goh yaralar.
Har nigohdan qalbimga chuqur sanchilar bir o'q,
Hayhot, yetim ko'nglimning hech bir tasallisi yo'q...
Ketayotgan yo'limning uchi yo'q, burchagi yo'q,
Sho'rlik boshim qo'ymoqqa bir ona quchog'i yo'q...
Turna, kel, sen qabul et, bu xo'p chalkash o'yinni,
Ta'nali so'z oldida bukma nozik bo'yningni.
Xafa bo'lma, turnajonim, ma'lum har dardimiz, kel,
Kel, birlikda ikkimiz tasalli topamiz, kel,
Ketma, turnam, ketmagil, axir, yo'llar qorishiq,
Bir tingla, ne demoqda boshi baloli oshiq...

MUHOJIROTDA

Ey, ozariy turk... Ey, vatandoshim...
Sening g'orat qilingan haqqing tufayli
yaralgan shiddatkorligingga
tarjimon bo'layin deya hayqirdim...

Taassufki, bu hayqiriq so'ngida
uzuq-yuluq bo'g'iq bir ovoz ila qichqirdim...
Oh... loaqal shu ovoz bilan ham seni,
sening mehringni, hasratingni,
g'aribligingni ozgina sezdirolgan bo'lsam,
o'zimni baxtiyor derdim...
Ozarbayjon farzandi Olmos Yildirim.

ERON QIZI

Qirlarga nay sasi-la tushadi oqshom,
Sarg‘aygan kenglikni moviylik quchar.
Go‘zal qiz, gul yuzing chiroyli buncha?
Eh, bo‘lsaydim men ham nash’ali Xayyom,
Ilohiy ishq-la erk berib so‘zlarga,
Sajda etardim u jodu ko‘zlarga...

Porlar Xurosonning oltin qubbasi...
Besh kun umrimiz bor, odimlar o‘lim.
Ol qora hijobni yuzingdan, gulim,
Tinglama, u g‘amli, bo‘g‘ilgan sasni,
Chiq bulut ichidan, qolma o‘ralib,
So‘lmasin ko‘ksingda Tabrizning guli...

Oqshom minoralardan yangraydi azon,
Ko‘zlaringdan sizar marvarid yoshlar,
Ayt, nechun chimrildi u qalam qoshlar?
Tug‘yon etgan darding yo‘qmi yozari?
Boqib horg‘in ko‘zlarga og‘adi hushim,
Ayt, suluv shahriyor, nedan mast bo‘ldim?

Ko‘pdan ichmadim Kavkaz elidan sharob,
Nechun men gangidim, tinar ko‘zlarim,
Sen o‘tgan yo‘llarda inar ko‘zlarim?
Goh chorshaf ostidan qilib bir savob,
Ko‘rsatarsan to‘lin oydek yuzingni,
Yodga solib o‘tlar yurtin qizini.

Bir vaqtlar men ham yashil Kavkazda,
Sen kabi nozanin yorni sevardim,
Sasidan Kura-yu Araz jo‘shardi.
Derlar, qolibmish endi alamdan xasta,
G‘aribona boqarmish ona yurtiga,
Yubor salomimni tog‘lar ortiga...

Yo'l uzun, orzu yiroq, umrimiz qisqa,
Bir gulni ko'p ko'rdilar bizga dunyoda,
Go'zal qiz, ichayin shavqli bir boda,
Qaydam, balki, sira qaytmam Kavkazga,
Menga bir taskinlik etsang baxshida,
Aytardim yurtimga atab qasida...

BIR PARCHA

La'nat ash'orimga, ham so'zlarimga,
Oh, vatan, vatan, ko'rin ko'zlarimga!
Ko'rin, charaqlasin men uchun shafaq,
Vatansiz tug'ildim! Nahot?! Bu ne haq?!

OZARNING[1] DUOSI

Zor bo'lib qadrdon yurtim mehribon quchog'iga,
Ko'zi yoshli, bo'yni egik, vatansiz o'lamanmi?
Tiz cho'kib yot ellarning shifo bermas quchog'iga,
Shunday g'arib, biror parcha kafansiz o'lamanmi?

Ulug' Tangrim... gunohmi shu, bahor keldi, men sayradim,
Bu bir elning tilagidir, yot so'zdan qolip olmadim.
Olam sevdi, men ham sevdim, ellar kuldi, men o'kradim,
Sevdim, ammo tizlariga bir marta bosh qo'yolmadim.

Tangrim! Menga ko'p ko'rdingmi o't purkagan tuprog'imni?
Jannat sening, Ka'ba sening, bir qabriston yurtimni ber!
Jahannamdan olsin, mayli, dunyo mening so'rog'imni,
Kifoyadir bir qultum suv, bosh qo'yishga bir parcha yer!

[1] **Ozar** (Azər) — shoirning o'g'li, Istanbulda yashagan.

MENING E'TIROZIM

Jamiyati Aqvomga ochiq xat

Tingla, sen, ey, haq deya zulmga esh bo'lgan uya,
Bir millat vakiliman, mening ham o'z sasim bor.
Tog'lari ol qonim-la bo'yalgan o'lkada
Bilsang, yashamoq uchun naqadar havasim bor...

Rusniki degan yerlar tuprog'imdir, toshimdir,
Uning boshidagi toj mening davlat qushimdir.
Tenyovda sunilgan may u mening ko'z yoshimdir,
Eh, bilsayding boshimda ne-ne balom, yoshim bor.

Boku... U mening Ka'bam, u mehrobim, u yurtim,
Yo'lida qonxo'r chorga yillar-la qarshi turdim.
Dastlab chor zanjirini men g'ajidim, sindirdim,
Olamga ovoza qildim: ozod, hur Kavkazim bor...

Bugun bir "do'st" ko'rindi, bizlarga boda sundi,
Sundi-yu, boshimizga "tulki"-la, "bo'ri" qo'ndi.
Yondi istagim, ishqim, vatanim o'tda yondi...
Jizg'anak jasad, qon, kul, olov-u tuman qoldi.

Bu nedir? Tarix charxi ters tomonga aylandi?
O'lkamiz parchalanib, bag'riga o't qalandi,
Millatlar uchun deya zangin ellar talandi,
Tog'larda aks etgan sas yolg'iz oh-fig'on qoldi...

Ortiq u aziz yurtda yongusi bir o'choq yo'q,
Onalarning ko'z yoshi tommagan bir burchak yo'q,
Evohki, bosh qo'yishga bir tizza, bir quchoq yo'q,
Angladikki, dunyoda yaxshi yo'q, yomon qoldi...

BOTAYOTGAN QUYOSH

Sen ongimda yaralgan bir uchqundan o't olding,
Ey, ruhimni, ishqimni yetim aylagan quyosh,

Ketishing-la umrimga po‘rtanalar bo‘ldi esh...
Qaylarda, qay ufqning teranligida qolding?
Qalbimni bir sovuq qo‘l muzlatgani rostmikan,
Yo bu nedir, ko‘nglimga sanchilgan niyatmikan?

Oshiqlaring hech qachon seni topmasin deya,
Sen o‘tgan yo‘llaringni chindan yiqib yondirdi,
Yo bu nedir, ortingdan qonli izlar qoldirdi?
Deydilarki, borlig‘ing qorishganmish ko‘lkaga,
Bas, bu nedir, mahbusdek ko‘ksimda talpingan jon,
Senmisan, g‘arib vatan, senmisan, Ozarbayjon?

KAVKAZ

Bir zamonlar Pushkinning so‘ylatib alamini,
Unga surgun yerida bir go‘zal jannat bo‘lding.
Sevinchidan sindiray dedi-ya qalamini,
U hokimdayin jo‘shdi, sen esa dardga to‘lding.

Bir zamonlar g‘urur-la so‘yladi zavqqa to‘lib,
“Kavkaz oyog‘im ostida, men ustidaman”, — dedi .
Senga sajda ayladi Kazbek boshida turib,
Chekkan nolalaringni sevinch ila tingladi.

Men na bir Lermontovman, na bir zabardast Pushkin,
Ki, bir rus qalami-la madh etayin qadringni.
Yolg‘iz men yaralganman olmoq uchun dardingni.
“Asov” deya chechenga yo‘qdir qalbimda hech kin,
Ozari-yu, gurjini tog‘li bir ruh deganman,
Men yolg‘iz sening uchun o‘lmakka yaralganman.

G‘URBATDA

Tuprog‘i o‘t-otash-la yo‘g‘rilgan bir diyorning,
Yot etiklar toptagan bag‘rida tug‘ildim men.
Umrini yutib ketgan har qishin, har bahorin,
Ichida motam tutib, oh-u fig‘on qildim men.

Bosgan har tuprog‘imning jannat bo‘lsa-da yuzi,
Men uni bir lahzada toptab, ezib o‘taman.
Mayli, muzlab tosh qotsin, har bir chashmaning ko‘zi,
Men yana o‘zim ichgan og‘ulardan yutaman.

Har chechak keltirsa-da menga bahoriy mujda,
Qalbimdagi tog‘larning boshidan ketmas qishi.
Etolmam men ishqim-chun yot ma’budlarga sajda,
Qo‘yvor, yurgan yo‘limning to‘fonlar bo‘lsin eshi...

G‘urbatda o‘lar bo‘lsam, qalbingga solma armon,
Aytki, do‘stlar ko‘mmasin jasadim tuproqlarga.
Jismim yoqing, kulini yel uchirsin to‘rt tomon,
Keltirsin bir zarrasin men qo‘msagan tog‘larga.

Yo‘q, o‘lmoqni istamam ona yurtim ko‘rmayin,
U yerda xo‘p yig‘ladim, endi borib, kulaman.
Ayt, aslo sevinmasin Kremldagi lain,
Men to‘fon-la tug‘ildim, to‘fon ila o‘laman!

JIM BO‘LING

Fisq-fasodchilarga

Yuguramiz, yo‘l tikan, o‘ydim-chuqur, tog‘, dara,
Yuragimiz o‘t oldi bir so‘nmas shavq, g‘ayratdan.
Yuguramiz, bu yo‘lda qurbonlar bera-bera,
Borlig‘imiz kul bo‘ldi boshga tushgan kulfatdan.

Tilni tiying siz loaqal, so‘zlay boshlasin tog‘lar,
O‘kinchlardan titrasin zahar tomgan dudoqlar.
Vatan otashda, qonda, Araz jo‘shar, Kur yig‘lar,
Talonda Kavkazimiz, yerga kiring uyatdan!

BOKU

Bir vaqtlar sha'ningga ash'or aytdim ellarga,
Endi qalbimni tilib, zirqirat, ingra, Boku...
Seni deb kurashganlar qo'llari bog'liq ketdi,
Men-chi yonib, kul bo'ldim sening darding-la, Boku...

Bir kun istiqlol deding, biz tashlandik g'avg'oga,
Sen bag'ringdan qon sizgan joy ajratding Maskovga.
Kim dedi aylangaysan o'laksa hid makonga,
Kim dedi bir omining so'zlarin tingla, Boku...

Olamning otash to'la siynasi menman deya,
Dastlab berding olovni o'sha Prometeyga...
Qofga u kishanlandi, senga jon deya-deya,
Ko'mildi ko'ngillarga ishqi sening-la, Boku...

Bizning qadim Kavkazda sen bir zumrad toj eding,
Dushmanga sevinch berding, bizni dardga g'arq etding,
Do'st deymi rusni, axir, sevgim qonga botirdi?!
To'ldi ko'ksim junbishga kelgan bir kin-la, Boku...

Yonarkan Saboyelda har oqshom yashil mayoq,
Yo'limga yillar bo'yi ko'z tutgan onam uyg'oq...
Taqdirga boq, uzoqlar yaqin, yaqinlar uzoq,
Olis tog'lar ortidan ovozim tingla, Boku...

MENMI?

So'rmangiz ajdodim kim, qayerliman, ey do'stlar,
Ko'nglimda po'rtanali, dovulliman, ey do'stlar,
Qo'rg'oshinga yo'liqdim, yaraliman, ey do'stlar,
Jabriga tob berolsam, tog'larni tolqon qilgum,
Qurbon qabul etsa gar, yo'lida fido bo'lgum...

Tegmangiz, siz tegmangiz, ich-ichimdan dog‘liman,
Dunyoga dong taratgan Oltoylarning o‘g‘liman,
Ul tuproqda tug‘ildim, u tuproqqa bog‘liqman.
Istamam bir begona ko‘z tiksin bir toshiga,
Yo‘l ber, yo‘l ber, qo‘nayin o‘shal tog‘lar boshiga...

Ey, ko‘p yillar olisdan hasratini chekkanim,
Yo‘lida pinhon-pinhon ko‘z yoshlarim to‘kkanim,
Bu ne, dinsiz tolega bo‘ynin andog‘ bukkanim?
Yo mening ko‘zim ko‘rmi, yo qo‘limda quvvat yo‘q?
Qaydasan, ey o‘tmishim, kel, siniq qalbimga oq!

Menmanmi Oltoylarda boshi ko‘klarga yetgan?
Tarixni men yozdimmi, umi meni madh etgan?
Menmanmi endi shunday tavakkalga bosh eggan?
Qaysi bir zolim mening qo‘llarim qayirmoqchi?
Qay bir kuch-quvvat menga kishanlarin urmoqchi?

BIR KUNDA NOBUD BO‘LGAN EGIZAKLAR

Onalariga
Eldegiz va Yurdavor[1] uchun

Men derdimki, bir kuni borib ona diyorga,
Siz o‘parsiz onamning chang bosgan mozorini...
U kunning hasratida o‘lib ketgan bo‘lsam ham,
Siz mensiz kezardingiz Bokuning Xazarini...
La’nat deyman menga yor bo‘lmagan shum falakka,
G‘ov bo‘ldi yuragimda yaralgan har tilakka...

O‘ylardimki, ishqimning gul ochmagan bahori,
Sizlar bilan fayzlanib, ulg‘ayajak, kulajak.

[1] **Eldegiz va Yurdavor** — shoirning bir kunda nobud bo‘lgan egizak farzandlari.

Qarg‘ishga qoldimmikan, loaqal sizga kulmadi,
Meni hech egolmagan, dinsiz, imonsiz falak.
Ozorlarin yengolsam, tog‘larni yanchib, tilgum,
Kun kelib unga, albat, amrim tinglata bilgum...

Ortiq ular ko‘mildi... Yig‘lama sho‘rlik ona,
Na iloj, qismat ekan, chekamiz azobini.
Bir kun hisob so‘rganda har berilgan qurbonga,
Parvardigor, Qoflar ham yutarkan g‘azabini.
Yig‘lama... sezilmasin g‘urbatning qiyinligi,
Yig‘lama... darz ketmasin qalbimning metinligi.

Bir kunda ikki qurbon... chiqarmayin zarra sas,
Men bu zolim hukmni ham yana loqayd tingladim.
Oh... bir kun qaytsam edi senga, jonajon Kavkaz,
Men faqat sening ishqing, hasrating-la ingradim...
Bu ingroq olamdagi eng ashaddiy qahr-alam,
Yolg‘iz bu ingrog‘imdir qalbimda tirnar yaram.

Boshqa hech ne tinglamam, menga yurtimdan kuyla,
Anglat uning ishqini, unutay hasratimni...
Sen oldirma qalbimga sanchilgan bir juft o‘qni,
Kuyla menga ruhimni, jismimni, Kavkazimni...
O‘lgan o‘ldi, o‘lmagan hasratim-la titrar jon,
Kuyla, ko‘zimda qolsin qadrdon Ozarbayjon...

ALVIDO, BOKU!

Turkistonga ketayotib

Alvido, ey mushfiq ona, alvido...
Bu onda qalbimda tuganmas g‘am bor,
Ichimda bir og‘riq, ko‘zimda nam bor,
Alvido, ey mushfiq ona, alvido...

Senda uchib o‘tdi yigirma to‘rt yoshim,
Hech qachon balodan chiqmadi boshim,

Sen bo‘lding hamdamim, dardli yo‘ldoshim,
Alla aytding yona-yona, alvido...

Men yot emas, tug‘ishgan o‘g‘ling bo‘ldim,
O‘z qoningdan gul bag‘ringda tug‘ildim,
Gunohim — senga "jon" dedim, quvildim,
Achinmading bu qurbona, alvido...

Yo‘qoldi Chambarakandi[1] ko‘zlardan,
Botib ketdi Pirvanzali[2] izlardan,
Kim ne anglar bu qorishiq so‘zlardan,
Bari xotirotdir jona, alvido...

Bir vaqtlar qo‘yningda men ham yashadim,
Ko‘chadan ko‘chaga yangradi otim,
Bilolmam, so‘narmi sendagi yodim,
Balki, qaytmam sen tomona, alvido...

Qara, ne der yana bu jo‘shqin Xazar,
Bag‘rida Shimoldan kelgan yot kezar,
Bu bir dardki, to o‘lgunimcha ezar,
Etar beorom devona, alvido...

Olislarda qorayar Qiz qal’asi,
Ayturki, boshimning ko‘pdir balosi,
Qaylarda o‘z o‘g‘li, botir bolasi,
Achinsin kuyuk nolona, alvido...

Mening gunohim yo‘q, bir afv bag‘ishla,
Tinmayin kurashdim, to‘fon-la, qish-la,
Goho salom yubor sen ham bir qush-la,
Borar joyim Turkistonga, alvido...

Alvido, ey go‘zal Boku, alvido!
Tinch-omon bo‘l, so‘ng so‘zim bu, alvido!

[1] ***Chambarakand*** — *Boku mahallalari nomi.*

[2] ***Pirvanzali*** — *Boku mahallalari nomi.*

TITRAR OZARBAYJONIM

Qayda u, men gul qo'ynida tug'ilgan,
Xamirimni ko'z yoshi-la yo'g'irgan,
Alla aytib ming aylanib-o'rgilgan,
Ozarbayjon, mening baxtsiz onam-ey,
Necha yillar hasratida dog'man-ey...

Salom desam, shamol olib uchirsa,
Og'ritog'dan Olako'zga oshirsa,
Yangroq sasim ko'k Xazarga yetkursa,
Xazar jo'shib, zanjirlarin uzsa-yey!..
Hukm etsa, bu sargardonlik bitsa-yey!..

Xabar olsam Mug'onimdan, Milimdan,
Go'zal Bokum, ul neft isli gulimdan.
Kimlar aytdi, nomi o'chdi tilimdan?
Ozarbayjon, mening eshsiz yurtim-ey!
O'lmas ishqim, ichimdagi dardim-ey!

Ko'nglimdaga Ka'bam dedim seni men,
Sensiz netay g'urbat elda kunni men,
Sensiz bilmam Allohni men, dinni men,
Ozarbayjon, mening tojim, taxtim-ey!
Uyg'onmasmi ko'r bo'lgudek baxtim-ey?!

BILMASMAN...

O'g'lim Ozarga

Kun kelib to so'nggi muhlat yetguncha,
Qahr bo'lgudek bu ayriliq bitguncha,
Bog'imizda bulbul xonish etguncha,
Istagim chin bo'larmikan, bilmasman...

Kun bezaydi manglaying bitmishini,
Bas qilmam izingdan intilishimni,

Tog‘larga kuzatdim sog‘inch qushimni,
Senga borib yetarmikan, bilmasman...

Qovushganda yurt bayram, to‘y-tugunga,
Chayqalar el, izn berib raqs-o‘yinga,
San yetguncha men ko‘z tutgan u kunga,
Umrim vafo etarmikan, bilmasman...

QO‘SHIQ

Sayra, qumrim, mendan sen xo‘p baxtiyor,
Hech bo‘lmasa, qo‘nay desang uyang bor,
Seniki bu tog‘lar, yashil chamanzor,
Na yurt hasrati bor, na vatan dardi,
Barini ko‘r falak bir menga berdi...

Senda qanot bor, mening qo‘lim siniq,
Senda go‘zal ovoz, menda qichqiriq,
Chirmar ekan ko‘nglimni shum ayriliq,
Qor tushgan tog‘larga o‘xshaydi boshim,
Hatto bulut ham bo‘lmaydi yo‘ldoshim.

Sayra, qumrim, mendan sen xo‘p baxtiyor,
Qanoting bor, hurliging bor, uyang bor,
Uch, o‘rnimga tog‘larimni quch ming bor,
Kuyla u yurtda pok niyat qo‘shig‘in,
Uya qo‘shig‘in, hurriyat qo‘shig‘in.

YURT HASRATI

Yurtim har qarichin eslaganimda,
Yuragim otilay deydi qinidan.
Yurtim... Ul ilohiy ulug‘vor Kavkaz,
Bermish menga bu ilhomni azaldan.

Simirdim ishqi ila chin dildan,
Otash to'la bir jomni azaldan.
Ruh ololmam men boshqa go'zaldan,
Ishqim! Ul ilohiy ulug'vor Kavkaz...

Kavkaz! O, yashil siynali tog'lar,
Hijron yemirib, yuragin dog'lar,
Necha-necha asr motamda yig'lar,
Bir ramz bo'lib Kuradan, ham Arazdan,
Quzg'un unga hasrat ila bosh urar,
Dardi-la dolg'alar jo'shib oh urar....

Hayhot! Afsuslar, qanotim ham yo'q,
Bir zumga uchib, tog'larni ko'rsam,
Ko'kko'lda tarlon misol charx ursam...
Panadan otilgan bir daydi o'q,
Qalbim parchalab, tuproqqa tushsam,
Bir lahza u zamin ila o'pishsam...

Ona tuproq, zumrad ko'lkali tuproq,
Bag'rida mozorim ham salqinlar.
Shamolda tushgan har sariq yaproq,
Ruhimning yoniq qo'shig'in tinglar...

QURBONING BO'LA OLSAM

Yig'lama, yig'lama, ey, ko'zlari bulutli yor,
Hech bo'lmasa, uzoqdan dardingni bo'la olsam...
Bir tarlondek qo'nsam ul qor elangan tog'larga,
Bir ovchi otsa, tushsam, siynangda qola olsam,
Qurboning bo'la olsam...

Yana yoshlar ko'rindi toliqqan ko'zlaringda,
Bir qurbon berganmiding ul muz dengizlaringda?
Yillab bahor ko'rmagan qoq qula tuzlaringda,
Gul misoli ochilsam, gul misol so'la olsam,
Men sening bo'la olsam...

Yarador turna tunda bir xabar berdi achchiq,
Dedi: "Tog'lar huvullar, yo'q qumrisi, durroji",
Sen bir dardga tushdingki, hech topilmas iloji...
Dardlaringning malhamin, davosin bila olsam,
Men senga kela olsam...

QUZG'UN UCHUN

Tushdim hayratga bir vaqtlar jo'shqin sasingdan,
Dardlaringni tinglay-tinglay sarildim sozga.
Ilhom olib to'lqinlarning qahqahasidan,
Yurtma-yurt sargardon kezdim dard yoza-yoza...
Dil tubidan sizgan nola yodingmi, Quzg'un?
Lablarimga qo'nib qolgan otingmi, Quzg'un?

Aytgil, seni nechun "Dalli Xazar" deganlar?
Ko'r toleying qo'ldan qo'lga kezar deganlar,
Seni sevgan o'z jonidan bezar deganlar?
Yetmasmi yo'llarga ko'z tikkanim, Quzg'un,
Bitmasmi bu ko'r falakdan chekkanim, Quzg'un?

So'yla, nedir yuzingdagi, qizil normikan?
Qon berdimi yarasidan sen quchgan o'lka?
Xayolingmi ko'z oldimda bu moviy ko'lka?
Ey, uzoqdan men aylanib-o'rgilgan, Quzg'un,
Yangroq sasing do'st eliga yoyilgan, Quzg'un...

VATANGA QAYTAMAN

Yo'l ber, qoch, nariroq tur, ey, yo'limni to'sgan tog',
Kun keldi, yetar ortiq, vatanimga qaytaman...
Ol meni bag'ringga, ey, sharq tomon oqqan irmoq,
Men ham oqib ul dardli yerni quchib yotaman...
Yetar ortiq, begona yurtda uzoq qolganim,
Ayriliq sitamidan to'lg'anib qovrilganim,

Kel, ko'rin ko'zlarimga, aylanib-o'rgilganim,
Farhod kabi yo'lingda tog'larni qulataman...

Yog'iy o'ldi demasin yaramni ko'rgan zamon,
Meni ega olmadi na po'rtana, na bo'ron,
Kun kelib, parchalanar barcha g'ovlar, tog'-dovon,
Zanjir-kishanlaringni o'zim uzib otaman...
Kim aytarki, ko'ngilda yo'qdir xotirang, yoding,
La'nat u she'rimga, gar bo'lmasa unda oting,
Demaki, ko'ngillarda yo'q bir g'arib faryoding,
Men senga yetmoq uchun seni chorlab ketaman...

BIR KUN

Dema, ketmas boshimdan bu yomg'irli bulutlar,
Chaqmoq bo'lib ufq uzra qaytadan chaqaman men.
Ko'zlari olis yo'lga tikilgan qallig'imga,
Zafarlardan rang olgan bir gulni taqaman men.

Tegmagil sen boshimga qo'ngan davlat qushiga,
Qo'y, meni olib ketsin bir istak kurashiga,
Bir kun chiqib Kazbekning ul mag'rur, tik boshiga,
Shavkat ila qahramon ellarga boqaman men.

So'ylangiz diyorimni g'ajigan omonsizga,
Tegmasin ul sochlari parishon turgan qizga.
Bir kun itoat etib tog' qulatuvchi hisga,
Jo'shqin daryolar kabi u yerda oqaman men.

U yerdadir borlig'im, beshigim, mozorim ham,
U yerda yoshligim ham, ishqim ham, bahorim ham,
Nomin takrorlab titrar u so'lg'in dudog'im ham,
Otashida bir kuni o'zimni yoqaman men...

NAYLAYIN?

O‘tdi bahor, bitdi kuz, u tog‘larni qish oldi,
Do‘st elidan bir xabar ololmadim, naylayin?
Boqa-boqa yo‘llarga ko‘zlarimni yosh oldi,
Men u elning yo‘lchisi bo‘lolmadim, naylayin?

Kezdim sarson-sargardon dunyoni sarxush kabi,
U juvonmarg yot elda har yer menga bo‘sh kabi...
Talpindim, tilkalandim yarador bir qush kabi,
Jon saqlashga bir uya topolmadim, naylayin?

Oh, vatan, ona yurtim... Esiz, jannatdek o‘lka,
Usiz yashash jirkanch dog‘, yuragim tilka-tilka,
Usiz har ne afsona, usiz borliq bir ko‘lka,
Usiz hech nedan ilhom ololmadim, naylayin?

Bering menga yurtimni, qoya bo‘lsin, tog‘ bo‘lsin,
Oyoqlarimda zanjir, tushganim bir choh bo‘lsin,
Gar o‘lsam men yo‘lida, sevguchilar sog‘ bo‘lsin,
Yuzimni tuprog‘iga surtolmadim, naylayin?
Yashil bag‘riga o‘zni otolmadim, naylayin?

EY, DO‘ST

Gulzor qildim, gullarini yel oldi,
Bir dona g‘unchasin termadim, ey do‘st!
Bir bog‘ bo‘lsin dedim, kelib sel oldi,
Bir dona mevasin ko‘rmadim, ey do‘st!

Do‘stga bel bog‘ladim, tuzoqqa tushdim,
Jononga jon dedim, uzoqqa tushdim.
Afsunlangan qizil bir chohga tushdim,
Birlik tilagiga ermadim, ey do‘st!

Boqarman sevimli Mag‘ribim tomon,
Sherik bo‘l men yutgan og‘uga bir on,

Unda yovga qoldi bir kelin nolon,
Uni to‘ygunimcha suymadim, ey do‘st!

Bu bedor qalb uning, tanho jon uning,
Tomirlarimdagi oqqan qon uning,
Ko‘nglimni jo‘shtirgan bu imon uning,
Men o‘zgaga ko‘ngil qo‘ymadim, ey do‘st...

O‘LIMMI, HAYOTMI?

Bir on jimib sarin tuproq ostida,
Qutulmoq bu og‘ir, cheksiz zillatdan.
Zo‘rmi ajab, Azroilning panjasi,
Vatangado degan bu kuch, illatdan?
Kim tob berar bu ichilmas og‘uga,
Tangrim uni bermasinmi yog‘iyga?

Gar sil kelsa, hukmini tez bildirar,
Ajal kelib, so‘lg‘in yuzni kuldirar,
Yigirma yil na bitar, na o‘ldirar,
Nafasim kuydirgan oh ham qolmadi...
Yuz tutmoqqa bir dargoh ham qolmadi...

Istasang yon, erib-erib misli sham,
Gul tilasang, ortga qaytadi ko‘klam,
Yarim bo‘lmas yo‘lim yillar o‘tsa ham,
Sarobni men umid deb ishondimmi,
Shu orzu ishonchi ila yondimmi?..

Vaqt siqmoqda, totsiz umr bitmaydi,
Jonga qasd-chun yurak jur’at etmaydi,
Bir qo‘rg‘oshin yoki noma yetmaydi,
O‘lmakmi... Yo umidga bel bog‘lasam,
Yurtim uchun yana biroz yig‘lasam?

Deydilarki, bir jannat bor,
Mehr ulashar malaklar.
O‘z yurtidan ayro shoir
U yerdan nelar kutar?

Derlar unda yo‘qmish o‘lim,
Zamzam suvini ichgach.
Tangrim! Menga ajal yubor,
Qof tog‘idan kechgach.

Derlar, u yerda na vatan,
Na hijron bor, na havas.
Menga esa g‘urbat elda,
Vatan deya yonsam bas...

G‘URBAT MAKTUBLARI

U yerdagi singlimga

Ko‘pdan beri ololmayman,
Singlim, sendan na bir maktub, na so‘roq,
Bilsang naqadar ich-ichdan sog‘inchim,
Bilsang ko‘zlarimda qanchalar titrar,
O‘shal tolzor, qarag‘ay isli tuproq.
Hali bizning olchali bog‘imiz,
Mening bir tup anorim,
O‘z joyidami, singlim?
Yozgil menga, sen yuboray degan,
Qallig‘im ko‘z yoshi-la nam qilgan,
O‘pib kumushlagan,
Moviy, ipak ro‘moli qayda qoldi?
Uzoq kutdim, yoz ham o‘tdi,
Qish ham bitdi,
Bahor keldi, bodom gulladi,
Hanuz sendan xabar yo‘q,
Qani mening ipak, moviy ro‘molim?

Kelib qoladi deya,
Bo‘ynimni ega-ega,
Yillar bo‘yi ko‘z yoshimni singdirgan,
G‘urbat isli dastro‘molim hidlayman.
Mening tengsiz singlim,
Tingla, senga anglatayin g‘urbatni,
Qahrga aylangudek, chidab bo‘lmas tersliklari bor,
G‘urbat deganlari bir oroldir kimsasiz,
To‘rt tomonin o‘rar bepoyon dengiz,
Sohillarida yolg‘iz,
Qoyalarga urilgan suvlar tovushi,
Hamda g‘arib chag‘alaylar qo‘shig‘i...
Bunda na onam sasi,
Na-da bor sening sasing,
Na o‘shal qora ko‘zli qallig‘imning nag‘masi,
Ishq nima, sevgi nima,
Bilmas bu tog‘lar.
Bir g‘arib yuziga boqib,
Kulmas bu tog‘lar...

NARGIN — O‘LIM OROLI

U kichik bir orol, mudhish bir orol,
U o‘lim makoni, bir qonli mozor...
Jasad yuta-yuta yayrar bu yuho,
Uni g‘azab ila yuvadi Xazar!

Dahshatli tun, tinmay o‘qlar sochildi,
Olis-olislarga berib aks sado.
Yigirma tan chandilib yigirma toshga,
Ketdi asov dengiz tubigacha to.

Dahshatli tun, tilga kirar qoyalar,
Oyni yashiradi samoda bulut.
Bulutdan qop-qora bir parda enar,
Burkanar bu qonli sahna va sukut...

U yerda har chuqur qon to‘la o‘ra,
Surungan haqlarni ajal qamchilar.
Eshitilgan ovoz — achchiq qahqaha,
Tashna qoyalar qon deya hayqirar.

Dahshatli tun, motor ortga qaytadi,
Sasi naq qalblarni tirnagan nashtar,
Saboyil toshlari mahzun boqadi,
Bu yerni salomlar qonli dolg‘alar.

Ochiq derazadan keksa bir ona,
Boqadi Narginga yo‘qotib to‘zim.
Qonli intihoni u sezib tunda,
To‘lqinlardan so‘rar “qaydadir qo‘zim?”

Sukut saqlar Xazar, darddan bag‘ri xun,
Achinar behisob qurbonlariga.
Ammo Xazar uyg‘oq, chayqalar beun,
Qora to‘fon saqlar ertangi kunga.

LA’NAT SHOIRLIGIMGA

Kelgil, go‘zal sevgilim, mehringni baxsh et menga,
Qachondan beri men bir tabassumga zor edim...
Tug‘ildim-u, o‘radi meni qizil alanga,
Qayda yashil tilagim, qayda qoldi maqsadim...
Naylayin, falak meni mahkum etdi g‘urbatga,
La’nat bo‘lsin u tutgan og‘u to‘la sharbatga...

Men bilaman, bu yo‘lning yo‘qdir uchi, adog‘i,
O‘ttiz besh bahor o‘tdi, o‘ttiz besh qishga tushdim.
Tark etib o‘sha dilbar, mehribon yurt quchog‘in,
Dardini totgan bilar, ne mushkul ishga tushdim.
Insonga eng muqaddas saodat, buyuk tilak,
Sevganlari yonida, tug‘ilgan yerda o‘lmak.

Yot yer qayg‘u tomizar g‘arib oshiq ichiga,
To‘rt yon gulshan bo‘lsa ham,
istamasman o‘zga yer.
Toshini ham alishmam Misri, Hindi, Chiniga,
Tangri jannatni bersa, degayman yurtimni ber.
Jahannam bo‘lsa hamki, menga o‘z yurtim kerak,
Otilarman bag‘riga o‘ynab-kulib boladek.

U yerda qoya bo‘lsam, suyansa yor ko‘lkamga,
Usiz bunda shuhratni, shoirlikni netay men?
Onam meni tug‘ganda qurbon degan o‘lkamga,
Qo‘y meni, sohibjamol, o‘z elimga ketay men!
La’nat shoirligimga, sẖe’rimga, havasimga,
Qaydasan, ey ona yurt, sas ber mening sasimga!

TUR, SEVGILIM

Tur, sevgilim, turib men-la yo‘lga chiq,
Kechikilsa, yurtimiz ham qulaydi...
Kuta olmayman kun chiqishin ortiq,
Kim cheksiz intizorlikka chidaydi?
Turgil, yo‘llar uzun, orzular uzoq,
Bu kurashda ham o‘lim bor, ham tuzoq.

Tur, sevgilim, turib otim egarla,
Qaynoq bo‘sa ila peshonam namla,
Yetar, kun kechirdim sog‘inch-la, g‘am-la,
Sen bo‘zlama, tog‘lar menga g‘ov bo‘lsa,
Po‘rtanalar qo‘pib, yo‘limni to‘ssa!

Turgil, sevgilim, qushlar xonish etar,
Ko‘zlarimni bir kurash aksi tutar,
Turaqol, vaqt o‘tmoqda, kunim bitar...
El ne degay bunday nochor turishga,
Qo‘llaringda kuch yo‘qmi bir urishga?

Tur, sevgilim, keltir o‘q-yarog‘imni,
Keltir menga chopqir arg‘umog‘imni,
Qani u, inkor etgan aymog‘imni?
Qay bir kuch qayirar mening qo‘limni,
Agar ketsam, kim to‘sadi yo‘limni?

Tur, sevgilim, turib meni kuzatgil,
Qalbimda g‘animga cheksiz nafrat bor.
Tiz cho‘kmam hech, o‘q yemasam kurakdan,
Hali menda Bo‘zbo‘rimdek quvvat bor.
Sen kuyinma tog‘lar menga g‘ov bo‘lsa,
Po‘rtanalar qo‘pib, yo‘limni to‘ssa...

QIZIL QULLAR OLAMIGA

Ozod bashar hayqirdi: Qahr bo‘lsin zulm, hadik, kin,
Berdi millionlab qurbon... Yana bu dahshati ne?
Farqla, qizil o‘roq-la millatlarni o‘rmoq-chun,
Tirilgan yalmog‘iz ne, oldingi alvasti ne?

Yana tersga aylanar dunyo, sarxushmi, bilmam,
Qonli hodisalar-la ovunmoq xushmi, bilmam,
Shuncha qilingan mehnat behuda, bo‘shmi, bilmam,
Muztarib dudoqlarning aytolmagan bayti ne?

Qayda bor mahkumlik, zulm, millionlab asir inson,
Qayda bor ta’qib, surgun, qurol-yarog‘, o‘lim, qon?
Ko‘tar temir pardani, hukmini bersin jahon,
La’nat! Qizil dunyoning tutqunlar jannati ne?!

Och, ko‘rsat har burchakni, ne kas bor, ne kasi yo‘q,
Bilaman, u yerlarda uchgan qushning sasi yo‘q,
Hurriyat deysanmi? Yolg‘on! Hatto bir ko‘lkasi yo‘q,
Millionning besh chaqalik suyagi ne, eti ne...


MUQADDAS IXTILOL

Zimistonda ko‘zlarim tikiladi ufqlarga,
Bir po‘rtana sasi bor, bulutlar karvon misol,
Sharq bag‘rini chok etib ochmoqda shafaqlarga,
Avjga min asov to‘fon, quvvating ko‘nglimga sol,
Istagim ixtiloldir, muqaddas bir ixtilol...

Chiqqan quyosh-la qo‘psin bir oqim g‘ulg‘ulasi,
Ko‘rinsin qon ko‘pikli qasirg‘a kulolasi,
Bitsin asir turkliging, bitsin bu kun chillasi,
Na zanjirsimon Kavkaz, na qon qusgan bir O‘rol,
Istagim ixtiloldir, muqaddas bir ixtilol...

Otilsin ummonlarga tana, oyoq, bilak, bosh,
Yer yutsin Kremlni, qolmasin na g‘isht, na tosh,
Hur yashamoq yo‘lida boshlansin kurash-savash,
Vaqti keldi, ey zamon, o‘lim kuyin chal alhol,
Istagim ixtiloldir, muqaddas bir ixtilol...

MIKOYIL MUSHFIQ



12 – 22-348

YANA U BOG‘ BO‘LSAYDI

Yana u bog‘ bo‘lsaydi, yana yig‘ilishib siz
U bog‘ga ko‘chsaydingiz,

Biz ham murodga yetib falakdan o‘ch olsaydik,
Sizga qo‘shni bo‘lsaydik.

Yana u bog‘ bo‘lsaydi, seni tez-tez ko‘rsaydim,
Qalamga so‘z bersaydim.

Har kun yangi bir qo‘shiq, har kun yangi bir ilhom...
Yozar edim subh-u shom.

Xo‘sh, sevgilim, toringdan nozikmi dil umidi
Ko‘nglingdagi shumidi?

Yana u bog‘ bo‘lsaydi, huzuringizga kelsaydik,
So‘zlashsaydik, kulsaydik.

Hurkak nigohlaring-la ruhimni tindirsayding,
Meni sevintirsayding.

Ruhing ehtiyojidan suhbatlashsaydik, jonon,
Opa-akangdan pinhon.

Hadiksirab xiyla vaqt gapni chetga burarding,
Men-la hamroz turarding.

Yana birga tepardi qalbimiz pinhon-pinhon,
Ey qorasoch dili jon.

O, bu bahor o‘zgacha, yanada soz, xushchiroy,
Faqat ko‘r dil holi voy...

Har go‘shada bir havas, har ufqda bir umid,
Insonlar shod-u xushnud.

Tuyg‘ular nozikrog‘-u, o‘ylar teran ham safo,
Dillar xiyla musaffo.

Insonlarning viqor-u talabi yana yuksak.
Yo‘limizdan tosh-kesak —

Tozalanmish birmuncha. Xalq ruhi sarafrozdir.
Bahor serfayz-u sozdir.

O‘sha bog‘-u sohilda yana yursaydik yayrab,
Suvlar oqsaydi sayrab.

Soching kabi to‘lg‘ongan to‘lqinlarga, gulandom,
Cho‘mib olsaydim ilhom.

Bo‘yginangni to‘lqinlar ehtiros-la quchgan choq
Qalbimda yongay chaqmoq.

Po‘rtanalar jo‘shardi. Qizg‘onchlar tug‘ilardi,—
Alamdan bo‘g‘ilardim.

Sho‘ng‘ib olardim seni shum to‘lqinlar qo‘lidan,
Quchoqlardim belingdan.

Xayolimiz suzardi muhabbat dengizida,
To‘lqinlarning yuzida.

Ilhomimning yelkani zarrin soching bo‘lardi,
Suvlar asov yelardi.

Bu qanday go‘zal she’r, bu ne go‘zal manzara!
Keling, boqing Xazarga.

Qaniydi chiqsam bir zum Buzo‘vnada sen birla
Ul kichik qoyalarga...

Kechalari yulduzlar parpirarkan loladay,
Nur yog‘ilib joladay —

Sochilarkan atrofga ming-ming qatra duri-la,
Eng yaqin odam birla

Oh, ne huzur tinglamoq bunda suvlar sozini,
Tabiat ovozini.

Yoz! Ne surur sayr etmoq bu salqin sohillarni
Jo‘sh urdirib dillarni.

Qanday go‘zal tong chog‘i bizning buyuk ruhimiz,
Jo‘shib toshgan tuyg‘umiz,

Aksing tushgan suvlardan boqib, sarxush nur emmoq,
Bu moviy nazma cho‘mmoq,

To‘lqinlar kabi sapchib, to‘lqinlar kabi inmoq,
Ba’zan hurkib chekinmoq.

Har to‘lqin kishnab turgan kumush yolli ot kabi,
Bizning bu hayot kabi!

Yana u bog‘ bo‘lsaydi, sevgilar o‘lkasinda,
Majnuntol ko‘lkasinda,

Inju qumlar ustida biz kezishib ikkovlon,
Yozni etsaydik poyon.

Kunlarimiz o‘tsaydi quvonch-u farah bo‘lib,
Limmo-lim qadah bo‘lib.

Yaproqlar orasidan qo‘llarini cho‘zaroq,
Nurlarin etib taroq,

Kechalar tarasaydi sochlaringni oy, go‘zal
Sen go‘zalmi, oy go‘zal?

Qo‘llaringda qo‘llarim, ko‘zlaringda ko‘zlarim;
Osilardi so‘zlarim.

Ko‘ngling quloqlaridan bir tillo sirg‘a bo‘lib,
Balqirdi kunday kulib.

Baxtiyor bo‘lajakdir do‘stlarim shu navbahor,
Ham jon-u jigar, hamkor,

Olislarga yelkanni yeldirur dillar bongi,
Ruh yangi, hayot yangi...

Chiqajaklar ko‘k uzra, bamisli zo‘r alanga —
Bulutlardan balandga.

Ucharlar subhidamga, ucharlar istiqbolga,
Efir qo‘yniga, olg‘a.

Hurlikni havo misol istagan har orzumand,
Inson o‘g‘li, har farzand

Erk o‘lkasinda yana shod-u xurram kulajak,
Dunyo totli bo‘lajak.

Yana u bog‘ bo‘lsaydi, yana yig‘ilishib Siz
U bog‘ga ko‘chsaydingiz.

Biz ham murodga yetib falakdan o‘ch olsaydik,
Sizga qo‘shni bo‘lsaydik.

Yana u bog‘ bo‘lsaydi, seni tez-tez ko‘rsaydim,
Qalamga so‘z bersaydim.

Har kun yangi bir qo‘shiq, har kun yangi bir ilhom...
Yozsaydim men subh-u shom.

Xo‘sh, sevgilim, toringdan nozikmi dil umidi?
Ko‘nglingdagi shumidi?

TUYG‘U YAPROQLARI

1

Yuksalish maftuni, shaydosi-da man,
Sinflar kurashin dunyosidaman.
Inson-u mehnatning qadrin oshirgan,
Yaxshilar davrasin ziyosidaman.

2

Yoshman-u, bilaman, istiqbolim bor,
To‘lishib kelayotgan bir hilolim bor.
Yelkanim ochilur, esma qora yel,
Bu daryoda mening bir sandalim bor.

3

Sinflar jangiga safarbarman men,
Lashkar saflarida bir askarman men.
Bu zamon shoiri bo‘lmoq-la, ey do‘st,
O, bilsang, naqadar baxtiyorman men.

4

Jabrli dunyodan otam, “oh” dedi, ketdi,
“So‘ndirdi shamim shamoli sulloh”, dedi, ketdi,
Gul ekdi, tikon terdi jahon bog‘ida har dam,
To‘kkan yoshini shabnami nogoh, dedi, ketdi.

5

Bu so‘ngsiz fazolar bizniki, ey do‘st,
Bu chuqur daryolar bizniki, ey do‘st!
Samoda yulduzlar va yerda gullar,
Atirlar, ziyolar bizniki, ey do‘st!

6

Tug‘ildi ko‘z o‘ngimda quyosh o‘g‘loni,
Afrika shunqori, habash arsloni.
Tog‘lar paydo bo‘ldimi gaz tumanidan,
Yo bosh ko‘tardimi erk qahramoni?

7

Yo‘qoting dunyoni bosgan peslarni,
Bu qora qo‘rqoqlar, bu iblislarni.
Nur uchun jang qilish zamonidir bu,
Ey inson qalbining muhandislari!

8

Bir-biriga bashar — yov. Tig‘ soladir,
Ozodlik onadir, dunyo boladir.
Miskin farzandini bu saxiy ona
O‘z issiq qo‘yniga bir kun oladir.

9

Hokim bo‘lib siyna dog‘lamoq nedir?
Qo‘l, bo‘yinga zanjir bog‘lamoq nedir?
Azador onaning sochlari kabi,
Mahkum bo‘lib, sassiz yig‘lamoq nedir?

10

Tinch-u sog‘ insonning shashti o‘zgacha,
Do‘stlashib ishlashning dashti o‘zgacha.
Bir quyosh ostida, bir yer yuzinda,
Osuda qismatning gashti o‘zgacha.

11

Har yetgan ot surdi maydon boshida,
Ming o‘yin o‘ynatdi davron boshida.

Endi gulduramas bizning o'lkada
Inson gulduragi inson boshida.

12

Ko'p ko'rib xazon-u chaqmoq, o, darig',
Bir yuzim qoradir, bir yuzim sarig'.
Bugun madh etishsin qalbim bahorin
Bulbul g'azali-yu, Qurbonning tori!

13

Naslim so'rma. Oddiy bir o'g'lonman men,
Mehnatkash ellarga mehribonman men.
Yaproqdan uzilgan, shafaqdan ko'chgan,
Dunyoning bezagi — bir insonman men.

14

Fikr-u o'yimizdan fayzlanur jahon,
Oftobiy nag'mamiz saslanur har on.
Bu dunyo mehribon quchog'imizda,
Oroyish topajak sho'x go'daksimon.

15

Xayolim o'lkamning obodligida,
Ko'nglim el to'yida, el shodligida.
O'zga bir nash'a bor bu bo'ston ichra
Ish, o'qish va rohatning ozodligida.

16

Bizning bu davrimiz boshqa davrdir,
Mehnatkash insonlar, nazdimda, birdir.
Menga ilhom berib, she'r yozdirgan
Quyoshning o'rtog'i Mingachevirdir.

17

Ish bizga ko‘p mahsul undirajakdir,
O‘lkani jannatga do‘ndirajakdir.
Ellar yuksalishning qirmiz chirog‘in,
Ey Kur, sohilingda yondirajakdir.

18

Ey kalom dunyosin Hotam Toylari,
Ruhingiz labiga ilhom naylari!
Bir g‘azal aytingki, hayratda qolsin
O‘tmishning jamiki mug‘anniylari.

19

Kunduzgi ishni soz tamomlay, deyman,
So‘ng yaxshi bir yerda oqshomlay, deyman.
Hayot qayig‘ini surib ilgari,
Go‘zal sohillarni salomlay, deyman.

20

Mehnat-la murodga yetaylik, keling,
Har qirdan bir chechak eltaylik, keling,
Quyosh huzridagi bir chaman kabi
Ruhimizni fayoz etaylik, keling.

21

Axtarib topgum men hamsuhbatlarni,
Yashnatgum men shirin muhabbatlarni.
Men ishq-la his etgum qo‘llarimizda
Hali ko‘rilmagan latofatlarni.

22

Yo‘qdir qalbimizda o‘lim qayg‘usi,
Yurtda bahor isi, bahor tuyg‘usi.

Go‘zal ruhimizning beshigidadir
Mahsuldor mehnatning shirin uyqusi.

23

Tongda xayrlashur jon jononi-la,
“Xayr” deb bo‘sa olur jonon joni-la,
Har kishi to‘ldirar ko‘ngil ko‘zasin
Oltin qadahlarning zarafshoni-la.

24

Osmon — muhabbatga ochilgan quchoq,
Yulduzlari —. sho‘xtoy ming-mingta do‘mboq.
Bizning yosh onalar o‘z quchog‘ida
Shunday yulduzlarni porlatar har choq.

25

Kimdir yanglishib der: umr — afsona,
Bir shirin xayoldir, tushdir insonga.
Aslida olamni yashnatgan inson —
Tengdir javohiri tuganmas konga.

26

Qo‘l tortgil bir bora o‘z achchig‘ingdan!
Yuz o‘gir tanish ul murdor yig‘indan!
Kel, biroz so‘zlashsak hech yomon bo‘lmas
Ushbu zamonamiz yaxshiligidan.

27

Yashasin dunyoda ulug‘ qalbimiz!
Buyuk orzular-la bo‘liq qalbimiz!
Ehtiros, nash’amiz, qayg‘umiz ila
Billur bir jom kabi to‘liq qalbimiz.

28

Hidi yo‘q loladir ma’nosiz she’r,
Qanotsiz qush — naqli a’losiz she’r.
Go‘zalsiz, cholg‘usiz majlisga o‘xshar
Mazmunsiz, ohangsiz, adosiz she’r.

29

Kecha bir shoirning o‘tdim yonidan,
Yilda bir so‘z chiqmas xasis jonidan,
Ishq-u ehtirosi o‘lgan-ku! Yetar!
Chiqsin u bir yo‘la so‘z maydonidan!

30

Xohi bastakor bo‘l, xohi naqqosh bo‘l,
Shoir bo‘l, rassom bo‘l, haykaltarosh bo‘l.
Ijoding mahsulin sevib yaratgil,
Hammadan yuksak bo‘l, hammaga bosh bo‘l!

31

Men yozmas erdim Sizni yurak eslamasaydi,
Ishqingiz ila biryon bo‘lib, saslamasaydi.
Ko‘zdan oqurmi selob, yonmasa jon olovda,
Chiqurmi she’r quyosh-la yurak bahslamasaydi?

32

G‘uncha ochilarmi bahor bo‘lmasa?
Shu’la charaqlarmi nahor bo‘lmasa?
Bu qo‘shiq ruhimdan ko‘charmi, bilmam,
Menga ilhom bergan do‘st-yor bo‘lmasa?!

OQIM

Baland tog‘ning moviy ko‘zidan balqib —
Quyilgan ul sevinch yoshlari misol —
Oqarkansan, dilim qinidan chiqib,
Badanim parpirar go‘yoki shamol.

Ey buyuk oqim, ey pokiza yurak,
Yo‘qmi oramizda bir ko‘ngil bog‘i?
Sasingga sasdosh bir bastakor kerak,
Ey quvvat bulog‘i, ey nur bulog‘i!

Sen ham shalolasan tab’i o‘yimda.
Yuraklar, aqllar; ruhlar sharqirar,
Sening qo‘shig‘ingda, o‘lmas kuyingda.

Fikrlar tuprog‘i, hislar tuprog‘i,
Obihayoting-la chechaklar ochar,
Ey havas bulog‘i, qo‘shiq bulog‘i!

DA’VAT

Oh, xushdir naqadar bu go‘zal shom —
Go‘yo qora kokil yozgan dilorom.
Yer-u ko‘k nurafshon,
Oh, go‘zal har yon!
Sevgilim, kuttirma, sohilga kel.
Kel, qol, sayr qil.
Yulduzlar sochyapti nurli yolqinlar.
Chopog‘on bolalardir bu sho‘x to‘lqinlar.
Qo‘llarida Oy — bir koptok misol.
Oq shoyi ro‘molda, ey sohibjamol,
Sohilga kel,
Kel, kel, sayr qil.
Buni topolmassan, noyobdir bu on.

Soya-yu salqin har yon.
Yashil ko‘lka lovullar,
Yaproqlar shovullar.
Kel, ipak soching silayin, jonon,
Sen birla yashay loaqal bir on.
Kel, zavqli yillaring
Ham to‘zg‘in kokillaring
To‘kilsin yuzimga;
Quloq sol so‘zimga.
Oh, xushdir naqadar bu ajib shom —
Go‘yo qora kokil yozmish dilorom.
Yer-u ko‘k nurafshon,
Oh, go‘zal, har yon!
Sig‘maydi olamga nash’alar bu gal:
U yonda tabassum, bu yonda g‘azal.
Har xayol misoli jonli qanotdir,
Bularning hammasi do‘stim, hayotdir.

RAQS

(Birinchi raqs ansamblimizga bag‘ishlanadi)

Ajabo, Sizmisiz tolmay o‘ynagan,
Yo ko‘kda burgutlarim qanot qoqdimi?
Yoki yuragimda jo‘shib qaynagan
Shirin orzularim gulxan yoqdimi?

Goho turna kabi tizilganda siz,
Fikrim satrlarga tizilmasinmi?
Raqs to‘lqinida suzgan onda siz
Tuyg‘um ko‘zlarimdan suzilmasinmi?

O‘ynang, chirpirasin yana sarsari
Eski to‘fonlarim, girdibodlarim!
Oshifta ruhlarning dengizi sari
Oqsin bu hislarim, dilmurodlarim!

Kuylab o'ynarkansiz, nazdimda, go'yo —
Chaqmoqlar chaqnadi navbahorimda.
Go'yoki yangitdan yaralib dunyo,
Nuriston balqidi yulduzzorimda.

Ajabo, Sizmisiz tolmay o'ynagan,
Yo ko'kda burgutlarim qanot qoqdimi?
Yoki yuragimda jo'shib qaynagan
Shirin orzularim gulxan yoqdimi?!

BIR QUYOSH-U BIR NIGOH

Hamma yoqda sovuq, qor-u qahraton,
Chillaning joni ham kelmish bo'g'ziga.
Kechki izg'irin-u shomgi bu bo'ron
Tushmish naql bo'lib xalqning og'ziga.

Borliq sokin, borliq lolsimon
Va lekin yaqindir fasli guliston.
Yashil manzaralar bir xayolsimon
Halitdan o'ngimda bo'lur namoyon.

Qorga tegib subhiy Quyoshning qo'li,
Sharqirarkan so'lim suvlarning yo'li,
Har yondan bahorga yog'di olqishlar.
Sen ham o't nigoh-la menga boqqan on
Erib dilda hijron,
bu qish, gulandom,
Senga quchoq-quchoq gul etar in'om.

SHE'RIM

Sen borliqning o'zisan, shak bormi bunga?
Aqli, dili, ko'zisan, shak bormi bunga?

Kechalar oy seniki, kunduzi quyosh —
Koinot misol.
Har yon go'zallashmoqda, sen ham go'zallash,
Shu hayot misol.

Borliqning rangi sensan, ohangi sensan,
Gul-u nurlar chambari, zartongi sensan.
Kel, bulbul qarshisida yonib ochil, kul —
Qizil gul misol.
Har narsa soddalashur, sen ham teran bo'l,
Bir ko'ngil misol.

Teranlik sodda bo'lsa go'zaldir bisyor,
Boshimni og'ritgan ul she'r na darkor.
Purma'no saslaring-la noziklash satrim
Bir kamon misol.
Taratgil kalomingdan soddalik atrin
Har inson misol.

Ha! Haqgo'y zariflikning nomi o'zgacha,
Kuchga to'lgil, quvvatning ta'mi o'zgacha.
O'lkalar qurollanur, qurollan sen ham,
O'lkalar misol!
Jon deya, jonon deya postda tur bardam,
Bir askar misol!

Hamma bilur: hayotning so'ngi o'limdir,
Evoh, bu g'amgin savdo yomon zulmdir.
She'rim! Bir kun shu qaltis o'yin ozori,
Bizni surgaklar.
Sen ham menday o'lgin-u, faqat mozoring
Bo'lsin yuraklar!

SOBIR UCHUN

Ne qilayki, fikrim kabi nurga to'lsin qo'shiqlarim,
Porloq bahor samosi-la hamrang bo'lsin qo'shiqlarim.

Sevinchlar-la jaranglagan bir zang bo'lsin qo'shiqlarim,
Atrli bir gulchambari ohang bo'lsin qo'shiqlarim.

Eh, qo'shiqlar ko'p shu qadar, quvvatdanmi kuylayin men?
Ishdan, kuchdan, jasoratdan, sur'atdanmi kuylayin men?
Yoki o'tgan razolatdan, dahshatdanmi kuylayin men?
Nurimizni tilkalagan zulmatdanmi kuylayin men?

Sen haybatli, jahannamli davrlarni ko'rding, Sobir!
Ishchilarga yog'dirilgan tahqirlarni ko'rding, Sobir!
Dehqonlarning bo'ynidagi zanjirlarni ko'rding, Sobir!
Yurak rishtasiday nozik faqirlarni ko'rding, Sobir!

Har jahongir yo'lto'sar bo'p, urib-surdi xalqimizni,
Necha zamon quturgan chor ezib-qirdi xalqimizni,
Musovot-la dashnoq keldi, olib sotdi xalqimizni,
Bari siniq kamon etib, zor yig'latdi xalqimizni.

Ko'p zamonlar bir dev kabi ko'ksimizga cho'kdi ular,
Yurtimiz-u kulbamizni vayron etib ketdi ular,
To'fon bo'lib bog'larimiz mevasini to'kdi ular,
Derdi elim: "Bo'ynimizda bir azobli yukdir ular".

Hayotday yoz yovnikiydi, o'limday xazon bizniki,
Raqs-u g'azal ularniki, motam-u fig'on bizniki,
Koshonalar boylardaydi, maskani vayron bizniki,
Aysh ularda, no'sh ularda, zahr ila qatron bizniki.

Mozoringdan turib Sobir, endi ozod ellarga boq!
Alvon quyosh qo'ynidagi bu shu'lali saharga boq!
Yashil to'lqin og'ushida nafas olgan cho'llarga boq!
Bizga hayot, bizga shodlik baxsh aylagan rahbarga boq!

Qalq mozordan, o'lkamizning tog'in, dasht-u to'zini ko'r!
Yangi-yangi baxshilarning sozini ko'r, so'zini ko'r!
Ozarbayjon qizlarining porloq kunday yuzini ko'r!
Ham bugunni, ham ertani olddan ko'rgan ko'zini ko'r!

Bastimizga boq, bu xotin jasurlardan jasurroqdir,
Terayotgan paxtasiday baxti yorqin, ko'ngli oqdir.
Hali Laylo fazolarga qanot qoqib uchajakdir,
Manya Vatan sarhadida hilpiragan bir bayroqdir.

Sayr et bizning Mil cho'lini, eldor bo'lgan Mug'onni ko'r,
Tuproqlari siynam kabi nafas olgan Oronni ko'r,
Qorabog'da, ham Gubada bog'ga kirib bog'bonni ko'r,
Bu yerlarda inson kabi yashayotgan insonni ko'r.

Chiqdi sendan so'ngra ming-ming ajib mutrib-u xushxonlar,
Yurt qiriga dasta-dasta keldi o'ynoqi jayronlar,
Yog'di yomg'ir, yashil to'lqin ila mavj urdi bo'stonlar,
Yondi bulbul, chaqnadi gul, etib sarxush-u hayronlar.

Yangi-yangi suhbatimiz, yangi-yangi sozimiz bor,
Yashaymiz qondosh-u qardosh, kitobimiz, yozimiz bor,
Tinch-u shirin mehnatimiz, xayolimiz, orzumiz bor,
Ruhlar tetik, kayfimiz chog', sevgimiz bor, nozimiz bor!

Dehqonlarning uylarida yonar tinchlik chiroqlari,
Sayr etgum shod, chorlar meni yurtim yaqin-yiroqlari.
Birodarlik bog'idir bu bizning zamin tuproqlari,
Raqs etadir daraxtlari, chapak chalar yaproqlari.

Suv yuzida kemamiz bor, ko'k yuzida tarlonimiz,
Yer yuzida na'ra tortar qo'shin-qo'shin arslonimiz.
Ko'p buyukdir davronimiz, bepoyondir maydonimiz,
Shuhratlimiz, nurqismatmiz, ozoddir pok vijdonimiz.

Olqish bo'lsin mozoringga bu qardoshlik dunyosidan!
Bu qardosh el qayg'usidan ham muhabbat savdosidan!
Fikrimiz-u hissimizning chechaklangan ma'vosidan!
Har kavkazlik bastakorning baynalmilal havosidan!

SAN'ATKOR

Oh, qanday buyuk sharaf san'atkor bo'lmoq,
Ko'ngillar dunyosidan xabardor bo'lmoq!
Ne go'zaldir bir hisday besas, beso'roq
Qalblarga kirmoq,
Butun marazliklarni dangal, ey o'rtoq,
Yiqib yemirmoq!

Men ruhlanib tegramda jo'shgan yig'indan,
Hayqirgum elning baland toleligidan.
Unda manim-la ellar jon-u ko'nglimdan
Bo'larkan ogoh, .
Kim: "Ko'p bil-u, oz so'zla" deya yo'limda
Turolur nogoh?

Men qarshimda yam-yashil cho'llarni ko'rgum,
G'ayratli, shijoatli ellarni ko'rgum.
Men sahnada ko'raman tog'-dovondagi
To'y ayyomini.
Ko'raman Tartar GESning po'lat to'g'ondagi
G'alayonini.

Ketsin mehnat o'rniga quruq so'z bergan,
Kelsin temir toblagan, yerdan dur tergan.
Borim ularning mulki, ular ham bizga
Do'st-u tarafdir.
Bu insonlar shoiri bo'lmoqlik, albat,
Buyuk sharafdir.

Shunday davrdamanki, bronza qanotlanur,
Qora toshning, marmarning siynasi hayotlanur.
Gavdalanur o'ngimda buyuk bir amal,
Yuksalur boshim.
Huzur-la sayr etaroq, she'rimdan avval
Oqar ko'z yoshim.

Oh, qanday buyuk sharaf san'atkor bo'lmoq,
Ko'ngillar dunyosidan xabardor bo'lmoq.
Ne go'zaldir bir hisday besas, beso'roq
Qalblarga kirmoq,
Butun marazliklarni dangal, ey o'rtoq,
Yiqib, yemirmoq!

KO'NGLIMNING DEGANLARI

Der ko'nglim tong mahali:
Yo'l boshidir bu hali...
Buyuk kunlar, quvnoq kunlar, shon kunlar,
Yo'lingda posbon kunlar
Hali qarshimizdadir.

Bular nimaymish hali... —
Der ko'nglim tong mahali...
Chakkivoylar hayotdan ko'p dakki yer.
Puxta dastgoh, shirin mehnat, durday ter
Hali qarshimizdadir!

Otam derdi: "Qadimgiga ne yetsin!"
Ko'nglim, axir, qanday bu yo'lni tutsin?
U shirin o'yga to'lar,
Der: "Hali nedir bular..."
Oy shu'lasi, to'lin yurak, yashil bog',
Qizg'in oftob, salqin chashma, qorli tog'
Hali qarshimizdadir!

UCH SOG'LIQ QADAHI

Kechaning dudoqlari jilmayar erdi,
Ziyofatbosh sevinch-la: — Ichinglar! — derdi, —
Iching, bu oltin sharob o'z bog'imizda —
O'stirilgan toklarning shirasi, boli.

U, hatto sal ko'hnadir, emas navsoli,
Yuzlardan shabbodaday kechdi farahlar,
Tunning oftob bulog'idan to'ldi qadahlar,
Do'stlar ichib, ko'zlari suzilib qoldi,
Nordon maydan lablarin burishib oldi.
Kim edi u, insonlar? Sizga tanishlar!
Dunyoda Sizday jo'shgan ul hamravishlar.
Jonlaridan otilgan har yangi zahmat
Qo'shar obirahmatday quvvatga quvvat.
Bu kecha shu boisdan lazzat olurlar,
Bo'sh vaqtni sarxush etib zavqqa to'lurlar.
Kuylagan kim, chalgan kim, bazm qorishib,
Mana, torga so'z berildi dillar yorishib.
Soz simida nedir deb nola qilardi,
Kechaning dudoqlari kulimsirardi.

Bugun toza gul yuzin ochgan kunidir,
Dunyodan yolg'izlikning qochgan kunidir.
Do'st uyida gurkirar yangi nafaslar,
Devorlarda aks etar shu'lalar, saslar.
Yangi ishq olovin yoqib bu o'choq,
Ochildi hayot ichra yangi bir buloq.
Ona tutar go'dagin o'z quchog'ida,
Go'yo bir gul ochilmish jahon bog'ida.
U bola siynada bir basharmi yo?
Zilol suv yuzida nilufarmi yo?
Abadiydir jahonda, deya, izlari,
Otaning ham g'urur-la kular ko'zlari.
— To'ldiring qadahlarni! — xitob jaranglar.
So'zlar tindi. Qo'lda tor sekinlab yangrar.
— Ona! Ona abadiyat chashmasi.
(Oh, hech qachon yomon kunga tushmasin!)
Ona bo'lmoq sharaflarning sharafi.
Bu siynasi gavhar to'la sadafni
Uzoq zamon toptadilar, chaldilar,
Kabutarni chaqib, zahar soldilar.

Go‘zal ona, sening billur joningda,
Shafaqlarga ilhom bergan qoningda
Qo‘shig‘imiz poydevori qurildi,
Ko‘z yoshimiz yuragingda dur bo‘ldi.
Ona, senga ravomidir pasayish?
Qo‘yning — beshik, yumshoq ko‘ksing — nozbolish.

Nomginangga tushirma dog‘, go‘zal qiz!
Bo‘lma tunda soyayi bog‘, go‘zal qiz!
Jilvalanma iffatsizlar ichida,
Ola ko‘zli bu yulduzlar ichida.
Oydan oydin, suvdan tiniq kechalar
Xush ul qizki, o‘z ishqini hijjalar.
Yuragida chechaklangan murodi,
Dudog‘ida tabiatning ilk toti;
Tabassumi qalbimizni yondirar,
So‘z uqdirib, yor ko‘nglini tindirar...

TANHO DARAXT

Bag‘oyat qayg‘uli, bag‘oyat serg‘am,
Oddiy manzarali, sodda-yu ko‘rkam —
Yolg‘iz daraxt boqar bir tog‘ boshidan.
U qaysi ayyomning jang-taloshidan,
Qaysi zilziladan bo‘lipti abgor.
Tanho o‘y suradi g‘aribday nochor.
Atrofin o‘ramish yov misol bir chang.
Uni ta’riflaydi har o‘tib-qaytgan.
Go‘yo falaklarning po‘rtanasida
Bir qo‘zi ayrilmish o‘z onasidan.
Magar u kimsasiz bir cho‘ponmikan?
Podadan ajragan bir jayronmikan?
Dengizda, dahshatli ko‘k to‘lqinlar-la,
Otashin zarbali chaqinlar ila
Qulagan chorasiz bir yelkanmikan?

Ko‘zlarida hayot — sho‘x maskanmikan?
Bu yonda huzurbaxsh qalin bir o‘rmon,
Yoz-u qish jilmayib tebranar har on.
Qushlarning nag‘masi, buloqlar sasi,
Muattar gullarning sarin nafasi —
Davosiz dardlarga pinhon ilojdir.
Meni o‘ylatgan shu yolg‘iz og‘ochdir.
Xor qardoshim; shu holda o‘tsa-da hayot,
Abadiyat senga bersa-da qanot,
Sendan qolmas aslo nishon dunyoda,
Tiriklik ishqi-la jo‘shgan dunyoda.
Bir to‘fon turar-u, sarg‘ayarsan sen,
Bir yashin urar-u, qorayarsan sen.
Boshingda o‘ynar-u g‘am bulutlari,
Kemirar bag‘ringni o‘lim qurtlari,
Men ham sen singari so‘qqabosh edim,
Yolg‘izlikdan to‘yib oxiri qochdim.
Yuragim, ruhim-la qo‘shildim elga,
Shu kundan sokinlik baxsh etib dilga.
Boq, endi men qayda, yolg‘izlik qayda?
U kunlarim kirmas, hatto tushlarga,
Ozod fikrlarga, ozod qushlarga
Qalbimning har ko‘zi bir oshiyondir.
Yolg‘iz yashamoqlik,
oh, ko‘p yomondir.

GO‘ZALLIK

Go‘zallik azaldan butun ellarning
Zavq bilan yaratgan shonli g‘oyasi.
Bahoriy ruhdir, u qizil gullarning
Bulbullar boshiga solgan soyasi.

Xushdir “Oh, go‘zal!” deb yurt, jamoatni,
Ishlamoq, yashamoq, sevmoq, sevilmoq!

Xushdir ul xayotbaxsh har nafosatni
Yurakdan his etib anglamoq, bilmoq!

Ey, aziz dunyomiz buyuk padari,
Mehribon go'zali, nodir gavhari!
Men seni sevganman hammadan avval.

Faqat yotdir mening jo'shqin ruhimga,
Elimga, o'lkamga, ta'bi sho'ximga
Ma'nosiz go'zallik, ma'nosiz go'zal!

KUYLA

Kuylagil, sevgilim, dil havasing-la!
Ilhom qanotlanur sening sasing-la!
O'ynasin qo'shig'ingda sellar ovozi,
Subhidamda esgan yellar ovozi.
Qaniydi gul hidlagan shamolday uchib,
Qumlarni ag'dargan to'lqinday ko'chib,
Titragan g'azali dilso'zing bo'lsam, —
Dilingdan gurlagan ovozing bo'lsam...
Kuylagil! Quvvat ber she'r-u san'atga,
Ko'nglimning qushini keltir hayratga.
Umrimning ohangin sharhlasam, dilbar,
Naqadar kuyingga o'xshar, naqadar...
Yuragim xo'rsinar sen kuylaganda,
Koshki sen ham tinglasang men kuylaganda!
Kuylagil, sevgilim, o'z havasing-la!
Ilhom qanotlanur sening sasing-la!

NE DEMAKDIR?

Ko'pdan beri chalinmas devorda changli toring,
Tutqun dilmisol o'sha simlari zangli toring,
Ayt, mehribon sevgilim, gurlaydimi yoki yo'q?!

Men bilaman, axir, pok dilginang-ku sadafdan!
Ichidagi durlari sochilib har tarafdan —
Dudog'ingda g'azallar porlaydimi yoki yo'q?!

Sen majlisdan kelursan, meni ham quchmish kitob,
Bekor turmoq vaqtimas, ishda tor, ishda mizrob,
Qanday go'zal qo'shiqlar qanotida yuksalmoq!..

Hayot ishdir, kurashdir, zahmatdir, saodatdir.
Buni bilib tinch yotmoq nadir, ne xil odatdir?
Ne demakdir dunyoda bahor chog'i keksaymoq?!

SENING KO'ZLARING

Oh, na go'zal suzilgan ko'zlaring, jonon!
Ajabo, ularni suzmoq vaqtimi?
Turishing ma'noli, nigohing ummon,
Men o'sha ummonda bildim baxtimni.
Sening ko'zlaringmi yoshlik bog'ida,
Nargislar to'lg'onib o'ynaydimi yo?
Magar chiqilmagan ishqing tog'ida
Hayotim chashmasi qaynaydimi yo?
Qora ko'zlaringmas balqqan u, zebo
Yulduzi serjilo oqshomlarimdir.
Ruhim yoritgan ham, balki, purziyo
Bahoriy tonglarim, ayyomlarimdir.
Balki, dunyo baxshilari bu g'ulg'ulali
Zavqni kim ruhimga solganin aytar.
To'ngardim, ko'zingning quvonch shu'lasi
Quyilmasa qalbim jomiga agar.
Qora qish boshimga yog'diradi qor,
Nargis ko'zlaringdan ayirsang bir dam.
Orzum eshiklarin nechun, o dildor,
Goh ochib, gohida yopasan birdan.
Sening ko'zlaringmi yoshlik bog'ida,

Nargislar to‘lg‘onib o‘ynaydimi yo?
Magar chiqilmagan ishqing tog‘ida
Hayotim chashmasi qaynaydimi yo?

YULDUZLAR

Gohida porlaysiz titrab, parpirab,
Osmon bog‘chasida loladay, gulday.
Goh to‘kkan yoshingiz birdan yarqirar
Lolalar ustiga yog‘ilgan do‘lday.

Boqishib suzilgan ko‘zlaringizga,
Derlar: — Siz naqadar yaqin-yovuqsiz.
Haqiqatda esa bir-biringizga
Siz juda yiroqsiz, juda sovuqsiz.

Faqat ul oftobdil sevgilim-la biz
Uzoq tanishmas, oh, nechog‘ yaqinmiz.
Koshki o‘rgansangiz... Shu’la kabimiz.

Shirin suhbatlardan olis bo‘lsak-da,
Uzun yillar bo‘yi ayri qolsak-da,
Bir xil tuyg‘ular-la urar qalbimiz!

TUPROQ

Borliqning onasi, bulog‘i sansan,
Senga o‘lim yo‘qdir, o‘lim yo‘q zinhor.
Sen bus-butun asil ruhsan, badansan,
Go‘zal tuproq, sendan qarzdorman, qarzdor.

Bu qardoshim — daraxt, bu cho‘p, bu yaproq.
Barini jonlantirgan shirangdir har on.
Inson ham seni, ey mo‘ysafid tuproq,
O‘zgartgan har odimda payvand etib jon.

Ikki qolipdagi bir ruhmiz, o‘rtoq.
Seni yerdan olib, ey qora tuproq,
Ko‘klarga eltgan ham ishim, mehrimdir.

Senga quvvat bergan, senga ruh bergan,
Xasta cho‘llaringni chechaklantirgan
Halol mehnatimdir, manglay terimdir.

HAYOT SEVGISI

Oh, husni kundan kun gulyaproq yozgan
Nurafshon dunyodan qanday dil uzay?
Yer bilan olishgan, ko‘kka qo‘l cho‘zgan
Do‘stdan, oshinodan qanday dil uzay?

Shabnamga aylanma bahor tongida
Quyoshday yon, ko‘ngil, umid rangida.
Osmonning lojuvard etaklarida
Balqqan bu g‘avg‘odan qanday dil uzay?

Boqing! Parishon ufq — rangin tush misol,
Do‘stlar — old marraga uyulmish misol.
Olislarga yastanib xom kumush misol
Oqargan sahrodan qanday dil uzay?

Tabiat saxiydir, tabiat xasis,
Uni ishga solgil, sen, ey muhandis.
Men ham metin toshlarga berarkanman his,
Bu nozik ma’nodan qanday dil uzay?

Bir yonda tarlonlar, tumanli tog‘lar,
Bir yonda kakliklar, oyna buloqlar,
Bir yonda bulbullar, chechakli bog‘lar,
Men bu tamoshodan qanday dil uzay?

Hayot hayqirig‘i, bu kashmakashdan,
Qalb-u qonim aro yongan otashdan,

Kechadan, kunduzdan, Oydan, Quyoshdan,
Bu qirmiz fazodan qanday dil uzay?

Qarshimda to'lqinli chuqur bir ummon,
Uni chayqaltirar devona to'fon.
Oddiy ko'piklardan gul qila bilgan
She'rdan, xulyodan qanday dil uzay?

Yulduzlar fikrimning charog'bonidir,
Bulut xayolimning bir karvonidir.
Samoki tuyg'umning oshyoni ekan,
Shu bitta samodan qanday dil uzay?

Mehribon sevgilim qarshimda turdi,
Yana shoirligim g'alayon urdi.
Mendan Majnun ko'ngil maroq-la so'rdi:
— Bu sochi Laylodan qanday dil uzay?

Kuzning ayoziga dosh berib bulbul,
Gulning soyasida sayrarkan xushdil,
— Hayot, hayot, — deya jo'sh urar ko'ngil.
Oh, ishq savdosidan qanday dil uzay?

Yangi hislardan sen olding tahsiling,
Kamaytma, yosh qalamim, ijod hosiling.
Oh, ayting do'stlarim, men bu hunardan,
Bu tab'i volodan qanday dil uzay?

AYOL

Rafiqa — qashshoqlikning tubsiz chohidan
Ilk bora qutqazgan buyuk xaloskor.
Bizni saodatning shu'lagohidek
Eng shirin saslar-la chorlaydi shu yor.

Sen unutib qo'ygan ilk muhabbatni
U saqlar doimo qalbin to'rida.

Insonning tugalmas abadiyati
Chechaklanur uning sevgi nurida.

So'yla, shirinlikda, qay bolistonda,
Qaysi gulistonda, qaysi jahonda
Tenging bor, ey o'rtoq, ey xotin, ey yor?

Qayda, ey xalqimning buyuk yarmisi,
Onasi, singlisi, yori-parisi,
Bizdagidek huquq, ixtiyoring bor?

SHOIRNING O'LIMI

Ey shonli o'lkamning shonli ustozi,
Hayot mo'yqalaming tushdimi qo'ldan?
Ey so'z uzugining yoniq olmosi,
Diling dog'landimi tutilib yo'lda?

Nedir bu ojizlik, bilmam, basharda?
Nechun yirtilmaydi bu sirli parda?
Sevilning ko'zlari porlagan yerda
Nogoh bulutlanib qoldimi birdan?

Dil, qo'l tort bu achchiq hislardan bugun,
Bir kun kelgan inson, ketadi bir kun.
Bu mash'um xabarni eshitib, dilxun —
Tog'-u tosh larzaga keldimi butun?

Istamayman, oqmasin ko'zlarning yoshi!
Chimrilmasin mag'rur o'lkamning qoshi!
Tarixlardan so'rang: egilganmi hech
O'lim qarshisida san'atning boshi?

Yo'q!
Men o'ylarkanman qaysar o'limni,
Shiddatli orzular to'sar ko'nglimni.
Shoir so'z otidan tebrandi, tushdi,
Go'yo she'rimizning bir bandi tushdi.

Bo‘ronli qish ketib, bahor kelganda,
Gullar majlisiga qushlar yelganda,
Qushlar chirqillasin, yulinsin gullar,
Iztirob cheksin, kuy, hislar, ko‘ngillar!
Ko‘klar bir-biriga tegib yig‘lasin,
Bulutlar boshini egib yig‘lasin.
Tong ufqi oqarsin, shafaq so‘kilsin,
Yulduzlar ko‘z yoshi misol to‘kilsin.
Quyosh ko‘k yuzida yonsin, yoqilsin,
G‘amgin bulutlarga iltijo qilsin!

Kuy, osmon ko‘rinsin bir chaman kabi!
Oqarsin tong ufqi yosuman kabi!..
O‘ldi!.. Gurullasin, balqsin bulutlar,
Do‘st qabriga gullar taqsin bulutlar!
Oy tunda qabrga javlona chiqsin,
Yulduzlar charaqlab, sayrona chiqsin.
Tongda do‘st xokin o‘psin yel shalolasi,
Titrasin ustida quyosh tolasi...

Oylar, yillar o‘tar, asrlar o‘tar,
Shoir aytib ketgan purma’no so‘zlar
Fayz olib azaliy iqtidoridan,
Hatlab asrlarning shoh tog‘laridan,
Hayqira-hayqira oqar sel kabi,
Qo‘zar to‘fon kabi, esar yel kabi.
Chaqnashda ko‘rk bo‘lar u chaqmoqlarga,
Vulqonlar, o‘pqonlar, tosh-u tog‘larga.
Sadosi to‘sh urar ruh-u dillarga,
Bo‘ronday guvullar cho‘l-u yo‘llarda.
Bilingiz, o‘lgan zot — bir san’atkordir,
San’atda yer-ko‘kcha qudrati bordir!

Muhtaram keng omma! O‘ldi san’atkor!..
Kulfat chulg‘amasin ruhingni zinhor.

Yolg‘izman demagil, yolg‘iz bo‘lmaysan,
Faqat o‘lmagansan, aslo o‘lmaysan.
Ey qahramon xalqim, olg‘a bos, olg‘a,
Buyuk ishlar sari misoli dolg‘a,
Yo‘ling buyuk yo‘ldir,
har imkoning bor,
Oltin yulduz kabi bir nishoning bor.
U seni uchirar oy-u osmonda,
Suzdirar to‘lqinli nahr-u ummonda.

Jar soling she’rimning oq qanotlari,
Fikrimning, hissimning jiyron otlari,
Mag‘rur xayolimning buyuk devlari
Hayqiring, ey san’at Chapayevlari.
Yuksal, yuksal mening shuhratli o‘lkam:
She’r-u shoir ila davlatli o‘lkam.
Sening qirqilmagan qanotlaring bor,
Tarixda bezavol bisotlaring bor.
Buyuk Fuzuliyga ruh bergan ellar,
O‘zini tarixga ko‘rsatgan dillar.
Ishini vaqtida soz bitiradi,
Har zamon Ja’farni yetishtiradi!

TOR

Kuyla tor, kuyla tor!
Sasingdan eng latif she’rlar tinglay.
Kuyla tor, ey dildor!
Bedor dolg‘a kabi jo‘shgan ruhimga
Jonbaxsh taronangni singitib, anglay.
Kuyla tor!
Seni kim unutar?
Ey keng ommaning
Ham oh-u achchig‘i, ham bol-sharbati —
Olovli san’ati!

Qiblaga ko‘z tikkan zo‘r koshonalar
Azaldan tinglaydi sening sasingni.
Popog‘li otalar, chodrali onalar
Soyangda ming hisga ochar ko‘ksini.
Tushar goh shirin, goh achchiq to‘riga,
Quvnab ham qovrilib hasrat qo‘riga.

“Chorgoh”ing devordan o‘tib devora,
Yo‘lchini yo‘lidan etmish ovora.
Chayqalar dara-yu tepalar zarto‘sh.
Sas berar sasingga to‘lqinlar sarxush.
Kuyla tor, fikrimda uyg‘onsin
Bahor misralari, Sayid g‘azali.
Kuyla tor, fikrimda ruhlansin
Shirvon-u Ganjaning mehribon go‘zali.

Yurak-bag‘ri kuyganlar,
Ham jonidan to‘yganlar,
Ilk bahor sayriga bormagan,
O‘zini tog‘lar to‘shiga urmagan
Siynasi dog‘liklar,
Vafosiz bir ishqning to‘zigan zulfiga bog‘liqlar
Huzuringga chopmishlar.
Muxlis bo‘lib, dargohingda —
Dilga taskin topmishlar.
Zil, vasat, bam[1] pardalaringda
Olovli-yu nurli
Yonishlaring bor.

Qushlar nag‘masidan huzurli
O‘zgacha bir xonishlaring bor.
O! Seni ham aylamish sarson
To‘ziq sochli “zarafshon”.
Uning-chun roz aytar segohing
Parishon, parishon...

[1] **Zil, vasat, bam** — musiqiy pardalar.

Ovozingni tinglamish
Shoh-u xon qasrlari.
Sen ila birlikda ingramish
Ming-ming g'am asrlari.
Goh simlaring miskinlarni
Ovutardi bo'lib yor.
Bo'lar eding ularning
Sirdoshi, ey tor!..

Gullari zahmatkash barmoqlari qonidan
Rang olgan gilamlar,
Gilamlar ustida cho'zilgan
G'unchadudoq sanamlar,
"Hey, soqi, mâdad bergil-u, suz lola sharobni,
Injitma g'arib ko'nglini bu xonaxarobni!" —
Deb so'ylagan to'q so'zli shoirlar,
Havasdan to'ymagan och ko'zli shoirlar,
Nodimlar, Voqiflar,
Go'zallik siridan voqiflar
Xo'p seni tinglamish,
Kuylamish, ingramish.
Endi biz-chun kuyla tor!
O, seni kim unutar!

Qulluq qilmay masjid-u oxundga bir on,
Hayot ishqi birla urarding javlon.
Ko'plar toptab yanchdilar,
Ko'nglingga six sanchdilar.
Ne dey men u qovoqboshlarga?
Ruhingni urdilar toshlarga.

Qora yelday boshing uzra esdilar,
Ovozingni o'chirdilar, kesdilar.
Nozli kuying muxlislari toshlandi,
Baxshi sozi parchalanib tashlandi.
Sen xalqingga "kul!" deding,
"Ey, g'am-g'ussa,o'l!" deding.

To‘rga chiqib, gardanin —
Qashladi salladorlar.
Masjid uzra marsiya
Boshladi salladorlar.
G‘ussamiz o‘lmadi,
Xalqimiz kulmadi.
Yig‘ladik, doimo, yig‘ladik,
Ey qadim oshino, yig‘ladik.
Kuyla tor! O‘zgardi zamona.
Eshit! Radio sasingni
Taratmoqda jahona.
Ey, kuyla-yu chal, torchi,
Ham ko‘nglimni ol, torchi!
Soz chertgil, ey baxshi jo‘ra!

Abo-yu sallalar qolmamish sira,
Kuyla, tor! Olovli izlaring,
Ajabo, necha dilbar qizlarning.
Yosuman yuzlarini tilla kabi qizartmish.
Sariq simlar sas-u lisoni
Solmasmi hayratga insonni?
Kuyla, tor! Bu rishtalaringda
Istagan navoni chala bilgum men.
Sendan tarovatli ham haroratli —
Bugunning zavqini ola bilgum men.

Sen bugun qurolsan mening qo‘limda.
Kurash janggohida seni bexato
Istagan nishonga qaratgum, ey tor,
Qalblarga yashiringan o‘tmish sarqitin
Yangi taronaning qo‘llari birla
Eta olgum tor-u mor!
Kuyla tor!
Korxonalar ko‘ksida,
Traktorlar ustida

Shu on qancha odam bor.
Tortinma, kuyla, ey tor!
Ma'danli Bokumning,
Paxtali Ganjamning,
Ipakli Shokimning
Ham oh-u achchig'i, ham bol-sharbati —
Olovli san'ati
Kuyla tor, kuyla tor!..
Sasingdan eng latif she'rlar tinglay.
Kuyla tor, ey dildor!..
Bedor dolg'a kabi jo'shgan ruhimga
Jonbaxsh taronangni singitib, anglay,
Kuyla, tor!
Seni kim unutar?
Ey keng ommaning
Ham oh-u achchig'i, ham bol-sharbati —
Olovli san'ati!..

BAYRAM OQSHOMI

1

Yodimdadir go'dakligim
Ul bayram kechalari.
Onam, otam, uch qardoshim,
Buvim-u bobom bari —

Bir dasturxon atrofiga
Yig'ilardik biz xandon.
Buvim: — Alloh suprasiga, —
Derdi, — bo'layin qurbon.

Bir barkashning girdida
Yonardi ikki-uch sham.
Qarshimizda shakarbura,
Qand, novvot-u ham bodom.

Oqshom avji qiy-chuv. Ayni
Qiyomatdan nishona.
Uzzukunlar bolalar-chun
O‘ynamoqqa bahona.

O‘choq yoqib, o‘t qalashib
Ustidan hatlar edik.
Horiguncha o‘ynab, dilni —
Sho‘xlikka partlar edik.

“Kun chiq!”, “Hey, kun chiq”, — deya
Jo‘shardi sevinchimiz.
“Tulpor otni minib chiq!” — deb
Qichqirar eng tinchimiz.

Egnimizda toza libos,
Boshimizda soz popog‘.
O‘tli mash’al qo‘limizda,
Aylanardik ko‘cha, bog‘.

Qichqirardik boshimizga —
Ko‘tarib ko‘chalarni.
So‘z qisqasi, xush kechardi
Ul bayram kechalari.

“Erta Navro‘z bayramdir!” —
Deya-deya yotardik.
Chekkan barcha g‘amimiz ham
Sevinchlarga botardi.

II

Bu shom esa men yolg‘izman,
Hech kimsa yo‘q yonimda.
G‘ayri hisni yo‘latmaydi
Bu yolg‘izlik jonimga.

Men bu kecha saharni kutayapman sabrsiz,
Sahar mendan xabarsiz,
Anglamaydi hayajonim, tuyg‘umni,
Zanjirlabon ko‘zimdagi uyqumni,
Xayolan xayolimga ol shafaqlar singmoqda.
Nur tolasi inmoqda.

Yo‘q, bu kecha men o‘zimdan farqliman,
Qarshimda bir kalendar.
Boqayapman, boqishga haqliman.
Istaymanki,
bir yel sarosar
Derazamdan esa-esa
Shu kechani bir nafasga
Unutilgan kechalarga aylantirsin, ulasin.
Bir shamolki, shaffof barmoqlari-la
Bir chertishda qulatsin
So‘nggi damin yashayotgan yaproqni.
Bir shamolki, billur tirnoqlari-la
Tirnasin “o‘ttiz” deya menga boqqan varaqni.

Bor bu varaq orqasida
Sharafli May oynasi.
Bor shu sana yoqasida
Qirmizi baxt siynasi.

Bir siynaki, yangi hayot —
Ishqi dolg‘alanadi.
Ufqlarda qoqib qanot,
Shafaqda to‘lg‘onadi.

Ha, bu kecha saharni kutayapman sabrsiz.
Sahar mendan xabarsiz.

Anglamaydi hayajonim, tuyg‘umni.
Zanjirlabon ko‘zimdagi uyqumni,

Quchog‘iga jo etmish g‘unjayma yotog‘onni.
Men esa kutayapman hayajon ila tongni.
Xayolan xayolimga ol shafaqlar singmoqda,
Nur tolasi inmoqda.

QO‘LLAR

Ko‘ngil ovga chiqarkan, shu yoshlik dovonida,
Qo‘limda necha nozli kaptar tortmadi azob.
So‘ng shunday shafqat uyg‘ondiki jonimda,
Ich-ichimdan qushlar-chun chekdim rosa iztirob.

Silab-siypaladim-u, ranjitmadim parranda,
Yumshoq qanotlarida qoldirmadim biror dog‘.
Qishning qor-u quyuni to‘zoniga qorganda
Siynamning usti bo‘ldi ular uchun iliq bog‘.

Bir kuni kaptarlarim qanot qoqib uchdilar,
Go‘yo shu asraganim qushmas-u, ko‘kragimda —
Kimlarningdir qo‘llari titrardi yuragimday.

Faqat ularning biri hamon yodimda, hamon.
Go‘yoki men tutgan qush talpinib siynam uzra
Ruhimga tirnoq ila sanchayapti bir tikon.

ONT ICHGUM

Shoirlarni shon yo‘liga kuzatgan,
Insonlarning hayotini bezatgan
Nozik ruhli malaklarga ont ichgum!

Bo‘ynidagi shoda-shoda durlarga,
Manglaydagi inju qatra terlarga,
Qalbidagi istaklarga ont ichgum!

Gul yuzida yangi-yangi ochilgan,
Xushbo'y atri yuragimga sochilgan,
Qalbim quchgan chechaklarga ont ichgum!

Silab-siypab qumrilarning yotog'in,
Mushuk kabi orastalab oyog'in,
Esgan sarin shamollarga ont ichgum!

Bulutlardan gurlab, olov chaqdirgan,
Ko'k yuzida chirog'bonlar yoqdirgan
Ul yashinli chaqmoqlarga ont ichgum!

Bir sening-la ko'rishsam deyman zora.
Seni o'ylab men oshiqi bechora —
Chekkan sonsiz zahmatlarga ont ichgum!

Yoshligimga ruh-u qanot baxsh etgan,
Har onda bir ajib jilva ko'rsatgan
Sohibchangal tilaklarga ont ichgum!

Hayotning farqi yo'q dengizdan aslo.
Ishda uning qarshisida raqs etib a'lo,
Qanotlangan yuraklarga ont ichgum!

Sensan mening hayotimning mehvari,
Sensan mening yosh umrimning rahbari, —
Dil sig'ingan falaklarga ont ichgum!

MEN YANGI YOSHLARDAN

Men qaynoq yurakli yangi yoshlardan,
Tildan tilga ko'chgan hikoyatim bor.
Hayot nash'asi-la jo'shaman har dam,
Porloq kelajagim, nihoyatim bor.

Bir parcha otashman, bir parcha yong‘in,
Qalbim timsolidir bir yonar tog‘ning.
Menga g‘ov bo‘lolmas na sel, na toshqin,
Tabiat-la hazilkash cho‘ng odatim bor.

Muhabbatim kurash, sevgilim hayot,
Men-chun egarlanmish qanotli bir ot.
Qanot qoqayapman. Tingla, koinot,
Hali bundan keyin samovotim bor.

MEN KEZGAN YERLAR

Asrlardan beri, yillardan beri,
Dil ishqi-la to‘lgan yerdir bu yerlar.
Qalbimni biladi zar sochli pari:
Men qurboni bo‘lgan yerdir bu yerlar.

Bu go‘zal olamni kezib tog‘ma-tog‘,
Sherik bo‘ldim g‘am-u sevinchga, o‘rtoq.
Majnuntolli dara, ey tumanli tog‘,
Husni maftun qilgan yerdir bu yerlar!

Bunda safolar jo‘shdi misli sharshara.
Angladi har irmoq, bildi har dara.
Yo toldim diqqat-la cho‘ng xayollara,
Yo men ilhom olgan yerdir bu yerlar!

GILAM

Sen gilam to‘qirkansan to‘lib g‘ayratga,
Hayron qoldim yurakdan sen yaratgan san’atga,
Bir go‘zallik asari berding bashariyatga.

Avval ko‘p buyuklikka bo‘lding-u lol-u maftun,
Endi ajib naqshlaring elni solib hayratga,
Nurday buyuk hunaring chiqdi maydonga bugun.

Zahmat ichra qavargan u nozik barmoqlaring
Birovning taassufli nazarin jalb etsa gar,
Minglarning olqishiga sazovordir, muqarrar.

Tasanno! Mehmonlarga ko'rsatilsa, inonki, —
Gilamdagi rang-ro'yi so'lmagan u yulduzlar
Ham sening, ham o'lkaning shon osmonin zardo'zlar.

Ey mehnatkash Sharq qizi, javlon urgil, qanotlan,
Tutajakdir shuhrating bu san'at maydonini,
Zahmatlaring lol etgay hosidlar zabonini.

Sen birgasan san'at-chun jondan kechgan mardlar-la,
Olg'a! Yoqib dilingdan shoh asarlar quyoshin,
Yuksaltirgin o'lkamning shuhratini, shonini.

MUHABBAT

Men-ku bilmas edim nedir muhabbat,
Bu sirni anglatib, kuylatmadingmi?
Dunyoga sig'magan shoir ko'nglimni,
Ko'ksimdan chiqarib o'ynatmadingmi?

Men-ku qo'shiq aytib binafshalardan,
Zavq olmoq kasb etdim bir sho'x dilbardan,
Mendan uzoq kezib, yelib qaylardan —
Qalbimni siqmoqqa jazm etmadingmi?

To'sganda ko'nglimni ming g'am-u hijron,
Holimga zarracha yonmading jonon.
Qo'lga olib Mushfiq qalbini har on,
Shirin tush qo'ynidan uyg'otmadingmi?

YURAK

Sen uning ishqi-la, muhabbati-la,
Umringni yetkazmading boshga, yuragim.
Sevgi nishonini ko'zlaganingda
O'qlaring tegdimi toshga, yuragim?!

Sevgi daryosida ruhim bir orol,
To'fonim ziyoda, dolg'am barkamol.
Yodima tushganda u sohibjamol,
Parishon xayolim shoshar, yuragim!

Sen jonni jonondan ayri tutmading,
Vafosizlik ko'chasidan o'tmading.
U seni unutdi, sen unutmading,
Yasha muhabbatim, yasha yuragim!

YASHA, KO'NGIL!

Oh, bu uzun ishqim yo'li
Yetarmi hech boshga, ko'ngil?!
Mo'ljal oldim, kamon tortdim,
Tegdi o'qim toshga, ko'ngil!

Olov tushdi bulutiga,
Duchor bo'lding ishq o'tiga,
Qolding hijron umidiga,
Ayo singan shisha ko'ngil!

Tarlonsan, yerga qo'nmaysan,
Bu tuproqda quvonmaysan,
Men to'ngdim-u, sen to'ngmaysan,
Yasha ko'ngil, yasha ko'ngil!

SHIRIN QIZ

Zarif oyoqlaring bunchalar inja,
Go‘zal qomatingni ko‘targanicha
Qanday obormoqda, bilmam, shirin qiz?

Shikoyatim bordir gul qo‘llaringdan,
Ular yuragimni tutib baridan
Qanday qo‘pormadi, bilmam, shirin qiz?

Sening marhamatli, to‘lg‘in ko‘zlaring,
Manim hislarim-u mubham so‘zlarim
Qanday anglamadi, bilmam, shirin qiz?

O‘lmish hislarimni go‘zal raftoring,
Shamolli, dolg‘ali, shirin guftoring,
Qanday jonlatmadi, bilmam, shirin qiz?

Ufqda quyoshni qanday sarg‘aytdi,
Lolaning ko‘ksini qanday qoraytdi,
Yoniq yonoqlaring, bilmam, shirin qiz?

Men bir dashtning qushi, sen bir nilufar,
Mening o‘pishimni qanday rad etar
Go‘zal dudoqlaring, bilmam, shirin qiz?

KUYLA

Kuylagin, sevdigim, o‘z havasing-la!
Ilhom qanotlanur sening sasing-la!
Nag‘mangda o‘ynasin sellarning sasi,
Tongotardan esgan yellarning sasi.
Gullarni silkigan shamollar kabi,
Qumlarni ko‘targan dolg‘alar kabi,
Titragan, yangragan dil sozing bo‘lsam,
Yuragingdan ko‘chgan ovozing bo‘lsam...

Kuyla! Quvvat kelsin she'r-u san'atga,
Ko'nglimning qushini keltir hayratga!
O'xshar, o'xshagandek xuddi oshiqlar
Umrim ohangiga sen aytgan qo'shiqlar.
Yurak xo'rsinadi sen kuylaganda,
Sen ham tinglasayding men kuylaganda!
Kuylagin, sevdigim, o'z havasing-la!
Ilhom qanotlanur sening sasing-la!

KULISHLARING

Qarshimda nozlanib yana kulursan,
Bilsayding kulishing nimaga o'xshar?
Men aytib o'tirmay, o'zing bilursan,
Lola bargidagi shabnamga o'xshar.

Sening kulishlaring bir shamol kabi
Esarkan orzumning guli ochilur.
Kulsa dudoqlaring yulduzlar kabi
Ruhima bir sarin shu'la sochilur.

So'yla, go'zallarning dudoqlarinda,
Bu o'ynoq kulishlar atr-u mushkmidur?
Sening qahqahang oy quchoqlarinda
Suzgan bulutmidur, uchgan qushmidur?

Sening kulishlaring yoz saharindan
Hiss-u xayolimga ajib rang olur.
Kulgin, satrlarim kulishlaringdan
O'lmakni bilmagan bir ohang olur.

Sen kulgan vaqtingda bu shod kunimda
Qarshimda ochilar bahoriy bog'lar,
Ba'zan boshim uzra, ba'zan o'ngimda
Chaqinlarim chaqnab, suvlarim oqar.

Jahon ki, so'lmagan bir bog'cha bog'dir,
Bunda ravomidir kulmasdan o'lmoq!
Hayf ul shaxsga, kim qora qaboqdir,
Naqadar yarashur insonga kulmoq!

RANJIMAYMAN

Men shirin lahjali bir bulbulmanki,
Gullardan ranjiyman, sendan ranjimam!
Meni o'z jonidan ham ortiq suygan
Yellardan ranjiyman, sendan ranjimam.

Ko'zlaring misoldir oqqan soylardan,
Kipriging o'qlardan, qoshing yoylardan,
Qarshimizga kelgan uzun oylardan,
Yillardan ranjiyman, sendan ranjimam.

El ichida bizni derlar Sayodli,
Tarlon ovchisiman, ruhim qanotli,
Ilhom parisini sayratgan totli
Tillardan ranjiyman, sendan ranjimam.

ONA

Ona dedim, yuragimga yonar o'tlar sochildi,
Ona dedim, bir entikish paydo bo'ldi jonimda.
Ona dedim, qarshimda ajib sahna ochildi,
Ona dedim, afsus uni ko'rmas bo'ldim yonimda.

Ona, ona!.. Oh, bu so'zning gadosiman azaldan,
Uni to'kis anglatolmas dilimdagi ming ash'or.
Ona chiqmas bizga har bir "bolam" degan go'zaldan,
Chunki uning xilqatida tom o'zgacha fusun bor.

Boshqa olam ko'rmadim hech bundayin soz bichimda,
Uni kimdir zeboliklar jilvasidan yaratmish.

Ona, ona... gulga cho'mgan bir niholki, ichimda
Umrim bino bo'libdiki, yuragimda nish otmish.

Ul niholni yulay deyman alamimdan ba'zi choq,
Sug'urayin dildan deyman, lekin shu on jismimga,
Zirqiroqlar turar, go'yo bir sas mayin va titroq,
Lison ila yolvoradi: — "Qo'y men ojizni, tegma!

Chunki seni men avaylab o'stirdim, erkaladim,
So'zlayotgan bari so'zing men beshiging ustinda.
Aytgan hazin qo'shiqlarim soyasidir, avlodim,
Nomim bitilgan varaqlar bor har kitob, har dinda!"

So'zlari naqadar dono, esiz, ko'rmadim uni,
Deydilarki, Mushfiq, xasta go'dak eding onangni
Muzdek qo'llar otang kabi bag'riga olgan kuni,
Larzaga kelardi har yon tinglab achchiq nolangni.

Endi kimdir chiqsa: —Otang-onang bormi? — deydigan,
Xayollar-u hissiyotga hech berilmay aytaman —
Bo'lgan bo'ldi, o'tgan o'tdi,
menga hayot baxsh etgan,
Bir muqaddas, bir samimiy amalimni topganman.

Men ishongan bir qibla bor, uni har vaqt, har doim
Bunyod etur horimagan qo'llarim, ham idrokim.
Ul bir olam, bir olamki, samolari zarrindir,
Jirvalari, qir-adiri, fazolari zarrindir!

RASSOM

Kel, rassom, sevgilim rasmin chiz bu dam,
Sevgilim xo'p suluv, suluv et sen ham.
Noziga kelganda tinsin mo'yqalam,
Qo'y, maftunkor nozi o'zimga qolsin...

Chiz zulfin tim qora tundek bulutin,
Tengsiz nafis etgil sarv kabi qaddin,
Ko‘ziga kelganda qo‘ling olsin tin,
Jon olg‘uchi ko‘zi o‘zimga qolsin...

Chiz Tangri yaratgan go‘zal qulini,
Chiz to‘rt tomonini, o‘ng-u so‘lini,
Chiz u bosib o‘tgan hayot yo‘lini,
Oyoqlarin izi o‘zimga qolsin...

BIR LAVHA

Sakson yoshlarga borgan beli bukik bir xotin,
Oylar, yillar ayamay chopmish qo‘l-u qanotin.
Vaqt yulib olib ketmish ko‘zlarining nurini,
Umr yo‘lida yo‘qotmish qalbining sururini.
Vujudin kuzgi yaproq bilan farqi yo‘q, evoh,
Lablarida na kulgu, na qo‘shiq yangraydi, oh.
Chehrasida parishon bulutlarning bor aksi,
Qo‘llari muzdek sovuq — bir mozor hadyasi.
Singdirmish uzoq yillar bahori-yu qishini,
Majlislar-u ulfatlar nash’asida, g‘amida.
Burkamish ko‘lankalar axiyri boqishini,
Endi xayoli kezar qabriston olamida.
Shunda ham yashamoqdan hech bezmagan, to‘ymagan,
O‘sha horg‘in, quvvatsiz, bir ro‘shnolik ko‘rmagan.
Jon-jahdi bilan yana umr sursaydim, deydi,
“Oh, salgina tuzukroq ko‘zim ko‘rsaydi!” deydi.
Ey, hanuz navqironlik damlarin yashab, jo‘shgan,
Qalbida asov to‘lqin mavjlari qaynab toshgan,
O‘sha sakson yoshdagi ayol yashay der ekan,
Bilmam nechun hayotdan uzoqlashmoqdasan san?

YARALDIM

Men ezilgan bir sinfning hayqirgan,
Haqqa chorlar sadosidan yaraldim.
Halokatlar changalida chinqirgan,
Mazlumlarning nidosidan yaraldim.

Ey, odamzod, uzoqlashma, kel yaqin,
O‘zga yo‘llardan kelmasin daraging.
Bir quyoshning, bir maslakning, bir mehrning
Tom haqiqiy ma’nosidan yaraldim.

Yangi havas, yangicha zavq yaratgan,
Yangi dunyo qurmoq uchun jahd etgan,
Yangi sozin torlarini yangratgan,
Baynalmilal navosidan yaraldim.

BULUT OLDIDA

Qoplab olding, ey bulut, samoni bunchalar zich?!
Nedir chaqmoqlaringda bu gumburlash, bu chaqish?!
Zimistonda yarq etgan har chaqmog‘ing bir qilich.
Yetar, chaqma, ey bulut!
Menga ozgina sukut!

Hayajon oz emasdir shusiz ham yuragimda,
Hali g‘o‘r fikrlarim, bolacha hislarimda,
Sendan kutganlarim ko‘p, aylanmoqda tegramda,
Yetar, chaqma, ey bulut!
Menga ozgina sukut!

Angla, uzun qissadir yoshlik chog‘lar qissasi,
Shovqin-suron istamam, mening sasim mis sasi,
Yo‘qdir quvvat qayg‘usi, na bir hayot g‘ussasi,
Yetar, chaqma, ey bulut!
Menga ozgina sukut!

Charx urma boshim uzra bir mudhish quvvat kabi,
Oydin yo'limni to'sma qop-qora zulmat kabi,
Dahshatliman, kuchliman men abadiyat kabi,
Yetar, chaqma, ey bulut!
Menga ozgina sukut!

TILANCHI

Qahraton qish kechasi... Samo oppoq, yer oppoq,
Uvullagan shamollardan seskanadi ko'chalar.
Kimda qanot bo'lsa agar, izg'irin pisand emas,
Ammo yana bu ayozdan junjikadi ko'chalar.

O'tgan ham bor, ketgan ham bor, men ham shunda bu kecha,
Tabiatning vahimasi titratardi atrofni.
Bir chetda horg'in, qaltiroq qo'llari-la kamoncha[1]
Chaluvchi zaif ixtiyor ingratardi atrofni.

Yonida bir go'dak ham bor, hech tinmasdan chalmoqda,
G'ijjak torlaridan kuyuk navolar taralmoqda,
Nolalarin tinglagan yuraklar tirnalmoqda.

Bu yo'ldan o'tganida yellar ham esankirab,
Asta-asta ovozini o'zgartirar bir qadar.
Uzoq-uzoqlarga borgach, yig'lardi ho'ngrab-ho'ngrab.

— Ey ixtiyor, ey sen zolim, mazlum to'la yillarning
Yuraklarga kadar sochgan, alam sanchgan tuhfasi!
Qayg'u behad, azob behad, zulm to'la yillarning
Muruvvatsiz mo'yqalamlar qora surtgan lavhasi!

Sening davring ortiq o'tmish,
Seni zamon safil etmish.
Faqat rozi bo'lmagil hech,
Qish ayozi muzlatmasin,

[1] **Kamoncha** — g'ijjak.

Quyosh tafti kuydirmasin,
U sevimli qizaloqni.
Qo'yib yubor jajji qo'llarin,
O'rilmagan ipak sochlarin.
Qo'y, voz kechsin kuylayotgan hazin, xasta ohanglardan.
Qo'yib yubor,
Ayqirarkan yurtimizda hayot sellari,
O'par, balki, ko'zlarini iqbol yellari.

MEHNAT

Qaytib o'tmishlarga fikrga toldim,
Bildim inson zotin kim ekanligin.
Birdan ko'z oldimga keldi ajdodim,
Kuzatdim bir qari maymun ahvolin.

Jonivorlar aro u ham bir hayvon,
Galalar ichida u ham galadir.
Boshpanasi ungur, maskani o'rmon,
Boyaqishning umri muhtojlikdadir.

Qo'lida tosh, temir... metin tog'larni,
Suruna-suruna g'azab-la o'yar,
Tabiat o'zgarar, o'zi o'zgarar.

Mehnat — insonlikning bitmas boyligi...
Mehnat singgan makon misli jannatdir.
Ziynat, ishq, iftixor ham saodatdir!

KULGULAR

Kulgular bor, sasi xuddi qo'ng'iroqni eslatar,
Kulgular bor, dilni go'yo mayin yellar erkalar.
Ba'zan tiklar ko'ngillarda alangadan bir ma'bad,
Yillar bo'yi otashiga insonni topintirar.

Burkangancha gohi ipak fusunkor bir chorshafga,
Sochar billur tabassumin, ziynat yoyar atrofga.
Pardasin sal ko'tarsin deb intilamiz, nihoyat,
Ko'z yoshlarin olamiga shoshilamiz tavofga.

Kulgu bor, naq zaharxanda, istehzoli kulgu bor,
Qo'ymas parvoz qilmakka hech, etar zanjirband, abgor,
Gohi issiq diydorlarga to'g'ri yo'llar ko'rsatar.

Faqat uning kulgulari g'uncha uzoriga jo,
Tiniq, sof jolalarning jilvasidir, doimo,
Yuksalmak-chun yosh umrimga qanot-u jon baxsh etar.

ISHQIM

Onasiz, otasiz Ofeliyadek,
Sochlari parishon bir qizdir ishqim.
Qalbimning bulutli samolarida,
Titragan bir g'arib yulduzdir ishqim!

Yuzaga chiqmayin yaralgan yerdan,
Ulug' Tangri kabi qolmish nazardan,
Ul chehrasi ma'yus xarobalardan,
Beshbattar qayg'uli, hissizdir ishqim!

Hayotga boqmasdan kulganlar kabi,
Xuddi voqelikdan bexabar kabi,
Yot ellarda qolgan yetimlar kabi,
Bunchalar badbaxtdir, yolg'izdir ishqim!

O'XSHAR

Sevgilim egnida yashil libosi,
Sollanishi sarvi chamanga o'xshar.
Yuzakiroq bo'lsa-da bu qiyosim,
Surati nafis yosumanga o'xshar.

Sen ne tilasang, bari dilimda bor,
Muhabbatim tongi misli ilk bahor,
Ko'ngil bersang men nechalar baxtiyor,
Hislarim pokiza gulshanga o'xshar.

Mushfiq yuragi yaproqdan-da nozikdir,
Xafif sabodan ham titraydi dir-dir.
Mahbuba qadami qayga yetadir,
U yerlar oshiqqa vatanga o'xshar.

SHAMOLLAR

Ertadan kechgacha, har oqshom, har sahar,
Ko'pincha, sargardon shamollar bexabar,
Bir yaqin do'stim kabi eshik qoqarlar,
Shamollar, shamollar bastakor shamollar,
Olamni sayr etgan, baxtiyor shamollar!

Biringiz qo'rqinchli, biringiz qo'rquvsiz,
Biringiz tuyg'uli, biringiz tuyg'usiz,
Biringiz mudroqsiz, biringiz uyqusiz,
Shamollar, shamollar, ey, sarin shamollar,
Keltirasiz ming bir yurt atrin, shamollar!

Ey, asov shamollar, zavqingiz tosharkan,
Bog'lar shabnamidan may so'rib jo'sharkan,
Toshloq tog'lar aro yelib, osharkan,
Meni ola keting, uchayin tog'larga,
Ko'nglimdagi borin ochayin tog'larga!

Hayqiring, ilhomim, san'atim hayqirsin!
To'fonim, bo'ronim, qudratim hayqirsin!
Chaqmog'im porlasin, zulmatim hayqirsin!
Ey, meni hur-ozod asragan shamollar,
Olis cho'qqilardan chorlagan shamollar!

JAYRON

Tentima tik jarlik toyg‘oqlarida,
Toshlar tuyog‘ingni ezar, jayronim!
Seni asray ko‘zim qaroqlarida,
Qilma oshig‘ingdan hazar, jayronim!

Qiyqiriqlar tomon hurkib boqqanda,
Seskanish ko‘nglimga o‘tlar yoqqanda,
Chashmayi chashmidan nurlar oqqanda,
Qaynar buloqlarga mengzar jayronim!

Yulduzlar ko‘rkingdan etarmish so‘roq,
Badnazar ko‘zidan bo‘lgaysan yiroq!
Ko‘ksimda yashirgum, ketmagil uzoq,
Hijron tog‘larida kezar jayronim!

YANA BIR BOQSANG MENGA

Nigohing intizor qalbim ozori,
Bunday boqish, bunday turish bas, yetar.
Yana bir bor boqsang, tugaydi bari,
Bir bor boqsang, xayolim uchar-ketar.

Yana bedor tunlar tongga ulanar,
Sevgilar, po‘rtanalar boshlanajak.
Ayriliqlar, chigal-chalkash jumboqlar...
Yonajak o‘t-olov ruhim, yonajak!

Yetar, bas qil bu turish, bu qarashing!
Yo‘qsa ruhimdagi chaqnagan yashin,
O‘t purkagay ustingga to‘rt tarafdan.

To‘xta, shoshma, yuzing burma bir so‘zdan:
Seni tole quyoshim qo‘ymay ko‘zdan,
O‘tmasin hech yo‘lida xatar-xavfdan.

QILMISHI

Yo‘q-yo‘q, kokillaring emasdir ilon,
Qadimgi shoirlar deganlar yolg‘on,
Meni sarobdek beqadr etgan, inon,
Ul jingalak qaysar zulfing qilmishi.

Buni yaxshi bilar tanish sayyohlar,
Na sendadir, na mendadir gunohlar,
Bu sayyod ko‘nglimga bergan ozorlar,
Xushbichim qomating, beling qilmishi.

Mushfiqman, so‘zimda topilmas yolg‘on,
Ko‘zingdir qalbimni o‘tlarga solg‘on,
Qalbim etib mubtalo, jonim olg‘on,
U bulbul nag‘mali tiling qilmishi.

KO‘NGLIMNI

Chaqmoq kabi bulutlarni quvdim-u,
Berdim alvon chechaklarga ko‘nglimni.
Quyosh kabi zimistonni bo‘g‘dim-u,
Berdim o‘tli tilaklarga ko‘nglimni.

Bu yosh umrim mumdek erib so‘narkan,
Yuksaklardan pastlik tomon enarkan,
Amallarim sarobga aylanarkan,
Berdim chaqnab shimshaklarga[1] ko‘nglimni.

O‘shal zamon sohib bo‘ldim qanota,
Bir qush kabi nazar soldim hayota,
Etdi meni yoshlik shavqim ihota,
Berdim sarxush kulaklarga[2] ko‘nglimni.

[1] **Shimshak** — chaqmoq.
[2] **Kulak** — shamol.

QURBON BO‘LGANIM

Bilmam, nechun meni tashlab, unutdi,
Jabr-u jafosiga qurbon bo‘lganim?
Yo bir begonaga yuzini tutdi,
Yangi savdosiga qurbon bo‘lganim?

Men Dilbarni so‘rdim o‘tgan-ketgandan,
Dedidar, kechirmas, ranjimish sandan,
Men iltifot qildim, u qochdi mandan,
Qochqoq adosiga qurbon bo‘lganim!

U mening sevgilim, u mening onam,
Usiz yuzim kulmas, ochilmas oynam,
Bilmam qayda qoldi u nozli so‘nam,
U xush sadosiga qurbon bo‘lganim?

Hijron otashiga ko‘ngil chidolmas,
Ishq o‘tida yongan minba’d yonolmas,
Chekkan faryodimdan nechun uyg‘onmas,
Shirin ro‘yosiga qurbon bo‘lganim?

KECHA TUSHUNCHASI

Men yoqtirgan bir kecha, yer ham, osmon ham yorug‘,
Oy bir sarxush ko‘z misol, yulduzlar bezak yanglig‘.
Barini kuzatarkan,
Biroz o‘yga tolarkan,
Fikrim, hisim, xayolim shu qadar yuksaldiki,
Va menga tuyuldiki,
Bizlardan avval na yer, na ko‘k, na hayot bo‘lgan,
Na bu chek-chegarasiz go‘zal koinot bo‘lgan...

Kecha sokit... tushuncham sokit emasdir faqat,
Ko‘zlarimning o‘ngida jonlandi bir haqiqat.

Xayolim kengliklarga shu qadar yuksaldiki,
Va menga tuyuldiki,
Ilk daf'adir koinot —
Dunyoni sellarida chayqatgan bizning hayot,
O'ng-u so'lda kurashmish,
So'ngra yo'liga tushmish.
Qarab turmoq chog'imas, go'zal do'stim, sen-da kel!
Sayr etaylik qo'l qo'lda bu zumrad chamanda, kel!

Ko'k yuziga bir zum boq, har yulduz bir sariq gul,
Yarmi g'uncha, yarmi gul.
Seni ko'rdim, xayolim shu qadar yuksaldiki,
Va menga tuyuldiki,
Ko'zimizga bu olam ko'rinardi zimiston,
Biz mudom kurashmasak, yashamasak sho'x-shodon.

Men yoqtirgan bir kecha, yer ham, osmon ham yorug',
Oy bir sarxush ko'z misol, yulduzlar bezak yanglig'.
Barini kuzatarkan,
Biroz o'yga tolarkan,
Fikrim, hisim, xayolim shu qadar yuksaldiki,
Va menga tuyuldiki,
Bizlardan avval na yer, na ko'k, na hayot bo'lgan,
Na bu chek-chegarasiz go'zal koinot bo'lgan...

QOL,
QURBON BO'LAY

Deysanki, yoningda qolaman sening,
Xo'p a'lo niyatdir, qol, qurbon bo'lay.
Sen qachon istasang, aziz jonimni
Ohu ko'zlaring-la ol, qurbon bo'lay.

Sen Mushfiqning yonida qolgin-ey, qurbon bo'lay,
Istasang bu jonimni olgin-ey, qurbon bo'lay.

Kelmish huzuringga qoracha tog‘lik,
Bir qora qulundir, qo‘llari bog‘liq,
Qo‘y, etma ko‘nglimni hijrondan dog‘li,
Kumush to‘pig‘ida xol, qurbon bo‘lay.

Sen Mushfiqning yonida qolgin-ey, qurbon bo‘lay,
Istasang bu jonimni olgin-ey, qurbon bo‘lay.

Deysanki, yoningda qolaman sening,
Xo‘p a’lo niyatdir, qol, qurbon bo‘lay.
Sen qachon istasang, aziz jonimni
Ohu ko‘zlaring-la ol, qurbon bo‘lay.

Sen Mushfiqning yonida qolgin-ey, qurbon bo‘lay,
Istasang bu jonimni olgin-ey, qurbon bo‘lay.

TELEFON SUHBATI

Sen mendan yiroqsan, men sendan yiroq,
Yiroqdir sevimli ko‘zlaring menga.
Telefon tufayli yaqindir biroq,
Yurakdan sochilgan so‘zlaring menga.

Nechun ruhlanmasin bu yangi shoir,
Ko‘z tutmas choparga jonon elidan.
Telba orzulari haqqiga doir,
Marhamat kutmaydi u tong yelidan.

Ha, ertaga shunday qolmas bu o‘lka,
Go‘shakda fikrimni ocharkan senga,
Hasrat-la men boqqan yuzing ham, balki,
Uzoq-uzoqlardan ko‘rinar menga.

Muhabbatim teran, xayolim teran,
Ne chiqar so‘zlarga ko‘nglimni bersam?!

Mag‘zini chaqmoq-chun bu suhbatlarning,
Ne bo‘lur ko‘zlaring go‘shakda ko‘rsam?

Yo‘qsa ishontirmas meni bu so‘zlar,
Oz savdo tushmagan g‘arib boshimga.
Istayman, yuraging oynasi ko‘zlar,
Ochib haqiqatni, qo‘ysin qarshimga.

Ha, ertaga shunday qolmas bu o‘lka,
Go‘shakda fikrimni ocharkan senga,
Hasrat-la men boqqan yuzing ham, balki,
Uzoq-uzoqlardan ko‘rinar menga.

YOMG‘IR YOG‘ARKAN

Yomg‘ir yog‘ar, raqs etmoqda dur tomchilar,
Shoda-shoda, inju-inju nur tomchilar.
Ko‘kda ikki qora bulut to‘qnashib ketdi,
Momaqaldiroq sadosi olamni tutdi.
Uyasiga qushlar uchdi pirillab,
Tarnovlardan suvlar oqar shirillab.

Chaqnar edi osmon uzra chaqmoqlar,
Bir-biriga tegar adir, so‘qmoqlar.
Muyulishda turganga boq, qochganga boq!
Tepalikdagi kichkina o‘g‘longa boq!
O‘zicha u yangi so‘zlar to‘qimoqda,
Shapillatib ko‘lmakni, she’r o‘qimoqda.
Huv yo‘lkada bir qiz chopar kula-kula,
Yuragini xoli qo‘ymas bir g‘ulg‘ula.

Qiz yonida bir yigit ham chopib borar,
Yomg‘ir yog‘ar, uni oshkor etib borar.
Yigit, turma, qo‘ltiqlamoq zamonidir,
Tabiatning eng sho‘x, porloq zamonidir.

Yog‘, yomg‘irim, sel bo‘lib yog‘, jala bo‘l!
Yog‘, yog‘aver, zarrin-zarrin tola bo‘l!
Sen go‘yoki, yorning uzun sochisan,
Bag‘ri kuyuk sahrolar ilojisan.
Yog‘, yomg‘irim, sollana-sollana yog‘,
Zarkokildek tovlana-tovlana yog‘!
Xirgoying-la shirin-shirin aytib yog‘,
Ko‘chalarda bolalardek daydib yog‘!

Bari o‘tar, to‘lg‘an samo, ko‘ksimdek,
Ey yildirim, sas ber menga sasimdek!
Yog‘, ey yomg‘ir, tafakkurim, hissimdek,
Uzoq-yaqin cho‘llarga yog‘,
O‘lkalarga, ellarga yog‘!
Yomg‘ir yog‘ar, raqs etmoqda dur tomchilar,
Shoda-shoda, inju-inju nur tomchilar.

SHAM

O‘ylaydi toq, yonar toq,
Yonurmi hasrat-la sham,
Ko‘z yoshlarin to‘karoq?
Aytingiz, u nechun lol?
Bu tilsizlik nedandir?
Aytingiz, bu ne savol?
Qaysi bir siynadandir?
Oh! Bu shamning yuragi,
Lovullarkan har kecha,
Odamizod sham kabi,
Goh yonur yashirincha.
U bildirmay yonarki,
Qaddi sal tik bo‘lsa bas.
Shunday dardlar bo‘larki,
Inson hech oshkor etmas.

RASUL RIZO



KO'NGIL

Omon ko'ngil, sening dastingdan omon!
Meni bu savdoga solgan sen o'zing.
Visol ohanglari yangragan zamon,
Hijron torlarini chalgan sen o'zing.

Umidlar yosh kabi to'kildi-ketdi,
Ishqim chok-chokidan so'kildi-ketdi,
Men yondim hajrida, u kuldi, ketdi,
Ayriliqda bo'zlab qolgan men o'zim.

Fuzuliydan o'rgan muhabbat nadir,
Sevinchdir, g'ussadir, g'amdir, noladir.
Bir kun firoq dardi uzun yilchadir,
Ahdiga vafoli qolgan men o'zim.

IRODA

Bu kunning kechasi, ham ertasi bor,
Kelib ketdi kunlar.
Kelar, yana ketar bir zamon.
Umidlar, orzular
Bor edi kecha,
Bugun ham bor,
Ertaga ham bo'lur begumon.
Quyosh porlagandi kecha,
Bugun ham,
Ertaga ham bo'lur nurafshon.
Kechani umid-la yakunlab doim,
Ertani umid-la boshlaylik har on.

SADOQAT

Turnani otdilar
ayni sahar chog‘,
Olis ufqlarda
qosh qizarganda.
Lolalarning naqshi
ko‘l uzra — chiroq,
Soyasi adirlar,
qirda, o‘landa.

Turna yolg‘izmasdi,
juft edi turna,
Balki, muhabbatdan
suhbati bordi...
Nomard o‘qqa uchdi
bo‘lsa-da harna,
Lolalar titradi,
O‘tlar qizardi.

Kerdi qanotini
ikkinchi turna,
Yuksaldi ko‘klarga,
balki, qochdi u.
Balki, bu ma’nosiz,
zolim o‘limni
Ko‘rib telbalandi,
shundoq shoshdi u.

Turna uchdi, uchdi,
quyida qoldi,
Baland bulutlarning
ustki qatlari.
Ko‘kda bir ko‘rindi
qatra yosh kabi

Va birdan yig‘di-yu
u qanotlarin,
Yerga kelib tushdi
Og‘ir tosh kabi.

RANGLAR TURKUMIDAN

OQ RANG

Uyqudagi go‘dak tabassumi.
Umid.
Tamasiz bir yaxşhilik.
“Sizda saraton yo‘q”, —
so‘zlari aytilgan daqiqa.
Inson saodatiga sabab bo‘luvchi hamma narsa...
Hatto —
Tasalli uchun aytilgan yolg‘on.
Va yana insoniy bir do‘stlik.

OQ RANGNING SEVINCH TUSI

Buvining belbog‘i.
Vatan tuprog‘i.
Gul ochgan bahor butog‘i.
Kabutar qanotlari.
Shimol qori.
Go‘dakning sutga bulangan yuz-ko‘zi.
Sho‘rvaga yuzlamcha botirib chiqarilgan
Qoshiqdan olingan lazzat.
Shubhalar tarqab ketgan kun.
Do‘stning qo‘li.
Yechilgan tugun.
Inson nomiga loyiq
Ishlar, ishlar, ishlar.

BO‘ZRANG

Ko‘plarga qorishib yitganlar.
Har tuproqda bitganlar.
Jonsiz barmoqlar orasida
so‘ngan sigaretning uzun kuli.
So‘lg‘in gullar — yelim qog‘ozga o‘rog‘liq.
Bo‘sh kunlar,
bo‘sh yuraklar.
Ham undoq, ham bundoq odam.
Odatdagi ko‘ngilsiz kulgi.
Sovuq tanholikdan
sochlarga qo‘ngan kumush.
Yetim bir qizaloqning
uniqib ketgan etagi.
Vaqtning tussizligi.

MOVIY

Dolg‘asiz dengiz.
Iztirobsiz muhabbat.
Samoning teranligi.
Degoning “Raqqosalar”i,
Yosh bir rassom chizgan quyosh.
Ko‘zlar osoyishtaligi.
Insonning o‘ylari.
Muz orollar orasida
suv ko‘chalari.

QORA

Nomard dushman.
Shuurga yashiringan qo‘rquv.
Abadiy ayriliq azobi.

Yashash uchun suringanlar izdihomi.
(Xasta bo'lib suringanlar bundan xorij).
G'irt yolg'on.
Dudoqlarni kuydirgan oh.
Qatl kuniga ochilgan saboh.
Dog' tushgan so'zlar.
Ko'zlardagi uchqun.
Sochlar, qoshlar.
Qoranafas bo'lgan jayronning eti.
Va yana
ba'zi inson niyati.

CHINOR

Tun o'tar, yulduzlar oq, osmon qora!
Suyandim men bog'da keksa chinorga.
Bir yonimda umr kabi oqar suv,
Qochmish bugun tabiatning uyqusi.
Butoqlarda sarin yelning xush sasi,
Yaproqlarning hazin-hazin nag'masi.
Yuragim bir qanot qoqqan qush kabi,
Talpinmoqda, tasallisiz, asabiy,
Baland chinor shoxlarini taratgan,
Umriga ne-ne asrlar jo etgan.
Savlatida qorli tog'lar viqori,
Boshi barcha og'ochlardan yuqori.

To'fon turar, yomg'ir yog'ar, qor to'kar,
O't qamchili chaqmoqlar ko'kni so'kar.
Goh daryoda toshlar toshni quvalar,
Selda ketar ko'k chamanlar, uvalar.
Tik jarliklar yorar bag'rin tog'larning,
Suvlar o'yar metin qa'rin tog'larning.

Karvon tizar ko'kda qora bulutlar,
Bo'ron turar, ayoz kezar, yer muzlar.

Xon chinorim egmas mag‘rur boshini,
Hech kim bilmas keksa chinor yoshini.
Tun qop-qora, turib o‘yladim biroz,
Dedim, nechun ulug‘ chinor yiqilmas?
Birdan chinor tilga kirdi, dedi: Boq!
Bu tuproqda teran ildiz otaroq,
Har tomonga uzatdim shox-qo‘limni,
Bolalarim qurshadi o‘ng-so‘limni.
Men haqliman shunday mag‘rur turmoqqa,
Ildizim-la bog‘liqman bu tuproqqa.

YER

Yer bo‘z rangda,
go‘yoki yuzi
toshmalardan tirishgan.
Qaydadir yorilib chatnagan,
Qaydadir to‘qson yoshli chol yuzi kabi
burishgan.
Qaydadir ona diydoridan mas’ud go‘dakdek
xursand, chechak ochib yayragan,
qaydadir suvsiz, qaqragan.
Qaydadir suvdan bezor,
Qaydadir qumi qaynagan.
Qaydadir choyshabi qor.
Yer odamzodning noni
ham suvi.
Ham so‘nggi manzil-makoni,
Nasldan naslga yashar qalblarda
undan ayrilmoq qo‘rquvi.

MEN ZAMINMAN

Men zaminman, meni otash yondirmas,
qa’rimda ko‘mirim bor,
kulim bor.

Men bahorman chaman-chaman,
Chechagim bor, gulim bor.
Men shamolman, esmasam,
kim ham bilarki, borman.
Men bulutman, sahrolarni suvsiz ko'rib,
yig'larman.
Men yurakman, urib turmasam,
o'laman.
Men insonman,
zahmatkash qo'llar yaratgan
ne'matlar-la ko'krak kermasam,
o'laman.
Men yog'duman —.qorong'ulik g'animi.
Men insonman,
yuragimda saqlayman
butun olam sevinchi-yu g'amini.
Maroq to'la ko'zman men,
boqmasdan turolmayman.
Qorli tog'dan toshgan daryoman,
oqmasdan turolmayman.
Men insonman,
vatanim bor, elim bor.
Eng buyuk haqiqatni,
ozodlikni, muhabbatni, nafratni
so'ylamakka qodir bo'lgan
tilim bor.
Men bir marmar,
har parchamda
qattiqligim bilinar,
kurashda pishiqligim,
ulfatda yumshoqligim sezilar.
Men insonman, ulfatsiz
Hayot yo'q menga.
Muhabbatsiz, nafratsiz
Hayot yo'q menga.
Men buloqman,

buyruq ila oqmasman.
Men hayotman,
Doimo yo'llardaman,
Nafasda, orzudaman,
nigohda, qo'llardaman.
Men tuproqman, ne'matim, boyligimni,
mehnatsevar insonlar-la bo'laman.
Men yurakman, urib turmasam,
o'laman.

YODIMGA TUSHDI

O'g'lim Anarga

Dengizda to'lqinlar, tog'da bulut bor,
Kunda turna o'tar ko'kdan yuz qator.
Boqdim ufqlarga hazin oqshomlar,
Ul malul turmog'ing yodimga tushdi.

Boq, yashil Qrimning so'lar yaprog'i,
Go'yo tabiatning qolmadi holi.
Ma'yus-ma'yus to'lib ko'zlaring gohi,
Yuzingni burmog'ing yodimga tushdi.

Har kunim bir yildir sensiz, ey, bola,
Ko'rmayin, yo'liqma hech bir zavola,
Yumib ko'zlarimni, toldim xayola,
Ming o'yin qurmog'ing yodimga tushdi.

Tong chog'i ochilib ko'ylak yoqasi,
Terdan peshonangda inju donasi,
Uyg'onganda xuddi qirning lolasi
Ul lo'ppi yonog'ing yodimga tushdi.

Otamga, onamga sevimli avlod,
Onang alla aytsin, beshikda tinch yot!

G‘oz bolasi misol sen qoqib qanot,
Suvga talpinmog‘ing yodimga tushdi.

So‘rmang dardli qalbdan ahvolin hech ham,
Men seni ko‘rgandim uyqumda kecha.
Qayrilib qolguvchi o‘sganda picha,
Zig‘irdak tirnog‘ing yodimga tushdi.

Ko‘nglim sensiz yig‘lar, sening-la kular,
Ota bo‘lmaganlar qaydan ham bilar.
Tutib chorpoyaning yonidan sahar,
Oyoqqa turmog‘ing yodimga tushdi.

Ko‘pdan beri sendan kelmaydi so‘roq,
Ul zolim onangning insofiga boq!..
Bir go‘dak qo‘lini boya ko‘rgan choq,
Jimjiloq barmog‘ing yodimga tushdi.

Qrim-Yalta, 1938

SHE’R TILI

Har kim ne desa, desin!
She’r tili oydindir.
Istasang yoz sevinchdan,
Gar istasang g‘amdan yoz.
Shunchalar oydin bu til
Nodon yuz bor o‘qisin —
Yana hech ne anglamas.

VATANDAN UZOQDA

Deydilar,
Oqshom kadar keltirar.
Deydilar,
Jon yonar qorong‘u tunda.
Deydilar...

Deydilar...
Ne yorug‘ kunda?
Kunduzlar
kutamiz sabrsizlik-la,
bir oqshom bo‘lsin,
bir kelsin tun-da!...

Qohira, 1959

SO‘RA

O‘t ne ko‘rdi,
kuldan so‘ra!
Bosh ne ko‘rdi,
tildan so‘ra!
Ishga chanqoq barmoqlarning
kadarini inson bilar.
Nag‘malarning hasratini
bir uzilgan simdan so‘ra!
Umrning mushkul yo‘lida
toshlarga iz solsa oyoq,
kun ne ko‘rdi,
yildan so‘ra!
Qorong‘ulik azobini
ko‘r so‘ylasin!
Past pardalar faryodini
avjdan so‘ra!

Men ko‘lkasiz bog‘ ko‘rmadim,
Et dardidek tog‘ ko‘rmadim.
Ko‘zlarimni yumib ochdim,
Necha do‘stni sog‘ ko‘rmadim.

Ne chekdi qaqroq soy toshi,
seldan so‘ra!
Yo‘llar uzun, manzil uzoq,
Toshloqlardan dod der oyoq.

Chidam darkor!
Sabot darkor!

Kim cho‘qqiga chiqar, ayting,
yo‘llar bo‘yi har pallani,
bir kunlarni, yuz yillarni
qalbimiz-la,
ongimiz-la,
umrimiz-la
to‘ldirmasak?

Men yo‘lchiman,
Men yo‘ldaman.
O‘t ne ko‘rdi,
kuldan so‘ra!
Qay bir she’rim,
qay bir so‘zim
yashar ekan mendan so‘ngra?
Men bilmayman,
eldan so‘ra!

BIRINCHI APRELDAN KEYIN

Kecha birinchi aprel,
Man emasdi yolg‘onlar.
Bunchalar og‘ir darddir,
Olamda yillar bo‘yi,
Tugamagan, bitmagan,
Qip-qizil, oq yo qora,
Necha rangli yolg‘on bor.

KURA — ARAZ

Kura suvi xira, sutdek,
Araz suvi qizg‘ish-sariq.
Oqa-oqa

bunda qovushar
qadrdon, qadim yurtning ayro tushgan bolalari.

Avvaliga
uzoq yillar sog'ingandek
bir-biriga boqarlar,
Bir o'zanga kirsalar-da,
Ayri-ayri oqarlar.

Keyin intizor qo'llar
bir-biriga chirmashar,
Qardoshlar quchoqlashar.

Endi ayirolmas ularni hech kim!
Ikki kuch birlashib qudrat bo'ldi,
oqim bo'ldi.
Uzoqlar yaqin bo'ldi,
Ayriliq vahdat bo'ldi.

Birlashib viqor-la oqar ikkovlon,
Intilar moviy ko'z Xazarga tomon.
Ayira olmoq-chun bormikan imkon?!

QATRA

Tabrizning yo'llari o'ydim-chuqurdir,
Yoniq tog'dan qalqqan tuman bo'lsaydim!
Sog'ingan dillarda umid bo'lmasam,
Loaqal bir zaif gumon bo'lsaydim.

TABRIZIM MENING

Bolosh Ozaro'g'liga

Allasi mahzun,
Nag'masi mahzun,
Hasrati umridan uzun.

Karvondan uzilgan oq tuyasi,
Ko‘zlarida ulug‘ umidning uzoq shu’lasi.
Necha uyning ko‘cha devori, ko‘r,
Quruqshar dudoqlari,
Sharqirar buloqlari.

Orzularida ko‘kariq, qamchi.
Kadari oqar lim-lim,
Sevinchi tomchi-tomchi.

Ba’zan kunlari qonli tush kabi,
Ba’zan diydorli tushlari o‘ng kelibmish.
Bir necha bor mamnun bo‘libmish.

Bolalari sarg‘ardon,
Kelinlari nigoron.
Qutulmoq yo‘li esa:
Qamoq, dor, o‘q, toshbo‘ron.

Shafag‘i qon rangida,
Orzu-umididan voz kechmagan,
O‘chog‘ida — yuragida o‘ti o‘chmagan.
Sahari uzoq asrlar yo‘lida hayallagan,
Aka ukaga, opa singilga intizor.
Tuyuqlari — azaliy ishqiy ash’or.

Bag‘ri goh ochiq havoli,
Gohi chang, gohi tumanli,
Qalbi gumonli,
Toleyi bo‘hronli.
Ota-bobo, momosi bir,
Odat-an’anasi bir —
Tug‘ishgan akam, ukam,
Pasportda u tomonli.

Istaganda qo‘lim yetmagan.
Dard-u alami qalbimda
Kecha-kunduz tinchlik bermagan.

Tog‘lari tog‘larimga o‘xshash,
Bog‘lari bog‘larimga.

Ona so‘zi kabi
aziz nomi — lablarimda.
Ko‘hnam, yangim, olisim, yaqinim.
Eng go‘zal she’rim,
Hazin qo‘shig‘im,
Mensizim!

XAVOTIRLI SAVOLLAR

So‘nggi vaqtlar
seni tez-tez
tushimda ko‘raman, Tabrizim!
G‘amli ko‘rinasan uyqumda
har tun.

Suving, non-nasibang bormi?
Nag‘mang nechuk?

Yana “Qoragila”mi,
Yo undan-da g‘amlimi?
Ko‘k masjid holi nechuk?
Erk qal’asi nechukdir?

Yoniq tog‘ qoq-quruqmi,
Yoki biroz nam tushdimi?

Tez-tez tushimga kirasan,
Tabrizim!
Yoki xafa bo‘ldingmi,
Uzoq sog‘inch horitdimi?
Yo chiday-chiday endi
G‘ariblik jondan o‘tdimi?

Ishonmayman,
Hali chechak ochar umidlaring bor,
Ko'klarga intilgan orzular bisyor.
Gohida tushar yodimga
Onamning huznli she'rlari:
"Men butun uya edim,
Shamollar parchaladi.
Men sendan ayrilmasdim,
Zulm judo ayladi".

ONAMNING KITOBI

Uyimizda eskirgan
ko'hna kitob bo'lardi,
varaqlari sap-sariq.
Tog' so'qmog'idek edi,
Jimjima yozuvlari.

Onam o'sha kitobni
Ochardi kadarlansa.
Onam yopardi uni
Yuragi g'uborlansa.

Bir kun savolga tutdim:
— Bu ne kitobdir, ona?
Har kuni bir ochasan,
Har kun unga boqasan,
Sen nechun yona-yona?

Onam bir so'z aytmadi,
Ko'zini yo'lga tikdi.
Mushtipar onajonim
Hamma onadan go'zal,
Yagonadek tuyuldi.
Yuzimga boqdi —

Sinchkov, sinovchan, diqqat-la
qarab dedi:
— Menga yodgor bu kitob,
Onamdan qolgan, bilsang.
Unga ham onasidan qolgan bo‘lib yodnoma.
Bir kun abad ayrilsak,
Esingda tut, yig‘lama!

Menga aza ham tutma!
Ammo kun kelib agar
Uni mensimay qolsang,
O‘sha kundan yozaver
mening o‘lim kunimni.
O‘sha kuni aza och!
Va unut.
Yasha, tilingda,
Quloqlaringda sukut...

QADIMIY QO‘LYOZMA

Varaqlar xira, sariq,
Satrlardan anchasi qirilgan,
necha-necha varaqning cheti
yillar zalvariga dosh berolmay
titilib, to‘kilgan.

Lekin, asrlar oshib kelgan
xafif bir tabassum,
bir tomchi ko‘z yoshi,
orzular, umidlar qolgan.
Inson qalbi harorati,
inson tafakkuri qudrati,
inson atriga to‘la
sevinch qolgan,
kadar qolgan.

YOMG‘IR

Necha kunki yomg‘ir yog‘ar,
Buncha yog‘ar, buncha yog‘ar.
Sahar yog‘ar.
Oqshom yog‘ar.
Kunduz yog‘ar.
Kecha yog‘ar.
Qaydadir sahrolar yonar,
Bunda yomg‘ir hechga yog‘ar.

QO‘ZI

Bo‘ri olib qochdi qo‘zini,
Sho‘rlik qo‘zi, sho‘rlik qo‘zi!
Bilaman, xo‘p og‘ridi joning
bo‘ri tishlarin
senga sanchganda.
Ammo, yaxshiki, bilmading
bu yo‘qotishdan
ne kunlar ko‘rdi cho‘pon,
tushib sening azobingga.
Bilsayding,
og‘rig‘ing og‘riq demasding.
Bilsaydi, balki, bo‘ri ham
hech seni yemasdi.

ONA

Ming-ming onalar aro
onamni tanib olaman;
ko‘zlarimni bog‘lasalar ham.
Taniyman
oyog‘i bosilgan tuproq isidan,

Qalbimga g‘ulg‘ula solgan
judolik vahimasidan.
Ona suti pokiza.
Ona zoti eng aziz.
Bu olamda
hammadan
onamga mehrim tengsiz.
Bejiz vatanni ona demaslar,
Vatan ham azizdir
onalar qadar.

XOTIRA

Bir kun,
bir soat,
bir on
xotiramdan ayrila olsaydim
tin olardim;
xotiramni yo‘qotganim bayram qilardim.
Qayga borsam,
qayda bo‘lsam
xotiram hamisha men bilan.
Bilolmam hech
xotiramning bu yopishqoq sadoqatidan
qanday xalos bo‘lay,
qaylarga qochay.

UMR YO‘LI

Na ko‘chalar, na yaproqlarida
yomg‘ir tomchilari munchoq-munchoq
tizilgan daraxtlar.
Mayin kechalar, yoyilgan sochlar
ortda qoldi.

Uyquli shahlo ko‘zlar,
hazin yoqimli so‘zlar,
mehribon yuzlar
ortda qoldi.

Qafasda sa’vaning
faryodi,
ilk uchrashuv,
g‘o‘r umid toti,
oq kabutarlarning
titroq qanoti,
ortda qoldi.

Yomg‘ir men-la ketmoqda,
yumaloq, uzunchoq tomchilar-la
qo‘nganicha poyezd derazasiga.
Quloq tutaman poyezd g‘ildiraklarining
bir maromdagi sasiga.

Taqa-tuqlar ortda qolur,
Go‘yo umr
Qaytmaslikka
tomchi-tomchi tomib borur.
Kunlar ko‘plikdan ozlikka
ketib borur.
Qanday yaxshiki,
xotirlashga arzigulik
kunlar, soatlar bor.
Qanday yaxshiki, nigohim yashirmoqqa
hech bir sabab yo‘q.
Yo‘l bosaman bugundan erta tomon.
Ortimda qolganlarim ham bor,
kelajakka qolganlarim ham.
Yashayapman, axir!
Va ne g‘am!

MAROQ

Qiziq, shabbodalar qayda uxlarkin?
Havo ayozli bo‘lganda bulutlar
ko‘z yoshin qaydan yig‘arkin?
Qiziq, daryo-soylar qayda tin olar?!
Chaqmoq nechun buncha tez so‘nib qolar?
Eng olis yulduzlar ortida
bormi tirik jon?
Qiziq, o‘lim qayni etibdir makon?
Axtarib topib uni,
yoshligim qaytarayin.
O‘zini o‘ldirayin.

YO‘QLIK-LA TANISHLIGIM

Ikki bor o‘ngga,
bir bora chapga burilib bordim.
Yo‘l tanish.
Muyulishlar tanish,
Tanish ikki tabaqali eshikning
qiyshiq yog‘ochlari ham tanish.
Tom ustida
temir xo‘roz ham tanish.
Tanish g‘uj o‘sgan anor,
Novdalaridan anchasi qurib qolgan.
Ovoz berdim bir og‘iz.
Chaqirdim ikki og‘iz.
Avval sekin chaqirdim,
So‘ng balandroq baqirdim:
— Hoy, uyda kim bor?!
Uy churq etmadi.
Eshiklar tiq etmadi.
Necha joyidan nuragan
loy devor ham miq etmadi.
O‘girilib yana nazar tashladim.

Bari tanish edi.
Hovliga boshlagan,
ustini o‘t qoplagan
yolg‘izoyoq yo‘ldan boshqa...

QALAM

Gerdayib turib oldi,
boshin tik tutib qalam.
Qog‘ozga na bir so‘z yozildi,
na bir jumla yaraldi,
na bir fikr tug‘ildi.
Birdan har ne o‘zgardi.
Oq qog‘ozga tizildi kalimalar.
Nelar yaraldi, nelar...
Ha, qo‘qqisdan o‘zgardi ahvol.
Ko‘rdim:
qalam boshin egmishdi alhol.

BIR LAHZALIK SAODAT

Qor yog‘ar pag‘a-pag‘a.
Derazadan qarayman.
U talpinadi.
Issiq bag‘rimdan olib,
bir qush kabi
derazadan qo‘yib yuboraman.
Qorbo‘ron o‘ynagani otiladi.
U mening bolaligim.
Na yuzida ajin bor,
na ko‘zida horg‘inlik, kadar.
Qor yog‘moqda,
chechakdek to‘kilmoqda,
U o‘ynar, qo‘lda qo‘lqop,
Chopar, sakrar, kular.

Qor yog‘moqda,
chechakdek to‘kilmoqda.
Chaqiraman: Hoy! Kel! Kel!
Ochiq turar deraza.
Bir qor qo‘ndi kaftimga.
Nafis naqshlari bor,
kumush yulduz misoli.
Tushdi, shu dam eridi.
Qorbo‘ron o‘ynayotgan bolakay ham eridi.
Endi tanho o‘zim
hamda ellik sakkiz deya yozilgan taqvim,
derazasi ochiq xonada.

YOLG‘ON

Yolg‘on so‘zlaganman umrimda,
ozmi, ko‘pmi, yarimmi,
bilmam.
Bolaligimda yolg‘on aytganman
so‘zlarim rostligiga o‘zim ishona-ishona.
Ba’zan chin so‘zning achchiqligidan,
vahimasidan qo‘rqib
yolg‘on qo‘shganman tona-tona.
Ba’zan yolg‘on deganman
vujudim yona-yona.

Ba’zida yolg‘on bo‘lmishdi
istaklarimga ishontirmoq-chun
yolg‘iz bahona.

Yolg‘on so‘zlaganman:
Oq, qora, qirmizi.
Bir gal hammadan go‘zalsan deya,
ovutib bir nogiron qizni,
quritganman ko‘z yoshlarini.

Ishonarli yolg‘on bor,
mavridli, qisqa.
Olam g‘amga botmasmi
rostning egiz qardoshi
beg‘araz yolg‘on bo‘lmasa?!

TANHOLIK

Tanholik hech yoqmaydi.
Yolg‘izlikda ezilib,
adoyi tamom bo‘laman.
Ongim, qalbim siqilar.
Xayolimdan charx urar
bo‘lganlar, bo‘lajaklar,
o‘tgan, o‘tmagan chog‘lar.

Voqealar bo‘linar
parcha-parcha ham tarqoq,
bir-biriga bog‘lanar
yo tik, to‘g‘ri, yo qo‘shoq.

Biriga achinaman,
Birini tushunaman.
So‘ragan savolimga
o‘zim javob beraman.

Quruq butoq-la birga
tebrangan yaproq misol
umidim ham tebranar.
Bir ozod mahbus kabi
qolgum chulg‘ab xayollar.

Shukrki, yolg‘izmasman.
Tanholikni to‘zg‘itib
quvadi do‘st ovozi.

O‘rab turar atrofim —
xotira, umid, bilim.
Eshitaman do‘st sasni.
Notanish bo‘lsa hamki,
tinglayman fikrim ila,
xotiram, qalbim ila.

Yashamoqning dushmani
yolg‘izlik, tanholikdur.
Buni toqlikka tan berib,
bo‘yin egganlar bilur.

SO‘ROQ

Qarshimda o‘zingmi
yo xayolingmi?
Ishq to‘la ko‘nglimning sultoni yorim?!
Ko‘rganim tushmidi
yo visolingmi,
beorom qalbimning jononi yorim?
Senmisan boshimni silagan asta?
Sochlarimda kezgan
qo‘llaringmidi?
Mayin nafasdayin,
tegib yuzimga,
siypalagan to‘zg‘in sochlaringmidi?
So‘ylagil, men ko‘rgan
bu hazin zulmat tunmi
yo tim qora ko‘zlaringmidi?
Xayolmi erkalab meni
bir lahza
yoki umid to‘la so‘zlaringmidi?
Kim ham his etardi
dengizning sokin
ko‘rkini,

po‘rtana, to‘fon bo‘lmasa?
Visolning lazzati tuyularmidi
ayriliq bo‘lmasa,
hijron bo‘lmasa?!

IZHOR

Nigorga

Men boyqush bo‘lib
sevmadim seni faryod kabi,
Seni sevdim hayotni sevgan kabi,
Sevdim hayot kabi...
Sevdim seni:
dalada g‘uj sunbuldek,
dushman nayzalarini pisand qilmay,
qonli jabhalardan yarador do‘stini olib chiqqan
vafodor otni sevgandek.
Seni sevdim hayotni sevgan kabi.
Sevdim seni:
ishqning o‘tli hovurlari-la
ko‘zlaringni chaqnatgan,
oydin tunlarda
seni uyqudan uyg‘otgan,
tilingga shirin tuyulgan,
ko‘lkasida ruhing orom olgan
bir aziz ismni sevgandek.
Seni sevdim hayot kabi.
Sevdim seni:
odamzodning
o‘ylarida yashagan,
asrlar bo‘yi fikrini band etgan,
uchmoq orzusi — qanot kabi.
Seni sevdim hayot kabi.
Sen ham shirin bo‘lding menga,
umrimdan-da shirin.

Ruhimda mayoq yoqdi
qo'ng'ir ko'zlaring.
Men seni sevdim:
bir zarb bilan
tog'larni tolqon qilgan,
metin qoyalarni yakson qilgan
Farhod kabi.
Seni sevdim hayot kabi.
Turib yo'llar ayrilishida,
hasratingda oh urdim,
qaqragan sahro misol
axtardim seni obihayot kabi.
Jonlanding umrim nag'masida
naqorat kabi,
Sevdim, sevaman,
sevgum seni hayot kabi!

BIR OQSHOM

Dengizning firuza ko'zida,
ko'lkalar titrashib, g'uj bo'lur.
Baxtiyor boshimiz uzra,
Qanotli bastakor charx urur.

Kumush oy ko'zlaring qa'rida,
O'ziga orolar berardi.
Shaydoyi bulbul chah-chahida,
Sevgilim, ishqimiz kuylardi.

YOQANGDA BIR BINAFSHA

Yarim tunda sof samoga boqqanda,
Inju kabi oq yulduzlar oqqanda,
Bo'yni egik bir binfasha yoqangda
Sen kelursan xayolimga, sevgilim!

QORAKO‘ZIM

Qorako‘zim, yopmagil derazangni!
Gul yuzingga ko‘lka tushar, oy ranjir...
Oyna bilmay dod solgaydir, rahm ayla,
Men titrasam, yaproq jimar, soy ranjir.

G‘AZAL

Ko‘zing qurboniman, soqiy, xabar tut bir malolimdan,
Kunlar o‘tar, oylar o‘tar, nechun chiqmas xayolimdan?

Uning hijroni ko‘nglimda ketgan kundan omonatdir,
Ko‘rinmas ul bevafo yo voż kechdimi visolimdan?

Bu nolam, ko‘z yoshim, ohim, fig‘onim qo‘y, xabar bersin,
Xabar bersin ne qolibdir buyuk ishqning jalolidan.

U TUN

Tun chog‘i.
Kimsa yo‘q.
Bir sen va bir men.
Zulmat parda osmish derazalardan.
Xonamizda sukut,
ko‘kdan-da teran.
Bir men, bir sukut
hamda ko‘zlaring.

DEYDILAR

Muhabbat shunday bir qismat uyiki,
eshiklari qulfli bo‘lmog‘i kerak.
Uning panoh topgan ishonchli yeri
inson ko‘ksidagi
mushtdek bir yurak.

Yurak dasturxonmas
o‘tgan-ketganga
ochasan,
bor-yo‘g‘im mana shu, deya.
Muhabbat chashmasi yaralmas qordan,
sepib yubormaysan,
bu bir suv, deya.
Do‘stga yuz so‘z aytib,
yuz sir ochsang-da,
muhabbat siringni o‘zingda saqla!
U faqat sendanmas,
seniki emas,
ochasan, sochasan, so‘yla,
ne haq-la?!

DEYMAN

Balki, bu e’tirof o‘zi ko‘hnadir.
Yo‘qsa bu eskigan
nimdosh tashbehlar
qaydandir, nedir?!
Keksalik na yoshda,
na-da yildadir.
Yosh keksalar ham bor,
keksaygan yosh ham.
Havas,
orzu,
bari sir
qalbda, dildadir.
Keksayar
hayotda
nokerak odam.

TALAB

Nuqul so‘z ochishim talab qilasan,
sevmaganlarimdan,
sevganlarimdan.
Kim meni aldadi,
kimni tashladim,
kimlar qon yig‘latdi,
kimni yig‘latdim.
Kimning hasratida qoldim uyqusiz.
Kuydirdi qalbimni
qaysi behayo,
qay bir tuyuqsiz?!
Kimlarga yolvordim,
kimlardan qochdim?!
Kimga hadiksirab ko‘nglimni ochdim?!
Qaysi dilbar bo‘ldi qurbonim mening?!
Qayda boshlanmishdi
xavotirlarim,
qayda tugab bitdi
mehribonligim!
Uzoq qiynadimi
hijronim mening?!
Ko‘p yig‘laganmanmi,
ko‘p kulganmanmi?
Kimdan nari bo‘ldim,
kimga chap berdim,
birov-la dardimni
teng bo‘lganmanmi?!
Ilk yoshlik chog‘imdan
bu kunga qadar,
ne sarguzasht bo‘lsa,
ne mojarolar,
qani boshla, bir-bir
menga ayt, dersan.
Ey, yoshlik havasi,
yeldek esasan!

TINGLA

Kel, o‘tir!
Ana shunday!
Yaqin o‘tir, kel!
Balki, ajal bermas hech qanday muhlat.
Eski ko‘rinsa-da bu so‘z naqadar,
inson yuragidan chiqmas shubhalar.
Ajal — quruq so‘zdir,
o‘lim — haqiqat.
O‘limdan boshlanur yo‘limiz,
faqat,
o‘limdan o‘limga yo‘ldir umrimiz;
gohida achchiqdir, gohida shirin,
goh egri, goh chalkash, gohida tekis,
gohi shafqat to‘la, gohi to‘la kin.
Quloq sol!
Tek o‘tir!
Diqqat-la tingla!
Qalbim so‘zlamoqda endi sening-la.
Hayotimda shamol bo‘lmadim,
aslo!
To‘g‘ri,
boshdan o‘tdi ne-ne mojaro,
xo‘p chigal-chalkashdir
umrim dostoni.
Ammo ko‘z oldingda
ravshan
har oni.
Joning halak etmasin gumon!
Muhabbat, sadoqat ko‘tarmas dog‘ni.
Inson shubhalar-la yaralmish egiz,
bu to‘g‘ri,
ammo shubhalar ham bo‘lmasin-da bejiz.
Balki, sevgi o‘zi bir imtihondir.
Noo‘rin qizg‘anish
g‘amdir, hijrondir.

ISHON

Butun ehtiroslar yelvizak kabi,
qanotlari zarrin kapalak kabi,
ko‘nglimga, qalbimga
uchgancha keldi,
behuda havas-la, o‘tkinchi keldi.
Tez tarqadi
bahor tumani kabi,
umidsiz bir qalbning gumoni kabi.

O‘XSHASHLIK

Yotlar suhbatidan siqildi qalbim,
shirin zabonlarni
qo‘msaydi dilim.
Osmon tiniqlashar to‘fon tinganda;
yurak ham,
ko‘ngil ham,
ishongil, shunday.
Bog‘da yuz gul ochilsin, yuz nodir chechak,
bulbul atirgulning
intizoridir.
Yoqimli har so‘zing,
har suhbating menga.
Ko‘zimda tomchilar sevinch izhoridir.

ISHONCH

Javobsiz qolgan qay savoling bor?
Istiqbolga boq havas-la, umidvor!
Xatolar qilsak ham umr yo‘lida,
o‘ydim-chuqurligi bisyor yo‘lning-da.
Bu yo‘lda taqiq emas qoqilmoq,

yo‘lchisi aslida bo‘lmasa qo‘rqoq.
Sabotin mushkullik sindirmasa gar,
man etilmas,
goh yugurgan yiqilar.
O‘nqir-cho‘nqirlardan cho‘qqiga yetsang,
dema, yagonasan,
demaki, mardsan.
Orqa-o‘ngingga sen nazar sol bir on,
ko‘rarsan na ilksan,
na oxirgisan.
Goh cho‘kkudek bo‘lsa ko‘zingga kadar,
u ham o‘tkinchidir,
bil, asta ketar.
Ishonch-la yashaydi olamda inson,
Insonga,
Insonga,
Insonga
Ishon!

BEKORGA

Birdan tinib qoldi
erka so‘zlari-yu erka ovozi.
Telefon dastagin qo‘ydi nogahon.
Na xayr dedi, na ko‘rishguncha.
So‘ng qo‘ng‘iroq kutdi,
vujudi quloq.
Kutdi, jiringlar deya
qo‘ng‘iroq shu on.
Bekorga!
Bilmadi, do‘stlikda
yalinchoqlik
bo‘lmas hech qachon!

AYRILMAYLIK

Xayoling men bilan, sen uzoqdasan,
Hijronning yo'llari umr qadardir.
Bu g'arib oqshomda kulbamga boqsang,
Bunda men, xayoling hamda kadardir.
Kel, yop derazani, qolaylik yolg'iz,
Sen bo'l, men bo'layin, bo'lsin ko'zlaring.
Visolni yutarkan bu hijron — dengiz,
Oq bir yelkan bo'lsin so'nggi so'zlaring.
Sen bo'l, men bo'layin, bo'lsin dardimiz.
Yig'laylik to'yguncha, kulaylik to'yib.
Yuzma-yuz qolganda bu azob-la biz,
Tuysin eshiklarni yel to'yib-to'yib.
Tuysin, kel, ochmaymiz. Shamollar horsin.
Ostonada qolsin hijron, qo'ymaylik!
Bir on visoling-la yuragim ursin,
So'ng... so'ng yana biz ayrilmaylik!

KO'RMADIM

Ko'p ko'zlarni ko'rdim,
moviy, tim qora.
Qo'ng'ir ko'zlaringga
o'rnak ko'rmadim.
Bog'larda alvon gul,
tog'larda lola,
dudoqlaring kabi
chechak ko'rmadim.
Betayin odamlar va'dalar berdi,
ularda sof yurak,
tilak ko'rmadim.
Shoyilarga boqdim,
atlasga boqdim,
mayin sochlaringdek

ipak ko'rmadim.
Yuraklarni ko'rdim,
bir sarrof bo'ldim,
yuragingdan ulug'
yurak ko'rmadim.
Muhrlab ko'nglimda o'chmas bir izni,
qay kuch endi ayirar bizni?

TABASSUM

Kecha tunda
ko'ksimda og'riqdan uyg'ondim.
Yuragim og'rirdi.
Derazamda tunning
zulmat pardasi osilmishdi.
Na shitirlash,
na tirik jon ovozi.
Chiroqni yoqdim,
Devordan menga boqib turgan kim,
dudoqlarida tabassum?
Yuragim og'riyapti, axir,
o'ylasang-chi,
degim keldi.
Jilmayishing bunchalar go'zal,
bunchalar shirin...
Ko'ksim yengil tortdi.
Necha kunki, yurak og'rig'im
tutmay qo'ydi.

YURAGINGNI ASRA

Telefonda deding bu sahar:
Boku juda issiq,
jaziramada yonmoqda shahar.
Osdim dastakni.

Bunda kechagina yog‘gandi yomg‘ir,
Havoning avzoyi xabar berardi:
Bugun ham yog‘adi, bo‘lingiz hazir.
Bu sarinlik menga
misli jahannam.
Yuraging yaxshimi, aytgil azizam?
Shahar yonar dersan,
yoz o‘rtar, kuz kelar,
tushar salqin ham,
Yuraging yaxshimi, aytgil azizam?
Yuraging!
Unga ozor bermagil aslo!
Na otam bor, na onam,
rahm etgil men yetimga.
Unga ozor bermagil aslo!
Shahar yonmoqda dersan,
Shaharni qo‘y,
Uylar toshdan,
Ko‘chalarga tosh yotqizilgan.
Shahar yonida bir dengiz suv bor.
Og‘ochlar ildizi yer ostida —
salqinda.
Yuragimizni asra.
Og‘riq soya solmasin ko‘zlaringga,
Quyoshda ko‘p turma, azizam;
Xatarlidir uning suyishi.
Ammo
rasmimiz oldida ko‘p turma,
azizam,
undan-da battardir xotiralar kuydirishi.

SENSIZ

Kunlar o‘tar, asta o‘tib borar
sendan ayro.

Yo‘llarimga kecha-kunduz
eza-eza kadar yog‘ar
sendan ayro.
Qulog‘imda kulishlaring shalolasi
sendan ayro.
Xayolimda titroq, nozik dudoqlaring
gul-lolasi sendan ayro.
Dengiz kelar dolg‘a-dolg‘a,
jilvalanib
ketar nari
sensiz ko‘rib sohillarni.
Shamollar ham siypalamas
chechaklarni sendan ayri.
Nag‘malarning ohangi yo‘q
sendan ayri.
Qo‘shiqlarning tus-rangi yo‘q
sendan ayri.
Bulutlar ham tebranadi
hazin-hazin.
Hasratingdan yetti qati
dalli bo‘lmish ko‘k dengizning.
Qushlar jim, hech kuylamas
sensizlikda.
Shafaqlar ham rangin emas
sensizlikda.
Aytgil endi, men na qilay sensizlikda?!

BALKI

Ko‘zlaringga ayt,
kirmasinlar tushimga;
na kadarli,
na sevinchli,
na shirin va’dalar-la.
Dudoqlaringga ayt,

nari bo‘lsinlar xayolimdan;
pichirlab,
o‘pkalab,
do‘q-po‘pisalar-la!
Umr yillari
kiftimga
ortilgan ustma-ust.
Ne g‘am!
Kel, bir abadiy lahza
qo‘l-qo‘lda,
so‘z-so‘zda,
fikr-fikrda
qolaylik sen-la!
Balki, o‘tgan kunlarning bari
eng go‘zal kunning muqaddimasidir?!
Balki, bu xavotirlik,
bu ranjishlar
muhabbat sinovi,
sadoqat, vafoning sasidir?!

BAXTIYORLIK

Ikki kaft ko‘zlarim berkitdi.
Chirog‘i o‘chdi olamning.
Bu ufqsiz,
sohilsiz,
tubsiz zulmatda
seni ko‘rdim.
Qo‘llaring menga so‘yladi:
ko‘zlaring kulishini,
dudoqlaring, qalbing
kulishini.
Qo‘llaring shunday mayin,
shunday iliqki,
o‘z-o‘zimga dedim:

gul sovqotmas, hoynahoy.
Bir umr qolsam edi
qo'llaringning bu nurli qorong'uligida;
kaftlaringda shu'la sochardi menga to'lin oy.
Saslardan uzoq.
Ranglardan uzoq.
Qo'llarim navozishidan boshqa bari istaklardan uzoq.
Mumkinlardan, keraklardan uzoq.
Dunyodan uzoq.

SENING TUG'ILGAN KUNING

Anarning 4 yoshiga, frontdan

Uy... dasturxon boshida qondosh, tanish o'tirar;
Barcha deydi: Hoy bola, sevin, o'yna, kul, yayra!
Sening ko'zing eshikda, fikri-zikring sasdadir.
Qalbing qushdek talpinar, go'yoki qafasdadir.
Ana, keldi do'stlaring, qo'llarida hadiya.
Sen kimni kutmoqdasan, hozir kepqolar deya?
Nedir ko'zlaringdagi u hasrat, u ilhaqlik?
Nechun dildan kulmaysan, bu kun bunday nohaqlik?!
Devordagi nima u, qaraysan ko'zing olmay?
Kel, ey, qalbim parchasi, seni bag'rimga olay!
Sen meni axtarursan, uzoq ketmadim, qo'zim,
Ha, to'g'ri, bu kuningda uyga yetmadim, qo'zim.
Ammo qara, har yerni, she'rimni, maktubimni,
Ko'r, sendan ayro kechgan bir daqiqa bo'ldimi?!
Ko'zingni ol eshikdan, sevin, kul iymanmasdan!
Go'dak qalbing tuyg'usi dunyoda aldanmasdan.
Hozir meni kutmay tur, ko'zing horitma, yetar,
Qaytishim yaqin emas, balki, ancha vaqt o'tar...
Sen unda hasrat chekib, meni kutgan chog'ingda,
Qo'riqlayman hayoting men bu yerda yog'iydan.

O‘G‘IL

Men seni
atak-chechak qilgan,
endi tiling chiqqan,
koptokdek yumalanib
qochgan chog‘ingda ko‘rganman.
Ilk bor ota deganingda
dudoqlaringdan o‘pganman.
Chizgan g‘alati, tushunarsiz rasmlaringni
hozirgacha asrayman.
Ilk bor maktabdan qaytganingda
bag‘rimga bosganman seni,
to‘yib quchganman.
Yillar quvib bir-birin o‘taverdi,
Sen ulg‘ayding, o‘g‘lim, kundan kun.
Hayot pillapoyalaridan ko‘tarilding,
vaqt taqvimi varaqlari yulinaverdi.
Endi katta yigit bo‘lding, behisob shukur!
Kunda soqol olasan.
Endi ayollar senga
Hasad-la, mehr-la boqarlar.
Bolalardan seni tog‘a deydiganlar ham bor.
Ammo sen,
mening nazarimda, hali ham
atak-chechak qilayotgan,
tili endi chiqayotgan,
koptokdek dumalab qochayotgan
go‘daksan.

NABI XAZRIY



QO‘SHALOQ QANOT...

Orzu-la yuksalgan
Bir xayol bo‘lsam,
Umrim va hayotim —
She’rim,
Sevgimdir.
Cho‘qqilar egasi yo qartol bo‘lsam,
Qo‘shaloq qanotim —
She’rim, Sevgimdir.
Gar ilhom yo‘llari tumanli bo‘lsa,
Ey, sevgim,
Ey, she’rim,
Qo‘shoq o‘ting siz!
Agar qanotimning biri qayrilsa,
Cho‘qqi mensiz qolar,
Men ham cho‘qqisiz!

MOVIY...

Bugun o‘zim hayron:
Nechun va nedan
Samo ham moviydir,
Tuproq ham moviy,
Dunyoni boshqacha rangda ko‘ryapman,
Daraxt ham moviydir,
Yaproq ham moviy.

Esmoqda qaydandir sarin kulaklar,
Tog‘dan moviy-moviy
Tuman surinur.

Moviy kapalaklar,
Moviy chechaklar
Moviy chamanlarda so'lim ko'rinur.

Suvlarga yel tegar,
Suvlarda titroq,
Yerda ham men kabi sir va tugunlar.
Kuylaydi afsona, aytadi jumboq
Moviy sohillarda
Moviy to'lqinlar.

Rangi tamom boshqa
Cho'l va tuzning-da —
Moviy shafaqlardir yastangan yerga.
Uchur ko'k yuzida
Bu moviy kunda
Moviy tayyoralar moviyliklarga.

Balki, men bilarman
Nechun va nedan
Dunyoning kunduzi moviylashibdir?
Balki, bu sen moviy kiyinganingdan
Yer yuzi,
Ko'k yuzi
Moviylashibdir.

Bilgin, xuddi sendek yasanmish olam,
Samo ham, tuproq ham
Jamuljam moviy,
Balki, baxtlilardan baxtliroq men ham,
Balki, saodatning rangi ham moviy?

SOKIT SATRLAR

Insonlar sevilar,
Sevar dunyoda;

Umidlar umr uchun mag‘rur qanotdir.
Sevgi mushtdakkina
Qalbga sig‘sa-da,
Lekin o‘zi so‘ngsiz bir koinotdir.

Uning ufqlari
Shunchalar ham keng,
Uning orzulari ko‘ngil zaridir.
Balki, u shafaqli, nurli ko‘zlaring
O‘sha koinotning yulduzlaridir.

Yurak-la bog‘langan so‘qmoqda, izda
Ohangini topar umr iqlimi.
Har yangi tuyg‘uni
O‘z qalbimizda
Ochamiz yangi bir sayyora kibi.

Kechamiz umid-la
Yo‘l ocha-ocha,
Kutamiz eng yorug‘ sabohimizni.
Dunyoning muhabbat saroyida-chi,
Tole o‘zi qiymish nikohimizni..

Olar quchog‘iga
Soz ko‘klam meni,
Meni sening ishqing qanotlantirar.
Saraton injitmas jindak ham meni,
Sening sovuqliging
Faqat yondirar.

Orzumiz tug‘ilur
Oydin saharda,
O‘xshari ayqirgan soylarcha bo‘lur.
Bizning ko‘rishuvlar
Daqiqalarda,
Bizning ayriliq-chi, oylarcha bo‘lur.

Sen quyosh,
Men esa boshi qorli tog‘,
Sinar chaqmoqlardan
Ko‘k yuzi chil-chil.
Bir-birimizdan bo‘lsak-da uzoq,
Ayrilib ketmadik
O‘tib shuncha yil.

Ko‘rishdik,
Dolg‘alar oqur sohilga...
Tinglading,
So‘zladim men orom-orom,
Dedimki, xushbaxtman,
Chunki sen ila
Ayni bir ko‘chada yuraman mudom.

Yil o‘tdi,
Dolg‘alar oqdi sohilga...
Sensiz har kunni yil sanay boshlayman.
Deymanki, xushbaxtman,
Chunki sen ila
Ayni bir shaharda yashayman.

Yil o‘tar,
Dolg‘alar urilar sohilga...
Go‘yoki ishqingda uchgan qushman men.
Deymanki: xushbaxtman,
Chunki sen ila
Bitta sayyorada tug‘ilganman men.

O‘ZGA SOHILLARNING AYNI TO‘LQINI

Umrning har yili
Bir ummon dedim.
Nega ayirdilar bu yillar bizni?
Sen shoshilsang,
Men ham kechikmasaydim,

Balki, ayirmasdi sohillar bizni.
Yaqin bir sevgining bu olis uni
Yurakka chaqmoqdek o‘t qo‘yib o‘tar.
O‘zga sohillarning ayni to‘lqini
Qalbimizni ezib va o‘yib o‘tar.

Kecha shirin-shirin
Sayr etar oy seni kahkashon[1] seni.
Men sahar yeliga: “Jim!” deganimda,
Kimdir uyg‘otadi begumon seni.

Qo‘shaloq o‘tasiz...
Yaqin kelmayman.
Men yo‘qman... Yoningda u tayyor har dam.
Ko‘zimni ko‘tarib qaray olmayman,
U esa, istasa ko‘tarar qo‘l ham.

O‘tasan, qush bo‘lib — qanot bog‘layman,
Ammo yuksalmoqqa
Ufq tor, yetmas.
Seni malaklarga malak chog‘layman,
U bo‘lsa,
Qonuniy xotin sanar, bas!

Ko‘z solarmi hayron har ko‘rgan uzoq,
Yo tinar yer bilan samo-da birga?
Birga tepishmagan yuraklar, qandoq,
Ko‘raylik, yo‘l yurar dunyoda birga?

Kechikmish orzular oshib-toshganda,
Qarayman,
Ko‘nglimdan ol qonlar oqar...
Qonunsiz bir nikoh qonunlashganda,
Qonuniy muhabbat
Chekkadan boqar...

[1] **Kahkashon** — galaktika, somon yo‘li.

CHO‘QQI BULUTI

Mag‘rur Elbrusda
Oq bulutga boq,
Qor uzra qor kabi... Tushibdi-ya kun.
Yuksaklik
Yuksakka yarashiq har choq,
U bulut tug‘ilmish cho‘qqilar uchun.
Tog‘ unga,
U tog‘ga go‘yoki bezak,
Nechog‘liq uzoq-a o‘sha tomon yo‘l.
Darada surunmak nega ham kerak,
Bulut bo‘lganda ham
Cho‘qqilarda bo‘l!

Dunyoga orzuli kelur insonlar,
Bahor deb yashaydi kimki bo‘lmasin.
Har kimning hayotda o‘z cho‘qqisi bor,
Hech kim cho‘qqisidan baland turmasin.

* * *

Kun chiqar, yomg‘ir yog‘ar...
Jim yog‘ar, og‘ir yog‘ar...
Barq urar yashil chaman,
Men boshyalang kezaman.
Injumi, nedir yog‘ar?

Yer-u ko‘k atirlanibdir,
Yer-u ko‘k sehrlanibdir,
Jimir sehrli tuproq,
Yog‘ar sehrli yomg‘ir,
Yomg‘ir atirli tuproq,
Tuproq atirli yomg‘ir...

QUYOSH QO‘SHNILIGIDA

Qovushib tog‘larning shamollariga,
Qoyaga qalqmoqqa yarasang yaxshi.
Ming daf’a cho‘qqiga qarash o‘rniga,
Bir yo‘la cho‘qqidan qarasang yaxshi.
Yaxshidir sayr etib
Olamni butun,
Quyosh qo‘shnisiman, deb havolanmoq,
Tog‘larni yenggandek raso va durkun,
Yangi cho‘qqilarning ishqida yonmoq.
Yaxshidir burgutdek qanot yoyganda,
Qalbing yulduzlar-la topisha qolsa.
Oyog‘ing ostidan sal muz toyganda,
Birov bilagingga yopisha qolsa.
Qoyadan qoyaga arqon otasan,
Yurag-u qulog‘ing sasda, sadoda.
Alvon chamanlarda charchab yotasan,
Oy ham qo‘riqchiday yorug‘ samoda.
Ketasan,
Yorasan bo‘z tumanlarni,
Sellar ayqirsa-da, tez soylar kabi,
Unda moviy-moviy muz dovonlari
Porlasin oq marmar saroylar kabi.
O‘zing tog‘lar uzra,
Tog‘lar siynangda,
So‘ngsiz dengiz senga bir qatra kelsin.
Yoz kuni
Cho‘qqidan yerga inganda,
Sendan tuman atri,
Qor atri kelsin.

ELBRUSGA YONDASHIB

Alim Keshokovga

Cheget Elbrusga turar yondashib.
Tumanlar,
To'fonlar
Kelur qo'yniga.
Cheget Elbrusning kichik qardoshi
Va lekin eng buyuk
Sirdoshdir unga.

Tumanlar kechadi
Xayol misoli,
Go'yoki ikki tog' kezib yurishar.
Yulduzlar yonganda ikki do'st holi
Gulxan atrofida suhbat qurishar.

Cho'qqilar sellardan
Taram-taramdir,
Kun chiqar,
Qor yog'ar,
Qahraton turar.
Yaxshiki, tog'larning sirdoshi tog'dir,
Agar tanho bo'lsa tog'lar ham nurar.

BOLALIK KO'YLAGIM

Sandiqdan bir ko'ylak
Oldi-yu onam:
— Bolam, senikiydi,— dedi bu oqshom.
Ko'rdim...
Ko'z oldimdan o'tdi bari-da,
Umrimning ilk bahor — yozi ko'rindi.
U qaytmas yillarning so'qmoqlarida
Yitmish bolaligim izi ko'rindi.

Shimirib qishloqda yoz kulagini[1],
Ko'rdim: qanot qoqib,
Go'yo uchardim.
Kiyib bolalikning bo'z ko'ylagini,
Go'yo bolalikdan nari qochardim.

U damlar yuksakda,
U damlar uzoq...
Necha gal ochilib, chechak sarg'aymish.
Yillarning yukidan
Soch-u soqol oq,
Yillarning yukidan ko'ylak sarg'aymish.

Yillarga so'zimni ayta bilsaydim,
Tanish so'qmoqlarda yana uchardim.
Bugun u ko'ylakni qayta kiysaydim,
Kiya bilsaydim,
Qarilikka tutqich bermay qochardim.

PARVOZ ISTAGI

Yillar o'tayotir. Orzular — bunyod.
Ne-ne vatanlarga yo'lim tushmadi,
Lekin bir istakni qalbim aylar yod:
Ko'p bo'ldi, tushimda hech ham uchmadim.

Uyqular... Ro'yolar... Endi chikora?
Yotib ko'zlaringni yumdingmi, tamom:
Parvoz etajaksan, pastda — sayyora.
Oh qanday uchardim, yuksaklik tomon!

Uyqular... Ro'yolar... Chorlar yuksakka..
Sirli hayot kirar tushimga asta.
Goho burgut misol uchardim ko'kka,
Yastanib yotardi o'rmonlar pastda.

[1] **Kulak** — shamol.

Haybatli kuch hissi qamraydi meni,
Kuzga almashadi bir zumda ko'klam.
Tomosha etarkan yulduz mavjini
Sovuq Oy sathiga qo'yaman qadam.

Men parvoz istayman... Bamisoli qush,
Yozdan bahor sari qilsaydim parvoz!
Mayliydi, bir marta, bo'lsa hamki tush,
Qaytsam, bolaligim aylasam e'zoz.

Qani, qanot bering, ko'rsating ayon,
Qayonga uchayin? Uchmog'im tayin!
Tushimga berkingan bolalik tomon
Aqalli bir marta uchib yetayin.

MO'G'UL TUPROG'IDA

Ochdi quchog'ini do'st yellar menga,
Bu o'lka navqiron,
Bu o'lka qadim.
Musaffo Kerulen sohillariga
O'ynoqi Kuradan
Assalom, dedim.

Cho'pon yaylovidan yig'ar suruvni,
Surunur oqshomning bo'z tumanlari.
Qo'l cho'zsang yetguday
Yaqin ko'rinur
Ulug'vor samoning kahkashonlari.

Tushur qora izi
Oq bulutlarning,
Tog'lar jaranglaydi qartol[1] sasidan,
Tabiat uyg'onur uchqur otlarning
Shiddatli oqimi, ovozasidan.
Qartol boshim uzra

[1] **Qartol** — burgut.

Sirg‘alib o‘tgay.
Ko‘zimda olamning shodmonligi.
Keturman,
Men bilan qalbimda ketgay
Qardosh dalalarning bepoyonligi.

YUKSAKLIK ISHQI

Sen quyosh —
men sendan
bahramand oying.
Sen tovush —
men esa
aksi sadoying!
Cho‘qqisan —
cho‘qqiga qalqqan so‘qmoqman.
Tog‘ga oshmoqdaman,
tog‘ga mushtoqman.

CHINOR

Qish... Zabtiga olar qahraton —
Xuddi dala, vodiy, chamanzor
Ataylab oq kiymish bu zamon.
Derazamga engashar chinor —
Degan kabi: “Holimga bir boq!
Uyingga qo‘y! Isinay ozroq!”

Chillayi yoz... Quyosh — laxcha cho‘g‘.
Atrof yonar, yonar neki bor,
Tasviriga, hattoki so‘z yo‘q.
Derazamga engashar chinor,
Navdasi-la imlaydi xushhol:
“Kel, soyamda andak orom ol!”

* * *

Gulbandidan uzmasak gulni —
Gullar bizdan xafa bo‘lur.
Cho‘qqilarga solmasak yo‘lni —
Yo‘llar bizdan xafa bo‘lur!
Xafa bo‘lur billur buloq —
Hovuchda suv ichmay o‘tsak!
Ranjib qolur yashil yaproq —
Tinglamasdan o‘tib ketsak!
Larzon-larzon olmazorlar —
Ko‘tarolmas hosil g‘amin...
Agar mehnat sarf qilmasak —
Ranjib qolur
Bizdan zamin!

YER HAM, KO‘K HAM...

Tun...
Boshim ustida yulduz besanoq...
Yer ham, ko‘k ham jimir,
Deydi: dam olay,
Deyman:
Uyqu qo‘nsin ko‘zimga tezroq,
Tushlarimda seni tez ko‘ra qolay,

AGAR...

Agar buloq bo‘lsaydim,
Toshloqlarda sharqirab
Tog‘dan oqib tushardim, ketmasdim sendan yiroq.
Der edim: “Tashnalikdan qaqrasa ul aqiq lab,
Zilol suvimdan ichib to‘ysin, vaqti bo‘lsin chog‘!”

Agar daraxt bo'lsaydim,
Derazangning yonida
To'shalib yotar edi mening uzik barglarim,
Zavqiyob subhidamda bir qo'shiq tug'yonida,
Bordir seni uyqudan uyg'otmakka charlarim.

Agar shamol bo'lsaydim,
Chaqmoqlarday tezgina
Kengliklarda kezardim ko'tarib shovqin-suron.
Lekin bunda, ostonang qarshisida ozgina —
Tin olardim, tushlaring buzmayin deb nogahon.

Agar bulut bo'lsaydim,
Bahor yerga qo'nganda
Moviy ko'kda aylardim sirli sayr-u sayohat.
Yozda esa yer-u ko'k kun tig'ida yonganda
Jaziramadan seni asrar edim oqibat.

Agar dengiz bo'lsaydim,
Shoshqaloq to'lqinlarim —
O'zin har yonga urgan qumloq sohilda, rost gap,
Qoraygan oyoqlaring qoldirgan izlarni jim —
Ohista, yuvmay-netmay mangu qolardim saqlab.

Agar yulduz bo'lsaydim,
Tark etardim samoni,
Xayr-xo'sh demakning ham bo'lmas edi maloli,
Yerga tushar edim tun yarmidan og'gan oni
Ko'ksingda yonmoq uchun tun yulduzi misoli.

Agar quyosh bo'lsaydim,
Nurlarimning barini
Sahar yig'ib, Yer sari bag'rimni ochar edim.
Uying uzra chiqardim, so'ng-chi, shu'lalarimni
Ayamay dunyo uzra tengma-teng sochar edim.

Ammo men na buloqman,
Na shamol — bu jahonda,
Naki bir quyoshdirman yoxud bir uchar yulduz.
Men seni deb kuylayman oddiygina maqomda,
Tirikmanki, kuylarman, horimoq yo'q,
qora ko'z!

Bila turib bor gapni
Yuz o'girma she'rimdan,
Qoshimda ko'rinmasin qayg'uning jilvalari!
Shunda, dengiz-u shamol, yulduz-u buloq chindan
Menga havas qilishar, havas qilishar bari!

CHULG'AR LOL FIKRLAR...

Chulg'ar lol fikrlar
Tumanlar kabi...
Oq qog'oz — bo'sh sahro...
O'ylab qolaman.
Og'ir safardagi insonlar kabi,
Qalam mendan qo'rqar,
Men-chi, qalamdan...

TOG'LAR HAM...

Tog'lar ham dunyoda inson kabidir,
Tog'larning o'z umri,
O'z yoshi ham bor,

Billur buloqlardan ko'z yoshi ham bor,
Sevinchi sapchigan ummon kabidir.

Ne-ne cho'qqilar bor — hali ham benom,
Viqori bir buyuk jahon kabidir.

Dovrug‘i tushmagan
Tilga bu ayyom,
Tog‘lar ham dunyoda inson kabidir...

Tepasida yulduz quchoq-quchoqdir.
Fikrlar boshida tuman kabidir.
Benom bo‘lsa hamki,
Tog‘ o‘sha tog‘dir,
Tog‘lar ham dunyoda inson kabidir.

XOTIRALAR SO‘QMOG‘IDA

Kun o‘tmoqda, umr yorti,
Umr ham bir tog‘ga o‘xshar.
Yaqinlar-u uzoqlarni
Xayol kezar,
Xayol yashar —
Xotiralar so‘qmog‘ida.

Tilaklardan tilaklarga
Izlar ketar, izlar yetar.
Yuraklardan yuraklarga
So‘zlar ketar,
So‘zlar yetar —
Xotiralar so‘qmog‘ida.

Yillar kechar tez suvsimon,
Tepalardan oshar, yelar.
Ba’zan horg‘in yo‘lchisimon
Bolalik ham
Qaytib kelar —
Xotiralar so‘qmog‘ida.

Qo‘l yetmagan she’riyatga
Qona-qona sen yetarsan,

So‘nib ketgan muhabbatga
Yona-yona
Sen qaytarsan —
Xotiralar so‘qmog‘ida.

O‘tar oylar,
O‘tar yil, bas,
Qorli tog‘lar oshar inson.
Ehtimol, bir umr emas,
Necha umr yashar inson —
Xotiralar so‘qmog‘ida.

DARALAR

Chinorlar qator-qator,
Cho‘qqilar qadar bo‘ydor...
Tog‘ qo‘ynida joyi bor —
Yashil-yashil daralar.

Sizlarga ko‘p vurg‘unman,
Bezagingiz shafaqdan...
Quyosh chiqar ufqdan.
Hovuch-hovuch zar elar.

Siz sevgan ko‘k o‘rmonlar
Ko‘knormidir[1], shommidir[2]?
Sizdan qalqqan tumanlar
Tog‘larga salommidir?

Qush kabi ustingizda
Uchay uzoq, daralar!
Daraxtzorda bir oqshom
Bo‘lay qo‘noq, daralar.

[1] **Ko‘nor** — qoraqarag‘ay.
[2] **Shom** — qarag‘ay.

Agarki yiqilsam chinor ko‘rsating,
Men unga suykanib aronga boqay,
Ko‘zlarim ko‘rmasa,
Ko‘kko‘lni bering,
Men uning ko‘zi-la jahonga boqay.

Har yerda, hamisha
Sensan gumonim,
Jonim, ko‘zim mening
Ozarbayjonim!

Sen quyosh, men bo‘lsa bir zarra kabi,
Tiriklikda o‘g‘ling,
O‘lsam tuprog‘ing.
Sendan hayot olar o‘g‘illar qalbi,
Sen baland chinorsan; men-chi yaprog‘ing,
Men — sening o‘zingman,
Ey ishqim-jonim,
Sen — mening o‘zimsan
Ozarbayjonim!

Sizlardan yo‘llar o‘tar,
Yaxshiki, sizlar borsiz,
Daralar!

Cho‘qqilarga ochilgan
Keng-mo‘l darvozalarsiz,
Daralar!

RASSOM DO‘STIMGA

Kecha. U ketmoqda, qalbida ilhom,
Demangki, uyqular kutadi uni.
Qandoq uxlar ekan uyida rassom,
Ne chala tuyg‘ular kutadi uni.

Qarar panjaradan... Shahar charog‘on,
Salqin shabada ham xonaga to‘lur.
Tuyg‘ulari chala qolsa nogahon,
Shirin uyqular ham, bas, chala bo‘lur.

Fikri tugun-tugun,
O‘yla va yo‘l och!
Orzu buloq-buloq...
Billurdan suvi.
Ba’zan bir danakdan ko‘karur og‘och,
Qarabsizki, yashar asrlar bo‘yi.

Qalbiga quyoshlar,
Tumanlar kelur,
Dilida dunyo bor — tog‘lar, yovonlar.
Ba’zan bu xonaga ummonlar kelur,
Ba’zan bu xonadan ketur ummonlar.

Uning ko‘zlaridan ko‘char ne-ne yil,
Kunbotar... Oy tugar...
Porlaydi kunduz...
Qaydadir chalaroq qolgan ko‘p shakl,
Go‘yo: “Kel!” deganday zoriqar usiz.

Kecha... Yuragida toshadi ilhom,
Umidlar, orzular kutadi uni.
Qandoq orom olur uyida rassom,
Ne chala tuyg‘ular kutadi uni.

Sahar... U ketmoqda,
qarab turibman,
Ilhomning yo‘llari nechog‘lik uzun!
Quyosh ham tushadi panjaralardan,
Do‘st asari bo‘lsin to yorug‘, to‘lg‘in.

BALIQCHI

Hali tong otmay u dengizda edi,
Qaytdi sohil tomon kun qiyom vaqti.
Xazarning xush yoli yuziga tegdi
Va yana qayrilib suvlarga boqdi.

Har narsa ko'zida o'xshar tumanga,
Dengizning so'zini sarin yel dedi.
Har dolg'a go'yo qo'l silkidi unga,
Har dolg'a go'yoki: "Qaytib kel", — dedi.

Boqdi, suv sizardi soch-soqolidan,
Tomchilar yuzida bamisoli ter.
Necha bor dengizdan chiqdi u omon,
Janggohdan chiqqanday bir muzaffar er.

U har kun Xazarning cho'ng dolg'asiga
Qalbini, kuchini, azmini qo'ydi.
...To'xtadi uyining ostonasida
Va birdan ko'ksida bir og'riq tuydi.

"Nazdimda, yuragim..."
Saslandi Xazar.
"Yuragim!"
Chog'landi, jo'shdi dolg'alar.
Gurladi qoyalar, qoraydi osmon,
Dolg'alar ustidan oshdi dolg'alar.

Uzandi asta u to'shak ustiga,
So'zladi: "Bu nadir, charchadim, toldim!"
So'ngra kelganlarning boqdi yuziga:
"Chamamda, ajalning nazarin oldim.

Yelkamga bolishdan suyanchiq bering,
Boqay derazadan dengiz tarafga.

Menga ilk qo‘shiqni aytgan Xazarning
Eshitay ovozin oxirgi daf’a.

Qaytmas to‘lqin edi yillar go‘yoki,
Qalbimni ularning bag‘riga otdim.
Dengizga muhabbat qo‘yib, yetmish yil —
Dengiz-la uyg‘onib, dengiz-la yotdim.

Berdim dolg‘alarga jo‘shqin qalbimni
Yoshlik zamonimda, keksa chog‘imda.
Dengiz yotmaganda, bir dardkash kabi —
Men ham yotolmadim o‘z yotog‘imda.

Har o‘tgan oqshom va har kelgan sahar,
Yana bezayversin cho‘l-u chamanni.
O‘limdan qo‘rqmayman, yo‘q, zarra qadar,
Xazardan ajralish yondirar meni.

Dengiz orzum bo‘lgan, murodim bo‘lgan —
To‘rni ko‘k suvlarda yoyib ketganman.
Yelkanli qayiqlar qanotim bo‘lgan —
To‘lqindan to‘lqinga uchib o‘tganman.

Xazar so‘ng oqshomim, ilk bahorimdir,
Qo‘y, uning suvlari siynamga oqsin.
Dengiz umidimdir, qiblagohimdir,
Qo‘y, qabrim toshi ham dengizga boqsin.

“Yana bolish bering...”
Joyida qalqib
Chol so‘nggi so‘zini so‘zladi sekin.
“Naqadar... Xazar bor... Ha, unga boqib
Men ham bu dunyoda... Yashayman, lekin!..”

Kimningdir sizilib oqdi ko‘z yoshi,
Qariya og‘zida qoldi so‘zlari.

Kiftiga tushsa-da oqargan boshi,
Dengizga boqardi ochiq ko‘zlari...

Boqishlar dolg‘ali, dolg‘ali, jo‘shqin,
U so‘nar, ustida quyosh yonardi.
To‘ngan ko‘zlarida va tag‘in toshqin
To‘lqinlar, to‘lqinlar to‘lqinlardi.

Dunyoga hayqiriq soldi dengiz-da,
Xazarning alvido sasi yuksaldi.
U ko‘zlar, u ko‘zlar qoldi dengizda,
Dengiz ham, dengiz ham ko‘zlarda qoldi.

Go‘yo dil iplari uzildi butkul,
Dard to‘la faryodlar uchdi samoga.
Marhumning ko‘zini yopganda bir qo‘l
Urilib ketganday bo‘ldi dolg‘aga.

U o‘ldi chechakli, gulli bahorda
Botirga janggohda kelganday ajal.
To‘lqinlar gurladi cho‘ng qoyalarda
Uning xotirasin yodlagan misol.

Esdi sarin-sarin nasimi oqshom,
Yulduzlar ko‘klarda sukut-la turdi.
Baliqchining so‘nggi yuragi, bu dam
Beorom Xazarning ko‘ksida urdi.

U tindi suvlarning har nag‘masida,
Xazar — orzulari, to‘lqinlar — so‘zi.
U yotar uyquda — mangu osuda.
Dengizda yuragi, tuproqda o‘zi.

TAZODLAR

Daraman,
Tepaman,
Otashman,
Suvman —
Quyosh ham mendadir,

Oy ham mendadir.
Men inson avlodi,
Tuproq o‘g‘liman —
Dengiz ham mendadir, soy ham mendadir...

Menman koinotning baland nuqtasi,
Tog‘larning u oppoq buluti menman.
Bu kunning tinimsiz tovshi, nag‘masi,
Uzoq asrlarning sukuti menman.

Siynamdan yo‘l olur bahorlar, yozlar,
Zulmat-u yorug‘lik dilimdan o‘tur,
Tunda
Ufqlarda og‘gan yulduzlar
Menga ziyosini topshirib ketur.

Ba’zan quyosh botur,
Yog‘ur qor,
Yog‘in,
Yotur toleyimda mening ming-ming sir.
Chechaklar tuproqqa qiyoq cho‘zmayin,
Go‘yoki qalbimdan ko‘karur bir-bir.

Men yondosh, qardoshman
Keksa-yu yosh-la,
Sirli bir olamman
Butun olamda.
Nafrat — muhabbat-la,
Qayg‘u — bardosh-la

Qachondan uxlashar mening siynamda.
Insonga bog‘liqman
Avval so‘zim-la,
Anglar so‘ng so‘zimni qadr bilganlar:
Dardliklar yosh to‘kar
Mening ko‘zim-la,

Mening dudog‘im-la kular kulganlar.
Umrim oz qolibdi —
Ayting, shundaymi?
Qandog‘am tuyg‘ular o‘tar qalbimdan:
Go‘yo bir kunlikman parvona kabi,
Go‘yoki quyoshday abadiydayman.

Ham yerning,
Ham ko‘kning
mag‘rur sasiman,
Menda sahar tug‘ur,
Kecha yashaydi.
Men-ku koinotning bir zarrasiman,
Bas, menda koinot qanday yashaydi?!

ODIM-ODIM

Odim-odim o‘tar yillar,
Odim-odim kechar zamon.
Sellar jo‘shar, soylar oqar odim-odim,
Odim-odim Yer yuziga kelgan inson.

Yer yuzini kezib chiqar odim-odim.
Odim-odim kelar sahar,
Odim-odim ketar kecha —
Jonlar qiynab, umr otli
Yuksaklikka odim-odim.

Odim-odim ona bizni ulg'aytgangacha,
O'zi yetar keksalikka odim-odim.

Odim-odim yo'l soladi
Yuraklardan xotiralar,
G'am — sevinchning, sevinch — g'amning
Qorasicha odim-odim.
Odim-odim qanot qoqib sevgi kelar,
Nafrat kelar orqasidan odim-odim.

Odim-odim dara o'tib,
Odim-odim tog' osharkan,
Qalbimizda umid tug'ar,
Orzu jo'shar odim-odim.
Odim-odim biz yoshlikka yondasharkan,
Yoshlik bizdan uzoqlashar odim-odim.

Odim-odim o'tar yillar,
Odim-odim kechar zamon,
Shoshilsang-da umring o'tar,
Ehtiyot-la odim-odim.
Odim-odim koinotga kelgan inson
Bilmas qachon —
Vidolashur koinot-la odim-odim.

BEROHAT

Do'stim Baxtiyor Vahobzodaga

Shunday bir kenglik-la aylanar hayot,
Bilmaymiz, oqshomdir, yo'qsa sahardir.
Yozmasang — berohat...
Yozsang — berohat...
O'zgalar der, — "qanday u baxtiyordir!"

She'rning bir satri ham,
yonmoqlik uchun —

Bizdan o‘t istaydi, olov istaydi.
U, balki, bir kunlik shodmonlik uchun
Bugun umrimizni garov istaydi.

Shoirni umidlar eltar bahorga,
Ilhom uning uchun bamisli farzand.
Shoir yuraklarga hokim bo‘lsa-da,
Dilbar she’riyatga sodiq qul monand.

Loqayd sevmoqlikni sevmaydi san’at,
Ilk so‘zi, so‘ng o‘zi samimiyatdir.
Ilhomga xiyonat, she’rga xiyonat
Ehtimol, eng ulkan bir xiyonatdir.

Ey yurak, yuksalsin har qachon sasing,
Bir yurak tindimi, bir umr bitar —
Deymanki, farog‘at yaqin kelmasin,
Farog‘at keldimi, shoirlik ketar.

Qo‘y, u cho‘qqilarga qalqqan yo‘l misol
Tole, qalbimizdan o‘tsinlar har dam.
Oromsiz tunlarim tengsiz, betimsol,
Ularni bermam shod kunlarimga ham.

Tinmasin, tinmasin ilhom bulog‘im,
Axir, ayni mening yozmoq chog‘imdir!
Dunyoda abadiy berohatlig‘im —
Dunyoda abadiy rohatlig‘imdir!

“OMOH BO‘L” VA “XAYRBOD”

Ming asr nafasi
Oqdi qo‘yniga,
Ming asr nafasin
Yurak tingladi...
..Men “salom” so‘yladim

Saharlar unga,
U menga oqshomlar "omon bo'l!"
dedi!

Kezdim bulutlar-la
Ko'k qatida men,
Ko'rdim tog' yo'llarin,
Tog' daryosini.
Uning olam kabi sukutida men
Tuydim mangulikning buyuk sasini.

Sevindim:
Do'st kabi yuz ko'rishdik jim,
Men ko'rdim quyosh-da,
Qor-da, chovg'un-da.
Kechdi uyqu kabi bir oylik umrim,
Mag'rur Elbrusning qo'shniligida.

Balki, ko'rishmadik dunyoda, —
Dedim,
U boqdi,
Viqor-la meni tingladi.
Unga do'st tilida "xayrbod"
Dedim,
U-chi o'z tilida "omon bo'l!"
Dedi.

Tushundim..
So'ngsizdir kuni, kunduzi,
O'lmaslik quyoshi
Uning elida.
Yo'q tog'lar dilida "xayrbod" so'zi.
"Omon bo'l!" so'zi bor
Tog'lar tilida...

YAPONIYA DAFTARIDAN

POYEZDDA MUDRAGAN QIZ

Bir qiz
mudrar edi
oqshom chog‘ida,
Oqshomning parishon,
sur quchog‘ida.
Yapon tuprog‘ining
go‘zalidir u,
Qaydam, qayga ketar,
qayonga bundoq?
O‘ylaysan
horg‘inlik haykalidir u.
Poyezd nag‘masiga
tebranur mudroq.
Yuzlari bo‘yoqsiz,
qo‘llari oppoq,
Rangli qog‘oz — tugun
joy olmish tizdan.
Go‘zallik-ku
sovuq bo‘lmaydi, biroq
Sovuq bir shabboda
esar u qizdan.
Balki, sotuvchidir
u bir do‘konda,
Nazokat shafag‘i
yog‘ar yuzidan.
Qirgan ham, chiqqan ham
(bo‘lmang gumonda!)
Pay olur
jilmaygan shu qiz ko‘zidan.
Tolibdi

hammaga: "Labbay" demakdan.
Tolibdi
hammaga kulimsamakdan.
U, balki, geyshadir ...
nozli, ishvali...

Kulganda
siymosi nur tarab yonur.
Yo'q, geysha bo'lsaydi
Yotmasdi hali,
Geyshalar
uyqudan endi uyg'onur.
U, balki,
kumushdek tayyoralarda
Samo bekasidir,
ko'klar qizidir.
O'y surar,
yuragi tashvishdan zada:
"Xo'jayin, ehtimol, mendan rozidir".
O'zi-ku,
qanotsiz dunyo ichida
So'ngsiz ufqlarga
qanotlanar u.
Qo'lidan janoblar sharbat ichganda
Bosh egib,
o'zini xushvaqt sanar u.
Har kimga..
Har kimga
hurmat kerak-da!
Uning eng zo'r burchi
kulimsamak-da.
Go'zallik atalmish
bir saltanatda
Xo'sh, nechun
or-nomus
o'yinchoq bo'lur?

Ba'zan nihoyatsiz
bir nazokat-da
Zarif yelkalarda
og'ir tog' bo'lur!

U yotar,
shu tog'ni tashimoq uchun.
U yotar,
o'ziga o'xshamoq uchun.
Yotganda
o'xshaydi o'ziga qandoq!
Qayg'u ko'lankasi
yonoqlarida,
Uyg'ondi,
hammaga o'xshaydi bu choq,
Galdagi tabassum dudoqlarida.

MAROLLAR[1] SHAHRI

Ko'llar tolzorlarning
zich davrasida,
Tolzorlar kuzakdan
qip-qizil, zarlik...
Shundoq shahar ko'rdik
Yer kurrasida
Shahar marollig-u,
marol shaharlik..
Boqar shahlo ko'zlar...
tanish bu sado...
Elitar qaygadir xayollar meni.
Bunda meni hech kim
tanimasa-da,
Go'yoki tanidi marollar meni.
Qizlar marollarni
quchar mehribon,

[1] **Morol** — Sibir bug'usi.

Qarash ham mehribon,
ko‘zlar ham o‘xshar.
Qarangki, ko‘chada
ketar yonma-yon
Marol go‘zallar-la
go‘zal marollar.
Qarangki, sakrashar
bir-birin boshlab,
Boladek ayrilmas
o‘z onasidan.
O‘tishar
muqaddas qadamlar tashlab
Qadim ma’badlarning[1]
ostonasidan.
Oyog‘iga inson
keltirmish suvni,
Egilib ohista
korizdan[2] ichar.
Shunisi ajabki,
ko‘chalar bo‘yi
Mashinalar to‘xtar:
marollar kechar.
Kechishadi mag‘rur...
O‘ta hashamdor.
Hamma: “Xush ko‘rdik” deb
qarab turmoqda.
Qarang, mugizlari
shohlik, butoqlik —
Go‘yoki ko‘chadan
o‘rmon yurmoqda.
...Biz oqshom
ayrildik
go‘zal diyordan.
Ufqlar

[1] **Ma’bad** — ibodatxona.

[2] **Ko‘kiz** — katta va chuqur idish.

qorayib-burilib qoldi.
Naq shu dam
u marol ko'zlarning
chaqnashlaridan
Yuragim
urinib-urinib qoldi.
Pichirlardim:
Har yon xayolga toldi.
Marol shaharga qoldi,
Shahar marolga qoldi.

XIROSIMA FOJIASI

Bunda tuproq,
bunda samo so'zlashur,
Oh chekar inson kabi.
Xirosima so'zlashur
Soy kabi,
ummon kabi.

Tog' boshidan quyosh qalqar,
Yoyar nur,
Xirosima —
Tarix kabi,
Zamon kabi so'zlashur.
Og'riq qalbdek zirqiraydi
behuzur,
Bir tinchimas vijdon kabi so'zlashur.

Sakkiz-u o'n besh daqiqa—
Atom bombasining portlagan vaqti.
Xirosima muzeyidan joy olgan
Shunda mili qotgan cho'ntak soati.

Kim derki,
men endi unsiz hayotman?

Eshiting:
so‘zlarim ohdir, omondir!
Kim derki:
Egasiz qolgan soatman?

Yo‘q, mening egam bor.
U — shu zamondir.
Jahon falokatin
shohidimen-ku.
Qonli bir musibat
shohidimen-ku!
Titratdi tuproqni inson nolasi,
Bir zumda besanoq kadar-g‘am bo‘ldi.
Dahshat tarixining ilk daqiqasi,
Mening-chi,
bu so‘nggi daqiqam bo‘ldi.
O‘lim olovlanib
ochdi og‘zini,
Ikkiga bo‘lindi oqar daryo ham.
...O‘tdan qo‘riganda
yolg‘iz qizini,
Yongan chol yonidan
tushdim o‘sha dam.
Bir ofat osmonga o‘rlab, o‘t oldi —
O‘t oldi o‘limning qanoti kabi.
Yer yondi,
Ko‘k yondi...
Men qandoq qoldim?
Men qoldim
intihom soati kabi.
Xotiram
achchiq-achchiqdir mening,
G‘azabim — o‘sha kun,
Ginam — o‘sha kun.
Millarim go‘yoki qaychidir mening,
Qora fikrlarni kesmaklik uchun.

Qarang,
sakkiz-u o‘n besh...
Boqing insonlar!
Sukut-la to‘lg‘aning
bu daqiqada,
Yotsangiz
uyqudan qalqing, insonlar!
Seskanib, uyg‘oning
bu daqiqada.
Quyosh tutilmasin
ham qo‘nmasin chang,
Bashar meni anglasin
bu daqiqada.
Omon, ey insonlar,
ortiq yo‘l qo‘ymang,
Soatlar to‘xtamasin
bu daqiqada...

RIXARD ZORGE QABRI QARSHISIDA

Yotibsan
yot tuproq
qo‘ynida alhol.
Yotdir
boshing uzra
bu osmon, Zorge.
Sen tug‘ilgan joydan
keldim, quloq sol,
Bokudan kelganman
bu zamon, Zorge.
Sof vatan suvidan
yutib kelganman,
Yo‘lda talay sahar,
qanchalar oqshom!
Zorge ko‘chasidan
o‘tib kelganman,

Sening o‘z ko‘changdan
o‘zingga salom!
Yuraging quyoshdi...
Aylanang — kecha...
U qandoq yonganin
men endi bildim.
Bokuda ming umr
isitgan ko‘cha
Bundan boshlanganin
Men endi bildim,
Burgutding,
tug‘ilding sen uchmoq uchun,
Bog‘landi g‘urbatda
qanot qo‘llaring.
Xalqlar yuragiga
yo‘l ochmoq uchun
Ko‘p uzoq yo‘llardan
tushdi yo‘llaring!
O‘lim uyasida
o‘lmaslik topgan
Qahramon inson!
Zap yaxshi bo‘ldi-da,
seni ko‘roldim,
Tiz cho‘kdim,
qabringni o‘pmak niyatim,
Zorge mozoridan
tuproq ham oldim —
Zorge ko‘chasiga
sepmoq niyatim.
U kezar dunyoni
o‘z hunari-la,
Tinch yotarmi sevgi,
qudratli yurak
Qovushsin bu tuproq
zarralari-la
Hasratli Vatanga — hasratli yurak!

G‘URBAT UYQUSIZLIGI

Safar yo‘ldoshim, taniqli rus yozuvchisi M. Alekseyevga bag‘ishlov

Qorong‘i kechaydi...
Ko‘chaga chiqdim...
Belgi bermoqdaydi
olisdan sahar.
Birdan men o‘girilib,
ko‘klarga boqdim,
Birdan nelar ko‘rdim
ko‘klarda, nelar?
Ko‘rdim: Ayiq burji...
Ko‘rdim kahkashon...
Ko‘rdim: menga qarar
tug‘ma Hulkar ham.
Qonimda shafaqlar
oqdi shu zamon
Tug‘malashdi, hatto
yot diyor shu dam!
U yonda, u nima,
u yal-yal yongan
Eha, ko‘hna do‘stim,
tong yulduzi-ku...
Ufqdan hasrat-la
yonib-tovlangan,
Ko‘klar qizi-ku.
Samo chamaniga
sepilgan tuxum.
Shafaq bahrasi-la
tushdi tuproqqa.
...Go‘yoki ko‘klarga
chekildi uyqum,
Qaynoq nafasi-la
tushdi tuproqqa,
O‘zimni his etdim

tug‘ma olamda,
Jim qoldim,
bu qalbda hasrat borligi.
Go‘yoki bosh qo‘yib
yotdi siynamda
Butun koinotning
shu bedorligi.

CHOLNING DEGANI

— Hayotda ko‘rganing
yuz qarinadir[1],
Ayt-chi,
ko‘rish nadir,
ayriliq nadir?

Men cholni
birinchi ko‘rishim edi,
Uning dono so‘zi
qalbim tinchidir,
Chol aytar:
— Ayriliq — ko‘rish umidi,
Ko‘rish ayriliqning
boshlanishidir.

ALVIDO, YAPONIYA

Buloqlar roz aytar
sirli so‘z kabi
Tarixning sehrli
sadolaridan.
O‘tdim qo‘noq kabi,
o‘tdim do‘st kabi

[1] **Qarina** — islomiy 33 yil.

Qonli orollar-u
daryolaringdan.
Mag‘rur qovushgansan
sen bu suvlarga,
Shafaqlar dunyoga
bundan jar bo‘lmish.
Sirli qilich tegib
go‘yo bularga,
Orollar bo‘lmish...
Boqdim...
Ko‘z o‘ngimda naq tug‘ma o‘lka...
So‘z ochdim Xazarga
sadoqatimdan.
Quyosh okeandan
qalqmasdi, balki
Qalqardi
okean
muhabbatimdan.
Ketyapman,
xushbaxt bo‘l
bu jahonda sen,
Tag‘in ko‘rishurmiz,
qaydam, qachondir.
Kunchiqar o‘lkasi
sanalsang-da sen,
Men uchun kunchiqar
Ozarbayjondir!

FRANSIYA DAFTARIDAN

XUSHXABARLAR XIYOBONI

Qora xabar keldi yetib —
Na o'likmas,
Na tirik,
Yiqilmadi xushdan ketib —
Beva bo'ldi —
Ko'rgulik.

Birov dedi eshik yoqdan:
"Taqdirga tan beringiz;
Kelmas endi, shum pichoqdan
Halok bo'ldi eringiz..."
Odamlardan so'radi tul:
"Qayerda jon berdi ul?!"
"Xushxabarlar xiyobonida", —
Dedi kimdir yonidan.

Qora xabar titratar zir,
Tor kulbani —
"Oching tez,
Noxush xabar uchun uzr,
Msye, o'ldi qizingiz.
U Senada g'arq bo'ldi,
Qanday og'ir musibat!
Qizingizni zo'rlagandi
Amerikalik soldat.
Chol yig'ladi, xo'rlandi:
"Ayting, qayda zo'rlandi?"
"Xushxabarlar xiyobonida", —
Deydi kimdir yonidan.

Qora xabar...
Kimdir dedi:
"Madam, bardam bo'lingiz,
Namoyishga chiqqan edi —
Mahbus endi o'g'lingiz,
Qizil bayroq qo'lida,
Mallasoch va soz edi.
Madam, bunday o'g'il bilan
Faxrlansa arziydi".
Odamlardan so'rar ayol:
"Qayda bo'ldi mash'um hol?!"
"Xushxabarlar xiyobonida", —
Der kimlardir yonidan.

Men o'yladim
Qutim o'chib,
Yuragimda g'alayon.
Shuncha qora xabar uchun
Aybdormikan xiyobon?

Balki, uni eshitmasmiz —
Taqdiridan qayg'urar.
Meni bunday atamang deb,
Atamang, deb hayqirar.
Va lekin men ishonaman,
U bir kuni xush sahar
Bizga, bizning bolalarga
Keltirar yaxshi xabar.

TABASSUM VA KO'Z YOSHLARI

"Msye, uzr,
Kuylayolmayman bukun,
Msye, afv etingiz,
Betobdir onam..."

Msye der: kuylaysan
Janoblar uchun,
Agar kuylamasang,
Bo‘shsan, jonginam.
Onang betob bo‘lsa
Bir balo bo‘lar,
Bukun Nyu Yorkdan
Mehmonlar kelar.

Tinmay ichar, chekar
Restoran — garang.
Sahnaga chiqadi
Mari ham arang.
Qisilib, qimtinib
Kuylaydi Mari.
Janoblar norozi
Qo‘shiqdan, shu dam
Birov shivirlaydi
Yonidan turib:
“Ozgina jilmaying,
Jilmaying, madam”.
Qadahlar jarangi,
Dag‘al ko‘zlardan
Asta ko‘tarilar
Mari ovozi.
Mari yonib kuylar,
Bukun shu zalda
Restoran nomini
Oqlashi lozim.

Tabassum!
Aylansin borliq ko‘zingda,
Borliqni burkasin
Qo‘shiq parvozi.
Kimdir tabassumni
Ko‘rib yuzingda,

Deydi, bor ekan-ku
Dilbar ovozi.
Tabassum!
"Oyoqlari, oh, oyoqlari".
Tabassum!
"Ajoyib!"
"Durust tishlari".
Ularni xushnud et,
Ko'rsat raqslaring,
Kuylagin, o'ynagin,
Jilmaygin Mari.
Ularda ne qilsin
G'ussa, armonlar,
Ularga baribir,
Faqat sen boplab
Kuyla, Mari, kuyla!
Beg'am mehmonlar
Ichar ovozingni
Sharobday ho'plab.
Moviy ko'zlaringga
Cho'kar qayg'ular,
Raqsga tush, zavqlantir
Yosh-u qarini.
Kuyla, Mari, kuyla,
Ichmakda ular
Titragan joningni,
Tuyg'ularingni.

Tabassum!
Portlaydi qarsaklar sasi,
Mana quchog'ingda
Gullar barq urar.
Va lekin onangning
So'nggi nolasi
Quvnoq qo'shig'ingda
Saslanib turar.

Musiqa yig‘larmi
Yoki sen Mari?
Nomusdan, g‘ussadan
Ho‘ldir yonoqlar.
Nafis qadahlarni
Baland ko‘tarib
Sening ko‘z yoshingni
Ichar janoblar.

PARIJDA OQSHOM...

Tumanga burkangan Eyfel, quyida
Benzin va atirdan dimiqqan ayyom.
Oshiqlar uchrashar Sena bo‘yida,
Asta cho‘kayotir Parijga oqshom.

Mana, ishchi borar, yuzida hozir
Tashvish ko‘lkalari kezar beorom.
Uning odimlari o‘ychan va og‘ir,
Asta cho‘kayotir Parijga oqshom.

Kelar modaparast go‘zal ham, yorqin
Ko‘cha, maydonlarni qilganicha rom.
Chiroyli ko‘zlari g‘ussali, horg‘in,
Asta cho‘kayotir Parijga oqshom.

Ulug‘vor kashtanlar bargin to‘kadi,
Odamlar, daraxtlar — horg‘in batamom.
Mening qalbimga ham oqshom cho‘kadi,
Asta cho‘kkaniday Parijga oqshom...

ONA

(Doston)

Baland cho‘qqilardan
balandroq onam,
Asrining keksasi,
sochi oq onam!
Quyosh kabi botdi,
So‘ndi oy misol
Yillarning zimiston tumanida u,
Yugurib-yeldi-yu toshqin soy misol,
Tin oldi keksalik ummonida u.
Boshimni şilar sekin
Uning qaynoq qo‘llari,
Mehribonim qo‘llari.
Bo‘z chinor yaprog‘idir
Sertomir, qutlug‘ qo‘llar.
Uyning tayanch tog‘idir
Qadoqli, dag‘al qo‘llar!

Titrab turar bosh uzra,
Do‘stim, ona qo‘llari.
Qancha dardning yo‘lini
To‘sdi ona qo‘llari.
Oh, yana boshginamni
Silar ona qo‘llari.
Parpirab yaproq kabi
Titrar ona qo‘llari.
Oshdim yillar tog‘idan,
Nurga to‘ldi Yer, Osmon,
Bolaligim bog‘iga
Meni bir mehmonsimon
Boshlab bordi bir zumga
Onajonim qo‘llari.
Bu qo‘llar
oriq,

rangpar,
Xayolchan...
Nelarni o‘ylarkin, onam?
Endi xayolida qolsa ham ranglar,
Ko‘zining shafag‘in ko‘chirmish gilam.
Har gilam —
Onamning ko‘ngliga hamdam:
“Sariq rang — anor po‘sti
Qora rang — yong‘oq usti...”
Bu qo‘llar bir yurak ardoqlarini
Ko‘chirib ranglarda jonlantirardi.
Qo‘lbola dastgohning arqoqlarini
Arfa torlaridek jaranglatardi.
Tor kabi yana jo‘sh
Yangragan qo‘llar,
Ranglarning tilini
Anglagan qo‘llar... —
O‘pdim bu qo‘llarni sekin, tiz cho‘kib,
Bu dunyo onamga zulmatdir bugun,
Ko‘kka yog‘du sochgan, Yerga nur sepgan
Dunyo qamari ham hasratli so‘lg‘un.
Qarar u...
Xayollar naqadar shirin...
Xobiga kiradi ko‘kat ham, gul ham.
Tabiat, misli yo‘q qabohat qilding,
Ona ko‘zlariga qasd aylagan dam.
U yumsa ko‘zini
Keksalik qochar...
Quyoshli osmon.
Qarshisidadir:
U ochsa ko‘zini
Zulmat... qora jar...
Zim-ziyo bir jahon qarshisidadir.
U yotar...
ko‘rgan der, oq chorpoyada
Mushtipar bir kampir oh-zori yotur.

Keksalik bog‘iga tushgan soyada.
Umrning hazonli bahori yotur.

Besh oyki, parvona bo‘lgan
uch singlim —
Unga uch avloddir,
unga uch hakim.
Kulfat
uch singlimning tushdi payiga,
Kulfat —
manglaydagi reza ter misol...
Uch singlim —
qurigan umr soyiga
Parishon egilgan xuddi uchta tol.
Vaqt o‘tib borardi sukutda, sekin,
Singillar galma-gal mizg‘ib olardi.
Ular o‘z uyqusiz tuni-la betin
Ona uyqusiga ko‘prik solardi.
Uch zarif qanotdir
Onaga uch qiz.
Onam sekin-sekin bir sahar dedi:
— Qizlarim, qo‘limga xino qo‘ysangiz.
Qalbimning hovrini bosarmi edi...
Bir vaqtlar arqoqli,
Ignali qo‘llar,
Endi-chi ipak-ipak
Xinali qo‘llar...

Mamnunlik bor edi xasta sasida,
Qo‘lini ko‘tardi, “o‘g‘lim, bir qara!”
Qarangki, u, axir, so‘ng nafasida
Qaygadir shoshardi, bu ne manzara!..
Xo‘sh, qayga shoshardi?
So‘ngsiz zulmatga!
Qayga oshiqardi?
Abadiyatga!

Endi oy chiqmagay,
unga kun kulmas,
Tumanga g‘arq bo‘lgay cho‘l-u chamani.
Hayotda meni ham, yo‘q,
ko‘ra bilmas,
Faqat tushlarida ko‘rar u mani.
Ko‘rar...
yo‘lim kentlar
Oralab o‘tmish,
Bu yo‘lda yo‘ldoshdir quyunlar, yellar,
U ko‘rmas —
Sochimga qancha oq to‘kmish,
Qancha yozuv yozmish
Manglayga yillar,
Sochlarimni silar
Qo‘llari — birdak...
U deydi:
— Go‘dagim, charchabsan, dam ol!
Go‘dak,
uch go‘dakning
Otasi go‘dak,
Yonida turaman iztirobda lol.

Ona, joying bordir
Ko‘zim ustida...
Bir xohish ko‘ngilda
chaqaloq bo‘lsam,
Bir nafas uxlash-chun
Tizzang ustida
Chaqaloq bo‘lsam.
Umringning gul fasli qaytsin uchun
Xohlardim bir nafas
chaqaloq bo‘lsam.
Ko‘zingga nur fasli qaytsin uchun
Chaqaloq bo‘lsam...
Bir marta allangni

Eshitmak uchun
Biror soniyaga chaqaloq bo'lsam.
Yana o'z qo'lingda ulg'aymak uchun
Chaqaloq bo'lsam.

Seni yuksak bildim
Jahonda, ona,
Men uchun bir orzu,
Qanot-da o'zing.
Besavod o'tsang ham armonda, ona,
Menga ilk muallim,
Hayot-da o'zing.
Toleyim yoritgan
Nurli dilingdir.
Tilim,
Ona tilim,
Sening tilingdir!

Ilhomim kuch oldi
Qalbing, uyingdan.
Jo'shdi, dolg'alandi
Orzu ummoni.
Bir bor chiqmasang ham —
Boku — uyingdan,
Kezding sen
Men bilan butun dunyoni.

Vatanning, ilk jondosh zarrasi, mana,
Sening quchog'ingdan
Boshlanur, ona.
Ko'rdim Yer yuzini
O'lkama-o'lka,
Xayollar chalkashib
Sen tomon yeldi.
Qadamim yetgan joy
Men bilan yo'lga
Tushdi-yu poyingga sajdaga keldi.

Ayt-chi, quyoshmisan
Dunyoda o‘ktam,
Hayotbaxsh nuringni
Sochding har yona!
Muhabbat bergansan
Nafrat uchun ham
Omon bo‘l, ona!
Dushmanim ko‘rganda
Ilk dushman o‘zing,
Do‘stimga do‘stona
Boqadi ko‘zing.
Jim bo‘lsin oshiqlar,
Ona tilimda,
Har kim ham onadek e’tibor ko‘rsin.
Qaynoq sevgim uchun,
Ha, sevgilim-da
Onajon o‘zingdan
Minnatdor bo‘lsin.
Ilhomga qo‘l bergan
Ilk kundan boshlab,
Mangulik o‘t bilan
Qovrildi tanim.
Sertashvish yillarga
Oldim almashlab
Men sodda, farahli
Daqiqalarim.
Bir onning tashvishi
Yuz soatga teng,
Bormikan
Sitamgar tunlar yakuni.
Gar uyqu men uchun
Sotilsami deng,
Umrim bahosiga olardim uni.
Uchib yulduzlarga
Yetaman gohi,
Men Yerdan,

Ko‘k sari
Yelgan so‘roqman.
Dardli, hayajonli yotaman gohi,
Ko‘zim yumilgan-u
O‘zim uyg‘oqman.
Shunaqa yaralmish
Shoirlar asli!
Dunyoning gapirgan
Tillaridirmiz.
Koinot torining
Zamon azmi-la
Xo‘p tarang tortilgan
Qillaridirmiz.
Bu qillar,
Bu qillar
Juda nozik, o...
Jindek yel esdimi
Berar aks sado.

O‘tamiz
Izimiz dalada, tog‘da.
Qorishiq yo‘llarni umr sanaymiz.
Bordi-yu dorbozlik
Qilmagan chog‘da,
Asablar ustida
Yurmakka shaymiz.
Bir umid izidan
Ming xayol kechar,
Yillarga boqqanda
Goh yona-yona;
O‘yga g‘arq ko‘nglimdan
Bir savol kechar,
Nechun shoir tug‘ding
Aytgil, ey ona?

Muhandis bo‘lsaydim
Bo‘lar edi soz.

Qirchin qoyalarga
Qardosh bo‘lardim.
Qorli cho‘qqilarga
Chodir tikib boz,
U sirli tog‘larga
Sirdosh bo‘lardim...

Hakim-chi?
Yuragim
Nurdek yonardi,
So‘ngan umrlarga
Ziyo bo‘lolsam;
Hayot yalt-yult etib
Shafaqlanardi,
Jarrohlik tig‘imning
Damida u dam.

Oqadi
Qalbimga
Ming ohang,
Ming sas...
Yer,
Osmon tinadi
Qalbim tinganda.
Sozanda bo‘lmadim
nechun?

Bu nafas
Uzeyir,
Betxoven
Yashardi manda.
Ochay deb
Ilhomning lol sirlarini
Daralardan o‘tdim,
Tog‘larga qalqdim.
San’atning bu
Qullik zanjirlarini

Toleyim qo‘liga
Men o‘zim taqdim...
Hayot yo‘llarida
Men oqshom — sahar
Oddiy talabaydim
Qalam, kitobli...
She’r yozgan
Kunlarim
Azobli kunlar,
Yozmagan kunlarim
Yana azobli...

Bir tomchi .
Bo‘lsam ham
Buyuk ummondan,
Qalbimga yor bo‘ldi,
Umiddan bir iz.
Inson Yer-u ko‘kka
Sarhad qo‘ygan dam,
Ilhomim Vatani
Bo‘ldi sarhadsiz.

Men qanot qoqqanda
Kuldi Yer yuzi,
Har orzum porladi misli kahkashon.
“Qullik” zanjirida
Bandiman o‘zim,
She’rim
Yuraklarga
Bo‘libdi sulton.
Yozaman...
Qalbimda
imon bor manim!
Otaga barobar
Onam bor manim.
Hayotda ilk dohiy

Shunday onadir,
Dunyoning ilohi
Shunday onadir!
Tog‘larga qarayman,
Ona viqorli.
Tog‘larda
Onaning balandligi bor.
Onamga qarayman,
Sochlari qorli:
Onamning tog‘larga
Monandligi bor.
Ona — hayot so‘zim,
Umr sasimdir,
Onamning nafasi
O‘z nafasimdir!

Birdan go‘dak bo‘ldim...
Qarang, na siz...
Onalik yotuvdim,
Turdim onasiz.
Hayot sahrosidan
Yo‘l ochib kelgan
Naqllar karvoni
To‘xtadi birdan...
Birdan hayotimga yog‘di og‘ir qor...
U tanish allalar yangramas zinhor...
Bir bor qo‘zg‘olmadi
Qo‘llagan qo‘llar,
Va meni quyoshga
Yo‘llagan qo‘llar.
So‘lg‘in nigoh bilan anglatdi onam
Umrning ilk so‘zi,
So‘ng nafasini.
Oxirgi fursatda shivirlab u ham
Ohista chaqirdi
o‘z onasini.

Umrga chek qo‘ydi...
Bir on,
Bitta on...
Yurak iztirobda,
Yurak oromsiz,
Dunyodan
Bir asr
ko‘chdi begumon,
Kelajak asrlar
Qoldi onamsiz.
Asrlar,
Jonlanib
Faryod soldilar,
Asrlar
Men kabi
Yetim qoldilar!
Dunyoda kecha bor,
Dunyoda kunduz.
Asrlar jonlanib
Dedi shunday so‘z:
O‘stirdi bag‘rimda
Seni mehribon —
Onang,
Onalarga
Ona u inson!

Onalar qo‘li gul
Avlod tug‘sa ham,
Bir buyuk hunardir
Onalik asli.
Onalar dunyoda bo‘lmagay hech kam,
Ular asrlarga tengdosh emasmi?!

Avlodlar ayrildi
O‘z onasidan,
Yetimlik tushdi, oh,

She'rga, san'atga.
Hatlarkan o'lmaslik ostonasidan
Bir ona qo'shildi abadiyatga!
Yel esdi,
Entikib oh chekdi tog'lar.
Osmon qayta-qayta
To'kdi qorini.
Onalar hayotdan
Ko'z yumar chog'lar
Bizga qoldiradi
O'z viqorini.
U yotar,
bolishi —
Yer kurrasidir.
Billurdan saroyi.
Gumbazi — osmon.
Uy bilan tutashsin
Ona qalbi deb:
Ko'k belbog' bog'larmish
Ko'k ham har zamon.

Yoningga kelganda,
Onajon, har gal,
Yuragim ochaman
Yana va yana.
Sog' bo'lsam men senga
Bir tirik haykal,
O'lsam-chi
San'atim haykaling, ona!
Shu sabab deymanki,
Ona senga boz,
Shoir qilib tug'ganing
Bo'lgan juda soz!
Qara, xayolotda,
g'amli onimda —

Qizim, katta qizim
turar yonimda.
Sochimda kezadi
Uning barmog‘i,
Qaytganga o‘xshaydi.
Bolalik chog‘im...
Qizim onaginam —
So‘rogi misol,
Ulkan bir chinorning
Butog‘i misol.
Qizim parixonim...
Qarayman yana...
Hayotning ko‘p ajib hikmatlari bor.
Bizga borlig‘ini baxsh etgan ona,
Qarang, otini ham qilibdi yodgor.

Qoldirmish borliqda
O‘ziga timsol,
Nigohi nabira
Ko‘zida qoldi...
Olib ketibdi u
Keksaligini,
Yoshligi o‘g‘li-yu,
Qizida qoldi.
So‘zlari she’rimning
So‘zida qoldi.

QUYOSHNING SINGLISI

(Doston)

Sevil G‘oziyeva xotirasiga

Kuz edi... Xo‘rsinib yuz ochdi sahar,
Yetishdi kuz qadar
G‘amli bir xabar:

Dedilar, Miyl duzi[1] qoldi Sevilsiz,
Beomon qayrildi qo'lim-qanotim.
Yellar nag'masini chaldi Sevilsiz
Bu sahar, —
Dedilar,
Men inonmadim.

Araz ko'z yosh kabi
Suzildi, oqdi.
Quyosh yig'lar bo'lib
Cho'llarga boqdi,
So'ngsiz o'y-xayolga toldi Sevilsiz,
Dalalar bag'riga tashladi odim,
Dedilar, Miyl duzi qoldi Sevilsiz,
Naqadar, —
Dedilar.
Men inonmadim.
Uyg'onib saharning
Xush yeli ila.
Sahro oh tortadi
Oq dili ila.
Tag'in bir gul-chechak so'ldi Sevilsiz.
Qush bo'lib uchmakka imkon topmadim.

Dedilar, Miyl duzi qoldi Sevilsiz,
Dedilar,
Dedilar —
Men inonmadim.
Xabarlar oqdilar cho'l ila kentdan,
Oqmasaydi koshki, tinsaydi bu kez!
Hayotni bu qadar yurakdan sevgan,
Hayotdan bu qadar nega ketsin tez?
Xabar keldi, so'roq yetdi,
Chor atrofni bosib ketdi.
Bu tog'larda, bu cho'llarda

[1] **Duz** — dasht, cho'l.

Yosh umrning izi bordir,
Izi bordir,
O‘zi bordir.
Zag‘otala tog‘laridan
Sado kelur,
sado kelur.
Ko‘ngillardan ko‘ngillarga
Xabar kelur,
nido kelur.
Tog‘larning-da yuragida
Aytilmagan so‘zi bordir.
Tog‘lar deydi: “Hayot nadir?
U — jasorat...
U zahmatdir.
Haqiqat bor afsonadir,
Afsona bor haqiqatdir”.

BIRINCHI SADO

Sahar...
Singib ketdi chang-da, tuman-da.
Sahar...
Cho‘qqilardan bulut dag‘ildi[1].
Tog‘larning boshida quyosh tug‘ganda,
Tog‘larning qo‘ynida bir qiz tug‘ildi.

Suvlarga chayildi shafaqlar yuzi,
Onalar o‘g‘liga mayin kulibdir.
Ajabo, bildimi quyoshning o‘zi?
Dunyoga eng yaqin do‘sti kelibdir!

Kun kechar, kun to‘lib yongan pallalar
Ul qizning xushchaqchaq kulgan chog‘iydi.
Quyoshning nuridan tushgan tolalar
Sevilning sevimli o‘yinchog‘iydi...

[1] **Dag‘ildi** — tarqaldi.

Yetmoq istar edi, yeta bilmasdi,
Quyosh ham unga xo‘p yaqin kelardi.
Tutmoq istar edi, tuta bilmasdi,
Qiyqirib kulardi, xandon kulardi.

Onasi so‘ylardi:
— Mehribon qizim,
Quyosh ham bir qizdir... Ufqlarga zeb —
Go‘zal shafaqlarni, ey jayron qizim,
Aytarlar quyoshning gajaklari deb.

Qizcha so‘yladiki:
— Ona, hoy ona,
Mening ham gajagim uzun-ku, uzun,
Har doim chiqqanda cho‘llar qo‘ynina,
Mening ham quyoshdek gajagim bo‘lsin.

IKKINCHI SADO

Umidlar, tilaklar so‘ngsiz osmon...
Yurakdan yurakka quyilmishdi u.
Hali bu dunyoda ko‘z ochmagan on,
Necha ming orzuda tug‘ilmishdi u.

Olovli tuproqda hurlik bayrog‘i
Porladi kun misol, tug‘di kun misol.
Aziz Ja’farimiz u tunlar chog‘i
Bugungi Sevilni qilmagan xayol.

Naqadar xush keldi yil ortidan yil,
Mehnat umrimizning ma’nosi bo‘ldi.
Zulmatli chachvondan qutilgan Sevil
Ming-ming Sevillarning onasi bo‘ldi.

Vurg‘unning nag‘masi oshib-toshganda
Zahmat bulog‘idan qizlar suv ichsin.

So‘ngsiz dalalarda marza[1] ochganda,
Sevil u yerlarda rohatli kechsin.

Unda bir zaminning qudrati bordir,
Qudratki, arziydi madh-u sanoga.
Kecha tug‘ilganda Hojar bo‘lardi,
Bu kun Sevil bo‘lib keldi dunyoga.

Chiroyin ko‘rsatdi mehnat va amal,
Dunyolar eshitdi uning sasini.
U yozdi yurtimda o‘zi barkamol
Yillarning toza bir sahifasini.

UCHINCHI SADO

Oppoq dala, oy maydon...
Orzu toza... shaffof so‘z.
Qadrdon do‘stlarsimon
Chiqdi ular yuzma-yuz;
Quyosh yurakli Sevil,
Sevil yurakli Quyosh,
Quyosh gajakli Sevil,
Sevil gajakli Quyosh.

TO‘RTINCHI SADO

Sahar... Sabza nurlar sehrini sezib
Insonlar uyg‘onar Yerning yuzinda.
Quyosh ufqlardan qarab, bo‘y cho‘zib,
Sevilin axtarar Miyl duzindan.

Eng aziz do‘st atar quyoshni Sevil,
Shafaqlar eng oldin shu yerga tushar.

[1] **Marza** — egat, jo‘yak.

Har kun intiq kutar quyoshni Sevil,
Quyosh ham Sevil-la xursand ko'rishar.
Quyosh yaqin kelar,
Kelar va deyur:
— Azizam, jon singlim,
Sabohing xayr![1]
Xayrixoh o'lkaning xayrixoh qizi,
sabohing xayr!
Sen, ey sahar do'sti, ey səboh qizi
sabohing xayr!
Xayrixoh o'lkaning xayrixoh qizi,
sabohing xayr!
Dashtdan shamol esar sarindan sarin,
Quyosh kulimsirar: — Qandaysan, singil?
— Yaxshiman!
— Qizarmish shahlo ko'zlaring,
Yoki dam olmading tunda san, singil?
— Dam olmoq doim bor, — qiz kuldi, boqdi,
Sasiga sas berdi Kur ila Araz.
— Bilarsan, Quyoshim,
yilning bu vaqti
Dam olmoqning o'zi yodga ham kirmas!
Go'yo sas yoyildi cho'l-u chamanga:
— Soz deyar,
Soz deyar Sevil!
Borimizni bermoq lozim Vatanga,
Naqadar aqlli so'z deyar Sevil!

Quyosh olovlandi, misli javohir
Nurlar dastasini tuproqqa soldi:
— O'zbek diyoridan kelyapman hozir,
Tursunoy opamiz salom deb qoldi.

— Sog' bo'l, tongda uni ko'rsang agar san,
Sevildan ko'pdan ko'p salom aytarsan.

[1] **Sabohing xayr** — hayrli tong.

Dala ham so‘zlandi... qalqidi so‘zlar:
— Salom aytarsan!
Ufqlarning tagidan qichqirdi qizlar:
— Salom aytarsan!
Chamanlar ol-alvon gul ochib dedi:
— Salom aytarsan!
Butun Ozarbayjon dil ochib dedi:
— Salom aytarsan!

Tursunoy... Bir urar yuraklarimiz,
Oq-oppoq dalalar ko‘zga to‘tiyo,
Chog‘i tez fursatda ko‘risharmiz biz,
Yurakkinam shuni sezganday go‘yo.

Sayr etib duzlarni,
Kuldi ko‘zlari:

— Ko‘rishamiz biz!
So‘yladi ilhom-la,
Imon, in’om-la:
— Ko‘rishamiz biz!

Orzular sonsizdir, umrlar kalta,
Orzular keladi dilga bepoyon.
Dunyoda yo‘q esa ishonch agarda,
Qanday yashardiykin, ajabo, inson?

Inson bir dengizdir, sirli bir dengiz,
Desang, to‘fon kelar asta, inonmas.
Desangki, tong otar, tong otar sensiz,
“Qo‘ysang-chi!” — deydi-da, kular, inonmas.

— Bas, u qog‘oz nadir, so‘yla, ey Sevil?
— Bumi?
— Ko‘rsat qani...
— Buyum emas, bil!

— She'rmi? Unda, o'qi, quloq osay man,
Quyosh ham she'rlarni sog'inar ba'zan.
Sevilning qalbida — quyoshning o'ti,
Quyoshning o'ziga bir she'r o'qidi:

"To'planaylik, do'stlar, qatorma-qator,
Zahmatda birlashsin ham ellarimiz.
Har po'lat moshinda asr kuchi bor,
Kulsin yurtimizda amallarimiz.

Qo'y, pombig' tog'lari yetsin to osmon,
Vatan so'lish bilmas gul, bahor bo'lsin.
Dalaga — moshinlar, muzeyga — ketmon:
Bu so'z dilimizda bir shior bo'lsin!"

Misralar, misoli kamalak — chega,
Chevrilib, sahrolar ustiga yoyil!
"Dalaga — moshinlar, ketmon — muzeyga!"
Bu oltin so'zlardir, Sevil, ey Sevil!

Cho'llar ham saslandi, rozimiz, deya,
Hosilga ochilsin bag'rimiz har yil.
"Moshinlar — dalaga, ketmon — muzeyga!"
Bu oltin so'zlardir, Sevil, ey Sevil!

Sevil shiringina kulimsir shu dam...
Paykal egat-egat, marza — chig'irdir.
Menim Quyosh opam, bilmaydi kim ham,
Pombig' o'zi yengil, ishi og'irdir.

Kulsin chaman kabi butun orzular,
Har chechak nasibi gul, chechak bo'lsin.
Bilarsan, dilimda ne tilagim bor?
Pombig' yig'gan ellar pombig'dak bo'lsin!

Bizning yangi hayot qurgan vatanda
Bu ishq ila ursin yuraklarimiz.
Inson posbon bo'lib turgan vatanda,
Kamoli go'zallik posbonimiz biz.

Xaloslik — moshindan, moshindan yolg‘iz,
Axir, bir yo‘l kelar har kas jahonga.
Hattoki tug‘ilsa go‘dak, o‘g‘il-qiz
Yarim-yorti bo‘lib kelmas jahonga.

Bekor yurganki bor, ne-ne yalqov er,
Sabog‘in olajak zamon, kezlardan.
Uyalsin choy xonada oqizganlar ter,
Dalada ter to‘kkan shaddod qizlardan.
— Soz deyar,
— Soz deyar,
— Soz deyar, Sevil!
Naqadar aqlli so‘z deyar Sevil!

Esar vodiylardan
Epkin-u epkin.
Do‘stlarning suhbati
Uzandi lekin:
— G‘aroyib mardlik bor insonda, Sevil,
U — yer quyoshidir jahonda, Sevil.

Bilarman, ey singlim, o‘z zahmating-la,
Shimol qutbiga ham borib kelursan.
Qalbingdan berajak harorating-la
Sovigan qalblarni maftun qilursan.
Sen bahor toleli ona o‘lkada
Dashtlarga chiqarsan insonlar uchun.
Pombig‘lar yig‘massan, singlim, balki-da,
Harorat yig‘arsan insonlar uchun.

— Cho‘llarning siynasi har qachon, Quyosh,
Sening-la bahor-u yozga qovushar.
Pombig‘ o‘stirolmas tirik jon, Quyosh,
Sening harorating bo‘lmasa agar.

— Uchdi fazogirlar,
Ko‘rdim, sevindim,
Yondashib salomlar

Berdim, sevindim!
Uchdi Valentina,
Ko'p baland uchdi,
Bag'riga bosarkan
Ko'k uni quchdi.
Ko'p baland uchdi...
Ne zarif parchadan kiymishdi libos.
Sevdim jur'atini, haroratini.
Sening bilan eltdi, do'stlar, to kosmos
Sening ellaringning haroratini.

Esdi vodiylardan
Epkin-u epkin.
Do'stlarning suhbati
Uzandi lekin.

Yana-da shafaqlar chiylaydi[1] quyosh,
Dalalar so'ngsizdir, go'zal beqiyos.
— Singlim, horib qolma,— so'ylaydi quyosh, —
Mashinangni bergil, men suray biroz.

Mashina vodiyga yangi sas solur,
Boqar, kulimsir qiz, ko'zida sevinch.
— Oqshomga hozircha bir oqshom qolur,
Horimoq! Yo'q, opam, horimasman hech!

Mashina vodiyga yangi sas solur,
To'lqinga tushirur pombig' dengizni.
Qo'llar bormay turib, o'zlari kelur
— Yig'a qol, mashina,— degancha, — bizni!

Zahmatning ne yaxshi chog'idir, Sevil,
Men tuta bilsaydim sening baringdan.
Yellar tolalarin yoyibdir, Sevil,
Yig', bog'la, tut, singlim, gajaklaridan.

[1] **Chiylamoq** — eshmoq, yoymoq.

BESHINCHI SADO

Naqadar go'zaldi
Miyl duzi, do'stlar!
Go'zaldir oqshomi,
kunduzi, do'stlar!
Miyl bo'yi odimlab, kezib havasmand,
Suvdan sof bo'larsan,
chinordan baland.
Boqarsan... Yuraging
nurga bo'yanar,
Tag'in bir quyoshning
avjida yonar.
Kezarsan ilk daf'a
kezganlar misol,
Qalbin vodiydan keng
sezganlar misol.
Muattar shamollar yoningdan kechar,
Araz ham jildirab qoningdan kechar.
Sevil dalalari bo'ylashur bugun,
Miyl o'zi Sevil-la so'ylashur bugun.

Miyl:
Men bir tuproqdirman, bir tuproqdirman,
Kechmish-kechirmishdan tamoman xoli.
Buyuk bir kitobdan bir varaqdirman,
Inson ilgi hech na bitmagan hali.

Kadarsiz dunyo bor, men o'zim borman,
Borman qishlarim-u bahorlarim-la.
Baxmal o'tlarim-la yerda yotarman,
Ko'klarga qalqiyman chinorlarim-la.

Ko'klardek yuksakdir muhabbatim ham,
Ishqim teranligi ko'kning qa'riday.
Mening boyligim ham, saxovatim ham
Azaldan qadrimni bilganlarida.

Sevil:
Men seni sevaman, aziz Miyl duzi,
Bunda xotiralar yig'in-yig'indir.
Sen, ey chechak duzi, sen, ey gul duzi,
Yuzingning oqligi oq pombig'ingdir.

Miyl:
Quloq os, so'zim bor, ey qizim Sevil,
Bizlar — uchov qardosh: Shirvon, Mug'on, Miyl!
Yozda chechak ochib, qishda so'lmishdik,
Tarixning o'ziga sirdosh bo'lmishdik,

Dunyo tug'ilganda biz tug'ilmishdik.
Bizlar — uchov qardosh: Shirvon, Mug'on, Miyl!
Ba'zan yotlar keldi qo'llari qonli,
Yellar kun kechirdi ohli, fig'onli,
Turmishdik tog'lardek boshlar tumanli
Bizlar — uchov qardosh: Shirvon, Mug'on, Miyl!

Asrlar o'tmishdi bulutlar yanglig',
Ishqimiz gurkirab umidlar yanglig',
Qalqmishdik tuproqdan ko'k o'tlar yanglig',
Bizlar — uchov qardosh: Shirvon, Mug'on, Miyl!

Biz ne-ne kechani sahar etmishdik,
Siynada dog'larni zahar etmishdik,
Manglaydan to'kib ter Xazar etmishdik,
Bizlar — uchov qardosh: Shirvon, Mug'on, Miyl!

Bizga Ozarbayjon bir koinotdir,
Semurg' ulug' qushdir, ufq — hayotdir,
Araz bir qanotdir, Kur bir qanotdir,
Bizlar — uchov qardosh: Shirvon, Mug'on, Miyl!

Sevil:
Menim o'z elimsan, elim, ey Miylim,
Nechog' mehribonsan, Miylim, ey Miylim!

Miyl:

Ilging-la hurmatim sarbaland bo'ldi,
Porloq yog'dularga yo'g'rilaman men.
Oy qizim, kim deyar: "Miyl qarib-so'ldi?"
Har bahor qaytadan tug'ilaman men.

Sen el shuhratini bir kitob etding,
Yangi umr berding menga hayotda.
Sen qizim, yangi bir inqilob etding,
Bayrog'ing hilpirar yuz-mingdan oldda.

Sen bir dengiz bo'lib mavjlarga to'lding,
Mag'rur sado berding butun jahonga.
Sen bir yulduz bo'lib nurday quyilding,
Ming-ming yulduzi bor Ozarbayjonga.

Sevil:

Sening zahmating-la kezdim vatanni,
Sensiz kim tanirdi, tanirdi mani?

Miyl:

Oy qizim, deymanki, so'zing tuzukdir.
Yo'q endi, Miyl duzi Sevil duzidir.
Ishing-la dunyoni qo'yganda hayron,
Zafar tilagayman barchadan oldin.
Sen tunda misralar shivirlagan on,
Seni tinglagayman barchadan oldin.

Sevil:

Sensiz she'r-u g'azal yozmasman biror,
Beshak o'zingdirsan buyuk shoir ham.
Siynangdan bir yurak olar kuch-mador,
Ilhoming ufqdek so'ngsiz,
muhtasham.

Miyl:
Dunyo kitobining sahifasida
Men, balki, bir misra, kichik qasida.
Sevil dalalari bo'ylashur bugun,
Miyl o'zi Sevil-la so'ylashur bugun.

OLTINCHI SADO

Oqshomdir... Ufqlar yonadi qizil,
Cho'llarga osuda, jim boqurman men.
Quyosh pichirlaydi:
— Hozircha, Sevil!
Seni Miyl duziga topshirurman men.
Quyosh nur chiyladi:
— Saboh ko'rishaylik,
— Hozircha, — dedi.
Sevil qo'l silkitdi:
— Saboh ko'rishaylik,
— Hozircha, — dedi.
Kun botdi,
Shafag'i yuzlarda qoldi,
Miyl quyoshi-chi, duzlarda qoldi.

Oqshom shu'lasida yuzar qoya, tog',
Ufqlar libosg'a burkangan tamom,
Oqshomlar juda ko'p dunyoda, biroq
Bo'lmagandir bunday fojeli oqshom.

Ne bo'ldi mashina,
Nega qoldi jim?
Ne uchun qoshlaring
Chatildi, singlim?
Ne uchun qoshlaring?..
Sen tushding-u pastga... bir on... shu zahot..,
Motor o'chirmading, unutding, hayhot!

Turgil, ey singlim,
Bo'lgil, ey singlim!
Shamollar sochingning chin oshig'idir,
Hushyorlik — mardlikning yarashig'idir!
Quloq sol, singlim,
Oyjamol, singlim!
Ey motor, jim bo'l-da... so'zim bor, axir!
Senga soch, zulflar to'qinmoqdalar!
Mashina, quloq sol, kishi so'ziga...
Dunyodan yigirma uch bahor ketar![1]
Kelinlik kuniga,
Go'dak iziga
Intizor, intizor, intizor ketar...
Sarin buloqlardan suv ichmishdir u,
Hali bilmasdi u, muhabbat nedir.
Hech kimga qilmagan izhori tuyg'u,
Miyl uning ilk ishqi, ilk sevgisidir.
Ey singlim, jim qolma, so'ylagil darding!
Qanday bezatardi sochlaring seni.
Sen qaydan tushunib, qaydan bilarding,
Sochlaring o'limga eltajagini.
G'azabli nag'malar titratar yerni,
Ey jo'sh ur, Araz, sen,
Kur, sen netarsan?
Miyl duzi, anglagil, bu foje sirni:
Senda quyosh so'nar,
qanday chidarsan?
Qara, hech to'ymaydi o'limning ko'zi,
Hayot navrastasin to'zg'ita boshlar.
Uning deyilajak "Sevaman" so'zi
Har qaysi yurakni muz eta boshlar.
Og'ir qo'llari-la qoqarkan qanot,
O'lim nishon oldi, tez nishon oldi,
O'lim bilmasdiki, o'lmas bir hayot,
Nishonga olganda nishona qoldi.

[1] Paxtakor qiz Sevil G'oziyeva 23 yoshda halok bo'lgan.

Qurboni bo‘ldimi axir bir onning
Jasorat farzandi,
el chevar qizi
Onamiz qadarli Ozarbayjonning
Kim necha kishiga baravar qizi?
Tuproq o‘z qo‘yniga oladi, esiz,
Kim der: u o‘lim-la barishon bo‘ldi?
Sevilim o‘lmadi,
o‘lmadi, yolg‘iz
Tarangan gajaklar parishon bo‘ldi.
Tag‘in bir oh chekdi oqshomgi shamol,
Tin oldi shoirning yuragi behol.
Qoldi so‘z yarimchig‘, misra yarimchig‘,
Qoldi misra kabi sahro yarimchig‘.
O‘ylandi g‘urbatdan zalvarli tog‘lar,
So‘ylandi qudratdan viqorli tog‘lar:
— Bo‘ldi, o, zahmatdan viqor yarimchig‘,
Qoldi qish yarimchig‘, bahor yarimchig‘.

Orzular yarimchig‘ uyqular misol,
Yillar jildiraydi sho‘x suvlar misol,
Bir umr nag‘masi ketdi yarimchig‘,
Hayot kitobini bitdi yarimchig‘,
Yer so‘ylar... ko‘k so‘ylar... saslanar jahon,
Yulduzlar izidan yulduz to‘kildi.
Buyuk bir qadarning og‘irligidan
Aftoda Miylning beli bukildi.

Miyl:
Bir umrning jasur nag‘masi bitdi?..
Ey, o‘lim, men seni vayrona ko‘rgum?
Uni Quyosh menga topshirdi-ketdi,
Saboh men Quyoshga ne javob bergum?

Oh, dahshatli xabar
Keltirdi yellar,
Ortiq jo‘shgusidir ko‘ngil suvlari.

Har ikki sohilda, bilsangiz, ellar,
G‘amdan Savalanning eridi qori.

Zog‘otala tog‘lari:
Siz g‘amga botmangiz, ey cho‘l, ey chaman,
Boshlanur qizimning to‘yi, degayman.
Ey, mening qo‘ynimda dunyoga kelgan,
Mening qo‘ynimdadir uying, degayman!

YETTINCHI SADO

Sahar... sabza nurlar şehrini sezib,
Insonlar uyg‘onar Yerning yuzinda.
Quyosh ufqlardan qarab, bo‘y cho‘zib
Sevilni axtarar Miyl duzindan.
Eng aziz do‘st atar
Quyoshni Sevil,
Har kuni intiq kutar
Quyoshni Sevil.
Quyoshning gapi bor,
Demak istayur:
— Sabohing xayr!
Sen, ey saboh qizi,
Sabohing xayr!
Xayrixoh tuproqning xayrixoh qizi,
Sabohing xayr,
Bas, bu kun, u qani?
Qani u, qani?
Quyoshning nidosi
tutar dunyoni.
Chaqirar: qaydasan?
Sevil, qaydasan?
Chamanli yerdami, cho‘lli yerdami,
Degil, qaydasan?
Dasht, yobon yerdami, mo‘lli yerdami,

Gajakli go‘zalim, mohdil, qaydasan?
Yuraklar qaytadan bahor-bahordir,
Ko‘ngli bahor singlim, bu kun qaydasan?

Sening zarralaring har yerda bordir,
O‘zing qaydasan?
So‘ngsiz sahrolarga zar tizgan Quyosh
Sevilni topmaydi Miyl duzindan.

Qachonlar Sevil-la bir kezgan quyosh
Jimib, tinib qoldi Zamin yuzinda,
Tag‘in so‘zga kirdi saharning yeli.

Miyl dedi:
— Aytganing qilmadim, Quyosh,
Sen menga topshirib ketding Sevilni,
Sevilni, oh, asray bilmadim, Quyosh!
Go‘yo alamlandi,
Quyosh o‘rtandi,
Ul ham inson kabi
qahrlandimi?
Go‘yo bir kadarli
otash-la yondi,
Yondi tug‘yonsaro
bir yurak kimi.
Balki, bir uyqudir... balki, bir sahar,
Balki, tun kechadir! Kecha yaridir?
Yo‘q, shafaq ham emas, shafaqlarning zar,
Billurdan to‘kajak ko‘z yoshlaridir.
Quyoshning ko‘zlari
Tog‘da, soydadir.
Quyoshning dardi ham
O‘shal oydadir.
Axtarar u yana, axtarar yana,
Suyumli bir nag‘ma oqar qalbina,
U nag‘ma kimniki, ohli jon kimdir,
Ohli jon mehribon — mehribon kimdir?!

SEVILNING QO‘SHIG‘I

Ko‘rsangiz, bir o‘zi o‘sar sambittol,
Biling, men o‘sha!
Arazga cho‘kib suv ichar sambittol,
Biling, men o‘sha!
Viqorli mavjlanib jo‘shib ketar Kur,
Biling, men o‘sha!
Quyosh yuragida quyosh ko‘rinur,
Biling, men o‘sha!
Naqadar bahor bor Ozar elida,
Biling, men o‘sha!
G‘aroyib chinor bor Ozar elida,
Biling, men o‘sha!
Hayot nag‘masini chaladir Miylim,
Biling, men o‘sha!
Asrdan asrga qoladir Miylim,
Biling, men o‘sha!
Nag‘ma oqar buloq kabi,
Dilni bosgan g‘am, oh kabi.
Yerdan ko‘kka nag‘ma qalqar,
Ko‘kdan yerga nag‘ma oqar.
Ko‘ngillardan ko‘ngillarga
Nag‘ma birla nido kelur.
Yerdan ko‘kka sado ketar,
Ko‘kdan yerga sado kelur.
Bu tog‘larda, bu cho‘llarda
O‘lmas umr izi bordir.
Izi bordir,
O‘zi bordir.
Tog‘larning-da yuragida
Dunyo qadar so‘zi bordir.
Tog‘lar deydi: Hayot nadir
U — jasorat... U zahmatdir,
Haqiqat bor afsonadir,
Afsona bor haqiqatdir.

XOTIMA

Tog‘ sukut ichida, ummon o‘y surar,
Seni ko‘rurman.
Miyl alam ilgida, Mug‘on o‘y surar,
Seni ko‘rurman.
Quyosh tuproqlarga to‘kar zarini,
Tarar sambittollar gajaklarini,
Seni ko‘rurman.
Ana, vodiylarim bir afsonadir,
Turnalar qaygadir uchib boradir,
Seni ko‘rurman.
Bahor quchib olsa chamanzorlarni,
Qaldirg‘och tugatib qaytsa safarni,
Seni ko‘rurman.
Yoshlar qurultoyda to‘plansa bu kun,
Isming dudoqlarda juftlansa bu kun,
Seni ko‘rurman.
Uyga g‘arq, men kunlar sanab bedorman,
Men sening yoningda bir gunohkorman.
Tirik ekaningda yozmadim nechun,
Bas, nega, so‘z bitib turibman bugun?!
Yozarman so‘zim-la, dildan mehrim-la
Madh etib shavkating, nomus-oringni
Ulug‘lasam, qani, misra, she’rim-la
Men sening yarimchig‘ misralaringni!
Nahot ayrilsak biz?!
Ey qalam, hargiz
Alvido demakka tilim bormaydi,
Jur’at yo‘qdir menda tark etmakka miz[1],
So‘ng nuqta qo‘ymoqqa qo‘lim bormaydi...

Tongda Miyl duzidan
O‘tganimda men,
U ona cho‘llarga

[1] **Miz** — stol.

Yetganim mahal,
Qoshimga eng avval
Chiqajaksan sen!..

Endidan ko'rurman sening haykaling,
Saboh gul, chechakka o'ranajakdir.
Beshak men ko'rurman:
Sening haykaling
Butun Sharq elidan ko'rinajakdir.
Nasllar kelajak...
Qalbida istak...
Kelajak nasllar orzusi haqdir!
Sochlarin quyoshning shafaqlaridek
Miyl shamolida tarayajakdir.
Mehribon quyosh ham chiqar chog'inda
Senga boqajakdir dilida armon.
Men ham qaytarman-da ish o'tog'imga,
Oxirgi nuqtani shunda qo'yarman.

IKKI XAZAR

(Doston)

Do'stim Kara Karayevga

Yana dunyo uzra
Abri naysonlar,
Ko'zlarimni ochdim navbahor fasli.
Eshiting,
Eshiting
Meni, insonlar!
Xazarning tubidan so'zlayman, asli
Ketgan bo'lsam hamki yigit yoshimda,
Men ham mangulikka qovushgan jonman.
To'fonli oqshomda, qorli oqshomda
Dengizning tubida
Qolgan insonman.

Eshiting, insonlar,
Qalbimda toshqin,
Suv uzra yoyilgan sinmas qanotim.
Sizning qalbingizni yondirsin bukun,
Qo'shiq bo'lib qolgan
Qisqa hayotim.

NEFT TOSHLARINING QO'SHIG'I

Men shunday shaharmanki,
Shaharlarning shahari,
Suvlar nag'makorimdir,
Insonlar viqorimdir.
Qo'shilganman dengizga
Havo kabi, hayot kabi.
Sirilganman bu suvga
Qanot kabi,
Qanot kabi.
O'z sevgim-la, o'z otim-la
Bog'landim shu diyorga.
Xazar metin qanotim-la
Yoyilardi ufqlarga.

Og'ir mehnat sadosini
Kelajakning yo'llariga
Kengliklardan ko'chirgayman.
Mag'rur Boku jamolini
Ulkan metin qo'llarim-la
Dengiz uzra uchirgayman.

Qo'shiq der dudoqlarim,
Qalbimdan nurlar toshmish.
Shafaq bo'lib sochilmoq-chun.
Mening po'lat oyoqlarim

Yerga mahkam tayanmishdir
Oy, quyoshga yetmak uchun.

Kelur do‘stlar qator-qator,
Minnatdorman,
Inson o‘g‘li!
Men hamisha borlig‘ingda
Yashagayman,
Inson o‘g‘li!
Tarixda ham hech bo‘lmagan
Bunday shahar,
Inson o‘g‘li!
Boshim uzra shamol o‘ynar,
U sasingdir,
Inson o‘g‘li!
Yonoqlarga yopishgan yel —
Nafasingdir,
Inson o‘g‘li!
Bu dunyoda hech bo‘lmagan —
Bunday shahar,
Inson o‘g‘li!

SEVGILIMNING QO‘SHIG‘I

Har bahorda erib
Ketgan tumandir,
Yo‘qsa tush, uyqudir u xushbaxt zamon.
Balki, bir asrdir,
Balki, bir ondir
Bizning oramizda yotgan bu hijron.
Tinglagin,
Tinglagin
Ey, aziz Inson,
Sensan hayotimning quvonchi, dardi.
...Har daf’a dengizdan qaytganing zamon

Sendan bo‘ronlarning hidi kelardi.
Sen endi qaydasan?
Kimlar aytar, kim?!
Men seni izlayman
Kunduzim, tunim.
Ey, dengiz bo‘yligim,
To‘fon bo‘yligim,
Endi bo‘ying kelar dengizdan sening!
Tinar g‘amli dengiz,
Tinar sho‘x dengiz,
Beorom sohilga ko‘p sirlar singgan.
Ey, menga saodat berguvchi dengiz,
Ne uchun falokat yubording menga?!
Yulduzlar,
Ol alvon chechaklarimiz,
Ko‘rishdik ilk daf’a bu sohilda biz...

Sen:
Moviy suv xayolim yoyar qumlarga,
Dengiz ko‘pirar.

Men:
Mayli, ko‘pirsin!

Sen:
Marvarid qumlarga,
Qizil qumlarga
Inju sepilar!

Men:
Mayli, sepilsin!

Sen:
Bor bo‘l, qoyalarga
Bosh urgan Xazar!

Men:
Ingragan,
Oh urgan,
quturgan Xazar!

Sen:
Shoyadki sevgimiz baxt ato qilsa:
Ismi Xazar bo'lur, o'g'il tug'ilsa!

Endi taqdirimda ikki Xazar bor,
Sendan yodigordir, sendan yodigor.
Birisi chayqalib turar poyimda,
Birisi yashaydi endi uyimda.
Xazar sening o'g'ling,
Bizning o'g'limiz,
O'sha kech...
O'sha kech...
Keldi dunyoga...
Uyqusiz qishloqda so'nganda yulduz,
O'sha kech...
O'sha kech...
Keldi dunyoga...
Tanish inga-inga...
Qadrdon sado
Yetsin qulog'ingga shu oppoq sahar.
Bizdan Xazar seni yulib olsa-da,
Seni olib keldi
Farzanding Xazar.

HALOK BO'LGAN BURG'U QO'SHIG'I

Quyoshdan bahramand
Bo'lgan burg'uman,
Qalbimda guvullab qaynar qora qon.
Hayotga, qudratga to'lgan burg'uman,

Men ham yashaganman
Bamisli inson!
Dengiz uzra shomlar
Quyilgan mahal
Belab turar edim borliqni nurga.
Po'lat siynamdagi kichkina mash'al —
Olis oroldan ham
Ko'rinib turgan.
Chirog'im nur sochib
Turardi har on,
Unga qo'shiq bitgan shoir bir zamon:

Zim-ziyo tun, dengizda
Bir chiroq ochiq yonar.
Shamol ham zulumotga
Achchiqma-achchiq yonar.
Dengizda chiroq yonar.
Nur sochar yulduz misol,
U yonar, yiroq yonar.
Kichkina shu'lasidan
Go'yoki zulmat yonar,
Dengizda chiroq yonar.
Matonat yarashur
Insonga bunda,
Yarashgay orzular, hislar yolqini.
Osmonga sapchigan bu suv ichinda
Tahlika va o'lim
Qurshagay uni.
To'fon bosib kelar,
Kelar hayqirib...
Zarbadan qiyshaygan burg'u bemalol
To'fonga basma-bas, siynasin kerib
Mag'rur halok bo'lur
Dengizchi misol.
Bunda shamol kezar,
Chayqalar to'lqin.

Tahlika domida ish qaynar tengsiz.
Burg‘ular tiklanar,
Zo‘rayar shovqin,
Peshona teriga o‘xshaydi dengiz.
Shamollar to‘lg‘onar metin orolda,
Dolg‘alari!..

Dolg‘alar siynasida o‘ch.
Dolg‘alar kelishi unutilar, ha,
Dolg‘alar ketishi unutilmas hech...

Erta tong...
Sukunat...
Ufq sof va keng...
Suv uzra sirg‘alar dengiz shamoli.
Yiroq-yiroqlarda cho‘zilgan qirg‘oq
Jimirlab yotibdi
Sarob misoli.

Dengizga qapishgan oppoq bulutda
Vahshiy jalalarning qudrati pinhon.
Bilsangiz, beg‘ubor,
ma’sum sukutda
Yashrinib yotadi dahshatli suron.
Xazarning angori bo‘zardi birdan,
Biz boqdik...
To‘fonga yuzma-yuz va jim.
O‘zimni insondan ayirmadim men,
Inson-la tug‘ildim,
Inson-la o‘ldim.

Dolg‘alar qalqir shitob,
Har dolg‘a bir ajdaho,
Katta ochib og‘zini,
Na’ra tortar:
Ho... Ho... Ho...

Bo‘kirar vahshiy shamol,
Chovut solar dengizga,
Zulmat ichra qaldiroq
Ho‘mrayib turar bizga.
Har dolg‘a bir ajdaho:
Ho... Ho... Ho...

Dolg‘alar mendan baland,
Hayqirar qo‘sha-qo‘sha.
Dolg‘a yuz dolg‘a bo‘lur
Ustimdan osha-osha.
Dolg‘alar kelar shitob:
Ho... Ho... Ho...

Dolg‘alar uyur-uyur,
Kattakon dolg‘a deyur:
Sizni hozir yutgayman,
Keyin tinchib yotgayman,
Har dolg‘a bir ajdaho:
Ho... Ho... Ho...

Oqshom... To‘fon ham charx urayotir,
Sohilda qishloqlar olar xavotir.
Oldinda — xatarli, uyqusiz kecha,
So‘ngi yo‘q kecha...

Dolg‘alar quturib
Keldilar yana,
Chambarchas bog‘landi inson qo‘llari.
Yuksakda chayqalib turar mardona:
Telegraf simlari,
umid yo‘llari!
Telefon jiringlar,
Jiringlar uzoq.
Bir lahza tutashar umid, hayajon,
Simning bir uchini ushlagan qirg‘oq,

Ikkinchi uchiga
Yopishgan makon...

Mana u entikar
Titrar qo'llari,
Tezroq ulang, deydi, tug'ruqxonani.
Shu tobda jahonning barcha ellari
Tinglayotganday bo'lar go'yoki uni.
Qirg'oqni o'ylaydi, yonog'ida nam,
Qay holda yotibdi hozir xotini.
Halokat boshida turganida ham
U aslo o'ylamas
O'z hayotini.

Shamollar guvullar,
Kuchayar suron,
Dolg'alar zarbidan uzilar tellar[1],
Uzilar umidbaxsh qirg'oqqa tomon
Najot deb,
Najot deb cho'zilgan qo'llar...

Burg'uman, burg'uman,
Aziz Insonga
Doim tayanch bo'ldim sodiq do'stiday.
Bardosh berolmadim yovuz to'fonga,
Endi men yoturman
Dengiz ostida.
Har yuksalgan burg'u
Baland cho'qqidir.
Ustida yo'l olgan abri navbahor.
Odamzod hayoti
Otilgan o'qdir,
Yaqinmi, uzoqmi, o'z manzili bor.
Odamzod tug'ilar,
Odamzod o'lar,
Birisi keladi, birisi ketgay.

[1] **Tel** — telefon simlari.

Har kimsa uzoqroq yashamoq bo‘lar
Va lekin dunyoga
To‘ymasdan o‘tgay.
Burkar cho‘qqilarni
Og‘ir bir tuman,
Qaynoq shamollardan so‘lar gulchechak.
O‘limdan hech qachon qo‘rqmaydi inson,
Chunki bilmas o‘lim
Qachon kelajak...
Inson qanot qoqar
Orzusi bo‘lsa,
Inson-la uzayar jahonning umri.
Kechalar ortidan kunduzlar kelsa,
Kelur insonlardan
Insonning umri.
... Bizlar o‘lim bilan
Bellashgan onda
Salqin va musaffo sahar tug‘ildi.
To‘fonlar bo‘kirgan u mash’um tunda,
Xazar sohilida
Xazar tug‘ildi.
Aks etdi dengizda go‘dakning sasi,
Bezovta to‘lqinlar tingladilar jim.
Borliqda yangradi hayot nafasi,
Go‘yoki ortiga chekindi o‘lim.

O‘G‘LIM QO‘SHIG‘I

Seni o‘ylayapman,
Ey, otajonim,
O‘zim manim,
So‘zim manim,
Hayotim manim
Ajab, nechun bunday tez kechar yillar.
O‘n bahor o‘tibdi,

O‘n bahor, ota!
Sen yo‘qsan, sen yo‘qsan...
Huvullar yo‘llar,
O‘n yilki men senga intizor, ota!
Seni sog‘inaman,
Tinglagin meni,
Shirin xayollarga tolaman, ota!
Oy o‘tar, yil o‘tar,
Ulg‘aygan kunim
Munosib izdoshing bo‘laman, ota!
Ikki hayot o‘yi xayolimda jam,
Ikki odam uchun urmakda yurak
Bugun va ertaga,
Undan keyin ham
O‘zim-chun,
sen uchun
Yashashim kerak!

Tiniqlashib borar ufq tasviri,
Moviy kengliklarda chayqalar Xazar.
Shu kenglik bag‘rida uyg‘onar shirin —
Sening xayolingday
Yorug‘ bir sahar.
Sohilda eshitib suvlar tovshini,
Senmisan, derman!
Yellarning qo‘llari silar boshimni,
Senmisan, derman!

Toshlarga urilar oh ila dolg‘a,
Senmisan, derman!
Shivirlar, shivirlar sohilga dolg‘a,
Senmisan, derman!
Burg‘ular nur sochar yiroq-yiroqda,
Senmisan, derman!
Hamisha chorlaydi mitti chiroqlar,
Senmisan, derman!

Kimdir, boqishlari ma'noli, sirli...
Suvlarga termilgan u ona kimdir?
Nega u parishon, g'amgin xotirli,
Nega u jimdir?
Boqar ufqlarga uzoq-uzoq, jim,
Kiftida o'n yillik hijron ko'tarib.
Oppoq sochlari ham, otajon, balkim,
Oppoq dolg'alardan ketgan oqarib.
U mening onamdir,
U mening onam,
Suvlarga boqadi u sirli-sirli.
Ufqlarga boqadi ko'zlarida g'am,
Ohista qaytadi
G'amgin, xotirli.

Mening taqdirimda chayqalar Xazar,
Ko'rmagan bo'lsam-da neft toshlarini...
Izingdan borgayman, bir yorug' sahar
Men sinab ko'rgayman
Bardoshlarimni...
Bir kuni kelarman Xazarga, ota!
U yerga...
U yerga...
U yerga, ota!
Kezsa-da izingdan cho'l-u chamanni,
Xazaring
Xazardan topajak seni.

MENING QO'SHIG'IM

Batamom so'ndi deb o'ylarsiz, balkim,
Daryoda
Daryocha
So'zim bor manim.
Suvlarda iz qolmas deydi, qani, kim,

Jo‘shqin dolg‘alarda
Izim bor manim.
Ko‘zimda qolgandir zamon-u makon,
Dunyo jamoliga
Tashna ko‘zim bor.
Mensiz zerikmasin zamin-u osmon,
Osmonga, zaminga
Aytar so‘zim bor!

SEVGILIMGA SO‘ZIM

Tingla, shamol ęsar,
Titrar suv yuzi,
Tingla, hayotimning ma’nosi, tingla.
Sen, ey toleyimning
Mehribon qizi,
Sen, ey Xazarimning onasi, tingla!
Sen yurgan yo‘llarga
To‘kilsin ziyo,
Sen mening bahorim, mening hayotim,
Sevgilim, sevgilim, sevinsin dunyo,
Sen uning bag‘rida tashlaysan odim.
Yana sen turibsan
Sohilda go‘zal,
Dengiz lopillaydi, ufq yonayotir.
Kimni kutayapsan
Sohilda, go‘zal?
Qaytib kelolmasman yoningga, axir.
Moziyni xotirlab turasan to‘nib,
Asov kuch chayqalib yotar poyingda,
Dengizdan qizg‘anib yurarding meni.
Umring o‘tayapti
Dengiz bo‘yida...
Qalbimga quyilar
Ajib bir ohang,

Qo‘shiqday serjarang,
ishqday bokira.
Bu sening ovozing,
Bu sening sasing, —
Qalbimga dolg‘aday bostirib kirar.

Sirlashadi sahar bilan,
O‘sha-o‘sha Xazar bilan,
To‘lqinlardan tinglab o‘lan
Bizning sohil!
Bizning sohil!
Hijronlarning maskanidir,
Armonlarning maskanidir,
Shodmonlarning maskanidir,
Bizning sohil!
Bizning sohil!
Ikkov kelar edik
Bu tanish yerga,
Endi Xazar bilan
Kelursan birga.
Kelursan
O‘zgacha, baxtiyor, durkun,
Shafaqlar o‘g‘lingning gul yonog‘ida,
Xazaring hamisha viqoring bo‘lsin.
Xazar ranjitmasin
O‘z quchog‘ida.
Dengizni ko‘rganda qiyqirar Xazar,
Qiyqirib kuladi quvonchga to‘lib.
Qulochlarin yoyib, qush kabi uchar,
Kattakon dengizni quchmoqchi bo‘lib,
Mehribon onasan,
Ozarli ona.
Xazarli onasan,
Xazarli ona.
Sahar-sahar,
Shamol esar,

Bir-bir bosib
Olam kezar.
Ikki Xazar,
Orzular ko'p,
Chechak-chechak,
Bir umrli
Ikki yurak —
Ikki Xazar!

Mana, ikki Xazar uchrashar masrur,
Asta yaqinlashar odimma-odim.
Birida taqdirim chayqalar mag'rur,
Ikkinchi Xazarda yashnar hayotim.
Kelursan,
O'zgacha, baxtiyor, durkun,
Shafaqlar o'g'lingning gul yonog'ida.
Xazaring hamisha viqoring bo'lsin,
Xazar injitmasin
O'z quchog'ida.

O'G'LIMGA SO'ZIM

Senga hayot berdim,
Qalbimni berdim,
Seni o'z bag'rida erkalar olam.
Men seni xayolan
Ming marta ko'rdim
Va lekin o'ngimda ko'rmadim, bolam!
Gavjum ko'chalardan borarsan jo'shib,
Maktabga kirarsan —
Ko'rolmasman men.
Turarsan ko'zingni quyoshdan to'sib,
Ko'zlaring qamashar —
Ko'rolmasman men.
Qirmizi kenglikka boqarsan to'yib,

Shafaqlar yuzingda —
Ko‘rolmasman men.
Chopasan bolalik nash’asin tuyib,
Kapalak tutarsan —
Ko‘rolmasman men.
Jajji qo‘llaringdan ushlab biror on
Otaday kezmadim bog‘da, chamanda.
Ammo tinglayapman —
Kulyapsan shodmon,
Yangroq kulgularim yashaydi sanda.
Sen mening quvonchim,
Ko‘zimning nuri,
Balki uyg‘oqdirsan, uxlarsan, balkim.
Men hozir Xazarning tubidan turib
Shirin tushlaringga
Kirmakdaman jim.
Bolam, tingla meni,
Tingla shu onni,
Yozgin, so‘zlarimni xotiringga yoz.
Mahkam quchoqlagin Ozarbayjonni,
Bir qo‘ling Kur bo‘lsin,
Bittasi — Araz.
Sohilga urilar bezovta Xazar,
Yugurik dolg‘alar o‘z qanotingdir.
Xazar,
Juvon Xazar,
Yoshligim Xazar,
Mening toleyimdir, sening otingdir.
Asrorini ochsin asrlar senga,
Orzuli dunyo bo‘l,
Shodmon dunyo bo‘l!
Qanday zarur bo‘lsa Xazar Vatanga,
Sen ham Vataningga
Shunday zarur bo‘l!
Yashagay insonda insonga hurmat,
Har inson qalbida o‘t yonar, o‘g‘lim,

Vatanga muhabbat,
Elga muhabbat
Onani sevmakdan boshlanar, o‘g‘lim.
Sevgin odamzodni, yerni, ko‘kni ham,
Umringga hamisha yor bo‘lsin o‘lan.
Inson yuragining salmog‘i, bolam,
O‘lchanur sevgining
Salmog‘i bilan.
Do‘stga mehribon bo‘l
Kerak mahali,
Har kimdan marhamat so‘rama, bolam.
Ayanch kimsalar bor dunyoda hali,
Iljayib boqqanni
Do‘st dema, bolam!
So‘zlarimni aslo unutma, Xazar!
So‘zlar
Dolg‘a-dolg‘a oqar yurakdan.
Mayin kulib-kulib kirib kelganlar
Yig‘lata-yig‘lata chiqar yurakdan.
Shunday, do‘sti borlar hamisha guldir,
Do‘sti yo‘q odamlar ayanchli quldir.
Do‘stlik tobelikmi,
Qullikmi, yo‘q, yo‘q!
Yaxshi niyat qilgin har doim, bolam!
Dunyoda har nega boqmagin sovuq,
Had bo‘lsin nafratda,
Muhabbatda ham.
Unutma, yuraksiz odamlar ham bor,
So‘lg‘in chamanlardan
Tarovat kutma!
Beparvo odamlar bo‘ladi g‘addor,
Ulardan hech qachon
Harorat kutma!
Sevganda shunday sev,
Shunday sevginki...
Desinlar: Eng buyuk samimiyatdir.

Yarimta sevmagin,
Yarimta sevgi —
Yarim muhabbatdir, yarim nafratdir.
Birovga baxillik qilmagin sira,
Yuragi puch bo'lar baxillar,
o'g'lim!
Chirigan daraxtni qurtlar kemirar,
Kemirar,
Kemirar,
yiqarlar, o'g'lim.
Katta sevgi bilan hayotni quchgin,
Sasingga sas bersin
Kelgan nasllar!
Hamisha balandroq,
Balandroq uchgin,
Cho'qqidan bo'z burgut uchdi, desinlar!

Men dengiz tubidan
Ovoz berarman,
Sen dersan: — borarman;
Yo'ldadir ko'zlarim,
Ko'zlarman,
Ko'zlarman!
Dunyoda Xazar bor,
Men borman,
Men borman!
Jo'sharman, chorlayman,
Men borman!
Ufqda kun chiqar,
Porlaydi —
Sahardir.
Ayriliq — sabohni
Ko'rishga qadardir!

MANGULIK QO'SHIG'I

Har yurakda yashar
Ishqim, havasim,
Suronli qo'shig'im tizim-tizimdir.
Dolg'alar siynamdir,
Shamollar sasim,
Chayqalgan to'lqinlar bosgan izimdir.
Qulochim quyoshni, oyni ham quchar,
Qulochim yoyilgan sarhadsiz, tengsiz.
Hayot dengizida tomchiydim kecha,
Bukun torlik qilar
Kattakon dengiz.
Tepamdan sirg'alib kechmakda yillar,
Shunchalar qadrdon
Ozarim kabi,
Agar qarisam ham Xazarim qadar,
Mangu yosh qolgayman
Xazarim kabi!

SEVSANG, SEVGILIM

(Uch pardali drama)

Qatnashuvchilar

Yonar — akademik, 48 yoshda.
Durdona — 53 yoshda.
Sadoya — Durdonaning qizi, 30 yoshda.
Imon — Durdonaning o'g'li, 29 yoshda.
Eldor — Sadoyaning eri, vrach, 35 yoshda.
Tanzila — Imonning xotini, 28 yoshda.
Madad — aspirant.
Sohila — Tanzilaning qizi.

BIRINCHI PARDA

Birinchi ko'rinish

Dengiz sohili. Qoyalar. Yonar tosh ustida o'tirib dengiz shovqiniga quloq soladi.

Navqiron ovoz eshitilib turadi.

Ovoz

Osmon xomush...
Dengiz notinch...
Shamol...
Ehtimol,
Cho'qqilarga qo'nmish
Oqshom qush...
Men sevgan tog'larga —
Yiroqlarga

Qaraysan mensiz,
Men ham sensiz
Dengizga boqaman,
Qalbimni yoqaman.

Yonar.

(davom etadi)

Ko'nglimda ming o'y
Tuman tushganday...
Sohillardan kuy
Tog'ga uchganday...
Dengizday to'lqin
Otar irmoqlar,
Dengizga shovqin
Solganday tog'lar.

U o'tirib xayol suradi va dengiz to'lqinlaridagi oq ko'piklarga tikiladi.

Sadoya kiradi. Yonarga xalaqit berishga jur'at qilmaydi, Yonar uni payqab qayrilib qaraydi.

Sadoya (hansirab). Assalomu alaykum, Yonar muallim!

Yonar. Vaalaykum assalom, Sadoyaxonim!

Sadoya. Men sizga xalaqit bermadimmi?

Yonar. Aslo! Kelganingiz juda yaxshi bo'ldi. Xo'sh, shaharda, institutda nima gap?

Sadoya, Sizning aspirantingiz Madadni uchratgan edim. U menga sizning biroz mazangiz bo'lmaganligini aytdi. Eldordan sizni ko'rib ketishni iltimos qildim. Hozir u operatsiya bilan band, kechroq kelib qoladi.

Yonar. Eringiz vrach ekanligini bilaman. Ammo vrachlar bilan jinim chiqishmaydi. Bekor uni bezovta qilibsiz... Kayfiyatim yomon emas... Onda-sonda yurak hazillashib turadi.

Sadoya. Madad menga aytdiki...

Yonar. Ha, bizning aspirant shunaqa, pashshadan fil yasaydi. Madadning gaplariga e'tibor bermang! Yaxshisi, atrofga qarang, qanday go'zal osmon, qanday dengiz... Bari moviy libosda. Bilmadim sir-u asrorini, bilmadim. (*She'r aytadi.*)

Bugun borliq moviy:
Osmon ham, yer ham.
Tog'-u tosh samoviy,
Dengiz ko'k gilam.
Bugun har kungidan
Yaproqlar ko'm-ko'k.
Quchoq ochganday ko'klam
Tuproqlar ko'm-ko'k.
Qoyadagi tumanlar —
Ko'm-ko'k yiroqdan.
Bo'y sochadi chamanlar
Ko'm-ko'k o'tloqdan.
Shabada sochadi
Moviy durdona.
Yer sirin ochadi,
Yangrar tarona,
Ertakdagi yanglig'
Tabiat jo'shqin.
Tinglaydi borliq,
Kuylaydi to'lqin.

Sadoya. Ajoyib she'r... Buni kim yozgan?

Yonar. Bir yosh shoir, afsuski, dunyodan o'tgan. (*Unga tikiladi.*) Siz ko'zimga, egningizdagi moviy ko'ylakda bir qultum dengiz suviday ko'rinib ketdingiz. Bilasizmi, moviyli keng yosh rang!

Sadoya. Nahotki, rangning ham yosh-qarisi bo'lsa?!

Yonar. Bo'lmasa-chi! Shunday ranglar borki, ularning umri ming yilga teng. Boshqa birlari esa hali juda yosh... Jumladan, qadimgi yunonlar moviy rang nimaligini bilmay o'tganlar... Osmonni birinchi bor moviy atagan kishi yo shoir bo'lgan, yoki rassom.

Sadoya. Bashariyatga noma'lum daholardan biri, demoqchimisiz?

Yonar. Siz bilan biz oyoq bosib turgan bu sohil jahonga noma'lum ancha-muncha daholarga boshpana bo'lgan. Men butun Ozarbayjonni aylanib, Bokudan besh qadam narida Absheron qoyalaridan ajdodlarimizning sirli makonini topdim. (*Qo'li bilan qoya manzaralariga ishora qilib.*) Ko'rdingizmi, bu yerda ular istiqomat qilganlar, bir-birlariga muhabbat izhor etganlar, azob chekkanlar...

Sadoya. Siz allaqanday noma'lum daholar tog'lar toshiga xalqimiz tarixini yozib ketganligini aytdingiz.

Yonar. Bu lavhalarni o'qiy bilish, anglay olish kerak. Qarabsizki, ovchilar qo'l ushlashib, yalli-yalli raqsiga tushadilar. Bir tekis shaxdam, xushchaqchaq... Asrlarni qoralab, gulxan yolqinlari ko'zga tashlanadi. Nog'oraning taka-tumi eshitiladi... Olis-olislarda, bazmi jamshid suronidan yiroqda, sevgilisi bilan o'tirgan bir zamongi ajdodimni ko'raman. Qo'li bo'ynida... Alanga ular yuzida yalt-yalt o'ynaydi. Yigitning omadi kelgan, qiz ham baxtiyor qayta topishganidan. Zotan yigit bo'ronlarni, dovullarni yengib, bebaho o'lja olib kelgan... Qiz esa tog'lar etagida, dengiz sohilida uni kutardi.

Uzoqdan ayol ovozi eshitiladi.

Ayol ovozi. Seni olqishlayman, azizim, sevgilim... Sening kelishingdan benihoya xursandman. Sening qaytishingga ishonchim komil edi. Sen dengizdan zo'r, bo'rondan kuchlisan...

Erkak ovozi. Men to'lqinlar qo'ynida senga oshiqdim...

Ayol ovozi. Sen horidingmi, toliqdingmi?

Erkak ovozi. Men seni ko'rganimda charchoqlardan xoli bo'laman. Sen mening madorimsan..

Yonar. Quloqlarim ular ovozini eshitayotibdi...

Sadoya (*hayrat bilan Yonarga qaraydi*). Kimning ovozini, Yonar muallim?

Yonar. Ajdodlarimiz ovozini. Siz-chi? Siz eshitmayotibsizmi?

Sadoya. Aslo, Yonar muallim. Bu yerda siz bilan mendan bo'lak, hech kim yo'q.

Yonar. Quyosh tog' va to'lqinlarga nur purkaydi. U bizdan yuksaklikda... Qancha baland ko'tarilsa, shuncha yorqin ko'rinadi. Qadim zamonlarda odamlar o'zlarini quyosh farzandlari deb bilganlar. Tongda turib uni qutlaganlar. O'lganlarida, ularning boshlarini kunchiqarga qaratib qo'yib ko'mganlar. Odam u dunyoda quyoshga singib ketadi, deb o'ylaganlar... Qoyalarga qaragan kishi ko'p narsani anglashi mumkin. Lavhalar xalqimiz, uning mehr-u muhabbati, nazokati, saxiyligi, umid-orzulari qadim va mangu ekanligidan dalolat beradi...

Sadoya. Yonar muallim, siz ko'pdan beri institut ostonasiga qadam qo'yganingiz yo'q. Kelgusi haftaga sizning ilmiy ishingiz muhokamasi tayinlangan...

Yonar. Ular mening ishimni emas, o'zimni muhokama qilmoqchilar... (*Kuladi.*) Ko'plar, bu ishga ketgan vaqtni befoyda, natijasiz deb o'ylaydilar, shuning uchun ham so'ngi ko'rinmayotibdi degan fikrdalar. Hatto davom ettirishga mablag' ham bermay qo'ydilar. Yo'q, institutga bormayman. Yakunlovchi so'zni ilmiy kengash emas, mana shu qoyalar aytadi.

Sadoyaning eri Eldor kiradi.

Eldor. Tarixchilarga otashin salomlar!

Yonar. Salom alaykum, Eldor, sizni ko'rganimdan xursandman. Mabodo, siz meni davolash maqsadida kelgan bo'lsangiz, vaqtingiz behuda ketadi. Men sog'-salomatman. Mening aspirantim Madad ham yoshini yashab, oshini oshasin-u, lekin bekordan bekorga vahima qilib, hammani tashvishga solib qo'yibdi-da...

Eldor. Kasalxona uzoq emas, hammasi bo'lib yigirma daqiqa ketadi. U yerda kasalni aniqlaymiz, diagnoz qo'yamiz... Men o'z mashinamda olib boraman... Mixday!

Yonar. Doktor, mana bu dengiz, mana bu qoyalar, mana bu musaffo havo mening dardimga eng yaxshi dori-darmonligiga ishonavering, ma'qullasangiz-chi, Sadoyaxonim!

Eldor (*Yonar bilan Sadoyaga shubha bilan qaraydi*). Ixtiyor o'zingizda, Yonar muallim. Aytganday, sizga telegramma bor. Aspirantingiz Madad berib yubordi. Bugun institutga kelgan ekan.

Yonar (*telegrammani oladi*). Tashakkur. (*O'qiydi.*)

Sadoya (*hayajonlanib*). Ishqilib, noxush xabar emasmi?..

Yonar. Aksincha, xushxabar. Yana yo'l, yana safar. Bu gal Hindistonga, arxeologlar anjumaniga. (*Xo'rsinadi.*) Lekin men hech qayoqqa bormayman. Telegramma jo'nataman, kechirim so'rayman. Hali, ishimiz yakunlanmaguncha, bu yerdan bir qadam ham jilmayman.

Eldor. Hatto, bizning uyga ham-a?! Siz Sadoyaning oyisiga, menga qaynana bo'lmish Durdonaxonimga ertangi oilaviy marosimga boraman, deb va'da bergansiz. U kishi kutayotibdi.

Yonar. Men ham odamoviman, shu tufayli ham bunday oilaviy marosimlarga yaramayman. Afv etgaysiz!

Eldor. Hech iloji yo'q! Durdonaxonim sizni olib kelish haqida qat'iy amr-u farmon qilganlar. Mabodo bormay qolsangiz, xafa bo'ladilar. Durdonaxonim ikkimizni ham kechirmaydilar...

Yonar. Men hech kimni xafa qilmoqchi emasman, ammo...

Eldor. Sadoya, o'zing aytsang-chi?!

Sadoya. Yonar muallim, butun oilamiz benihoya xursand bo'ladi. Iltimos qilaman.

Yonar. Xo'p, yaxshi!

Eldor. Juda soz! Sizni o'zim olib boraman.

Yonar. Ovora bo'lmang!

Eldor. Sizni olib borish menga baxt!

Yonar. Tashakkur! Ertagacha xayr! (*Avval Sadoyaning, so'ng Eldorning qo'lini qisadi va jo'naydi*).

Eldor (*Sadoyaga*). Sen uni qattiq betob deb aytgan eding-ku? Unchalik emas, shekilli...
Uyga ketdik! (*Ketadilar.*)

Yonar dengiz bo'yidagi tosh ustiga o'tirib, yana, musiqa tinglaydi.

(Uzoqdan ovoz)
Dengizda qaynar to'lqin —
Shamol kezar suronkor...
Cho'qqilarda nur-chaqin,

Eriguday qor...
Sen cho'qqi bo'lsang agar
Men — dengiz...
Tomchilar, ilk tomchilar
Senda tug'ilgan hargiz.

Ikkinchi ko'rinish

Dengiz sohilidagi hovli. Sadoya stoldagi qo'lyozmani tuzatish bilan band. Tanzila uy ishlari bilan ovora, deraza oldidagi ko'zaga guldasta keltirib qo'yadi.

Tanzila. Bas, yetar, Sadoya, ishingni yig'ishtir! Qara, qanday ajoyib kun, tog'lar ro'parangda turganday. Bunday asnoda Yer yuzida shodlikdan bo'lak hech narsa bo'lmasligi kerak.

Sadoya (*ko'zini qog'ozdan uzadi*). Tanzila, menga ayt-chi, hozir, haqiqatan ham borliq moviy tusdami yoki menga shunday ko'rinayotibdimi... Osmon, dengiz, changalzorlar...

Tanzila.

Bilolmadim, nechun
Hamma narsa moviy...
Moviy ko'rinar bugun
Osmon, yer, havo...
Boqsam, olam o'zgacha,
Moviy ko'rinar har yoq,
Yelda o'ynagan yaproq,
Hatto dala-tuzgacha.

Sadoya.

(davom ettiradi.)

Moviy kenglik ko'rinar
Quchog'ini ochguday,
Moviy tuman urinar
Tog'ga mehr sochguday...

Tanzila (*hang-u mang*). Sen bu she'rni qayoqdan bilasan?

Sadoya. Kecha menga professor Yonar o'qib berdi. Sen o'zing qayoqdan bilasan?

Tanzila. Menga boshqa birov o'qib bergan. Bu she'rni yozgan odamning o'zi... (*She'r aytadi.*)

Moviy shamol zarbidan
Suvlar chayqalar, suvlar...
Yerning buyuk qalbida
Hamon sirli orzular...
Tabiat dudog'ida
Jaranglar moviy kuylar...
To'lqinlar quchog'ida
Ertakdagiday so'ylar...

Sadoya. Bu qanday sir-u asror, Tanzila?

Tanzila. Keyin kezi kelganda bu sirni senga aytib beraman.

Sadoya. Buni men o'zim Yonar muallimdan so'rab olishim mumkin, hademay bu yerga kelib qoladi.

Tanzila. Bu sirni bilgandan bilmagan yaxshiroq.

Tanzilaning qizi Sohila yugurgilab keladi.

Sohila. Oyijon! Ammajon! Dadam juda ko'p baliq tutdilar... Men yordamlashdim.

Dadam qarmoq tashlab olaverdilar, men, men esa sanab turdim...

Tanzila. Sanog'ingda qancha bo'ldi?

Sohila. Ikkita, keyin yana ikkita, keyin yana uchta...

Sadaya. Hammasi bo'lib qancha?

Sohila. Yuzta. Chunki baliq juda ko'p. Bilasanmi, dadam menga nima dedi? Dadam borib oyingni o'p va tug'ilgan kunim bilan tabriklayman, degin, dedilar.

Sadoyaning onasi Durdona kirdi. U fartuk tutgan, yelkasiga sochiq tashlab olgan holda sertashvish ko'rinadi, Sohilaning so'ziga quloq soladi.

Durdona. U, buvingni ham o'pib, tabriklab qo'y, demadimi?

Sohila. Yo'q, buvi, siz haqda hech narsa demadi. Lekin, baribir, sizni ham tabriklayman, buvijon... (*O'padi.*)

Durdona. Eh, mening do'ndiqqinam! Shirin-shakarim! Yolg'izim, yakka-yu yagona dilbandim...

Tanzila. Nechun yakka-yu yagona deysiz, Durdonaxonim? Nahotki, farzandlaringiz ikkita emas? Sadoya bilan Imon-chi?

Durdona. So'zimdan kamchilik qidiraverma. Men o'g'lim haqida, yolg'iz o'g'lim to'g'risida gapirayotibman.

Sohila. Demak, men o'g'il bola bo'lganimda, meni ko'proq yaxshi ko'rardingiz, buvijon, shundaymi?

Durdona. Miyangga bunday fikr qayoqdan keldi, do'mbog'im, yulduzim! Sen menga nevara bo'lasan. Seni hammadan yaxshi ko'raman.

Imon kiradi. Qo'lida baliq to'la chelak.

Imon (*oyisini o'padi*). Salom oyijon!

Tanzila. Eh-he! Birtalay baliq. Kattaligini qarang!

Durdona. Mehmon o'z rizqi bilan. Eldor qani?

Sadoya. Yonar muallimni olib kelgani ketdi.

Durdona. Juda soz! Bugun bizning uyimizda qo'sh bayram — biri nevaramning tug'ilgan kuni bo'lsa, ikkinchisi mashhur arxeolog, Sadoyaning ilmiy konsultanti, professor, akademik Yonar muallimning bizning xonadonimizga birinchi marta tashrif buyurishlari. Qani, qog'ozlaringni yig'ishtir, Sadoya, bor, baliqlarni tozala! Mazali taom tayyorlash ham ba'zan ilmga ajoyib bir dokladdan ko'ra foydaliroq hissa bo'lib qo'shiladi. Qani, ishga, bolalarim! Dasturxon yozinglar, musiqa jaranglasin! Sen nevaraginam, yordamlash, uy bekasi qanday mehmon kutishini o'rgan...

Sadoya, Tanzila va Sohila chiqib ketadi.
Durdona bilan Imon qoladi.

Bizning xonadonimizga ana shunday mo'tabar kishilar qadam ranjida qilganlarida ich-ichimdan g'ururlanaman. Sening marhum dadang, hamma biladi, taniqli olim edi. Lekin men yonida bo'lmaganimda, mashhur olimlik unga qayoqda edi?! Men uni olim qilganman. Biz u vaqtlarda juda yosh edik, ba'zan och qolardik, qiynalardik... Lekin men unga: "Bo'shashma, ishlayver, sening ham davring keladi!" deb aytardim. Biz juda ahil umr kechirganmiz. Uyimizga qancha-qancha muhtaram mehmonlar kelib ketishgan...

Imon. Oyi, nahotki "mehmon" va "muhtaram" so'zlari bir ma'noni anglatmasa? Nahotki mehmon bo'lsa-yu, muhtaram bo'lmasa?

Durdona. Mehmonlar ham har xil bo'ladi. Biri xonadoningga fayz olib keladi, boshqa birovi baraka. Shundaylari ham borki, qadami yetishi bilan uying bir pog'ona pastlaydi, boshqa bir mehmon o'sha uyni o'zi kelishi bilan o'zi turgan qoya bo'yi ko'taradi. (*Ko'z yoshini artadi.*) Sening rahmatli otang...

Imon. Yana, oyijon!

Durdona (*o'zini tutib*). Men bo'lgan gapni aytayotibman, xolos. Mehmonining hurmatini keltir, ammo nimaga arzishini ham bilib qo'y. U ham o'z qadri-qimmatini bilishi shart. Qizimning ilmiy ishiga do'stona ko'z bilan qarasin. O'shanda fazilati ko'pday, kamchiligi jinday bo'lib ko'rinadi... Yomon ko'zdan alhazar!..

Imon. Bu juda, juda eski falsafa...

Durdona. Bordi-yu, bu gap eskidan qolgan bo'lsa ham, yana qayta hozir rasm-u rusm bo'lib qoldi.

Tanzila kiradi.

Tanzila. Biz baliqlarni tozalab, dasturxon ham yozib qo'ydik.

Durdona. Men Tanzilani eng yaxshi kelin deb bekorga aytmaganman. Sohibjamolim, javondagi hamma billur idishlarni olib, stolga qo'y...

Tanzila. Siz bu idishlari uyimizning bezagi deb atagan edingiz-ku?

Durdona. U, har holda akademik. Sindirmasa kerak deb o'ylayman. Imonjon, bolaginam, kabob masalasida o'zing javobgarsan.

Imon. Xo'p bo'ladi! Geolog kabobni kuydirmaydi.

Durdona. Sen esa, Tanzila, uzum uzib billur vazalarga solib qo'y. Shunday qilsang, uzum shirasiga shira qo'shiladi. Palovni Sadoya suzadi. Konyakni quduqqa tushirib qo'yish kerak, muzday bo'lib tursin.

Imon (*kuladi*). Oyim xuddi rejissorning o'zginasi. Har bir artistga sahnadan joy topib berayotibdi.

Durdona. Ustimdan kulmanglar.

Imon. Biz kulayotganimiz yo'q, sizga maftun bo'lib turibmiz, oyijon!

Durdona. Men ham hamma xotinlar kabi maqtovni yoqtiraman, holbuki, rahbarlarni kamdan kam maqtaydilar. Ammo rahbar bo'lmasa, ish ham yurishmaydi.

Imon (*uni quchoqlab*).
Sen biz uchun eng zo'r rahbarsan, onajon!

Durdona. Bas qil! Yig'lab yuboraman, mehmonlar ham qolib ketadi. Qani, ishga!

(Chiqib ketadi)

Tanzila (*jilmayib*). Ba'zan oyim bilan shunday gaplashasanki, go'yo o'n yil ko'rishmasdan birdaniga uchrashib qolganday.

Imon. Oyimga bo'lgan mehr-muhabbatim senga g'alati ko'rinayotibdimi?

Tanzila. Mehr-u muhabbat hech qachon g'alati ko'rinmaydi. Menimcha, hatto onaga bo'lgan mehr-u muhabbat ham shovqin-suronsiz, iftixor hislariga to'la bo'lishi kerak...

Imon. Balki, sen haqdirsan. Lekin onayizor hamisha mehr-u muhabbat tuyg'ularidan bahramand bo'lib turishni xohlaydi. Bizning xonadon uning yelkasida. U oilamizning boshi...
(*Tanzilani quchoqlab.*) Oyim seni shunchalik yaxshi ko'radiki. Sen-chi... Sen unga xushmuomala, izzat-ikromli bo'l!

Tanzila. Nahotki, men shunday bo'lmasam?..

Imon. Sen ajoyib kelin, juda yaxshi xotinsan. Ba'zan o'ylanib qolaman, azizam, sensiz nima qilardim?!

Tanzila. Nima qilarding? Boshqa bir xotinning qo'lidan mana bunday ushlab, unga aytardingki, "azizam, sensiz nima qilardim?"

Imon. Agar o'sha xotin senga o'xshaganda, albatta.

Tanzila. Aft-angorimi?

Imon. Aft-angori ham, qalbi ham. (*Tanzilani o'pmoqchi bo'ladi, ichkaridan ovoz eshitiladi:* Imon, Imon!) Hozir, oyi! (*Ketadi.*)

Tanzila

(o'z-o'ziga, ohista).

Tumanday yig'ilar
Boshimda o'ylarim,
Sohildan yo'rg'alar
Cho'qqiga kuylarim..
Daryolar to'lqini
Dengizdan qolishmas,
Dengizlar uni
Tog'larga alishmas.

Sadoya kiradi.

Sadoya. Nimalarni o'ylab o'tiribsan, singlim?

Tanzila. Menga e'tibor qilma, Sadoya!

Sadoya. Bezovta ko'rinasan... Albatta, bugun qizing tug'ilgan kun!

Tanzila. Ha, shunday...

Sadoya. Gapning ochig'ini aytganda, oyim boshlagan bu ish hech ham ta'bimga yoqmayotibdi.

Tanzila. Bari sen uchun-ku.

Sadoya. Hamma gap shunda... Meni deb, u Yonarni taklif etdi, meni deb Eldor uni olib kelgani ketdi, bu bazmi jamshid,

bufetda yillab chang bosib yotgan billur idishlarning dasturxonga qo'yilishi ham men uchun... Nahotki, institutni, aspiranturani tamomlab, nomzodlik dissertatsiyasini ham yozib, yana bir yo'l qidirish, marosim, ziyofat... Tanzila, meni tushunadigan bitta-yu bitta odamsan. Bu hammasi soxtalikdan, riyokorlikdan, yasamalikdan bo'lak narsa emas-ku! Kim uchun, nima uchun? "Eh, bizning Sadoya yaqin orada fan nomzodi bo'ladi! Ko'z-quloq bo'ling, yo'ldagi to'siqlarni bartaraf eting! Ont iching! Durdona oyim fan nomzodi bo'lganimni ko'rmoqchi, so'ng doktor bo'lganimni, so'ngra akademik bo'lganimni!.. U hammamizning olim bo'lishimizni istaydi. Xalaqit bermang unga, u buyuk kishilarni yaratayotibdi.

Tanzila (*kulib*). Meni uy bekaligiga tayyorlamoqchi.

Sadoya. Sabr qil! Hali senga ham navbat kelib qoladi, sen bilan ham shug'ullanadi.

Bundan tashqari, yana vrachning xotini bo'lishligimni ham o'zicha hal etib qo'ygan. Men Eldorni sevamanmi-yo'qmi, bu uni, hatto qiziqtirmaydi.

Tanzila. Hamma gap o'zingda... Qanday qilib sen bunga rozi bo'lding?

Sadoya. Mendan so'rab o'tirishgani ham yo'q. Men bo'lsa oyimning gapini rad etolmadim. "Ha" dedim. O'ylaydilarki, mendan baxtli kishi yo'q, menga havas bilan qarashadi.

Tanzila. Sizning oilangizni havas qilmagan kamdan kam...

Sadoya. Muhabbatsiz turmush bamisoli suvsiz qovjirab yotgan bir sayyora. Poyonsiz bo'shliq...

Tanzila. Bunday bo'lmag'ur xayollarni qayerdan olding, opaginam?

Sadoya. Mening hayotim ana o'sha sayyoraning xuddi o'zginasi. Birdaniga bir kun... Men dissertatsiya yozdim. Institutda

menga akademik Yonarni ilmiy konsultantlikka iltimos qilishimni maslahat berishdi. Men unga o'z dissertatsiyamni ko'rsatdim, tanishdik, bir necha bor uchrashdik... Eh, Tanzila, seni ishontirolamanmi-yo'qmi, juda ajoyib odam!

Tanzila. Shubhasiz! U, darhaqiqat, mashhur olim.

Sadoya. Ha, albatta, shunday, juda taniqli... Ayniqsa, olijanob kishi — aqlli, zukko. Ammo qalbining tubida musibat. U bu musibatni hammadan sir tutadi...

Tanzila. Ha-da, uning yakka-yu yagona o'g'li bo'lgan...

Sadoya. U dengizda cho'kib ketgan. Uning nomi Sohil bo'lgan.

Tanzila unga tikiladi. Sohila yugurgilab keladi.

Sohil. Oyi, oyijon! Mehmonlar kelishayotibdi...

Ko'chadan Yonar va Eldor kirib keladi. Ularga Durdona va Imon peshvoz chiqadi.

Durdona (*tantanavor*). Marhabo uyimizga, qadamlariga hasanot, Yonar muallim!

Yonar. Assalomu alaykum, Durdonaxonim. Men oilangiz bilan g'oyibona tanishman.
Adashmasam siz Imon bo'lsangiz kerak?

Imon. Xuddi shunday.

Sadoya. Mening ukam. Bu esa uning umr yo'ldoshi — Tanzila.

Yonar (*unga nazar tashlaydi*). Tanzila... Chiroyli nom...

Durdona. Sizning uyimizga buyurgan tashrifingiz, Yonar muallim, birinchi marta bo'lsa ham, ammo oxirgi marta bo'lmasin!

Eldor. Qulluq! Durdonaxonim hammamizning onamiz. Shu uyning nuroniy bekasi.

Durdona. Iye, buni qarang, meni birpasda yoshini yashagan, oshini oshagan kampir qilib qo'ydi-ku.

Eldor. Bordi-yu, munajjimlarning tili bilan aytganda, u kishi quyosh-u biz quyosh atrofidagi sayyoralarmiz. Sozandalar tili bilan aytganda, u kishi dirijor. Arxeologlar tili bilan aytganda, u kishi qoya, bizlar soyamiz, xolos...

Durdona. Men qoya emishman! Uning gapiga quloq solmang, Yonar muallim. Men soddagina, juda sodda ayolman, o'z farzandlarimning xizmatkoriman. Uyga marhamat!

Yonar. Ijozatingiz bilan, Durdonaxonim, bunda biroz dam olsak, ochiq havoda.

Durdona. Ma'qul! Sadoya, mehmonlarga achchiq choy damlat!

Sadoya (*ta'zim bilan*). Xo'p, oyijon. (*Ketadi.*)

Imon. Sadoya menga opa bo'ladi. Juda mehribon. Royalni yaxshi chaladi, ashula ham aytadi... Mana, endi arxeolog. Sizning, Yonar muallim, hamma kitoblaringizni o'qigan, hamisha uni qadimgi tarix qiziqtirardi.

Durdona (*shoshilib*). Endi uning taqdiri sizning qo'lingizda.

Yonar. Men tezda taqriz yozib beraman.

Eldor. Qulluq! Gap shundaki, tarix fanini ayollar oldinga surayotganligini buyuk Gerodot eshitganda nima derdi, taajjub!

Yonar. Ehtimol, quvonardi.

Eldor. Nahotki! Ayollar — bizning umr yo'ldoshlarimiz, onalarimiz, bekalarimiz. Ular go'zallik, mehr-muhabbat ramzi. Ularni ilm-u fan bilan band qilishga na hojat?..

Imon. Uddalayotibdilar-ku. O'zing o'yla, qanchadan qancha fan nomzodi, doktor, professor...

Tanzila (*Sadoya bilan piyolalarni dasturxonga qo'yadi*). Ular shunchalik ko'pki, faqat sen xotiningni uy bekaligidan nariga olib o'tmading.

Yonar va Eldor kuladilar.

Eldor. Kim bilsin, balki, haqdir. Ayollardan doktor va professorlar shunchalik ko'pki, hademay tug'ishga ayol topilmaydi.

Durdona. Bizning Sadoya yomon bekami? Sen nima deyapsan, Eldor!

Eldor. Xonadonga eng yaxshi beka, bilmadim, tarixga qalay beka bo'larkin?

Yonar. Tarixga xo'jayin yo'q. Kimda-kim tarixga xo'jayinlik qila boshlasa, o'sha kundan tarix soxtalashadi. Uni o'rgana bilish, qalbiga quloq solish, dardini to'g'ri anglash kerak, boshqarishga hojat yo'q!

Durdona (*xursand*). Oltin kalimalar, Yonar muallim! Kumushdan, gavhardan ziyoda! Eshiting! Esingizda tuting, farzandlarim, alloma so'zini!

Sadoya (*onasining so'zlaridan xijolat bo'lganday mehmonlarni baqirib chaqiradi*).

Azizlar, Yonar muallim, bu yerda shuncha o'tirganimiz yetar endi, qani dasturxonga!

Imon. Sohila qani?

Yonar. Kim u — Sohila?

Durdona. Mening nevaram, Imon bilan Tanzilaning qizi. U mehmonlarga gul terayotibdi. O'zi ham gulday!

Yonar (*o'ziga o'zi*). Chiroyli nomlar... Sohila... Tanzila... Nahotki, tasodif?

Sohila bir dasta gul ko'tarib keladi va tortinib Yonarga uzatadi.

Sohila. Bu sizga, tog'a muallim...

Uchinchi ko'rinish

O'sha joyda. Sadoya va uning ortidan Imon zinaga chiqadilar.

Imon. Nega jo'nab qolding?

Sadoya. Oyimning yuztuban ketib, tilyog'lamalik qilishiga chidab turolmadim.

Imon. Men ham. Oyim haddan oshirib yuboradi.

Sadoya, Eldor ham chakki emas. Bunaqangi aytishuvdan o'zingni qo'ygani joy topolmaysan. Professor nodon emas-ku. Ularni eshitaversa...

Imon. Maqtov hammaga ham yoqadi, hatto akademiklarga ham.

Sadoya. Adashasan, bu akademik maqtovni yoqtirmaydi, unga muhtoj ham emas.

Durdona va Yonar kiradi.

Yonar. Bog'ingiz juda ko'rkam. Uyingiz serfayz.

Durdona. Bizning uyimiz — sizning uyingiz, Yonar muallim! Bizning bog'imiz — sizning bog'ingiz. Mana bu chinorlarni Imonning marhum otasi ekib ketgan. Chinorlar bo'y qo'yib, barglari shildirab, soya-salqin tashlab turibdi... Ikki chinor — ikki farzandim Sadoya va Imon bilan tengdosh.

Yonar. Farzandlarni oyoqqa qo'yish o'zi mardlik, Durdonaxonim.

Durdona, Ha, shunday. Mardlik desa arzigulik, ammo hech kim qadrlamaydi, mukofot ham bermaydi.

Yonar. Farzandlarning o'zi muқofot, Durdonaxonim!

Sadoya va Imon daraxt panasiga o'tadilar.

Durdona. Sadoyadan endi xotirjamman, Imondan hali...

Yonar. Imonga nima bo'pti?

Durdona. Tog'ma-tog' yuradi! Geolog! Topgan kasbini qarang! Yo'q! U Bokuga qaytishi, ilmiy ish qilishi kerak. Unga ham sizning ko'magingiz lozim, Yonar muallim!

Yonar. Olim bo'lish uchun unda qobiliyat, talant bormi? Yordam talantli kishilarga beriladi. Talantsizlik o'zi o'ziga yo'l topadi.

Durdona. Juda to'g'ri aytasiz, Yonar muallim! Mening Imonim juda talantli, hali u shunday ishlar qiladiki, ozgina turtki bo'lsa bo'ldi!..

Imon (*chidolmasdan Durdonaga yaqin borib*). Oyi, iltimos qilaman, bas!

Durdona. Xalaqit berma, o'g'lim! Sening taqdiring haqida bosh qotirayotibmiz.

Sadoya. Yonar muallim, yuring, sizga bog'imizni ko'rsataman!

Yonar. Bajon-u dil.

Yonar va Sadoya ketadilar.

Durdona *(qizidan darg'azab)*. Nega u bunday qildi?

Imon *(silliqlik bilan)*. Kelgan kishi hali bir burda non yemasdan, iltimos, iltimos...

Durdona. O'z farzandlarini olim qilmoqchi bo'lgan onaning orzu-niyatlarini kamsitish mumkinmi?

Imon. Ehtimol, men olim bo'lishni xohlamasman. Menga tog'ma-tog' yurib, tabiat sirlarini ochuvchi oddiy bir geolog' bo'lishning o'zi ma'quldir...

Durdona. Sir-u asrorning na hojati bor? Yaxshi farzand, yaxshi xotin, yaxshi mansab o'zi senga tabiatning sir-u asrori emasmi?...

Imon. Tanzila ham oilamizning bir a'zosi-ku. Nega sen uning o'z kasb-u koriga qaytishini istamaysan?

Durdona. Bolaginangga kim qaraydi? Men charchadim, hammalaringga qarayverib.

Imon. Sohila katta bo'lib qoldi, hademay maktabga boradi...

Durdona. Sening xotining professormi, prezidentmi, kim bo'lsa bo'laversin, lekin bizning oldimizdagi burchini o'tagandan so'ng.

Imon (*hayrat bilan*). Yana qanday burch?

Durdona. Senga o'g'il, menga nevara tug'ib berishi kerak. O'shandan keyin uning mansabi, kelajagi haqida o'ylab ko'rarmiz. Mening qarorim shunday.

Imon. Qaror bilan o'g'il tug'ish mumkinmi?

Durdona. Ha-da. Chin ko'ngildan yig'lasa, so'qir ko'zdan yosh chiqadi. Onang orzusi xotining uchun hech narsa emas ekan-da!

Imon. Bilaman, seni Tanizilani yoqtirmaysan. Loaqal mening hurmatim...

Durdona. Eh, hali sening oldingda qarzdorman, shekilli? Men sizlar uchun butun umrimni qurbon qilganman. Lekin ma'lum bo'lishicha, yana qarzim borga o'xshaydi. Ovora bo'lasiz, men sizlarga emas, sizlar menga qarzdorsiz. Sizlar deb, ozmuncha tashvish tortdimmi. Ozmuncha g'alyali kunlarni, uyqusiz tunlarni boshdan kechirdimmi?.. *(Uy ichidan Tanzilaning ovozi eshitiladi. "Imon! Bu yoqqa kel! Dasturxonni yig'ishtirishga qarashib yubor!")* Bor, o'g'lim, unga yordam ber. Men hech qachon o'z erimni shunday chaqirmaganman. O'z ishimni o'zim bilib qilganman.

Imon chiqib ketadi.

Farzandlarni ana shunday o'stiramiz. Ularni katta qilamiz deb ochin-to'qin qolamiz, to'yib uxlolmaymiz, ammo ular bir kuni begona xotinga qalb to'ridan joy beradilar. Va yana senga o'sha begona xotinni nega sevmaysan deb, ta'na qiladilar. Nega shunday yaralgan ekan bu dunyo.

Daraxt tagida diqqat bo'lib turadi. Boshqa tomondan Yonar bilan Sadoya gaplashib kirib keladilar. Durdona ularning suhbatiga quloq tutadi.

Sadoya. Juda ajoyib she'r o'qib berdingiz. Xotirangizga qoyil qolsa arziydi, Yonar muallim!

Yonar. Evoh! Yillar o'tishi bilan xotira ham o'z kuchini yo'qotayotibdi.

Sadoya. Keksalik haqida og'iz ochish siz uchun erta bo'lsa kerak, Yonar muallim!

Yonar. Yarim asrlik umrimni yashayapman.

Sadoya. Deydilarki, Fuzuliy eng yaxshi g'azallarini yoshi ellikdan oshganida yozgan emish. Siz menga o'qib bergan moviylik haqidagi she'rning muallifi kim? *(She'r aytadi.)*

Erning buyuk qalbida
Hamon sirli orzular...
Tabiat dudog'ida
Jaranglar moviy kuylar...
To'lqinlar quchog'ida
Ertakdagiday so'ylar...

Yonar

(davom etadi)

Balki, o'shandan
To'rt tomon ko'm-ko'k —
Yer-osmon ko'm-ko'k,
Ko'm-ko'k gulshandan..
Sen ko'm-ko'k libos
Kiyibsan, erkam.
Mayli, qadam bos,
Yo'lingda ko'klam.

Durdona. Bu qanday gap? Bir-birlariga muhabbat izhor etishayotibdi, shekilli?

Yana she'r bilan! Yer yutsin! *(Daraxt panasiga yashirinadi.)*

Yonar

Olamning o'zi
Sen sevgan rangda,
Osmon, Yer yuzi —
Rangi tanangda...

Ehtimol, shu kun
Men kabi jahon —
Qalbida to'lqin,
Baxtli, bearmon...
Balki, moviy rang
Baxtga hamohang?!

Sadoya. Siz baxt-saodat haqida she'r o'qiyapsiz, ammo ovozingiz siniq, ko'zlaringiz g'amgin.

Yonar. Baxt va quvonch — har ikkisi bir gap emas. Hayotda har kim baxtni o'zicha tushunadi.

Sadoya. Siz uni qanday tushunasiz?

Yonar. Men uchun baxt endilikda sevikli ishni ado etish...

Sadoya. Demak, siz eng baxtli kishisiz. Sizning mehnatingizdan butun dunyo voqif.
Sizni qadrlaydilar, sevadilar...

Yonar. Kim?

Sadoya. Hamma.

Yonar. Ey, azizam! Juda yanglishyapsiz. Ko'pchilik meni yoqtirmaydi. Shunday odamlar borki, hatto yomon ko'radilar. Men o'zimning arzimagan ishimni qilish uchun haqiqatni aytishim kerak. Hamma ham haqiqatni yoqtiraveradimi?

Sadoya. Nodon va qabih kishilar uni sevmaydi.

Yonar. Baxtga qarshi, shunday emas. Uni ba'zan juda yaxshi, juda aqlli odamlar ham yoqtirmaydi. Mana, olaylik, Sadoyaxonim, men sizga dissertatsiyangiz meni qanoatlantirmaydi desam, nima qilardingiz?

Sadoya. Haqiqatan, shunday bo'lsa...

Yonar. Siz bunga ishonmaysiz. Hayotimizda shunday ajoyibotlar ham bo'ladi, yuksak mansabni olaturib sen uni o'z obro'ying bilan yanada mustahkamlashing kerak. Buning uchun olim bo'lishing lozim. Mansabdan ajradingmi, olimligingga suyanib qolasan. Olimlik darajang bormi, yana yangi mansab egasi bo'lishing mumkin.

Sadoya. Ammo bunga fanning nima aloqasi bor?

Yonar. Baxtga qarshi, biz ba'zan nima deyilayotganiga quloq solmaymiz, kim aytayotganiga e'tibor beramiz. Bordi-yu, bor haqiqatni oddiygina bir kishi aytsa, unga loqayd qaraymiz. O'sha gapni mansabdor odam takrorlasa, donolikka yo'yamiz.

Sadoya. Ha, shunaqasi ham bo'ladi.

Yonar. Agar ertaga opera va balet teatriga borib, eng yaxshi operadan menga birinchi partiyani berishni talab qilsam, kulgiga qolmasmikanman?

Sadoya. Ehtimol, kulgiga qolishingiz mumkin.

Yonar. Ashulachi yoki raqqosa bo'lish uchun qobiliyat, talant bo'lishi kerakmi?

Sadoya. Shubhasiz!

Yonar. Olimlik — bu ham talant! Bunga ham qobiliyat bo'lishi kerak, bir zamonlar aytganlaridek, Xudo bersa, bo'ladi. Busiz na fan, na san'at, na adabiyot bor... Lekin talantsiz bo'sh kelmaydi. Olim bo'lolmasa, sozanda, adib, shoir bo'lishga urinadi. Vijdonini yutib, jig'ildoniga zo'r beradi.

Sadoya. Dahshat!

Yonar. Bilsangiz, o'rmonda shunday qo'ziqorinlar bo'ladi — yerda o'smaydi, tuproqqa ildiz qo'ymaydi. Ular daraxt sharbatidan bahramand bo'lib, uning tanalarida, shoxlarida o'sadilar.

Sadoya. Siz ba'zi bir olimlar ana shunday qo'ziqorinlarga o'xshaydilar, demoqchimisiz?

Yonar. Ular ham olimmi? Ular qurvaqasallalar. Qurvaqasallalar qayerda o'sadi, nima bilan kun ko'radi — baribir, faqat yaxshi bo'lsa bo'ldi. Bir kun kelib, so'rab ham qolinadi: "Mana, fan nomzodi, fan doktori bo'lding. Sening sha'ningga balandparvoz so'zlar aytildi, sening sog'lig'ingga, gullab-yashnashingga qadahlar ko'tarildi. Xo'sh, u yog'i nima bo'ladi?"

Sadoya. Nega siz bu haqda mendan so'rayotibsiz? So'ragani boshqa odam yo'qmi?

Yonar. Javob berishdan bosh tortadilar. Nechun siz javob bermaysiz?

Sadoya. Javob berishdan bosh tortadilar. Nechun siz javob bermaysiz?! (*O'ng'aysizlanib.*) Bilmadim — kutilmagan savollar...

Yonar. Mana, ko'rdingizmi, Sadoyaxonim, siz ham savollarimga javob berolmaysiz.

Sadoya. Yonar muallim, siz aytayotgan gaplarning mening dissertatsiyamga aloqasi bormi? Rostini ayting...

Yonar. Yo'q! Men hali sizning dissertatsiyangizni o'qib chiqqanim yo'q. Agarda o'qiganimda bemalol gapirgan bo'lardim. Men riyokorlikni yomon ko'raman. Riyokorlik tovushsiz to'pponchadan otganday gap: qayerga o'q tegishini bilmaysan, men bunday qurolni ishlatmayman.

Tanzila va Sohila qo'l ushlashib kiradilar.

Sohila. Tog'a muallim! Biz baliq ovlagani borayotibmiz. Biz bilan birga bormaysizmi?

Yonar. Dengizni juda yaxshi ko'radiganga o'xshaysiz, Tanzilaxonim?

Tanzila. Yo'q, men dengizni yoqtirmayman!

Yonar. Dengiz kishilarga baxt va quvonch bag'ishlaydi-ku.

Tanzila. Dengiz ba'zan kishilarning baxt va quvonchini o'g'irlaydi.

Sohila. Biz sizni kutamiz, tog'a muallim.

Sohila Tanzila bilan ketadi. Yonar diqqat bilan ular ortidan kuzatadi. So'ng Sadoyaga qayrilib qaraydi.

Yonar. Nimalarni o'ylayotibsiz, Sadoyaxonim?

Sadoya. Sizning gaplaringizni, Yonar muallim. Ehtimol, hali bu haqda juda ko'p o'ylarman.

Yonar. Siz Tanzilani ko'pdan beri bilasizmi?

Sadoya. Imon bilan tanishganidan buyon. Sakkiz yildan oshiqroq.

Yonar. Sakkiz yil... Siz Tanzilani juda yaxshi ko'rasizmi?

Sadoya. Biz u bilan opa-singilday.

Yonar. Tanzila... Sohila... Bu nomlar menga naqadar aziz... Siz buni bilmaysiz...

Sadoya. Bilaman, Yonar muallim!

Eldor kiradi. Qo'lida ro'mol.

Eldor. Fan zahmatkashlariga shon-sharaflar!

Yonar. Bugun dengiz qanday, Eldor?

Eldor. Xuddi hammomga o'xshaydi. Issiq. Havo salqin. Men senga ro'molingni olib keldim, Sadoya. Xohishingiz qalay, Yonar muallim, yomg'irpo'sh yoki pidjagimni yelkangizga tashlab olmaysizmi?

Yonar. Rahmat, sovuqqotganim yo'q. Sohilga boraman. U yerda meni Sohila otli jajji qiz kutib turibdi. (*Ketadi.*)

Eldor. Ey, afsonaviy To'marisning nevarasi, sening yo'ling tarix faniga ulkan odimlar bilan kirib boradi deb, umid qilaman!

Sadoya. Bas qil, kinoyangni, Eldor!

Eldor. Siz akademik bilan Ozarbayjonning qadimiy qoyalariga chizilgan rasmlar bo'ylab sayohat qildingiz, shekilli? Qaysi sahifaga kelib to'xtadingiz?

Sadoya. Samimiylik, or-nomus, adolat sahifasiga...

Eldor. Navbatdagi sahifa — muhabbatmi?

Sadoya. Yo'q, navbatdagi sahifa — ahmoqona va asossiz rashk. Hech kimga keragi yo'q sahifa. *(Uyga ketadi.)*

Eldor. Qulluq! Xotin haddan ziyod dono bo'lsa, er nodon ko'rinishi turgan gap!

PARDA

IKKINCHI PARDA

To‘rtinchi ko‘rinish

Sohil qoyalari. Uyga yaqin joy. **Tanzila** qoya toshida o‘tirib, kun botishini kuzatadi.

Tanzila

Osmon xomush...
Dengizda g‘ulu..
Shamol.
Ko‘ngilda tashvish,
Tevarak suluv...
Ovozim uchar,
Cho‘qqini quchar,
Tog‘larda to‘lqin
Sachratar uchqun...

Yonar kiradi. Tanzilaga ko‘zi tushadi. To‘xtaydi. Tanzila Yonarni ko‘rib jim qoladi.

Yonar. Dengiz bilan gaplashayotganmidingiz?

Tanzila. Sohil bilan, to‘lqinlar bilan, o‘zim o‘zim bilan dardlashayotgan edim...

Yonar. Bu she’rni siz qayerdan bilasiz? Sadoyaxonimdan eshitganmisiz?

Tanzila. Yo‘q.

Yonar. *(hayajonlanib.)* Bo‘lmasa, kim?

Tanzila. Bu she’rni yozgan kishi o‘zi o‘qib bergan.

Yonar. Hali, bu sizmisiz! Tanzila!!

Tanzila. Ha, Yonar muallim. O'sha, men!

Yonar. Gapingizda davom etavering, o'tinaman... Siz o'sha, mening o'g'lim sevgan qizmisiz?..

Tanzila. Bu gaplar bo'lib o'tganiga ko'p bo'ldi...

Yonar. Mening nazdimda, xuddi kechagidek... Holbuki, o'n yil o'tib ketibdi... Faqat bir marta, bir xatidagina Sohil o'zi sevgan qizning ismi Tanzila ekanini yozgan edi. Har gal shunday ismli qizni uchratganimda bu o'sha qiz emasmikin, deb o'ylanib qolardim... Mana, endi qo'qqisdan... Endi, sizga tikilib turib, xuddi o'g'limni ko'rayotganday... Siz sohilda go'yo uni kutib turibsiz-ku, u hozir dengizdan qaytib kelishi kerakday... Bamisoli hech narsa bo'lmaganday...

Tanzila. U bilan biz institutda bir yil o'qidik, xolos. U o'zining kamtarligi, qunt-u saboti va bir so'zliligi bilan meni qoyil qoldirgan edi... O'shandan beri o'n yil o'tdi, hamon uning halokatiga men o'zimni aybdorday his etaman.

Yonar. Nega bunday deysiz, Tanzila?

Tanzila. Bir kun u mening oldimga o'zida yo'q xursand keldi... Qo'lida otasidan kelgan xat...

Yonar. Demak, mendan...

Tanzila. Siz allaqayerda, chet elda, komandirovkada bo'lgansiz. Siz uning xatiga javob yozib, tez kunda qaytishingizni va uning so'zlariga ishonishingizni aytgansiz.

Yonar. Men o'sha xatni ming marta o'qidim, takror-takror o'qidim, yod bo'lib ketdi.

Yigit ovozi eshitiladi. Sen mening yonimda bo'lishingni naqadar istardim, dadajon... Men uni qalbimdan sevaman... Agar sen yonimda bo'lganingda tan olish qiyin bo'lardi. Lekin sen mendan

bir necha yuz chaqirim uzoqda bo'lganing uchun ham bu haqda gapirish oson. Dadajon, men baxtliman. Tezroq uyga qayt, senga Tanzilani ko'rsataman, tanishtiraman...

Tanzila. U, dadam kelgan kuni sen ham bizning uyga kelasan, dedi. Men unga, endi o'n sakkizga kirdik, birinchi kursdagina o'qiyotibmiz, hayotga endigina ilk qadam qo'ydik desak, bo'ladi, qayoqqa shoshilamiz, dedim... Men bu so'zlarni unga sekingina aytdim, xafa qilib qo'ymaslik uchun... U tutoqib ketdi, "meni sevmaysan" deb ta'na qilib, jo'nab qoldi... Men uni yo'ldan to'xtatolmadim. Yonar muallim, u, albatta, nohaq edi. Men uni sevardim. Qalbdan sevardim. U meni tushunishni istamasdi... Imtihon kunlari edi, men har kuni Sohilni ko'rish umidida institutga borardim. Bir kun mash'um xabar yashinday qalbimni tilka-pora qildi...

Yonar. Gapir, qizim, gapiraver, sen menga bo'lgan sinoatning hammasini aytib berishing kerak!

Tanzila. U do'st-birodarlari bilan cho'milish uchun dengizga borgan. Qirg'oqda pionerlar lageri bor ekan. Birdan dengizdan qichqiriq eshitilib qoladi. Qarasa, ikki bola suvga cho'kib ketayotibdi, Sohil darhol suvga o'zini tashlaydi, yordam bermoqchi bo'ladi. Bolalar girdobga to'g'ri kelib qoladilar. Sohil bir bolani qutqarib olib chiqadi, so'ng ikkinchisini olib chiqish uchun yana suvga sho'ng'iydi.. Lekin girdob bu gal har ikkisini yutadi...

Yonar. Sohil dengizga sho'ng'ib, demak, o'zi ham dengiz bo'lib qolibdi-da...

Tanzila. Men o'zimni qancha koyidim.. qiynaldim... Ikki yildan keyin Imon bilan uchrashdik.

Yonar. "Imon" degan so'z ishonch degani. Sizning eringiz ismiga munosib, mening nazarimda, ajoyib yigit.

Tanzila. U xuddi shunday mehribon, xushfe'l. Men unga ko'nglimdagi bor gaplarni aytganman. U ham hammasini tu-

shungan... Biz endigina turmush qurgan kezlarimizdayoq, o'g'il ko'rsak, ismini "Sohil" qo'yamiz deb ahdlashib qo'ygan edik. Lekin qiz tug'ildi. Biz uni Sohila deb atadik. Siz uni bugun ko'rdingiz, Yonar muallim. Bugun uning tug'ilgan kuni.

Yonar. Sizni, Sohilani va Imonni uchratib qolganimdan juda baxtiyorman. Bugun sizning xonadoningizga kelganimdan boshim ko'kka yetdi. Men go'yo to'yda bo'lmagan bo'lsam ham, to'y kunlari chalingan musiqa sadolarini eshitayotganday bo'lib turibman... Xayolimda to'y, to'yda men o'ynayotganday — qani, Tanzila, menga bir qara, kulib boq, kelinim, o'z qayin otangga!

Tanzila. Qulluq sizga, Yonar muallim!

Yonar uning manglayidan o'padi, Sadoya kirib keladi.

Yonar. Sadoya, men Tanzilani topdim, o'n yil qidirganim behuda ketmadi.

Sadoya. Sizga nima bo'ldi, Yonar muallim, rangingiz o'chib turibdi...

Yonar. Hechqisi yo'q, e'tibor qilmang.

Sadoya. Eldorni chaqiraymi?

Yonar. Hojati yo'q. Hozir hammasi o'tadi-ketadi... (*kulimsirashga urinadi.*) Mana, boyagi-boyagiday, hammasi joyida. Endi uyga kirib, nevaram bilan o'tiraman... Meni kuzatmanglar... *(Sobit qadam bilan uyga kirib ketadi. Sadoya va Tanzila uning ortidan qarab qoladilar.)*

Sadoya. Tanzila, azizim, ko'zlaringga yosh olma, o'zingni bos! Hadeb o'tganini eslayverish yaramaydi. Sen hamisha Sohilni eslaysan. Axir, mening ukamni — Imonni sevasan-ku?

Tanzila. Ha, shunday, Sadoya, men uni sevaman... Ammo Sohilni ham sevaman... Gapning rosti, u qoldirgan xotirani sevaman. Meni, sen o'z ukangga xiyonatda ayblamoqchi bo'lasanmi?

Sadoya. Yo'q, Tanzila, buni ko'nglingga ham olma, seni ayblamoqchi ham emasman. Allaqayerda o'qiganim bor: bunday pinhoniy muhabbat suvosti kemasining yo'liga o'xshash xatarli bo'larmish. Dengiz to'lqini urganda atrofini zulmat bosib, kema darg'asi yo'lni aql-u idrok tufayli topib olishga majbur bo'lar ekan. Har bir darg'aning o'zi bilgan yo'l bor. Shu yerda bir nafas o'tir. Ba'zan kishiga yolg'iz qolish foydali. Men Yonar muallimning yoniga boraman. Uning salomatligi meni tashvishga solib turibdi. *(Ketadi.)*

Tanzila *(yolg'iz)*. Ko'ngilda tashvish... ovozim uchar, cho'qqini quchar... Tog'larda to'lqin sachratar uchqun... U yerda kimningdir qalbi uradi, cho'qqidan bir ovoz kelib turadi.

Uzoqdan, dengiz tomondan Imonning tovushi eshitiladi: "Tanzila! Tanzila!.."

Tanzila *(baralla)*. Men bundaman, Imon!

Imon qo'lida qarmoq bilan kiradi.

Imon. Meni chaqirganday bo'lding.

Tanzila. Men seni hamisha chaqiraman, Imon. Hatto jim turganimda ham. Hozir esa seni nihoyatda ko'rgim keldi, Imon. Azizim Imon!

Imon. Senga nima bo'ldi, Tanzila?

Tanzila. Men seni jonimdan ortiq sevaman, Imon.

Imon. Nega sen bu gaplarni hozir aytayotibsan? Quloq sol, Tanzila, senga nima bo'ldi deyapman?!

Tanzila. Hech nima, sog'-salomatman. Aql-u idrokim, es-hushim o'zimda. Gaplarimga ishon, Imon, men seni sevaman!

Imon. Sen buni endi angladingmi?

Tanzila *(unga suyanadi, boshini ko'ksiga qo'yib, yurak urishiga quloq soladi)*. Ha... Endi, hozirgina...

Beshinchi ko'rinish

Ikkinchi ko'rinishdagi manzara.

Eldor *(bir o'zi)*. Juda soz! Men uchun ilgari raqib bo'lsa endi bemor.

Sadoya *(kiradi)*. Yonar muallimning ahvoli, ruhi qalay?

Eldor. Men unga ukol qildim, biroz mizg'iyapti. Bunday buyuk arxeologga menga o'xshagan buyuk vrach ro'baro' kelgandan keyin tuzalmasdan ham ko'rsin-chi...

Sadoya. Balki, uni kasalxonaga yotqizishga to'g'ri kelar?

Eldor. Bu masalani surishtirib ko'rdim, bo'lmadi, o'zi istamayotibdi.

Sadoya. Sen o'zing qanday o'ylaysan?

Eldor. Menmi? Menga qolsa, mening xotinim atrofidagi oshiqlarning hamma-hammasini kasalxonalarga jo'natgan bo'lardim.

Sadoya. Bunday bema'ni gaplaringni qachon qo'yasan, Eldor?

Eldor. Qachon mening xotinim o'z eriga loqaydlikdan voz kechganda, iliq-issiq boqqanda, sovuq qoyalarni unutganda...

Sadoya. Sen ilm-u fandan voz kechib, barcha tanish-bilishlarni tark etib, faqat sen bilan ovorayi sarson bo'lishimni xohlaysanmi? Sen bo'lsang, tuman kasalxonasiga yaxshilab joylashib olib, boshqa hech narsani o'ylamay qo'yding, o'ylashni ham istamaysan. Mutaxassis, ko'richak ustasi!

Eldor. Ko'richak ham, aytganday, mutaxassislikni talab qiladi. Suyak surib kelgan ko'richak orqasidan kun ko'rayotganlar ozmi? Shu jumladan, sen ham.

Sadoya. Menga buning nima daxli bor?

Eldor. Daxli bo'lganda qanday? Bu xonalardagi, qo'lingizdagi qo'sha-qo'sha antiqa brilliant ko'zli uzuklar, quloqlaringizdagi oltin isirg'alar nahotki arxeologiya tufayli jilvalanib turgan bo'lsa?! Yo'q, azizam, bular hammasi ko'richak evaziga kelgan. Ota-bobolarimizdan suyak surib kelgan ko'richak evaziga!

Sadoya. Siz aytgan billur-u javohirlarimizni ko'rgani ko'zim yo'q!

Eldor. Demak, olamda go'zal narsalarni yoqtirmaydigan xotin bor bo'lsa, o'sha xotin sen ekansan-da! Kechirasan, jonginam, bu gaplaringni hazm qilolmayman.

Sadoya. Senga achinaman, Eldor!

Eldor. Achinaman?

Sadoya. Ijodiyot gultoji, tabiat podshosi — inson nahotki qullikni bo'yniga olsa...

Eldor. Xafa bo'lma, hazillashdim. Jindakkina lirik chekinish, xolos... Bir voqea esimga tushib ketdi. Allaqaysi bir Afrika davlatining shahzodasi Bokuga uchib kelibdi. Ammo samolyotdan chiqayotganda qorni chunon og'rib qolibdiki, zo'rg'a yerga

tushib olibdi. Men uni o'sha yerda operatsiya qildim, besh kun o'tar-o'tmas tumba-mumbaga o'yinga tushib ketdi. Janobi oliylari o'zlari bilan hamma xotinlarini olib kelgan ekanlar. O'sha parivashlarning bari kasalxona ostonasini kecha-yu kulduz tark etmasdan o'z sohiblariga ilhaq bo'lib, ko'z tutdilar. Janobi oliylari mohirlik bilan qilingan operatsiya uchun menga tahsin o'qidilar...

Sadoya. Va nihoyat, saroy vrachi lavozimiga taklif etdilar.

Eldor. Sen hazillashayotibsan-ku, ammo aslida shunday ham bo'ldi.

Sadoya. Bekor rad etgansan. Afrika shahzodasi bilan ketganingda mukofotiga haramli bo'lib qolarmiding!

Eldor. Haramni boshimga uramanmi?! Bir haramda qancha xotin bo'lardi. Qirqdan oshmaydi, albatta. Mening suyukli, yakka-yu yagona xotinim yuz bir sohibjamoldan ortiq. Naqadar go'zal!

Sadoya. Biz sen bilan birga turmush qurganimizda, hamma seni atoqli vrach, mashhur olim bo'ladi deb o'ylagandi. Aslida bunday bo'lib chiqmadi, lo'ttibozlikdan nariga o'tmading.

Eldor. Ayniqsa, Yonar muallim oldida, shundaymi?

Sadoya. Shunday! Yonar muallim oldida, ayniqsa... Uning qarshisida ko'plar yo'q bo'lib qoladi...

Eldor. U aravani quruq olib qochishga usta. Bo'yi bastining o'zi kishini dovdiratadi, go'yo fuqarodan bir bosh baland, avliyo yoki payg'ambar... Hali bu payg'ambar ham mening operatsiya stolimga kelib tushadi!

Durdona kiradi.

Durdona. Kuyib-yonib, nimalarni gapirayotibsan, Eldor?

Eldor. O'z xotinimga, sizday Durdonaxonim, volidayi muhtaramaga farzand bo'lmoqlik o'zi ulug' baxt ekanligini aytayotibman, mabodo siz bo'lmaganingizda bizning oilamiz allaqachon inqirozga yuz tutgan bo'lardi.

Durdona. Sen shunday deb o'ylaysanmi?

Sadoya kiradi va tek qotib turadi.

Eldor, chiqib ket, men qizim bilan gaplashmoqchiman!

Eldar chiqib ketadi.

"Yor qalbida bor bir sir-u asror..." Senda o'z onangdan, o'z eringdan yashiringan qanday sir bo'lishi mumkin?

Sadoya *(sabrsizlik bilan)*. Bu she'r-ku, oyijon! Yonar muallim menga o'qib berdi.

Durdona. Erlik xotinga hech kim she'r o'qishga haqqi yo'q! Bu alloma sening nimalar deb boshingni qotirganini eshitdim: "Bugun sen kiyibsan moviy usti bosh". Sen qanday libos kiyganing bilan uning nima ishi bor, yer yutsin!

Sadoya. Sen quloq solib turganmiding?

Durdona. Oilamga ofat yuzlanganda, quloq solish ayb emas! Men unga nima deyishimni o'zim bilaman...

Sadoya. Sen unga bir so'z deb ko'rgin-chi...

Durdona. Bir so'z emish, yuz so'z aytaman. Mening istagim nima? Xonadonimizda tartib-intizom bo'lishi kerak. Xotinlar faqat erlarini sevsinlar, bir yostiqqa bosh qo'ydilarmi, qo'sha qarisinlar. *(Keskin.)* Shunday qilmasalar, qarg'ishimga qoladilar. Bergan oq sutimga rozi bo'lmayman.

Sadoya. Men hamisha izmingda bo'lganman.

Durdona. Nahotki men senga baxt tilamagan bo'lsam?.. Men senga ozmuncha yaxshilik qildimmi?!

Sadoya. Oyi, men ham endi yosh emasman. Mening ham o'z qarashim bor. Nega sen bizlarning hammamizni o'zingga itoatkor qullarday ko'rishni istaysan?

Durdona. Ona degan so'z farzand uchun muqaddas so'z.

Sadoya. Farzand rozi bo'lsa...

Durdona. Nega sen rozi bo'lmas ekansan, men sizlar uchun kerak ekanligimni sendan yaxshi bilaman. Sening amakivachcha singlingni erga uzatgan men emasmanmi? Qara, ular qanday baxtli yashayaptilar. O'n to'rtinchi qavatdan kvartira ham oldilar...

Sadoya. Agar inson baxti qavatlar bilan o'lchanganda edi, eng baxtli kishilar Nyu Yorkdagi bir yuz qirqinchi qavatda turganlar bo'lardi.

Yonar kiradi.

Qayoqqa bormoqchisiz, Yonar muallim?

Yonar. Qosh qoraydi, uyga borishim kerak.

Tanzila, uning ketidan Sohila qo'lida chilvir o'ynab kiradi.

Sohila. Siz ketayotibsizmi, tog'a muallim? Men bilan chilvirdan sakrab o'ynamoqchi edingiz-ku!..

Yonar *(boshini silaydi).* Boshqa gal, nevaram. Endi sen bilan biz ko'p ko'rishamiz.

U Sohilani bag'riga bosadi. Uzoqdan yigit ovozi eshitiladi.

Ovoz

Dengiz tog'dan, nahotki olis?
Dengiz suvi oqar bekanda...
Sen cho'qqisan, men — dengiz,
Ilk tomchilar yaralgan sanda,
Oq, oqaver bag'rimga tengsiz...

Oltinchi ko'rinish

G'or, Yonar va Madad.

Yonar. Nihoyat, mana bu qoyalar ham tilga kirdi. Tuproq, qum va g'uborlardan tozalandi-yu, o'z sir-u asrorini ocha qoldi.

Madad. Mana bu rasmni kim chizgan, Yonar muallim? Yoshmi yoki keksami?

Yonar. O'ylaymanki, bu rasmlar rassom qo'li bilan bunyodga kelgan. U yoshidan qat'i nazar, buyuk rassom bo'lgan, albatta. O'n ming yil o'tsa ham ajdodlarimiz qalbi biz bilan dardlashayotganday...

Madad. Bir qarang, ustod, mana bu ho'kizga! Gavdasi to'la kuch, bo'yni qayrilmaydi. Shataloq otguday turibdi. Bir sakrasa uchib ketadi.

Yonar. U yarador, ko'rmayotibsanmi, ko'ksiga o'q qadalgan. Hozir qulaydi-yu tamom-vassalom, bosh ko'tarmaydi. Sayyod mayib qilgan...

Madad. Inson o'z kuchi, o'z gavdasining zo'rligi bilan har qanday yirtqichni yengadi...

Yonar. Shunday. Bu haqda qoyalar dalolat beradi. Jumladan, ayollar erlarining ovdan qaytishini kutadilar. Bu ajoyib surat, unda xotin kishining vujudi mevali daraxtga o'xshatib tasvirlan-

gan. Demak, bizning ota-bobolarimiz bu yerda dehqonchilik bilan shug'ullanganlar, mana uy-ro'zg'or asboblari, mana ovchilar. Ularning yelkalarida yoy va o'qlar... Qo'llarida guvran...

Madad. Yonar muallim, mana bu olti erkakka nazar tashlang!

Yonar. Sen ular erkak ekanligini qaydan bilding?

Madad. Bellarida belbog'lari bor. Bellari ingichka, oyoqlari katta...

Yonar. To'g'ri! Ularga o'lja topish uchun yugurib yelishga to'g'ri kelgan.

Madad. Ular o'yinga ham tushganlar!

Yonar. Ha, shunday. Qadimgi o'yinimiz — yalla o'ynaganlar, ovga jo'nash oldidan qo'lni qo'lga berib, ovdan omon qaytib kelish uchun yalpisiga o'yinga tushganlar...

Madad. Bunday o'yinlarga faqat bizning qishloqda hamon tushadilar, to'y-tomoshalarda, bayram-ma'rakalarda...

Yonar. Adashyapsan, Madad. Bu o'yin respublikamizning hamma joyida mashhur. Sen o'zing qayerdansan?

Madad. Mening vatanim — Shahdag' cho'qqisi. Yuksak tog' jilg'alari malla rang qoyalar, ko'ko'par cho'qqilar ustida suzib yurgan oq bulutlar makonidanman.

Yonar. Demak, sen Xandalig' qishlog'idan ekansan-da! Bu, haqiqatan dunyoda antiqa joy. Men u yerda bo'lganman, urf-odat, turish-turmush va shevasini o'rganganman.

Madad. Men Xandalig'dan chiqqan birinchi arxeolog bo'laman. Men sizni, Yonar muallim, qishlog'imizga, tog'imiz bag'riga olib boraman. U yerda ham hali yechilmagan jumboqlar ko'p.

Yonar. Bu jumboqlarni sen yechasan, Shahdag‘ o‘g‘li! Men, albatta, mehmon bo‘lib boraman. Qani, rasmlarga qaytaylik.

Madad. O‘yinchi xotinlar davrasidaman, Yonar muallim. Ular borgan sayin ko‘payib ketayotibdi. Men hozir ular bilan o‘yinga, yallaga tushaman, ashula aytaman. Sizga nima bo‘ldi, Yonar muallim?

Yonar *(bukchayib o‘tiradi)*. Yana la’nati...

Madad. Vrach chaqirib kelaymi?

Yonar. Hojati yo‘q! Kamzulimda, tepa cho‘ntagida... dori bor... O‘shani olib bersang, bas!..

Madad dori keltiradi.

Ichishim bilan... yengil tortaman... *(Ichadi.)* Hozir... hozir hammasi o‘tib ketadi... tashvishlanma, Madad, diqqat bo‘laverma, ishingni qilaver... mana, o‘tdi-ketdi... og‘riq to‘xtadi...

Madad o‘z ustoziga hayajonli qarab, so‘ng uning buyrug‘i bilan g‘or ichkarisiga kirib ketadi. Yonar ko‘tariladi va o‘z ishida davom etadi.

Men bu yerdan hech yoqqa jilmayman... Mo‘ljaldagi ishimni yakunlamasdan turib...

Kimdir g‘or ichiga tushayotgan nurni to‘sadi, ko‘lanka paydo bo‘ladi. Eldor kiradi.

Eldor. Zamonamiz Farhodiga shon-sharaflar! Assalomu alaykum, Yonar muallim!

Yonar. Qadamingizga hasanot, Eldor!

Eldor. Siz, haqiqatan, Yonar muallim, tog‘ toshini yo‘nib, yo‘l ochgan afsonaviy Farhodning xuddi o‘zisiz!

Yonar. Darvoqe, shunday matal bor: “Farhod dunyodan o‘tgan bo‘lsa ham, ammo hamon yangrar teshasidan chiqqan sado...”

Eldor. Qoyil, Yonar muallim!

Yonar. O‘tiring, Eldor, kechirasiz, bu yerda bizda o‘tirish uchun qulay kreslo yoki divan yo‘q.

Eldor *(alanglab)*. Bu yer o‘zi muhtasham saroy! Olimlar uyi...

Yonar. Menga bu meros ajdodlarimizdan, hammasi bo‘lib bundan o‘n ming yil muqaddam bu yerda yashab o‘tgan ota-bobolarimizdan qolgan. Qalay, achchiq choyga xohishingiz bormi?

Eldor. Qulluq, shoshib turibman. Siz bilan bir muhim masala ustida gaplashib olmoqchi edim.

Yonar. Demak, xatim qo‘lingizga borib tekkan.

Eldor. Qanaqa xat?

Yonar. Sadoyaxonim nomiga yozilgan xat.

Eldor. Yo‘q, hech qanday xat olganimiz yo‘q. Anchadan buyon shahar hovlida bo‘lganimiz ham yo‘q. Kechqurun, albatta, kirib o‘taman.

Yonar. Bu xatni bir kun kech olsa ham, Sadoyaxonim mendan ranjishi mumkin.

Eldor. Bu xatni, kishini xafa qiladigan bo‘lsa, nega yozdingiz?

Yonar. Hech kimni xafa qilish ko‘nglimda yo‘q. Men faqat fan nomzodi bo‘lishni niyat qilgan aspirantning ishi haqida yozdim, xolos. Rostini aytsam, Eldor, men bu ishni ma’qullamadim.

Eldor *(quvonchini pinhon tutib)*. Chindanmi?

Yonar. Mendan xafa bo'lishingiz mumkin. Lekin men boshqa yo'l topolmadim.

Eldor. Gapning ochig'i, Yonar muallim, o'z quloqlarimga o'zim ishongim kelmaydi. Juda soz.

Yonar. Men bu xatim tufayli o'zimga yana bir qancha dushman orttirganimni bilaman.

Eldor. Va, shuningdek, do'stlar ham...

Yonar. Hali shundaymi? Bu yangi orttirgan do'stlarim kimlar ekan? Bilish mumkinmi?

Eldor. Birinchisi o'zim!

Yonar. Xotiningiz ishida yuz bergan muvaffaqiyatsizlikdan xursandmisiz?

Eldor. Shak-shubhasiz! Men o'ylardimki, siz va mening qaynanam, albatta, undan bir arbob chiqazasiz... har qanday sharoitda bo'lsa ham!.. Hatto uning o'ziga, oilasiga, ilm-u ma'rifatga ziyon yetsa ham...

Yonar. Kim sizga bunday deb aytdi?

Eldor *(quvonib)*. Unda olim bo'lishlik uchun hech qanday asos yo'q-ku! Hech qanday! Mana, o'zingiz ham tasdiqlab turibsiz, men esa xursandman.

Yonar. Men novvoy emasmanki, har qanday xamirdan non yasayversam!..

Eldor. Demak, bu hammasi Durdonaxonimning ishi bo'lib chiqdi. Shuhratparastlik bir kunmas-bir kun uning boshini yeydi, men bo'lsam, Sadoyasiz bir kun ham yashayolmayman...

Sizning la'nati arxeologiyangiz meni jonimdan sevgan xotinimdan judo qilmoqchi.

Yonar. Sevasizmi? Sadoyaxonim sevgiga munosib! U ajoyib xotin... Nega, arxeologiyani tahqirlash kerak? Fanni haqoratlash, nechun? Ha, sizning Sadoyangiz yozgan dissertatsiya muvaffaqiyatsiz chiqdi. Hozircha shunday! Unda masalani umumlashtirish uchun kuch, ilmiy tajriba yetmadi. Ishni kamol toptirish uchun yordam berish kerak, nuqsonlar bartaraf bo'ladi, boshlangan ish ko'ngildagiday yakunlanadi... Siz bo'lsangiz u uchragan muvaffaqiyatsizlikdan xursandsiz.

Eldor. Nahotki, men quvongan bo'lsam? Men faqat sizning talabchanligingizdan, bir so'zliligingizdan xursandman. Men ham birovning baxtsizligidan quvonadigan kishilarni yoqtirmayman.

Yonar. Mana endi dilingizdagi qolib, tilingizdagini aytayotibsiz.

Eldor. Men haqgo'ylik bilan mashhurman. Har qancha achchiq bo'lsa ham, tilimni tiymayman!

Yonar. Ko'pincha, birovlarni aldaydigan kishilarga duch kelasan. Ammo kishi o'zini o'zi aldasa bundan yomoni yo'q!

Eldor. Yonar muallim, sizning gaplaringizga qanchalik quloq tutsam, shunchalik sizga mehrim ortib borayotibdi. Sizning fikringizga qo'shilaman. Juda soz! Ammo siz o'zingizning salomatligingiz haqida hech narsa deganingiz yo'q. Ijozat bering, qon bosimingizni o'lchab, tomir urishingizga quloq tutib ko'ray?..

Yonar. Tashakkur, hojati yo'q, men otdayman.

Eldor. Ertaga kirib o'taman. Xayr, Yonar muallim, ertagacha!

Yonarning qo'lini qisadi, Yonar bir o'zi qoladi va kaftiga qaraydi. Xuddi bir parcha muzni ushlaganday bo'ldim... eridi-ketdi.. Madad shoshilib kiradi.

Madad. Kechirasiz, Yonar muallim! Qani, bu yoqqa yuring-chi, iltimos qilaman, o'yin tushayotgan xotinlar guruhini ko'zdan kechiramiz va rasmini olamiz.

Yonar. Qoyada sen qanday yangilik ko'rding?

Madad. Men ko'rgan ayollar qo'lida allaqanday musiqiy asbob, bizga noma'lum... Bir ko'ring-chi...

Yonar g'or ichiga kirib ketadi. Durdona paydo bo'ladi.

Durdona. Bu yerda tirik jon bormi? (Aks sado eshitiladi. "mi...") Ey, Xudovandi karim, qayerga kelib qoldim! Yerosti saltanatining xuddi o'zginasi! Shofyor toza aylantirib, aylantirib... Eh, bu shofyorlarni Xudo olsin! Aslida yaqin ko'ringandi... Balki, boshqa yoqdan chiqib qoldimi-a. Ayiq uyasiga o'xshaydi-ku bu yer... Ana u mashina bo'lsa, yo'l bo'yida turibdi-ku... ichidagi odam Eldorga o'xshaydi... U bu yerda nima qildi ekan? (G'orga nazar tashlaydi.) Ha, shunday! Bu yerda har kim ham Odam Ato zamonasidagi kishiga aylanib qolishi hech gapmas! Hoy!

Madad qaytadi va Durdonaga ko'zi tushadi, salomlashadi.

Durdona. Sen bu yerda nima qilib yuribsan, bolam?

Madad. Ota-bobolarimiz izini qidirib yuribman. Sizga kim kerak edi, xonim?

Durdona. Yonar muallim shu yerda emasmi?

Madad. Ana u g'orda, bemalol...

Durdona. Bu yoqqa chaqirib yubor! Tag'in u yerda meni ikki yamlab, bir yutmanglar... Siz arxeologlarni kim bilsin, bunda odamxo'r bo'lib qolganmisiz...

Yonar *(ichkaridan chiqadi. Hayratda)*. Qaysi shamol uchirdi, Durdonaxonim?

Durdona. Qidirgan Makkani topadi, deganlar qadim mashoyixlar...

Yonar. Bugun mening huzurimga eng yaxshi do'stlarim tashrif buyurdilar. Jumladan, sizning kuyovingiz Eldor kelib ketdi.

Durdona *(cho'chib)*. U bu yerda nima qilib yuribdi?

Yonar *(kulib)*. O'z bemoridan xabar olgani kelgan ekan. O'tiring, Durdonaxonim. Siz ham, ehtimol, mening sog'lig'imdan tashvishlanib kelgandirsiz?

Durdona. Yonar muallim, azizim, jigarim! Men siz bilan bir narsani ochiq-oydin gaplashib olish uchun keldim. Yoshga kelganda, ehtimol, mening yoshim ulug'dir, ammo men sizni o'z og'am deb bilaman. Qarshi emasmisiz?

Yonar. Qulog'im sizda, Durdonaxonim!

Madad fotoapparatini ko'tarib g'or ichiga kirib ketadi.

Durdona. Men onaman, mening farzandlarim chizgan chizig'imdan chiqmagan. Men qizim Sadoya haqida gapirayotibman. Menga hammasi ayon, hamma narsani tushunib turibman. Iltimos sizdan, undan uzoqlashing!

Yonar. Uzoqlashing?

Durdona. O'zingiz ko'rib turibsiz — oilamiz tinch, baxti butun, yeganimiz oldimizda, yemaganimiz ortimizda...

Yonar. Ha, shunday! Oilangiz juda joyida!

Durdona. Ana shunday oila buzilib ketsa, nahotki, sizning joningiz achimaydi?

Yonar. Nahotki, achiganda qandoq!

Durdona. Modomiki, shunday ekan, aytadigan so'zingizni aytib, beradigan bahoyingizni berib qo'ya qoling, Yonar muallim, u ham qurib ketgur dissertatsiyasini yozib, qurib ketgur nomzod bo'lsa bo'la qolsin-u, tezroq sizdan uzoqlashib, gumdon bo'lsin.

Yonar. Qayoqqa?

Durdona. Qayoqqa bo'lsa ham mayli, ishqilib, sizdan uzoqqa. Siz o'ylaysizki, men hamma narsani tushunmayman-a, nega siz ikki enlik xatingizni bunchalik cho'zib, sudrab yurganingizni bilmayman? Yo'q, men siz aytgan go'l emasman, Yonar muallim! Siz buni shuning uchun qilayotibsizki, Sadoya siz qo'ygan qopqonga tusha qolsa, kechirasiz, kechirasiz...

Yonar. Siz meni haqoratlayotibsiz, Durdonaxonim!

Durdona. Siz-chi? Siz meni haqoratlamadingizmi? Siz bizning oilaga dog' tushirmadingizmi?

Yonar. Siz meni nima qilmoqchisiz, bilolmasdan qoldim?

Durdona. Siz mening o'g'lim Imonning qalbiga kirdingiz, uni o'zingizga rom etdingiz, xotini Tanzilani ham, qizi Sohilani ham, mening qizim Sadoyani ham... Lekin meni maftun etolmadingiz, Yonar muallim! Men sizni juda yaxshi bilaman!

Yonar. Bas! Yetar!

Durdona. Men ham xuddi shunday deyman — bas, yetar! Mening o'g'lim Imon sizni ertaga biznikiga mehmonga chaqirgan. Bormaysiz! Tushunarlimi endi, Yonar muallim?

Yonar *(biroz jim qolib, so'ng)*. Ko'nglimdagi gapni aytdingiz, Durdonaxonim. Men siznikiga bormayman, xayr, salomat bo'ling!

Durdona. Ming afsuski, ushbu g'orning eshigi yo'q, bor bo'lganda shunday yopardimki, butun tog'-u tosh, qoya-yu cho'qqila-

ringiz larzaga kelardi! *(Chiqib ketadi. Yonar bir o'zi qoladi, og'riq zo'ridan qoya toshiga o'tiradi. G'or ichi nursizlanadi. Yigit ovozi yangraydi.)*

Ovoz

Sen cho'qqi bo'lsang gar,
Men boshingda oq bulut.
Xayol surasan, padar.
Nechun saqlaysan sukut...
Men sening xayolingman,
Omolingman..
Sen bog' bo'lsang,
men yomg'ir,
Yog'aman,
yog'ganday nur,
Sen dengizday qalqiysan,
Men sohilman, olqiyman...

Yonar *(asta-sekin)*. Bu senmisan, o'g'lim? Sohil... *(o'rnidan turadi va oldinga yurib, yiqiladi.)*

Madad yugurgilab yetib keladi. Hushidan ketgan Yonarni ko'radi.

Madad. Ustod! Sizga nima bo'ldi?!

PARDA

UCHINCHI PARDA

Yettinchi ko'rinish

Yana Durdonaning uyi. Oynavand ayvon, dengiz ko'rinib turadi. Stol atrofida Durdona va Imon. Sohila yugurib kiradi.

Sohila. Buvi, buvijon! Qarang, qanaqa chiroyli kapalak tutdim. Qanotlari ko'm-ko'k, atrofi sap-sariq...

Durdona. Qani, ko'rsat-chi, nevaram!

Sohila. Uchib ketdi, men yig'ladim. Oyim aytdilarki, uchib ketgani yaxshi bo'libdi... Gullardan gullarga qo'nadi, kapalaklar bilan uchrashadi... Nega mehmonlarimiz kelmayotibdi, buvijon? Yonar amaki ham keladilarmi?

Durdona *(nevarasini erkalab)*. Uxlaydigan vaqting bo'lib qoldi, oppog'im.

Sohila. Mehmonlar kelishganda uyg'otib qo'yasizmi?

Imon. Albatta.

Sadoya va Tanzila kiradilar.

Sohila. Oyijon, ammajon. Men Yonar amakim bilan kapalakni tutgani boraman, xo'pmi?

Tanzila. Xo'p bo'ladi, qizalog'im... *(Sohilani o'padi.)*

Durdona Sohilani olib chiqib ketadi. Deraza ortida mashina ovozi eshitiladi. Sadoya va Imon deraza yoniga boradilar.

Imon. Keldinglarmi?

Sadoya. Eldor mashinadan bir o'zi tushayotibdi-ku.

Tanzila. Nega, nega bir o'zi?

Asta-sekin, horg'in qadamlar bilan Eldor ayvonga ko'tariladi.

Sadoya. Yonar muallim qayoqda qoldi? Sen nega uni olib kelmading?

Eldor *(peshanasini dastro'moli bilan artib, o'tiradi)*. Yonar muallim kasalxonada.

Tanzila. Nima deding?

Eldor. Ha, shunday. Mening kasalxonamda.

Sadoya. Unga nima bo'ldi?

Eldor. Sabr qiling, aytib beraman. Men navbatchiligimni tugallab endi Yonar muallimni olib ketish uchun otlanib turganimda telefon jiringlab qoldi. "Tez yordam" mashinasida kasalxonaga Yonarni olib kelishdi. Darhaqiqat, bizning kasalxona g'orga eng yaqin kasalxona.

Durdona *(qaytib kelib, eshik yonida gapga quloq soladi)*. Gapiraver!

Eldor. Qattiq og'riq tutgan. Uni o'limdan saqlab qolish uchun hamma choralarni ko'rdik.

Sadoya. Ahvoli shunchalik og'irmi?

Eldor. Juda og'ir. U og'riqni yengish niyatida g'orda bir necha kun bir o'zi qolib, hech kimga hech narsa demagan, ammo uxlolmagan... O'zi aybdor. Aytishicha, kafedrada Apsheron qoyalaridagi tasviriy yodgorliklar haqida doklad qilishi kerak ekan, shuning uchun shoshilgan. Bu masala o'n ming yildan buyon muhokama qilinmay keladi, yana ikki-uch hafta tura tursa nima qilardi... Biz o'z sog'ligimiz bilan sira hisoblashmaymiz. Shunday, Sadoya! Yo'l-yo'lakay kasalxonadan qaytishda shahar hovlimizga kirib chiqdim. U yerda senga xat bor ekan.

Sadoya. Kimdan?

Eldor. O'sha Yonar muallimdan, mana, bemalol o'qishing mumkin. *(Xatni uzatadi.)*

Sadoya. Nima haqda?

Eldor. Men birovning xatini o'qimayman. O'ylaymanki, sening dissertatsiyang haqida bo'lsa kerak.

Sadoya konvertni ochadi.

Durdona. Ovozingni chiqarib o'qi, qizim! Bu masala hammamizni qiziqtiradi.

Sadoya (*xatni oyisiga uzatadi*). O'zingiz o'qing!

Durdona. Ko'zoynagim qayerda? *(Baland ovoz bilan o'qiydi.)* "Sizning dissertatsiyangiz haqidagi o'z rasmiy mulohazamni kafedraga jo'natishdan oldin o'zingizga havola qilishni lozim ko'rdim. O'ylaymanki, siz mening niyatlarimni to'g'ri tushunasiz. *(Darg'azab.)* Nima gap o'zi *(O'qiydi.)* "Tarixni buzib ko'rsatish mumkin emas, ammo unga loqayd qarash, befarq munosabatda bo'lish, tuyg'usiz yondashish yaramaydi... Sizning asaringiz shunday yozilgan..." Yer yutsin bu yumronqoziqni, og'ziga kelganini qaytarmay yozibdi! "Sizning asaringizni qaytadan ishlash kerak, ishlaganda ham jiddiy va chuqur mulohaza bilan... Insonlarga yangi gap aytishingiz lozim, birovlarning fikrini emas, bu haqda o'zingiz bilgan, o'zingiz ishongan ilmiy dalillarni..." Bu nima gap, qizim, u seni pichoqsiz tilka-pora qilibdi, bo'g'izlabdi! Balchiqqa qorishtirib tashlabdi. Mehnatingni yo'qqa chiqaribdi! Oilamiz xesh-u aqrabosi! Qanday sharmandalik!

Eldor. Juda soz!

Durdona. Asaring haqida yaxshi fikr aytsa, osmon uzilib yerga tusharmidi. O'zi tuz ichgan joyga tupurishini qarang!

Eldor. Menga u avval boshidan ma'qul kelmagan.

Durdona. Qara, qanday ustalik bilan niqoblangan. Ko'rinishdan avliyoning o'zginasi!

Sadoya *(o'rnidan turib)*. Bo'ldi, bas qiling! Menga endi sizlarning gaplaringiz yetmay turuvdi! Eshitishni ham istamayman!

Durdona. Xafa bo'lma, qizim. Arxeolog dunyoda birgina Yonarmi, boshqasi qurib qolibdimi? Undan zo'r, undan ham hamiyatlilari bor. Endi men nima qilishimni bilaman.

Sadoya. Menga hech kimning yordami kerak emas, eshitdingmi?! Mening ishimga aralashishlaringga yo'l qo'ymayman. Yonar muallim nimaiki yozgan bo'lsa, bari haq! Do'stning adolatli gapi shunday bo'ladi!

Eldor. Bu hali haqgo'ylikmi? Yuzga tushgan tarsaki emasmi!

Durdona. Uning ko'zi ko'r, qulog'i kar bo'lib qoldi, azizlarim. Uni ham kasalxonaga yotqizish kerak.

Sadoya. Siz haqsiz, oyijon. Allaqachon ko'r bo'lib qolgan edim, endi ko'zim ochilayotibdi. Mana, sizni ko'rayotibman, seni ham Eldor, qanday bo'lsang, o'shanday holda.

Eldor. Shak-shubhasiz, sen ilmga shunchalik berilib ketganingda, professor Yonar ko'zlaringni ko'r qilib qo'yganidan bizni payqamasdan qolganing rost.

Durdona *(dag'dag'a bilan)*. O'ttiz yil avval seni tug'dim, o'ttiz yil sen bilan band bo'ldim, butun umrimni senga bag'ishladim. Endi eshitganim shu bo'ldimi! Bu dunyoni yer yutsin! O'lar bo'lsam o'lib bo'ldim. *(Yig'laydi.)*

Eldor. Oyijon, o'tinaman, o'zingizni bosing!

Sadoya. Kuni kecha bu uyda Yonarni ko'klarga ko'tarding, hozirgina unga qulluq qilding, uni o'tqazgani joy topmading, nima bilan xursand qilishni bilmading. Mana, endi u mening dissertatsiyam haqida, sen esa uni na o'qigansan, na biror tushunchaga ega-

san, shunga qaramasdan, yaxshi fikr aytmagani uchun uni ayblay boshlading. Bu hammasi u haqiqatni yozgani uchunmi! Eh, siz munofiqlar!

Tanzila. O'zingizni bosing, oyijon!

Tanzila va Imon yig'layotgan Durdonani olib ketadilar.

Eldor. Tog' deb o'ylagan narsang, pastak tepalik bo'lib qolishi ham hech gap emas ekan...

Sadoya. Sen bu uyga kelibsanki, Eldor, shunday sen bilan bu xonadonga yolg'on-yashiq ham kirib keldi...

Eldor. Juda soz! Men kasallar qabul xonasiga kirganimda sening o'sha kishing Yonar mening ro'paramda, stol ustida hushsiz yotardi. Men uning qornini yormaganimga juda achinaman. Ko'richak! Modomiki, shunday ekan, darrov kesib tashlash kerak! Men bo'lsam kasalxonada ko'richak bo'yicha yakka-yu yagona vrachman...

Sadoya *(g'azab bilan unga qaraydi).* Bu gaplar doktor og'zidan, insonparvar kasb egasi og'zidan chiqayotibdimi? Bunday gapni faqat qotil, jallod aytishi mumkin...

Eldor. Men bu ishni qilganim yo'q-ku!..

Sadoya. Sen bu haqda, har holda, o'ylagansan, miyangga shu fikrning kelishi o'zi jinoyat, demak, sening xatti-harakating ham jinoyat! Sen kecha g'orda uning yonida bo'lgansan, hol-ahvolidan xabardorsan, nega o'sha zamon uni olib ketmading? Kasalxonaga olib bormading?

Eldor. Men taklif qildim, u xohlamadi.

Sadoya. U hammaning tashvishini tortadi, lekin o'zi haqida o'ylamaydi...

Eldor. Uning o'rnida men bo'lganimda sen nima qilarding? U bu yerda mening o'rnimda, shunday emasmi? Bundan tashqari, kecha g'orda, uning yonida birgina men emas, Durdonaxonim ham bo'lganlar.

Sadoya. Sen bilan birgami?

Eldor. Mendan keyin.

Sadoya. Nechun?

Eldor. Bilmadim.

Sadoya. U Yonar muallimdan mening dissertatsiyam haqida ijobiy fikr yozib berishni iltimos qilgan bo'lsa kerak. Sen bo'lsang, hammasidan bexabarsan.

Eldor. Ont ichaman, yo'q!

Sadoya. Men sening qasamingga ishonmayman, Eldor. Oyi... Oyijon! Eldor!..

Eldor. Bu masalani oyingiz bilan o'zingiz hal qiling, men aralashmayman. Meni o'z holimga qo'ying (*Chiqib ketmoqchi bo'ladi.*)

Sadoya. To'xta!

Eshik oldida bezovtalangan Durdona paydo bo'ladi.

Durdona. Bu yerda nega shovqin solayotibsiz?

Sadoya. Oyi, nega sen Yonar muallim huzuriga bording?

Durdona. Senga jim aytdi?

Sadoya. Eldor.

Durdona *(Eldorga nafrat bilan).* Sen aytdingmi?

Eldor. So'radi, aytdim. Rost gapdan tonolmayman.

Sadoya. Nega sen bunday qilasan, oyi? O'zingni ham, meni ham tahqirlaysan?

Durdona. Chunki men volidayi muhtaramaman.

Sadoya. Ona degan so'z bu mag'rur yangraydi. Onadan aziz va muhtaram hech kim yo'q.

Siz-chi?.. Siz nima qilayotibsiz? Siz qilgan ish onaga munosibmi?.. Siz uchun men yer yorilmadi, yerga kirmadim!.. *(Chiqib ketadi.)*

Durdona. Nega sen aytib qo'yding, kuyovvachcha? Biz kelishib olgan edik-ku, bu haqda og'iz ochmaymiz deb...

Eldor. Baribir eshitardi.

Durdona. Kimdan?

Eldor. Yonardan.

Durdona. Sen o'zing aytding-ku, u hushsiz yotibdi deb... Tiling bir qarich...

Eldor. Siz menga ishonmaysizmi, Durdonaxonim?

Durdona. Endi men hech kimga ishonmayman, qizimga ishonardim, senga ishonardim, o'sha Yonar deganingga ham ishonardim, nima bo'ldi. Endi hech kimga ishonmayman. Eshitdingizmi — hech kimga! *(Chiqib ketadi.)*

Sadoya qo'lida sumka bilan tez-tez yurib,
ayvondan o'tib ketadi.

Eldor *(hayajonlanib)*. Yo'l bo'lsin?

Sadoya. Kasalxonaga.

Eldor *(yo'lini to'sib)*. Hech qayoqqa!

Sadoya. Baribir boraman.

Eldor. Iltimos qilaman, endi bu o'yinni tugallashingni...

Sadoya. Yo'q, Eldor, o'yin tugagan! *(Ketadi.)*

Tanzila va Imon uydan chiqib, xotini ortidan baqirib turgan Eldorgà qaraydilar.

Eldor. Qayt yo'lingdan, Sadoya, qayt!..

Sakkizinchi ko'rinish

Kasalxona. Uzun yo'lak. Navbatchi hamshira stoli. Telefon. ***Sadoya*** *telefon qila boshlaydi.*

Sadoya. O'rtoq bosh vrach! Zudlik bilan konsilium chaqirishingizni so'rayman. Ha, men shu yerdan, o'z kasalxonangizdan gapirayotibman. Kechirasiz, sizni bezovta qildim, ammo masala juda muhim, kechiktirib bo'lmaydi. Sizga hech qanday xavf-xatar yo'q deb aytganlar, shundaymi? Bu noto'g'ri, sizni chalg'itganlar. Gap hayot-mamot haqida ketayotibdi, buyuk kishining hayot-mamoti haqida. Bordi-yu biror ko'ngilsiz hodisa yuz berguday bo'lsa, siz javob berasiz. *(Trubkani qo'yadi va yana boshqa yoqqa telefon qoqadi.)* Bu professor Jamilzodaning kvartirasimi? Kechirasiz, professor, sizni bevaqt bezovta qilayotibman. Gap professor Yonar haqida borayotibdi. U shu yerdagi tuman kasalxonasida. Men bosh vrachga telefon qildim, u bugun hordiq olayotganligini, hech qanday bemorga yordam berolmasligini, hafta-

da bir kun dam olishga qonuniy haqqi borligini aytdi... Hozir har daqiqa g'animat... Nima dedingiz? Yetib kelasizmi? Tashakkur, minnatdorman! *(Trubkani ilib qo'yadi).*

Eldor kiradi.

Eldor *(Sadoyaga qaramasdan, bo'g'iq ovoz bilan).* Sen meni sharmanda qilding.

Sadoya. Nima qilib? Sevikli ustozim haqida g'amxo'rlik qilganim uchunmi?..

Eldor. Sen butun shaharni oyoqqa turg'azding. Endi hamma sening Yonarga bo'lgan muhabbating haqida biladi. Juda soz!

Sadoya. Nahotki, professor Yonar mening do'stim, mening ustozim ekanligini hammaga aytib chiqish shart?! Nahotki, ayol kishi erkak haqida tashvish tortsa, albatta, shubhalanish kerak!

Eldor. Mening senga hech shak-shubham yo'q. Ammo odamlar!.. Mening erlik obro'yim, vrachlik martabam!

Sadoya. Agar Yonar muallim sog'ayib ketsa, sening obro'yingga obro' qo'shiladi, xolos.

Eldor. Nechun sen bosh vrachga telefon qilding? Nechun bu yerga professorni chaqirib kelding? Biz o'zimiz uddalay olmasmidik?!

Sadoya. Sen, Eldor, jarrohsan-ku! Inson qalbini qayerdan bilasan. Jamilzoda ulkan professor, mirishkor.

Eldor. Nazarimda, Yonarni go'yoki noto'g'ri davolayotibdi deb mendan shubhang bor, men uning o'limini istayotganday...

Sadoya. Bugun bog'imizda aytgan gapingni bir esla: "Ro'paramda, stol ustida hushsiz, holdan ketib yotardi. Men uning qornini yormaganimga juda achinaman".

Eldor. Bu gaplar hazil edi-ku!

Sadoya. Juda yaxshi hazil ekan. Uning kasalligini bilganingga bir hafta bo'lsa ham, hech qanday chora ko'rmading.

Eldor. Men u bilan maslahatlashdim. Ammo u mening gaplarimga quloq solmadi.

Sadoya. Bemor bilan maslahatlashiladimi?

Eldor. Sen xuddi prokurorga o'xshab gapirayotibsan! Meni sudga berish ko'nglingda yo'qmi?..

Sadoya. Afsuski, kodeksda munofiqlik va loqaydlik uchun sud qilinsin degan modda yo'q.

Eldor. Ana shunday modda bo'lishini istab, taklif kiritmaysanmi? Juda soz!

Sadoya. Nafratimning o'zi sening ustingdan chiqarilgan hukm. *(Ketadi.)*

Eldor *(yolg'iz)*. Deydilarki, muhabbatdan nafratgacha bo'lgan masofa bir qadam, xolos. Ammo nafratdan muhabbatgacha bo'lgani yo'l — jahannam! Ana o'sha jahannam tubida esa mening uyim vayronasi, butun topgan-tutgan davlatim! Nahotki, bu tush bo'lsa! Noto'g'ri eshitdimmi? Yo'q, u shunday dedi: "Mening nafratim o'zi sening ustingdan chiqarilgan hukm!.." Nahotki, o'z xotinini sevgan, o'z muhabbatini himoya qilgan kishilar ustidan hukm o'qilsa? Juda... Yo'q, la'nat! Juda, juda yomon! Dahshat! Xunuk!

To'qqizinchi ko'rinish

Yana Durdonaning uyi. Zinapoya. Tanzila va Imon.

Tanzila. Hozirgina Sadoya telefon qildi, Yonar muallimning ahvoli yomon emas, o'ziga kelibdi.

Imon. Sendan iltimos qilaman, Sadoyaning nomini tilingga olma, endi mening bunday opam yo'q!

Tanzila. Bu uydagilarning hammasi esini yo'qotganmi?

Imon. Men bilib turibman, sen kimni ayblayotibsan, Tanzila!

Tanzila. Hammangizni.

Imon. Birinchi galda oyimlarni bo'lsa kerak?

Tanzila. Ularni ham.

Imon. Bilaman, birinchi kundan boshlab sen oyimni yoqtirmasdan qolgansan.

Tanzila. Bu gaping yolg'on, Imon. Xudo o'zi shohid, men Durdonaxonimni o'z onamday ko'rishni, sevishni istaganman. Menga ham u kishi shunday munosabatda bo'lib ko'ringan... Bilsam, faqat shunday bo'lib ko'ringan ekan, xolos. Kun sayin menga qattiqqo'l bo'la bordi, samimiylik yo'qoldi. Tursam o'poq, o'tirsam so'poq deydigan bo'lib qoldi.

Imon. Tanzila, tilingni tiy, iltimos qilaman, tilingni tiy!

Tanzila. Sen umringda kuzni kuzatganmisan? Yaproqlar astasekin, birin-ketin to'kila boshlaydi, hatto kishi sezmasdan qoladi... Bir vaqt qarasang, daraxt ustida yaproqlar sanoqli, siyraklashgan, ozgina shamol essa ham qaltiraydi, xuddi bo'ron turganday... Ertalab uyqudan ko'z ochganingda dov-daraxtda birorta yaproq qolmaganligini ko'rasan.. Inson ham o'z ishonchini ana shunday yo'qotadi. Avvalambor, asta-sekin, bilinar-bilinmas, birin-ketin to'kilgan yaproqday. So'ngra bir yo'la — qarabsanki, hech nima yo'q! Xuddi bu daraxtda hech qachon, hech qanday yaproq bo'lmaganday... Imon, insonga bo'lgan ishonchni saqla, yaproqsiz, so'qqabosh qaltirab turgan daraxtday uni g'arib qoldirma! Sendan

yolvorib iltimos qilaman. Sen shunday qilginki, Imon, men hech qachon senga, sening mehr-u muhabbatingga, haqgo'yligingga ishonchimni yo'qotmay...

Imon. Men seni juda qadrlayman, Tanzila!

Tanzila. Sen Yonarning juda yaxshi odam ekanligi, bizning qalbimizga yaqinligi haqida gapirmaganmiding?

Imon. Gapirganman, hozir ham shunday deb o'ylayman.

Tanzila. U xonadonimizda paydo bo'ldi-yu, hammamiz o'zimizni bilib olganday bo'ldik. Oshiqlarning bir-birlariga ishqlari kuchaydi, ishqsizlar yuraklari bo'shligini sezdilar... Xonadonimizda u bamisoli halok bo'lgan o'g'lini topdi. Qizimizga, senga o'rganib qoldi... Ishqilib, hammamizga gap topib, ko'nglimizni ko'tarib turardi...

Imon. Men Yonar muallimni yomonlab biror narsa dedimmi?

Tanzila. Odamlar hayotning qadriga durustroq yetib, chuqurroq sevishlari uchun Yonarlar bo'lib turishi zarurga o'xshaydi...

Imon. Men Yonar muallimning oldiga boraman. Sadoya bo'lsa...

Tanzila. Sadoyaning ukasi bo'lsang ham, uni sirayam bilmas ekansan... U xonadonimizdagi eng pokiza odam. Uning Yonar muallimga munosabatiga tama yoxud tuban havas, ehtiros aralashganiga nahotki ishonsang? Onang bilan Eldorning gapiga kirdingmi?.. Amalparastlik, shuhratparastlik ularning ko'zini tindirib qo'yganidan rostgo'ylarni yomon ko'rishadi. Hoziroq kasalxonaga boramiz. Sadoya ham, Yonar ham o'sha yerda... Yura qol, jonim!

Imon *(biroz ikkilanib turadi).* Xo'p!

Ular eshikka yurishadi. Oldilaridan Durdona chiqadi.

Durdona. Yo'l bo'lsin? Bemahalda-ya?

Imon *(juda muloyim qilib).* Oyi, kasalxonaga ketyapmiz. Yonar muallimning ahvoli og'ir...

Durdona. Mening ahvolim-chi? Og'irmasmi? Qizim o'sha yerda, kuyovim ham. Endi o'g'lim bilan kelinim ham o'sha yoqqa chopishyapti. Meni yolg'iz tashlab-a. Qon bosimim balandligini bilaturib-a!

Imon. Tezda qaytamiz, oyi. Bormasak sirayam bo'lmaydi!

Tanzila bilan Imon ketishadi.

Durdona. Boravering, men esa bu yerda qaqqayib qolaveraman. Bolalarimni deb shamday ado bo'ldim. Ular hozir qani? Qochib qolishdi! Xonadonimiz boshiga qattol yovdan ham battar savdo solgan qandaydir Yonarning oldiga ketishdi. Mening nima aybim bor? Ehtimol, o'sha Yonar haqdir, yaxshilik bilan yomonlik, oq bilan qora, sevinch bilan g'amning farqiga borolmay qolgandirman? Durdonaxonim, senda es degan narsa qolmabdi-ku...

O'ninchi ko'rinish

Kasalxona palatasi. Yonar kresloda yotibdi. Yonida Sadoya.

Yonar *(harsillab, ohista gapiradi).* Sadoyaxonim, sizmisiz? Rahmat sizga!

Sadoya. Nimaga, muallim?

Yonar. Jahl qilmaganingiz, kelganingiz, tushunganligingiz uchun.

Sadoya. Haq gapgayam jahl chiqadimi, muallim? Qo'zg'almang, sira qimirlamang, mumkin emas... Bezovtalanmang!

Yonar. Tirik odam bezovtalanmay bo'larkanmi? Faqat o'liklargina tinch yota oladi. Men bo'lsam yashasam deyman. Shunday yashagim kelyaptiki, asti qo'yaverasiz, Sadoyaxonim... Baland tog'larga qadam bosganimdan beri shu ko'yga tushdim... So'zlagim, ishlagim kelyapti. Bizning qoyadagi tasvirlardan farqimiz ham shunda bo'lsa kerak o'zi. Ular kechmishdagi hayotning izlari, xolos, biz esa... *(Ko'zlarini yumadi.)*

Sadoya. Toliqtirib qo'ymadimmi, Yonar muallim?

Yonar. Sira ham... Mabodo menga ertaga: "Boshqa odamning yuragini o'rnatishga ijozat etsangiz yana yuz yil yashaysiz", deyishguday bo'lsa, ularga o'zimning yuragim ma'qul, deyman. Unga o'rganib qolganman. O'zga yurak bilan yuz yil umr ko'rishni istamasdim... Yuragi boshqa bo'lgan odamlar esa uchrab turadi. Ulardan o'zingizni chetga oling, Sadoyaxonim... Ularga yaqinlashmang. Undaylar sevgi haqida ko'p gapirishadi-yu, ammo sevgi nimaligini bilishmaydi. Xalq deb og'iz to'ldirishadi-yu, ammo odamlarni unutishadi. Do'stlik, do'stlik, deb hayqirishsa ham, do'stlarni kulfatda qoldirishadi. O'z yuragimiz, o'z vijdonimiz bilan yashaymiz, to'g'rimi?

Sadoya. To'g'ri, Yonar muallim, faqat...

Yonar. Sadoyaxonim, derazadan bir parcha osmonni ko'rib turibman. Osmon tagida mendan pinhon bo'lgan dengiz bor. Shunda ham uning moviy ekanligini bilaman. Osmonga uning aksi tushyapti-da. Dengizning sohili bor. Sohilda esa qoyalar... Qoyalarda — ajdodlarimizning tasvirlari. O'tmishni nechun o'rganishimizni bilasizmi, Sadoyaxonim? Kelajak yorqinroq ko'rinsin deb o'rganamiz. Bu narsa dissertatsiyangizda yo'q, holbuki bo'lishi kerak, zarur. Aks holda, o'tmishni o'rganib nima qilamiz?

Sadoya. Men sizga xushxabar olib keldim, Yonar muallim!

Yonar. Xushxabarni yaxshi ko'raman.

Sadoya. Kecha ilmiy kengashning majlisi bo'ldi. Qattiq tortishuv ketdi. Siz do'stlarim oz degandingiz. Kashfiyotingizni esa do'stlaringiz tugul dushmanlaringiz ham quvvatlab chiqishdi. Apsheron qoyalaridagi tasvirlar madaniyatimiz tarixining yangi sahifalari, deyishadi.

Yonar *(jilmayadi).* Axiri tushunishibdi! Ozarbayjon — eng qadimiy madaniyat diyori! Bu zamin bashariyat ma'naviy go'zalligining eng nodir yodgorliklarini saqlab qolgan... Ozarbayjon — olov mamlakati, otash qalblar yurti! Xalq taqdiri otash yuraklardan yaraladi...

Sadoya. Kashfiyotingizga bo'lgan qiziqish juda katta. Gazetalar bu xususda maqolalar tayyorlashyapti. Fanlar akademiyasidan delegatsiya kelishi kutilyapti.

Yonar *(palata eshigida Tanzila, Imon va Sohila turganini sezadi).* Keldinglarmi? Menga-ya... Rahmat sizlarga... *(Sohilaga imo qiladi.)* Beriroq kel, Sohila!

Sohila chopqillab keladi.

Kelganing juda yaxshi bo'ldi-da, nevaraginam. Baraka top. Qo'llaring juda muzdak-a... Xuddi dengiz to'lqiniday. Sochlaring kabutar qanotiday mayin.

Durdona yulqinib kiradi.

Durdona. Shu yerda! Mendan bo'lak hammasi shu yerda.

Yonar. Siz ham shu yerdasiz-ku, nega bunday deysiz, Durdonaxonim?

Durdona. Sizni hamma og'ir kasal deydi, Yonar muallim. Ochig'ini aytganda, og'ir kasal menman!

Yonar. Sizga nima bo'ldi, Durdonaxonim?

Durdona. Yurak o'ynog'i!

Yonar o'rnidan qo'zg'almoqchi bo'lganida Durdona uning yelkasiga qo'lini qo'yadi.

O'zingizni qiynamang, Yonar jigarim! Siz uchun men turaman, yuguraman, bezovta bo'laman. Menga ishonavering!

Eshikning naryog'idan hamshiraning "Mumkin emas! Mumkin emas! Bosh vrach ta'qiqlagan. Ichkarida odam juda ko'p!" degan ovozi eshitiladi.

Madadning ovozi. Men bir daqiqaga. Faqat bir daqiqaga. Yonar muallim meni chaqirtirgan.

Yonar. Uni kiriting, hamshira! Faqat bir daqiqaga.

Madad *(palataga kirib, hammaga salom beradi)*. Meni yo'qlovdingizmi, Yonar muallim?

Yonar. Ha, Madad, yo'qlovdim. Akademiyaning komissiyasi keldimi?

Madad. Hozircha yo'q. Qo'ng'iroq qildik, bugun uchib kelarkan.

Yonar. Qoyil! Qoyalar tilga kirdi. Endi ilmiy kengashdagilarning nima deyishlarini eshitsa bo'ladi. Kafedradagilarga borib ayt, mening dokladim ertaga bo'ladi. Tegishli odamlarga xabar qilishsin.

Madad. Bu qanaqasi, Yonar muallim? Sizga mumkinmas-ku...

Yonar. Dokladni men qilmayman. Senga topshiraman.

Madad. Menga?

Yonar. Ha, Madad, senga. Sen bilan birga ishladik, kashfiyot ham ikkovimizniki. Buni olimlarga menchalik bayon qilolasan. Men esa majlisda g'oyibona qatnashib, dokladingni tinglab, yuragimni hovuchlab o'tiraman.

Madad. Men bunaqangi zo'r davrada sira ham gapirmagandim.

Yonar. Endi gapirasan... Hayot bir zum ham tinmasligi kerak. Biz odamlarga eltayotgan mash'al ham doimo yonmog'i lozim. Mabodo men ketguday bo'lsam... qoyalarni, tog'larni, dengizni, ajdodlarimiz yoqqan olovni sizlarga qoldiraman...

Dengiz, tog'lar navosi yangraydi. Yigitning ovozi eshitiladi.

Ovoz

Dengiz chayqalar —
Shamol soladi shovqin...
Qoyalarda eriydi qor,
Nur sochadi kun...
Qoya bo'lsang sen agar,
Men dengizman,
men dengiz
nuridiydam —
tomchilar
Qalbingdan oqar shaksiz!

PARDA

KUZ

Hazin kuy taralar bog‘-u rog‘lardan,
Yodimga yaqin-u yiroqlar tushar.
Go‘yoki yaproqlar o‘ng-u so‘llardan
Qanoti qayrilgan qush kabi uchar.
Ellarga jar solar kuz faslin sasi,
Sog‘inish — uyg‘ongan tilaklardadir.
Mehribon bahorning iliq nafasi
Hamon yuraklarda, yuraklardadir...
Bog‘larda mavjlanib oqqan o‘ynoq suv,
Oppoq bulutlardan tiniq rang olmish.
Olis ufqlarda yangragan tuyg‘u,
Sog‘inchli qalblarga laxcha cho‘g‘ solmish.
So‘l-u o‘ng titraydi ko‘zim o‘ngida,
Yer qalbin sezganday bo‘ladi ko‘ngil.
Deyman kaftim uzra yaproq qo‘ngandan.
Tabiat yelkamga tashlamoqda qo‘l.
Tong nuri to‘lg‘onar ufqning bag‘rida,
Dalalar sarg‘ayib og‘ir tin olar.
So‘lish bor ne uchun gullar tarhida...
Qayda nasib etgay endi visollar.
Hoy bulut, qirlarga oshiqmagil, kel,
Shunday ham sharqirab oqayotir Kur.
Oshiqma daralar bag‘riga sho‘x yel,
Unda sukut saqlar chinor bir umr.
Boq, manim qalbimda ne tilagim bor:
Adirlar bag‘riga chiqa olsaydim.
Ey qaddi bukik tol, titragan chinor,
Sizga hamdard,
sirdosh bo‘lib qolsaydim.
Ko‘ksiga sig‘maydi dala nafasi,
Tog‘-tog‘ paxta uning muddaosidir...
Qatordan ayrilgan turnaning sasi —
Bahor sog‘inchidir,
aks sadosidir.

Qalbim qanotlanib uchmoq istaydi,
Menga bag‘rin ochmish bog‘-u bo‘stonlar.
Gul-u yaproqlarni quchmoq istaydi,
Bahor adosiman, aziz insonlar!

E’TIROF

— Sevmadim dunyoda oltin-kumushni,
Dedimki, viqorim — e’tiborimdir.
Go‘zal sevgilimning shirin kulishi
Manim davlatimdir, manim borimdir.
Sevmadim dunyoda shon-u shuhratni,
Ularni hayotda afsona sondim.
Boq, qancha deganim bor-u davlatni
O‘z yurak qonim-la o‘zim qozondim.
Kezarman, izlarman sirdoshlarimni,
Umrimning bahori kabi axtarib.
Istasa sevgilim ko‘z yoshlarimni
Tizarman bo‘yniga misli marvarid.
Zohid quloq ossin bir yaxshi-yaxshi,
Sevgi sevinchimdir, sevgi g‘amimdir.
Bir shahlo ko‘zlining o‘tli boqishi
Manim jannatimdir, jahannamimdir.
Ulkan bir tog‘manki, boshi qorliman,
Dema, cho‘qqimdagi u tuman nadir?
Butun borlilardan yana borliman,
Davlatim — muhabbat, borim — sevgidir.

FUZULIY ILA SUHBAT

Tanho o‘tirmishdim ne vaqtdan beri,
O‘ylardim, so‘nmishdir ilhomning o‘ti.
Sokin yuragimning depsinishlari
Yana ahyon-ahyon buzar sukutni.

Yo‘l olib siynamdan ming bir so‘z kechar,
Faqat uni she’rga loyiq ko‘rmasman.
Ko‘zimdan yam-yashil daryo-duz kechar,
Necha chechak terib gultoj o‘rmasman.
Tingladim qushlarning taronasini,
Gulshanda shabboda bir mayin esdi.
Eshitdim kimsaning oyoq sasini,
Go‘yo iliq bir qo‘l sochimda kezdi.
Mehribon boqishlar buloqdek erur,
Quyuq qoshlar esa burgut qanoti.
Nuroniy yuzinda hikmatning nuri —
Tanidim, tanidim buyuk ustodni.
U dedi: “Ko‘raman, qachonlardan san
Qog‘ozlar ichida ovvora, sarson.
U nadir, she’rlarmi yozganing derman,
Sen ham shoirmisan, navqiron o‘g‘lon?”
Boqdilar ko‘zlarim tubiga shoir,
So‘zladim asta men, yuragimda g‘am:
— Shoir degandiki, axir, ne shoir,
Ming she’r yozganning biri-da men ham.
— Balli, men bilaman shoirlik nadir,
Kimdir to‘g‘ri yozar, kim esa yolg‘on.
So‘ng so‘zni xalq aytar, vaqt ko‘rsatur,
Shoir atalmaydi har bir she’r yozg‘on.
Kimki o‘z elining dardini bildi,
El uning umrini uzaytajakdir.
Kimki o‘z eli-la yig‘ladi, kuldi,
El uni qalbida yashatajakdir.
Bu tuproqdan ayri tushibdir ko‘ngil,
Shoirning yuragi ilhomsiz bo‘lmas...
She’r ayta olmadim rosa to‘rt yuz yil,
Yuragim to‘ladir, men aytay, sen yoz.
Mendan uzoq bo‘ldi tug‘gan Vatanim,
Toshini la’l bildim, tuprog‘ini dur.
Dema, misralarim dardlidir manim,
Yurak kulmaganda she’r-da kulmayur.

...U dedi, sirlashdi... Tutashdi qoshlar...
U dedi, u boqdi, men esa yozdim.
U dedi, eridi cho'qqilarda qor...
U dedi, kun chiqdi...
Men esa yozdim...

QIZ QAL'ASI

Yillar kechdi yellar kabi bosh ustidan,
Necha daf'a yog'in yog'di, bo'ldi bo'ron.
Otding qachon yuzingdagi niqobni san,
Jamolingni yellar ko'rib bo'ldi hayron.
Asrlarning mag'rur sasi, Qiz qal'asi,
Ey go'zallik nishonasi, Qiz qal'asi.
Ul Xazardin yellar esar sarin-sarin,
Yellar dema, asrlarning savolidir.
Bu kun uchib unga qo'ngan oq go'garchin[1],
Shunday bilki, yel qizining xayolidir.
Yer-u ko'kning ko'zi senda, Qiz qal'asi,
Tarixlarning so'zi senda, Qiz qal'asi.
So'lmas asti asl ishqning tarovati,
Kelar do'stlar quchoq ochib, yuzi kular.
Faqat sendan o'rganmoq-chun sadoqatni
Bu kun bunda uchrashadi sevgililar.
Sevgi qadar navqironsan, Qiz qal'asi,
Sen na qadar mehribonsan, Qiz qal'asi!

DENGIZ, KO'K, MUHABBAT

1

— Ha, dengizni hadya qilaman senga...
Men dedim, sen boqding, sen kulumsading,
Osmonning shafag'i tushdi yuzingga.
— Men esa... osmonni beraman, — deding...

[1] **Go'garchin** — kabutar.

Ayrildik
G‘ariba hadyalar ila,
Osmon ishqim kabi menga azizdir.
Ayrildik dengiz-la, oq to‘lqinlar-la,
Qanday olib borgung?.. Dengiz — dengizdir.
Dengizni qildim men sen uchun hadya,
Kelgan sohilingga kelasan yana.
Meni ko‘rmaganda: “U manim”, — deya,
Manim-la sirlashib kulasan yana.
Agar ko‘rishmasak bizga dog‘ o‘lar,
Dedim. Necha daf’a shunday dedim men.
Dengiz sohiliga qaytmoq bo‘lar,
Osmoning sohili bormi, keldim men?!
Tushundim, ayriliq kelgandan beri,
Sen mening ishqimga chiroq bo‘lasan.
Shuning-chun berdingmi menga ko‘klarni,
Mendan osmon qadar yiroq bo‘lasan?!

2

Men bir dengizmanki, ishqim sahardir,
Seni tushunaman, azizim, yana.
Mening dolg‘alarim xotiralardir,
Ko‘k yetsin qalbimning
sohillariga.
Asl muhabbatki, buyuk hunardir,
Jo‘shar ummon kabi toza orzular.
Mening dolg‘alarim
xotiralardir,
Unda to‘fon-da bor, girdibod-da bor.
Dengizman, ishqimdan qochmoq xatardir,
Men-ku kezolgayman cho‘l-u chamanni.
Mening dolg‘alarim
xotiralardir,
Kecha-da,
kunduz-da topajak sani.

3

Istasang, tushingga kiraman sening,
kirarman dengiz kabi.
Yuzingga injular socharman sening,
socharman dengiz kabi.
Yo'lingga shafaqlar separman har dam,
separman dengiz kabi,
Istasang, yuzingdan o'parman har dam,
o'parman dengiz kabi.
Ismingni qalbimning sohillariga
yozarman dengiz kabi,
"Sevmayman", — so'ylasang bir oqshom menga,
tinarman dengiz kabi,
tinarman dengiz kabi...

4

Men senga sokinlik tilamadim hech,
Quyosh kabi porla,
sahar kabi kel.
Osmondek uyqumga kelmoq istasang,
Sen oyli, yulduzli ko'klar kabi kel.
Nomini atagil hur to'fonlarning,
Men boqqan oqshom-u saharlar kabi.
Atagil oq yo'lli kahkashonlarni,
Porlasin har yulduz xotira kabi.
Kelgin qish kechasi,
yoz saharida —
Dengizni osmondan ayirib bo'lmas!
So'ngsiz koinotning ufqlarida
Uchrashish vaqtini chaqmoqlar-la yoz!
Men kerak nag'madek
Seni tinglayman,
Sen mening ishqim-la, yuragim-lasan.
Na qadar osmon bor, man saning-laman,
Na qadar dengiz bor, san manim-lasan.

KULMAGAN KO‘ZLAR

Sirli bu dunyodir
Go‘yo har umr.
Nigohlar mehribon
So‘z samimiydir.
Uning yuzi kular
Ko‘zlari kulmas,
Balki, bu sukuti
Yurak g‘amidir.
U nozik qo‘llardan
Tutdim men oqshom.
Qo‘l degan shunchalar
Mehritob bo‘lsa?
Shu sabab bu qadar
Xushbaxt ko‘rinar,
Ne uchun bu qadar
Iztirob bo‘lsa?
Cheksiz ufqlardan
Oq bir kabutar
Bo‘lar ko‘k bulutin
Oppoq dolg‘asi.
Shunday bir taqdirga
Yozilar nechun
G‘amlar ummoni-la
Sevinch tomchisi.
Yurak ovunmaydi
Shirin so‘z bilan,
U ko‘zlarda yongan
Kahkashon emas.
Hammasi mehribon
Bo‘lgan go‘zalga
Ne uchun tabiat
Mehribon emas?!

ENG BUYUK FOJIA QACHON BO‘LGAYDIR?

Xasis — saxovatdan,
Zolim — adolatdan,
Yaltoq — mahoratdan
So‘ylagan zamon.

Vijdonsiz — vijdondan,
Imonsiz — imondan,
Beshafqat — shafqatdan
So‘zlagan zamon.

Axloqsiz — axloqdan,
Haqdan tongan — Haqdan,
Elni sotgan xalqdan
So‘zlagan zamon.

Yolg‘on — haqiqatdan,
Xoin — sadoqatdan,
Qo‘rqoq — adolatdan
So‘zlagan zamon —
Fojia ichida silkinar zamon.

DUNYO QANDAY DUNYODIR?

Kimda orzular bisyor,
Kimda orzu sarobi.
Kimga bahor abadiy,
Kimga qishning havosi.
Kimda umid otashi,
Kimda umid zarrasi.
Kimda ishonch quyoshi,
Kimda ishonch shu’lasi.
Kimlardir sharob ichar,
Kimlardir zahar yutar.

Kimlarga million ham oz,
Kimgadir ming ham ko‘pdir.
Kimki nafsning qulidir,
Faqirlikning og‘asi.
Kecha kimning motami,
Kimning bugun azasi.
Kimdir oltin saroyda,
Kimning kulbasi vayron.
Kimning ko‘zi to‘ymaydi,
Kimga yetar parcha non.
Kimda tulki hiylasi,
Kimda arslon quvvati.
Tulkiga rutba tushar,
Sherga bo‘ri qafasi.
Kimda adolat so‘zi,
Kimda adolat o‘zi.
Dunyo qanday dunyodir?!
Kimga quyoshli kunduz,
Kimga tunday dunyodir.
Men bilmasman nega sen,
So‘yla, shundaysan dunyo.
Menim-la o‘z siringni
Baham ko‘rasan go‘yo.
Bu on dunyo sukuti
Hech ham sukut emasdir.
O‘yladim, ming sir menga
Shivirlamoq emas, bil.

KIM DEYAR?

Ko‘zlarim tushganda u qiz, u ofat
Qalbimni so‘ylatgan gung boqishidir.
Kelar mashaqqatlar...
Ketar jasorat,
Balki, ko‘rganimdan xayol yaxshidir.

Men uni bir lahza ko‘rmagan zamon
So‘nar ko‘zlarimda qorayib jahon.
Achchiq bir og‘riqlar qo‘par yurakda,
Degayman, azizim, qaydasan bu on?

Kim bilar nimadan bu og‘riq izi,
Nega iztirobda o‘rtanar yurak.
Ishqimning sultoni — u go‘zal qizi
Ham ko‘rmoq istamam, ham esa ko‘rmoq.

SO‘Z

Azro‘y-azal kalitidir sirlarning,
O‘z kuchini yuraklardan olar so‘z.
Umid berar, sevinch berar, g‘am berar,
Bari mushkul dardga chora qilar so‘z...

Ilk oshnodir, ilk yarog‘dir har kimga,
Sof po‘latdan yasalmagan bo‘lsa gar.
Har kalima o‘z o‘rnida kelsa gar,
Qilichdan ham o‘ta keskir bo‘lar so‘z.

So‘z yuksaltar bu jahonda insonni,
Ulug‘lagay bu jahon-da insonni,
Payt kelganda lahza, on-da insonni,
Ellik yillik sha’ndan judo aylar so‘z.

Urin, Nabi, kecha-kunduz qil ijod,
Yomon so‘zni ko‘nglingdan uloqtir, ot,
Yozsang dur terib, yig‘ib javohirot,
Sendan elda bir nishona qolar so‘z.

CHECHAK

Bugun e'tiborim tortdi bir chechak,
Yaprog'i naqshinkor, rangi sahardek.
Uzoqdan ko'rdim-u, o'zidan o'zi,
Uchdi lablarimdan "chiroyli" so'zi.

Men yoniga kelib boqqanim zamon,
Aytgan so'zimga xo'p bo'ldim pushaymon.
Sun'iy bo'lib chiqdi u nafis chechak,
Yaprog'i naqshinkor, rangi sahardek.

Jonlandi ko'zimda nuroniy yuzli,
Marhum aziz bobom, purhikmat so'zli,
Go'yoki so'yladi yangidan bu on:
"Zohirga aldanma boqib uzoqdan".

KO'ZA

Bu ne, ehtiyotsiz bo'lding yana sen,
Buloqda ko'zangni sindirib qo'yding.
So'ngra boqding unga afsuslana sen,
Bir zirqiroq mening yuragim o'ydi.

Yodingdami sening, men ham bir zamon,
Etgandim sevgimni senga armug'on.
O'shanda, ey go'zal, shu ko'za kabi,
Sindirding ishqing-la yongan bu qalbni.

Qiziq, nedir ma'no to'la bu asror?
Hissiz bir ko'zaga achingan inson,
Zarracha og'riqni sezmaydi nechun,
Sevgan bir yurakni sindirgan zamon?!

YODINGGA TUSHSIN

Har kun ko‘changizdan o‘tgan chog‘imda,
Ayvonga chiqqaning yodingga tushsin.
Bahor oqshomlari binafsha terib,
Ko‘ksingga taqqaning yodingga tushsin.

Koyimoqqa haddim sig‘maydi seni,
Buncha tez unutmas sevgan sevganin.
Oqshom kutib buloq boshida meni,
Yo‘llarga boqqaning yodingga tushsin.

Salqin o‘rmon yo‘li nurga belandi,
Sen ketding, yuragim otashda yondi.
Qilgan ahd-paymoning, ichganing ontni,
Sovurib, yig‘ganing yodingga tushsin.

MAJNUNTOLLAR

Qadrdon qishloqda bog‘-hovli soldik,
Qishin-yozin tinmay parvarish qildik.
Chinorlar yuksaldi orzumiz kabi,
Bo‘y cho‘zdi qarag‘ay, terak, yana-chi,
Suvlarga termilgan qator majnuntol...

Ilk daf’a diydorga chorlaganda bog‘,
Ko‘nglimiz sevinchdan bo‘ldi misli tog‘.
Uchrashdik shunday xush, sokin go‘shada,
Sen bo‘lding, men bo‘ldim, yana-chi, yana,
Suvlarga termilgan qator majnuntol...

Oldi o‘z bag‘riga novdalar bizni,
Ochdik bu maskanda yuragimizni.
Sirimiz sirligi qoldimikan-a?!
Men dedim, sen deding, yana-chi, yana,
Suvlarga termilgan qator majnuntol...

Qaylarga yo‘l olsam, qaylarga shoshsam,
Tog‘larga tirmashsam, qirlardan oshsam,
Hamisha, har lahza yurak to‘rimda,
Sen va ishqimiz bor, yana-chi, yana,
Suvlarga termilgan qator majnuntol...

TINGLA TABIATNI

Kech kirdi...
Daradan surunar bulut...
Jimjit tik qoyalar,
yashil o‘rmonzor.
Boq, nelar so‘ylaydi bu g‘arib sukut,
Bilsang, sukutning ham ajib tili bor.

Tingla, o‘rmondagi buloq ne kuylar,
Boqma sizishiga asta shirillab.
Har so‘zni bir buyuk davr uchun so‘ylar,
Asrlar so‘zlaydi uning tili-la.

Shabboda ne deydi?
Balki, u aytar,
Sarin yaylovlarning nafasiman men.
Billur shabnam ne der?
Balki, u aytar,
Yorqin yulduzlarning zarrasiman men.

Tog‘dan sado kelsin, cho‘llardan tovush,
O‘kirgan sellarning
tingla sasini.
Daryodan sen ichgan o‘sha bir hovuch
Suv ham pichirlasin tarixchasini.
Daryolar dengizni quchoqlasinlar,
Bu dunyo turgancha
qolajakdir u.

Hayqirsin shalola, jo‘shsin, yayrasin!
Tog‘larga erkatoy ovunchoqdir u.

Kelsin qulog‘ingga teraklar sasi,
Barisi ma’noli bir nag‘makordir.
Har singan butoqning o‘z oh-nolasi,
Har so‘lgan yaproqning o‘z dardi bordir.
Mast etsa o‘rmonlar shirin so‘zi-la,
Ko‘nglingdan ne ajib sevinchlar oqar.
Balki, bir ohuning qora ko‘zi-la,
Senga butun go‘zal tabiat boqar.
Yotsang chamanzorda,
quchib maysani,
Olajak davraga lolalar seni.
So‘z aytmay boqarsan, tinglab har sasni,
Tabiat, go‘zallik lol aylar seni.

Huv ko‘l sohiliga kelgan qizga boq,
Go‘yo novdalar ham unga qo‘l silkir.
Maftunkor bo‘lsa-da bu o‘rmon, bu tog‘,
Insonsiz tabiat yetim kabidir.

SAS BERING, GO‘ZALLAR!

Yetimdir olamda
Kim qolsa yolg‘iz.
Oylarga aylanur
Asta kunlar ham.
Qachondir siz meni
Axtarardingiz,
Endi men axtarib
Sizni topolmam.

Sas bering go‘zallar, qayga ketdingiz?
Yuragimni yara aylab, ketdingiz!

Sukutni nag‘madek
Turib tinglayman.
Tashnaman xush suhbat,
Xush ta’b, xush xulqqa.
Bir vaqt uchrashuvga
Shoshilganlarim,
Nechun shoshildingiz
Siz ayriliqqa?
Yillar sochlarimga
Yog‘di qor kabi,
Siz ham chechaklardek
So‘ldingizmi yo?
Ehtimol, ko‘chmanchi
Turnalar kabi,
O‘zga yuraklarga
Qo‘ndingizmi yo?

Yo‘q, yo‘q, ranjimayman
Bugun hech kimdan,
Menga baxsh etdingiz
Samo, yerni siz!
Shikoyat qilmayman
O‘z toleyimdan,
Sizlarsiz tolening
Asil nuri, siz!

Qayda bo‘lsangiz ham, yarqirang, yoning,
Buyuk tarixi bor o‘tgan har onning!

GO‘ZAL KEKSAYSA...

U keldi, nigohlar
G‘amgin, parishon.
Boqdim, yuragimda unsiz faryodim.
Bir tushdek men uni ko‘rdim bu oqshom,
Faqat ko‘rganimga ishonolmadim!

Sochlari oq xayol,
Yelkaga tushgan,
Yuzida ajinlar chizig'i qat-qat.
Ammo ko'zlaridan tanidim uni,
Hayot ko'zlariga tegmabdi faqat.

Kunlar yil bo'lishib
Tizildi saf-saf,
Go'yo Quyosh chiqdi olis sahardan.
U payt go'zal edi,
naqadar go'zal,
Go'yoki kelgandi afsonalardan.

Bir olam yashardi
Dilkash sasida,
Har diydor — buyuk bir ehtiyoj kabi,
Shunday kezardiki, Yer kurrasida
Quyosh boshi uzra zarrin toj kabi!

Dolg'alar oldida
Jajji qo'zidek,
Go'zalga samo, yer sevib qarardi.
U xuddi porlagan tong yulduzidek
Kelgusi tonglardan mujda berardi.

Go'zallik eng ulug' bir haqiqatdir,
Yurak haqiqat-chun hasrat chekmasmi?
Husn tug'ma bo'lsa, bu saodatdir,
Go'zal keksaysa gar dahshat emasmi?

U endi go'yoki sassiz bir ohdek,
Hechsa[1] erkalasin muattar yellar,
Axir, go'zallarning jamoli Oydek,
Nechun ayamaydi beshafqat yillar?

[1] **Hechsa** — hech bo'lmasa.

Tabiat!
Qadrdon, azizimizsan!
Ayt, chindan ham sen adolatsizmisan?

Nahot esa-esa
Bevaqt shamol-la,
Orzuga yetursan, ulug‘ tabiat?
Axir, go‘zallikka qasd qilmoq ila,
Gunohga botursan, ulug‘ tabiat!
Bir mo‘jiza yarat
Jahonda, Egam,
Go‘zal go‘zal qolsin keksayganda ham...

MUNDARIJA

Ular chaqmoq edilar... *(Shahlo Qosimova)* 3

AHMAD JAVOD

Ozarbayjon marshi. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 8
To'lg'anardi qora dengiz. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 8
Ko'rganlarim. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 9
Ozarbayjonda abadiy qolgan usmonli shahidlariga.
Shahlo Qosimova tarjimasi 10
Ganjam. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 10
Bismillah. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 12
Jim turmasman! *Shahlo Qosimova tarjimasi* 12
Ol bayroqqa. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 13
Yig'lar edim, kulurman. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 14
Men kimman? *Shahlo Qosimova tarjimasi* 15
Ozarbayjon bayrog'iga. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 16
Ozarbayjon vatan qo'shig'i. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 17
Ozarbayjon. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 18
Ozarbayjonga. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 19
Ona. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 20
Bilar. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 20
Mirza Abdulla (Sur) Mamadzoda. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 21
Arazchilarga. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 22
Laylo. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 22
Qoldi. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 23
Ey, tong yulduzi. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 24
She'rim. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 24
Oqshomlar. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 25
Xulugda. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 26
Qachonlardir bechora ko'nglim. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 27
Yig'lama. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 27
Shukriya xonimga. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 28
Nechun? *Shahlo Qosimova tarjimasi* 29
Birov bilmas, ne chekar sensiz. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 31

Sahar chog‘i edi, esarkan yellar. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 31
Umr deganlari egri-bugri yo‘l. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 32
Shonli o‘lkaning shonli o‘rdusiga. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 33
Yig‘larman. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 33
Fuzuliy. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 34
O‘tar. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 35
Qizim. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 36
Kulishlaringdan. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 37
Ko‘kko‘l. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 38
Imdod. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 39
Munojot. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 40
Bo‘lmas. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 41
Sas. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 42
Aylanar. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 42
Tilimiz. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 43
Bir sas. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 44
Qushlarga. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 44
Ne qoldi? *Shahlo Qosimova tarjimasi* 45
Uzoqlarda... *Shahlo Qosimova tarjimasi* 45
Qurbon bo‘lganim. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 46
Shahid asir. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 47
Marsiya. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 48
Nola. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 48
Sahar-sahar. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 48
Nedan yaralding? *Shahlo Qosimova tarjimasi* 49
Kelin. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 49
Nomsiz she’r. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 50
Tushimga kirmishding. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 51
Soyam va men. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 51
Sen! *Shahlo Qosimova tarjimasi* 52
Sevgi jondan ayrilmas. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 52
Bir kun. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 53
Uyal. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 54
Bolalarimga. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 55
Uyg‘on. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 56
She’rim menim. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 57
Qatralar. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 57

Imonsizga. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 57
Umidimga. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 58
Go'zal ayol. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 58
Ot bu chodrani. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 59

SULAYMON RUSTAM

Tug'ishgan shahar. *Maqsud Shayxzoda tarjimasi* 64
She'r nima? *Maqsud Shayxzoda tarjimasi* 64
Mensiz. *Maqsud Shayxzoda tarjimasi* 65
Ilk muhabbat. *Maqsud Shayxzoda tarjimasi* 66
Yo'llarim. *Zulfiya tarjimasi* 67
Yoshimni she'rimdan biling. *Zulfiya tarjimasi* 68
Do'st kabi, qardosh kabi. *Zulfiya tarjimasi* 68
Qimmati yo'qdir. *Zulfiya tarjimasi* 69
Xazar nega o'xshaydi?.. *Zulfiya tarjimasi* 70
Xazarda tin. *Zulfiya tarjimasi* 70
Yo'qotsam yig'lagayman. *Zulfiya tarjimasi* 71
Kuz. *Zulfiya tarjimasi* 72
Oqshom. *Zulfiya tarjimasi* 72
O'rnini bosa bilmas. *Zulfiya tarjimasi* 73
Axtaring. *Zulfiya tarjimasi* 73
Unutilmas... *Zulfiya tarjimasi* 74
Onalar. *Zulfiya tarjimasi* 74
Ona tuproq. *Zulfiya tarjimasi* 75
Qorabog'. *Zulfiya tarjimasi* 76
Bedorlik. *Zulfiya tarjimasi* 76
Kelib ketmish. *Zulfiya tarjimasi* 77
Laylak qor. *Zulfiya tarjimasi* 77
Qirg'ovul. *Zulfiya tarjimasi* 78
Bu — menman. *Zulfiya tarjimasi* 78
Isyon ko'tar. *Shuhrat tarjimasi* 80
Umr kitobidan bir yaproq. *Shuhrat tarjimasi* 81
Javob bermog'im kerak. *Shuhrat tarjimasi* 81
Sening joning cho'ntakdadir. *Shuhrat tarjimasi* 82
San'at va muhabbat. *Shuhrat tarjimasi* 84
Bahorim. *Shuhrat tarjimasi* 86

Bo‘lmaganda. *Shuhrat tarjimasi* 87
Momolar, bobolar o‘chog‘idaman. *Shuhrat tarjimasi* 88
Yana temirchixonada. *Shuhrat tarjimasi* 89
Suhbat. *Shuhrat tarjimasi* 90
Xotira. *Shuhrat tarjimasi* 91
Vasiyatnamo bir narsa. *Shuhrat tarjimasi* 92
Bir “do‘stimga”. *Shuhrat tarjimasi* 92
Nasihat. *Shuhrat tarjimasi* 93
Sevaman, sevmayman. *Shuhrat tarjimasi* 94
Tanqidchi do‘stimga ochiq xat. *Shuhrat tarjimasi* 94
Non-tuzing nariga itarma. *Shuhrat tarjimasi* 96
Dengizdagi shahar. *Shuhrat tarjimasi* 97
Zanji shoirasi Sesilga. *Shuhrat tarjimasi* 97
Boqdim. *Shuhrat tarjimasi* 98
Bahor yuragimdadir. *Shuhrat tarjimasi* 98
Yodimga tushdi. *Shuhrat tarjimasi* 99
Oyog‘im emas. *Shuhrat tarjimasi* 100
U chog‘lar. *Shuhrat tarjimasi* 101
Shirin xotira. *Shuhrat tarjimasi* 101
Seni sira bermayman. *Shuhrat tarjimasi* 102
Nomingni yozganman. *Shuhrat tarjimasi* 102
Bu sening yuragingdir. *Shuhrat tarjimasi* 102
Yuraksiz borma. *Shuhrat tarjimasi* 103
Yonmasin sira. *Shuhrat tarjimasi* 103
Seni sevmasaydim. *Shuhrat tarjimasi* 103
Nega dil berding? *Shuhrat tarjimasi* 104
Sensan. *Shuhrat tarjimasi* 104
Qo‘y, sevmasin. *Shuhrat tarjimasi* 105
Hisobga o‘tmasin. *Shuhrat tarjimasi* 105
Bilmading sen qadrimni. *Shuhrat tarjimasi* 105
Ozarbayjondan ayrilmas. *Shuhrat tarjimasi* 106
Ko‘r. *Shuhrat tarjimasi* 106
Nevaram Quyoshga xat. *Shuhrat tarjimasi* 107
Dudoqlardadir... *Shuhrat tarjimasi* 108
Vatanim o‘l desa o‘lgan shoirman. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 109
Vatan yondi. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 110
Tilimga tegma. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 110

Ko‘rsam. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 111
Icha bilmasman. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 111
Yana Araz qirg‘og‘ida. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 112
O‘ti bor. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 113
Dunyodan o‘tmam. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 114
Qolajak. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 114
Nigorondirman. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 115
Sabab nedir? *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 115
Shoir qardoshimga maktub. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 116
Tabrizim. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 117
Aytma hech. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 118
Yana turnalar. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 119
Chaqir. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 120
Yuragimni berarman. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 120
Menga inoning. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 121
Bu yo‘lda. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 121
Tillarda charx urar qo‘shig‘im. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 122
Yig‘la. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 122
Asar asar ustiga. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 123
Tabriz esimga tushdi. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 123
Tingla qardoshingni. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 124
Ko‘chira bilsaydilar. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 124
Ishontir, ketma! *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 125
O‘z gulistonim. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 125
Yuragimning yarasidadir. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 126
Muqaddas orzu. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 127
Gul tera bilmas. Oydin Hojiyeva tarjimasi 127
Hasrat chekarman. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 127
Tizdim. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 128
Hayron bo‘laman. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 128
Tanib oldim. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 129
Ne hojatdir... *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 129
Hasad. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 130
Yuraksiz odam. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 130
O‘xshamas. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 131
Go‘zallar go‘zaliga. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 132
Sulaymon naylasin? *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 132

Xotira. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 133
Vafoli qoldi. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 133
Yolg'ondir. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 134
Ko'zi bor. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 134
Sevgilim. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 135
O'xshaysan. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 135
Kimdir. *Oydin Hojiyeva tarjimasi* 136

OLMOS YILDIRIM

Sharqqa. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 138
Onaning qiziga. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 139
Ey tog'lar. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 139
Ertaga. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 140
Surgunda bitmay qolgan she'r. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 140
Men. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 141
Men ham yig'lamayman. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 141
Bir sas keldi uzoqdan. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 142
Qrimda oqshomlar. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 142
Mening qo'shig'im. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 144
Qani? *Shahlo Qosimova tarjimasi* 144
G'arib qushimga. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 145
Amudaryo. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 145
Arximed va men. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 147
U meningdir azaldan. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 147
Kavkaz tog'lariga. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 148
Birlashgan ikki nahr. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 148
Tog'lar. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 149
Tog'larga vido. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 150
Mening injum. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 151
Do'stim Nafiyga. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 151
U go'zalga. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 152
Umrim xarob bo'ldi-yey... *Shahlo Qosimova tarjimasi* 152
Ne uchun? *Shahlo Qosimova tarjimasi* 153
Turnajon. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 154
Muhojirotda. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 154
Eron qizi. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 155

Bir parcha. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 156
Ozarning duosi. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 156
Mening e'tirozim. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 157
Botayotgan quyosh. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 157
Kavkaz. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 158
G'urbatda. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 158
Jim bo'ling. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 159
Boku. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 160
Menmi? *Shahlo Qosimova tarjimasi* 160
Bir kunda nobud bo'lgan egizaklar. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 161
Alvido, Boku! *Shahlo Qosimova tarjimasi* 162
Titrar Ozarbayjonim. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 164
Bilmasman... *Shahlo Qosimova tarjimasi* 164
Qo'shiq. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 165
Yurt hasrati. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 165
Qurboning bo'la olsam. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 166
Quzg'un uchun. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 167
Vatanga qaytaman. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 167
Bir kun. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 168
Naylayin? *Shahlo Qosimova tarjimasi* 169
Ey, do'st. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 169
O'limmi, hayotmi? *Shahlo Qosimova tarjimasi* 170
G'urbat maktublari. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 171
Nargin — o'lim oroli. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 172
La'nat shoirligimga. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 173
Tur, sevgilim. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 174
Qizil qullar olamiga. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 175
Muqaddas ixtilol. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 176

MIKOYIL MUSHFIQ

Yana u bog' bo'lsaydi. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 178
Tuyg'u yaproqlari. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 182
Oqim. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 188
Da'vat. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 188
Raqs. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 189
Bir quyosh-u bir nigoh. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 190

She'rim. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 190
Sobir uchun. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 191
San'atkor. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 194
Ko'nglimning deganlari. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 195
Uch sog'liq qadahi. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 195
Tanho daraxt. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 197
Go'zallik. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 198
Kuyla. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 199
Ne demakdir? *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 199
Sening ko'zlaring. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 200
Yulduzlar. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 201
Tuproq. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 201
Hayot sevgisi. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 202
Ayol. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 203
Shoirning o'limi. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 204
Tor. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 206
Bayram oqshomi. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 210
Qo'llar. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 213
Ont ichgum. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 213
Men yangi yoshlardan. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 214
Men kezgan yerlar. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 215
Gilam. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 215
Muhabbat. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 216
Yurak. *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 217
Yasha, ko'ngil! *G'ulom Ismoilov tarjimasi* 217
Shirin qiz. *Xurshid Davron tarjimasi* 218
Kuyla. *Xurshid Davron tarjimasi* 218
Kulishlaring. *Xurshid Davron tarjimasi* 219
Ranjimayman. *Xurshid Davron tarjimasi* 220
Ona. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 220
Rassom. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 221
Bir lavha. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 222
Yaraldim. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 223
Bulut oldida. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 223
Tilanchi. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 224
Mehnat. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 225
Kulgular. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 225

Ishqim. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 226
O'xshar. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 226
Shamollar. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 227
Jayron. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 228
Yana bir boqsang menga. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 228
Qilmishi. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 229
Ko'nglimni. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 229
Qurbon bo'lganim. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 230
Kecha tushunchasi. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 230
Qol, qurbon bo'lay. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 231
Telefon suhbati. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 232
Yomg'ir yog'arkan. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 233
Sham. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 234

RASUL RIZO

Ko'ngil. *Nosir Muhammad tarjimasi* 236
Iroda. *Nosir Muhammad tarjimasi* 236
Sadoqat. *Razzoq Abdurashid tarjimasi* 237
Ranglar turkumidan. Oq rang. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 238
Oq rangning sevinch tusi. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 238
Bo'zrang. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 239
Moviy. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 239
Qora. *Usmon Qo'chqor tarjimasi.* 239
Chinor. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 240
Yer. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 241
Men zaminman. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 241
Yodimga tushdi. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 243
She'r tili. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 244
Vatandan uzoqda. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 244
So'ra. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 245
Birinchi apreldan keyin. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 246
Kura — Araz. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 246
Qatra. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 247
Tabrizim mening. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 247
Xavotirli savollar. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 249
Onamning kitobi. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 250

Qadimiy qo'lyozma. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 251
Yomg'ir. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 252
Qo'zi. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 252
Ona. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 252
Xotira. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 253
Umr yo'li. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 253
Maroq. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 255
Yo'qlik-la tanishligim. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 255
Qalam. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 256
Bir lahzalik saodat. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 256
Yolg'on. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 257
Tanholik. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 258
So'roq. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 259
Izhor. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 260
Bir oqshom. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 261
Yoqangda bir binafsha. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 261
Qorako'zim. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 262
G'azal. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 262
U tun. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 262
Deydilar. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 262
Deyman. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 263
Talab. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 264
Tingla. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 265
Ishon. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 266
O'xshashlik. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 266
Ishonch. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 266
Bekorga. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 267
Ayrilmaylik. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 268
Ko'rmadim. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 268
Tabassum. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 269
Yuragingni asra. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 269
Sensiz. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 270
Balki. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 271
Baxtiyorlik. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 272
Sening tug'ilgan kuning. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 273
O'g'il. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 274

Qo‘shaloq qanot. *Mirtemir tarjimasi.* ... 276
Moviy... *Mirtemir tarjimasi.* ... 276
Sokit satrlar. *Mirtemir tarjimasi* ... 277
O‘zga sohillarning ayni to‘lqini. *Mirtemir tarjimasi* ... 279
Cho‘qqi buluti. *Mirtemir tarjimasi* ... 281
Kun chiqar, yomg‘ir yog‘ar... *Shavkat Rahmon tarjimasi* ... 281
Quyosh qo‘shniligida. *Mirtemir tarjimasi* ... 282
Elbrusga yondashib. *Shavkat Rahmon tarjimasi,* ... 283
Bolalik ko‘ylagim. *Mirtemir tarjimasi.* ... 283
Parvoz istagi. *Muhammad Ali tarjimasi.* ... 284
Mo‘g‘ul tuprog‘ida. *Shavkat Rahmon tarjimasi.* ... 285
Yuksaklik ishqi. *Mirtemir tarjimasi* ... 286
Chinor. *Muhammad Ali tarjimasi* ... 286
Gulbandidan uzmasak gulni... *Shavkat Rahmon tarjimasi* ... 287
Yer ham, ko‘k ham. *Mirtemir tarjimasi* 287
Agar... *Muhammad Ali tarjimasi* 287
Chulg‘ar lol fikrlar. *Mirtemir tarjimasi* 289
Tog‘lar ham... *Mirtemir tarjimasi.* ... 289
Xotiralar so‘qmog‘ida. *Mirtemir tarjimasi* ... 290
Daralar. *Mirtemir tarjimasi* ... 291
Rassom do‘stimga. *Mirtemir tarjimasi.* ... 292
Baliqchi. *Azim Suyun tarjimasi.* ... 294
Tazodlar. *Mirtemir tarjimasi.* ... 297
Odim-odim. *Mirtemir tarjimasi.* ... 298
Berohat. *Azim Suyun tarjimasi* ... 299
“Omon bo‘l” va “Xayrbod”. *Shavkat Rahmon tarjimasi* ... 300

Yaponiya daftaridan

Poyezdda mudragan qiz. *Mirtemir tarjimasi.* ... 302
Marollar shahri. *Mirtemir tarjimasi.* ... 304
Xirosima fojiasi. *Mirtemir tarjimasi.* ... 306
Rixard Zorge qabri qarshisida. *Mirtemir tarjimasi.* ... 308
G‘urbat uyqusizligi. *Mirtemir tarjimasi* 310
Cholning degani. *Mirtemir tarjimasi* ... 311
Alvido, Yaponiya! *Mirtemir tarjimasi* ... 311

Fransiya daftaridan

Xushxabarlar xiyoboni. *Shavkat Rahmon tarjimasi* 313
Tabassum va ko'z yoshlari. *Shavkat Rahmon tarjimasi* 314
Parijda oqshom... *Shavkat Rahmon tarjimasi*. 317

Ona (Doston). *Razzoq Abdurashid tarjimasi* 318
Quyoshning singlisi (Doston). *Muhammad Ali tarjimasi* 330
Ikki Xazar (Doston) *Shavkat Rahmon tarjimasi* 350
Sevsang, sevgilim (Uch pardali drama). *Ramz Bobojon tarjimasi*. 369
Kuz. *Ramz Bobojon tarjimasi* 434
E'tirof. *Gulbahor Said G'ani tarjimasi* 435
Fuzuliy ila suhbat. *Gulbahor Said G'ani tarjimasi* 435
Qiz qal'asi. *Gulbahor Said G'ani tarjimasi* 437
Dengiz, ko'k, muhabbat. *Gulbahor Said G'ani tarjimasi* 437
Kulmagan ko'zlar. *O'ktamoy Xoldorova tarjimasi* 440
Eng buyuk fojia qachon bo'lgaydir? *O'ktamoy Xoldorova tarjimasi* 441
Dunyo qanday dunyodir? *O'ktamoy Xoldorova tarjimasi* 441
Kim deyar? *O'ktamoy Xoldorova tarjimasi* 442
So'z. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 443
Chechak. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 444
Ko'za. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 444
Yodingga tushsin. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 445
Majnuntollar. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 445
Tingla tabiatni. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 446
Sas bering, go'zallar! *Shahlo Qosimova tarjimasi* 447
Go'zal keksaysa. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 448



SO'NMAYDIGAN SADOLAR

65-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Dildora Abduraimova*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sadoqat Beshimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 29,0. Nashriyot-hisob tabog'i 21,75.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 132-1/22 Buyurtma raqami № 22-348

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

S 99 So'nmaydigan sadolar [Matn]: nazm/to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Shahlo Qosimova. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 464 b.
ISBN 978-9943-8733-2-2

UO'K 821.512.162-3
KBK 84 (5Ozar)

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

SO‘NMAYDIGAN SADOLAR